

N. A. EGAMBERDIEVA

# ARXEOLOGIYA

darslik




63.4  
E 66

**N. A. EGAMBERDIEVA**

**ARXEOLOGIYA**

**darslik**



Toshkent – 2022





## KIRISH

Arxeologiya fani bo'yicha ushbu darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlarining 60111100 – Tarix ta'limi yo'nalishining o'quv rejasi va fan dasturi asosida bakalavr bosqichi talabalari uchun tayyorlangan.

Tarixda hech bir narsa, hodisa va voqea izsiz yo'qolmaydi. Ular haqida yozma manbalarda saqlanmasligi mumkin, lekin moddiy madaniyatda albatta iz qoladi. Shularni topish, izlash va izohlash arxeologlar vazifasi sanaladi. Shu sababdan arxeologik tadqiqot ishlari hech qachon tugallanmaydi, chunki moddiy manbalarning aksariyati yer ostida bo'lib, ularni topish mushkul va nihoyatda ko'p vaqt talab etadi.

Bugungi kunda arxeologiya sohasi nihoyatda kengayib, murakkablashib bormoqda. Uning barcha sohalarini o'rganib chiqishning o'zi murakkab. Shuning uchun arxeologlar ma'lum bir davr yoki ma'lum bir hudud bo'yicha ixtisoslashadilar. XX asrning 60-90 yillari davomida qadimgi davrni arxeologik jihatdan o'rganish keng ko'lamda davom etdi. Shimoliy Baqtriya arxeologiyasi A.Asqarov, L.I.Albaum, E.V.Rtveladze, A.S.Sagdullaev, Z.A.Hakimov, V.M.Masson, G.A.Pugachenkova, Sh.R.Pidaev, A.Abdullaev, janubiy Baqtriya hududi I.T.Kruglikova, V.I.Sariniadi, R.Bernar, A.Fushe, Samarqand Sug'di M.E.Masson, L.I.Albaum, M.Turebekov, Buxoro Sug'di arxeologiyasi A.R.Muxamedjanov, Sh.T.Adilov, Qashqadaryo Sug'di R.X.Suleymanov, qadimgi Xorazm hududi S.P.Tolstov, Ya.G'.G'ulomov, O.A.Vishnevskaya, V.N.Yagodin, B.V.Andrianov, Ye.E.Nerazik, M.A.Itina, M.G.Vorobeva, Yu.A.Rapoport, L.T.Yablonskiy, M.Mambetullaev, G'.Xodjaniyazov, A.V.Gudkova, V.A. Livshis, Tojikiston hududi M.M.Dyakonov, A.P.Okladnikov, M.M.Gerasimov, V.G.Grigorev, A.Yu.Yakubovskiy, M.P.Gryaznov, V.A.Shishkin, A.N.Bernshtam, A.I.Terenojkin, B.A.Latinin, A.M.Beleniskiy, B.A.Litvinskiylar tomonidan tadqiq qilingan. Mazkur olimlar o'z faoliyatini hududlarda tashkil qilingan maxsus arxeologik ekspeditsiyalar doirasida olib borganlar. Shimoliy Baqtriya hududini o'rganishda O'zFA San'atshunoslik institutining "O'zbek arxeologik-san'atshunoslik ekspeditsisi" faoliyati doirasida 300dan ortiq yodgorliklar o'rganilgan. Ularning tadqiqotlari natijasida Surxondaryo hududidagi kushonlar davriga oid yodgorliklar keng

o'rganildi. Ilk temir va arxaik davrlarga oid yodgorliklar O'zbekiston Milliy universitetining "Arxeologiya" kafedrasida arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan tadqiq qilingan. Janubiy Baqtriya hududida Baqtra, Oyxonum va buddizm davri yodgorliklari "Afg'onistondagi Fransuz arxeologik ekspeditsiyasi" a'zolari tomonidan, Afg'onistonning shimoliy-g'arbiy qismidagi turli davrga oid yodgorliklar 1969-1978 yillarda tashkil qilingan Sovet-Afg'on arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan tadqiq qilingan.

Janubiy Baqtriya, ya'ni Shimoliy va shimoli-sharqiy Afg'oniston hududi nisbatan kam o'rganilgan. Asosan, Yunon-Baqtriya va Kushonlar davriga oid yodgorliklar, ayniqsa budda dini bilan bog'liq ibodatxonalar keng tadqiq qilingan. XX asrning 60-70 yillarda I.T.Kruglikova, V.I.Sariniadi, P.Bernar, J.Gardin, B.Lionnet tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida ilk temir davri yodgorliklari o'rganilib, ular hududning geografik tuzilishi asosida madaniy – xo'jalik hududlarga ajratilgan.

Sug'diyonada O'zR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti ekspeditsiyalari, Zarafshon arxeologik ekspeditsiyasi, O'zbekiston Milliy universitetining "Arxeologiya" kafedrasida arxeologik ekspeditsiyalari tomonidan arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan.

Qadimgi Xorazm hududi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan o'rganilgan. Bu davrda S.P.Tolstov boshchiligidagi qadimgi Xorazm tarixi o'rganish bo'yicha katta yutuqlar qo'lga kiritilgan. Arxeologik qidiruv jarayonida aviatsiyasidan foydalanishi natijasida cho'l hududidagi ko'plab yodgorliklarni aniqlash imkoniga ega bo'lganlar. Arxeologik yodgorliklarning xaritasi ishlab chiqilgan.

XX asrning ikkinchi yarmida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida arxeologik davrlarning xronologiyasi, har bir davrning ijtimoiy tuzumi, iqtisodiyoti, xarakterli tomonlari yoritilgan.

XXI asrning boshlaridan hududlarini o'rganishning yangi bosqichi boshlandi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil rivojlanish yo'lidan borishi, chet davlatlar bilan hamkorlikning kuchayishi va ilm-fan sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar



natijasida bu davrda arxeologiya sohasida keskin o'zgarishlar ko'zga tashlangan. GIS texnologiyasi, Radar – GPR yordamida ko'plab yangi arxeologik ob'ektlar qayd qilingan. Jumladan, Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida 200 dan ortiq yodgorliklar qayd qilingan. Bu davrda shimoliy Baqtriyada E.V.Rtveladze, L.M.Sverchkov, V.V.Mokroborodov, T.Shirinov, Sh.Shaydullaev, T.Annaev, J.Annaev, N.D.Dvurechenskaya, N.A.Avanesova, I.R.Pichikyan, T.K.Mkrtichev, S.B.Bolelov, Janubiy Tojikistonda B.A.Litvinskiy, I.R.Pichikyan, A.P.Drujinina, T.U.Xo'jageldiev, Sug'diyonada M.X.Isamiddinov, T.Sh.Shirinov, S.R.Baratov, A.A.Gritsina, M.A.Gritsina, K.Raximov, R.X.Suleymanov, O.N.Lushpenko, qadimgi Xorazmda V.N.Yagodin, M.Mambetullaev, G.X.Xodjaniyazov, S.B.Bolelov, S.R.Baratov, B.I.Vaynberg, Q.Sobirov, B.Abdullaev, O'rta Amudaryo hududida V.N.Pilipko, A.A.Burxanovlar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Arxeologiya fani murakkab bo'lishi bilan bir qatorda, nihoyatda qiziqarli fan ham hisoblanadi. Yer ostida yashirilib yotgan moddiy buyumni topish, qayta tiklash va uni "gapirtirish" arxeologdan o'ziga xos mahoratni talab qiladi. Bu mahorat esa, yillar davomida shakllanib, rivojlanib, yuksak malaka va tajribaga aylanadi.

Umuman olganda, arxeologiyada tarixni tiklash ko'p vaqt, ilm, bilim va mahorat talab etsada, bu yo'lda izlanish olib borayotgan olimlari safi yildan yilga kengayib bormoqda. Ularning sa'yi-harakatlari tufayli o'tmishning ko'plab no'malum tomonlari ochilib, kashfiyotlar qilinmoqda. Bu esa, insoniyatning qo'lga kiritgan yutuqlarining samarasini ko'rsatmoqda.

## 1-mavzu. Arxeologiya faning maqsad va vazifalari

### Reja:

1. Arxeologiya fani va uning maqsad, vazifalari.
2. Tarixni arxeologik manbalar asosida davrlashtirish masalalari
3. Arxeologiyaning tadqiqot uslubi
4. Hozirgi bosqichda O'zbekiston arxeologiyasi fani oldida turgan vazifalar va muammolar.

**Tayanch soʻzlar:** arxeologiya, madaniy qatlam, shurf, davrlashtirish, makon, mozor-qoʻrgʻon, eng qadimgi davr, qadimgi davr, antik, arxaik.

Kishilik jamiyatining vujudga kelish jarayoni uzoq oʻtmishga borib taqaladi. Oʻz navbatida oʻtmishni oʻrganish, har bir davrning dolzarb masalalaridan biri boʻlib kelgan. Arxeologiya – maxsus tarix fanlardan biri, uning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi.

**“Arxeologiya”**- soʻzi yunonchadan olingan boʻlib - “ἀρχαῖος”-qadimgi, “λόγος”-fan soʻzlaridan tarkib topgan, qadimiyat haqidagi fandır. Uni dastlab, miloddan avvalgi IV asrda Aflotun “Gippiy” dialogida, qadimgi zamon haqidagi fanni nazarda tutib ishlatgan. Shu tariqa bu soʻz qadimgi Yunonistonda qoʻllanilgan va oʻtmish masalalari muhokamasi maʼnosini anglatgan. Oʻrta asrlarda arxeologiya deganda qadimgi Rim va Yunoniston tarixi tushunilgan. Vaqt oʻtgach, uning maʼno doirasi ancha oʻzgarib, kengayib borgan va tarix fanining maxsus faniga aylandi.

**Arxeologiya**—moddiy madaniyat manbalari asosida insoniyatning oʻtmishini oʻrgatuvchi fan hisoblanadi. Arxeologik manbalar tarixiy manbalarga nisbatan ancha qadimiydir. Uning ilk davri 2,5-3 million yilga borib taqaladi. Biz kishilik jamiyati tarixini 24 soat deb faraz qilsak, uning 23 soat-u 56 minuti yozma manbalarsiz davrga, 4 minuti yozma tarixga toʻgʻri keladi. Demak, kishilik tarixining juda katta davrini oʻrganish arxeologik manbalarga tayanib olib boriladi. Kishilik tarixining 99 % arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlanadi.

**Arxeologik manbalar** arxeologik yodgorliklardir, yaʼni inson tomonidan yaratilgan turar-joy qoldiqlari, odamlar yashagan gʻor va ungirlar, mehnat qurollari, sopol idishlari, sanʼat obidalari, qoyatosh rasmlari, shuningdek, moddiy materialga

bitilgan yozma manbalar ham kiradi. Arxeologlar kishilik madaniyati tarixini o'rganishda moddiy va yozma manbalarga tayanib ish ko'radilar.

Arxeologiyada qadimgi buyumlarni o'rganish birdan bir maqsad qilib olinmaydi, topilmalarni tilga kiritish va o'sha zamon nafasini tiklash arxeologiyaning asosiy maqsadidir. Shuning uchun topilmalar tarixiy tadqiqodlar uchun faqat manba sifatidagina ilmiy qimmatga ega bo'ladi. Buyumlarning yoshi, nimaga ishlatilgani, qanday uslubda yasalganini aniqlash tadqiqotning zarur tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.

**Arxeologik yodgorliklar** odamlar yashagan joylar, ibtidoiy makonlar, qishloq va shahar harobalar, qoyatosh rasmlari, istehkomlar, ibodatxonalar, mozor-qo'rg'on, qabristonlar va qadimgi sug'orish inshootlari hisoblanadi. Arxeologlar mazkur topilmalar yordamida o'sha davr manzarasini, insonlarning yashash sharoitini, jamoada mavjud udumlar va qaysi taraqqiyot bosqichida turganliklarini aniqlaydilar.

Arxeologik yodgorliklar davr va uning harakteriga qarab quyidagilarga ajratiladi:

1. Manzilgohlar; makonlar, qishloqlar, shahar xarobalari.
2. Qadimgi mozor-qo'rg'onlar, qabristonlar.
3. Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan joylar; konlar, ustaxonalar.
4. G'or va ungirlar.

Umuman, arxeologik yodgorliklar yer ostida yoki yer ustida joylashgan bo'ladi. Yer ostidagi yodgorliklarni o'rganish jarayonida arxeologlar madaniy qatlamlarga alohida e'tibor beradilar.

**Madaniy qatlam** deganda—insoniyatning turmushi, xo'jalik faoliyati izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami tushuniladi. Madaniy qatlamlar bir va bir necha o'ntagacha bo'ladi. Ularning qalinligi bir necha santimetrdan 30—35 metrgacha bo'lishi mumkin. Bu esa mazkur joyda odamlarning qancha vaqt yashaganligi bilan bog'liq. Madaniy qatlam u yoki bu qatlamlarga shurf tashlash, keyin keng ko'lamda qazish ishlari natijasida aniqlanadi.



**Shurf** aslida nemischa soʻz boʻlib, oʻzbek tilida – qaziyman, degan maʼnoni bildiradi. Shurf solish deganda yodgorliklardagi madaniy qatlam qalin-sayozligini oʻrganishga qaratilgan qazish ishlari tushunilib, madaniy qatlam bor-yoʻqligini aniqlash va yodgorliklar haqida dastlabki maʼlumotlarni olishdir. Shurf koʻpincha kvadrat va toʻgʻri toʻrtburchak shakllarida boʻlib, uning chuqurligi va kengligi madaniy qatlamga qarab, har xil chuqurlikda boʻlishi mumkin. Shurf stratigrafik xarakterga ega boʻlib, uni qazish natijasida madaniy qatlam, yaʼni inson faoliyati izlari boʻlmagan yergacha kovlab tushiladi, arxeologiyada u materik—bezovta qilinmagan yer, deb ataladi.

**Arxeologik davrlashtirish.** Oʻtmish voqealarini oʻrganishda har bir davrning oʻziga xos xususiyatlarini, tarixiy va arxeologik davrlarining sanalarini bilish va ularni ajrata olish ham zarurdir. Umuman, davrlar va sanalar tarix va arxeologiya fanining oʻzagi hisoblanadi. Ular chuqur oʻzlashtirilsagina tarixiy jarayon va voqealarni esda saqlab qolish osonlashadi, shuningdek, tarixiy voqealarni mantiqiy fikrlash jarayonida xatoliklarga yoʻl qoʻyilmaydi. Tarixiy davrlashtirishning oʻziga xos xususiyati, uning tadqiqot manбайдan kelib chiqadi. Unda maʼlum bir davrga xos boʻlgan umumiy rivojlanish xususiyatlari asos qilib olinadi.

Arxeologiyada eng qadimgi davrlarni ajratishda mehnat quollarining nimadan yasalganiga eʼtibor qaratilgan.

Tarixda **eng qadimgi davr** tarixiy va arxeologik jihatdan davrlarga ajratilib oʻrganiladi. Bu davr tarixiy jihatdan ikkita yirik davr: **“ibtidoiy toʻda”** va **“urugʻchilik jamoasi davri”**ga boʻlinadi. Oʻz navbatida urugʻchilik jamoasi 2 bosqichga: **matriarxat** (ona urugʻi) va **patriarxat** (ota urugʻi) ga boʻlinadi.

Eng qadimgi davr arxeologik jihatdan, mehnat quollari tarkibiga qarab, bir qator xronologik bosqichlarga boʻlinadi - paleolit, mezolit, neolit, eneolit, bronza va ilk temir. (1jadval)

**Qadimgi davr** mil.avv. YI asrdan milodiy IY asrgacha boʻlgan davrni oʻz ichiga olib, u 2 bosqichga boʻlinadi:

1– **arxaik davr** - mil.avv. YI–IY asrlar.

2– **antik davr** - mil.avv. IY asr oxirlaridan - milodiy IY asr.

**O'rta asrlar** davri o'z rivojlanishi jihatidan 3 ta bosqichga bo'linadi.

1– **ilk o'rta asrlar**- milodiy Y–IX asrlar

2– **rivojlangan o'rta asrlar** - milodiy IX– XVI asr boshlari

3– **so'nggi o'rta asrlar** - milodiy XVI–XVIII asrlar (I-jadval)

**Arxeologiya fani vazifalari.** Qadimiy yodgorliklar xalqlarning madaniyati, ma'naviyati, qadriyatlarini tarixidan darak beruvchi ashyoviy dalillar hisoblanadi. Shu o'rinda tarixni arxeologik yodgorliklar misolida targ'ib etish va uning tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsatish juda muhimdir. Shu bilan birga, mamlakatimiz hududida joylashgan arxeologik yodgorliklar va ulardagi topilmalar yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda, ularning qalbida ko'hna tarix va madaniyatga hurmat–ehtiram ruhini uyg'otishda katta ahamiyatga egadir. Arxeologik yodgorliklar O'zbekiston madaniy hayotini o'zida aks ettiruvchi juda muhim moddiy manba hisoblanadi.

Bugungi kunda arxeologiya fani oldida turgan muhim vazifalardan biri o'tmishning yo'qolib borayotgan izlarini izlab topish, moddiy ashyolar va tarixiy yodgorliklar yoshini aniqlash, tahlil qilish va ilmiy sistemalashtirish asosida haqqoniy tarixni tiklash, uning ochilmagan sahifalarini o'rganib, tarixdagi oq dog'larni yo'qotishdir.

O'zFA Arxeologiya institutining ma'lumotlariga ko'ra, respublikamiz hududida 1960 yilgacha 30 mingtaga yaqin arxeologik yodgorliklar bo'lgan. Ularning buzilishi va yemirilishi, ekin maydonlariga qo'shilib ketishi oqibatida 80–yillarga kelib, ularning soni 9 mingtaga tushib qolgan va 90 – yillarning o'rtalariga kelib, bu obidalarining soni bor-yo'g'i 5391 tani tashkil etgan. 2021 yildagi ma'lumotga ko'ra, arxeologik yodgorliklar 4788 tani tashkil qiladi. Qashqadaryo viloyatida eng ko'p, ya'ni 1189 ta arxeologik yodgorliklar saqlanib qolgan. O'zbekiston respublikasi bo'yicha, 2021 yildagi holatga ko'ra jami moddiy madaniy meros ob'ektlari 8208 tani tashkil qilgan. Ular orasida me'moriy inshootlar 2264 tani tashkil etgan.

Keyingi yillarda tarixiy va arxeologik yodgorliklarni o'rganish, saqlash va ta'mirlash bo'yicha anchagina ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda arxeologiya sohasida olib borilayotgan hamkorlik ishlari muxim ahamiyat kasb etmoqda.

1999 yilda O‘zbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasi San’atshunoslik institutining “San’at tarixi” va O‘zbekiston San’atshunoslik instituti bilan hamkorlikda Xalqaro Toxiriston arxeologik ekspeditsiyasi tashkil etilgan. Ekspeditsiya a‘zolari asosan, janubiy O‘zbekiston hududidagi Kampirtepa va Sho‘robqo‘rg‘on yodgorliklarida tadqiqot ishlari olib borishgan. 2001 yilda Moskva shahridagi Sharq Davlat muzeyi, 2003 yilda Rossiya Federatsiyasining I.A.Bunin nomidagi Yeles Davlat universiteti bilan hamkorlikda shartnoma tuzilgan. Shundan keyin bu ekspeditsiya Xalqaro O‘zbek-Rossiya Toxariston Arxeologik ekspeditsiyasiga aylantirilgan. Tadqiqot natijalari Toxariston ekspeditsiyasi materiallarida chop etilgan.

Keyingi yillarda O‘zbekistonning qadimgi va o‘rta asrlar davri tarixini o‘rganish bo‘yicha turli loyihalar doirasida 14 ta xalqaro qo‘shma arxeologik ekspeditsiyalar tashkil qilingan. Surxondaryo hududida Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Rossiya, Chexiya, Xitoy, Amerika bilan hamkorlikda, Xorazmda Rossiya, Qoraqalpog‘iston Respublikasida Avstraliya, Samarqandda AQSh, Xitoy, Fransiya, Rossiya, Italiya va Yaponiyaning arxeologik olimlari hamkorlikda tadqiqot ishlarini olib borishmoqda.

DAFA olimlari tomonidan Janubiy Baqtriya hududidagi bronza, ilk temir, axamoniylar va kushonlar davri tarixi tadqiq qilinmoqda. Bunda Bamiyon, Begram, Xadda, Surx-Ko‘xtal, Oyxonum kabi yodgorliklarni o‘rganishda ularning o‘rni alohida ahamiyat kasb etgan. Tokiodagi «Ipak yo‘li» xalqaro Akademiyasi kushonlar davri tarixini keng tadqiq qilish uchun Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa yodgorliklari tadqiqot ishlari olib borganlar. Nyu-York universiteti olimlari bilan Buxoro viloyatidagi Kanpir devor va u bilan bog‘liq yodgorliklar o‘rganilib, mamlakatimiz hududidagi qadimgi voha devorlari xususiyatini o‘rganish imkoniyatini yaratdi.

Germaniyaning Arxeologiya instituti ilmiy hodimlari bilan O‘z FA Arxeologiya instituti ilmiy xodimlari hamkorlikda Samarqand viloyatidagi Karnab qishlog‘idan bronza davriga oid qalay ishlab chiqarish markazida keng tadqiqot ishlarini olib bordilar. Bu esa, qalay qazib olish va undan idish, qurol yasash



texnologiyasini ajdodlarimiz bronza davridan o'zlashtirganliklari va uni boshqa hududlarga ham yetkazib berganliklari asoslab berildi.

Rossiya Davlat Ermitaj Muzeyi bilan hamkorlikda Buxorodagi Poykent shahri tadqiq qilinmoqda. Italiyaning Bolonya Universiteti bilan hamkorlikda Zarafshon vohasi hududidagi qadimgi irrigatsiya tizimi, tarixiy topografiya, urbanizatsion jarayonlar tadqiq qilinmoqda. Zarafshon vohasida 1000 ga yaqin yodgorliklar aniqlanib, ulardan 540 tasi o'rganildi.

Fransiya ilmiy tadqiqotlar Milliy Markazi (CNRC) bilan hamkorlikda Afrosiyob, Ko'qtepa, eski Termiz, Chingiztepa yodgorliklari o'rganilgan. Qadimgi davr dafn marosimlari va shaharsozligining rivojlanishi bo'yicha yangi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Rim universitetining «O'rta Osiyo va Hindiston departamenti» olimlari Buxoro viloyatida, Rossiya olimlari Surxondaryo, Xorazm hududlarida, Sidney universiteti olimlari Qoraqalpog'iston hududlarida arxeologik tadqiqot ishlarini olib borib, qadimgi davrga oid ko'plab yangi yodgorliklarni aniqladilar. Qadimgi Xorazmning mil.avv. IV asrga oid Oqshaxonqal'a yodgorligining ibodatxonasidan xorazmshohlarning portretlari va tabiat tasvirlangan rangli devoriy suratlar topildi. Shohlarning portretlari ostida qadimiy xorazm yozuvi izlari ham aniqlandi. Bugungi kunda bu yodgorlikda O'zbekiston FA Qoraqalpog'iston bo'limi Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti bilan Avstraliyaning Sidney universiteti arxeolog olimlari hamkorlikda tadqiqot ishlari olib borilmoqdalar.

Jaxon miqyosida moddiy va nomoddiy madaniy merosni saqlash borasida YuNESKO (Birlashgan Millatlar tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkilot) muhim faoliyat olib bormoqda. YuNESKO 1946 yilda tuzilgan bo'lib, bugungi kunda unga 193 ta mamlakat a'zo. O'zbekiston bu tashkilotgan 1993 yil 26 oktyabrda a'zo bo'lgan. 1972 yilda YuNESKO Butunjahon madaniy va tabiiy merosni saqlash bo'yicha konvensiyani qabul qilgan. U 1975 yildan kuchga kirgan bo'lib, 1977 yildan buyon har yili Butunjahon merosi komiteti tomonidan sessiya o'tkazilib kelinadi. Unda moddiy va tabiiy meroslarni saqlash, targ'ib qilish kabi

masalalari muhokama qilinadi. Moddiy va tabiiy merosni YuNESKO ro'yxatiga kiritish uchun 10 mezon ishlab chiqilgan.

2003 yilda YuNESKO nomoddiy merosni saqlash bo'yicha konvensiya qabul qilgan. Nomoddiy merosga xalqlarning urf-odatlarini, an'analarini, musiqa, raqs, hunarmandchilik va turli festivallarni kiradi. 2021 yil holatiga ko'ra, jahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to'g'risidagi YuNESKO konvensiyasining a'zo 167 ta davlatda 1154 ta ob'ekt bo'lib, ulardan 897 tasi madaniy, 218 tasi tabiiy va 39 tasi aralash ob'ektlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 4 qadimiy shahri madaniy ob'ekt sifatida va bittasi – G'arbiy Tyan – Shan (Chotqol qo'riqxonasi 2016 yilda) tabiiy ob'ekt sifatida YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan:

№	Madaniy ob'ekt nomi	kirgan yili
1	Ichan-qal'a, Xiva shahri	1990
2	Buxoro shahrining tarixiy markazi	1993
3	Shahrisabz shahrining tarixiy markazi	2000
4	Samarqand - madaniyatlar chorrahasi	2001

YuNESKO ro'yxatiga kiritilgan 10 ta nomoddiy madaniy meros ro'yhati:

№	Madaniy ob'ekt nomi	kirgan yili
1	Shashmaqom	2008
2	Boysun tumanining madaniy makoni	2008
3	Navro'z	2009
4	katta ashula	2009
5	Askiya	2014
6	Palov madaniyati va an'analarini	2016
7	Marg'ilon hunarmandchiligi	2017
8	Xorazm "Lazgi" raqsi	2019
9	Miniatur san'ati	2020
10	Baxshichilik san'ati	2021

(YuNESKO ro'yxatida xavf ostidagi ob'ektlar mavjud bo'lib, Shaxrisabz tarixiy markazida 52 ob'ekt shular qatoridan joy olgan. Bugungi kunda bu yodgorliklarni regeneratsiya qilish ishlari boshlangan.

YuNESKOning "dastlabki ro'yhati" qatoridan O'zbekistonda 33 ta ob'ekt joy olgan. Bunday "dastlabki ro'yxat" kelgusida Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritish uchun shakllantiriladi. Jahonda bunday ob'ektlar soni 1727 tani tashkil etadi.

Bular quyidagilar:

1. Abdullaxon Bandi (18.01.2008);
2. Axsikent (18.01.2008);
3. Oq Ostonabobo (maqbarasi) (06.01.1996);
4. Qadimgi Pop (18.01.2008);
5. Qadimgi Termiz (18.01.2008);
6. Andijon (18.01.2008);
7. Arab-Ota maqbarasi (18.01.2008);
8. Bahouddin Naqshband kompleksi (18.01.2008);
9. Boysun (18.01.2008);
10. Chashmai-Ayub (18.01.2008);
11. Chor-Bakr (18.01.2008);
12. Turonning qishki sovuq cho'llari (29.01.2021);
13. Shayx Muxtor Valiy majmuasi (maqbara) (01.06.1996);
14. Qadimgi Xorazmning cho'l qal'alari (18.01.2008);
15. Hisor tog'lari (18.01.2008);
16. Pilla tarixiy markazi (18.01.2008);
17. Kanka (18.01.2008);
18. Xonbandi (to'g'on) (06.01.1996);
19. Hazorasp (18.01.2008);
20. Vobkentdagi minora (18.01.2008);
21. Mir-Said Bahrom maqbarasi (18.01.2008);
22. Poykent (18.01.2008);
23. Karvonsaroy Raboti Malik (18.01.2008);
24. Sarmishsoy (18.01.2008);
25. Shohruhiya (18.01.2008);
26. Shohimardon (18.01.2008)
27. Siypantoshning qoyatosh rasmlari (18.01.2008)
28. Varaxsha (18.01.2008);
29. Zomin tog'lari (18.01.2008);
30. Zarautsoy qoyatosh rasmlari (18.01.2008);
31. O'zbekistondagi Ipak yo'lining diqqatga sazovor joylari (2010 yil 19 fevral)



32. Ipak yo'li: Zarafshon–Qoraqum  
yo'lagi (18.01.2021);

33. Toshkent mahallalari  
(30.12.2021).


### **Mavzuni mustahkamlovchi savollar:**

1. Arxeologiya so'zining ma'nosi nima?
2. Arxeologik manbalar qanday turlarga bo'linadi?
3. Arxeologik yodgorliklar nima va ularning qanday turlari bor?
4. Arxeologiya fani nimani o'rganadi?
5. Arxeologik davrlashtirishning o'ziga xos tomonlarini tushuntiring?
6. Arxeologiya fanining asosiy vazifalari nimadan iborat?
7. Arxeologiya moddiy manbalarni qanday o'rganadi?
8. Madaniy qatlam nima?
9. O'zbekistonda qaysi davlatlar bilan hamkorlikda arxeologik tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.
10. O'zbekistondagi qaysi ob'ektlar YuNESKO ro'yxatiga kirgan?

### **Yodda tuting!**

- Arxeologiya—moddiy madaniyat manbalari asosida insoniyatning o'tmishini o'rgatuvchi fan.
- Arxeologik manbalar – insonlar tomonidan yaratilgan moddiy buyumlar.
- Arxeologik yodgorliklar yer ostida va yer ustida bo'lib, ular ibtidoiy odamlar yashagan makonlar, qishloq, shahar harobalari, qoyatosh rasmlari, istehkomlar, ibodatxonalar, mozor-qo'rg'onlar, qabristonlar va qadimgi sug'orish inshootlaridir.
- Madaniy qatlam insonlarning xo'jalik faoliyati izlari saqlanib qolgan tuproq qatlamidir.
- Shurf – “qaziyman” degan ma'noni anglatadi. U orqali madaniy qatlam aniqlanadi, yodgorliklar haqida dastlabki ma'lumotlar olinadi.

# Тарихий даврлаштириш



1-jadval

## 2-mavzu. Paleolit davri va uning yodgorliklari

Reja:

1. Ilk paleolit davri va uning yodgorliklari
2. O'рта paleolit davri va uning yodgorliklari
3. So'nggi paleolit davri uning yodgorliklari

**Tayanch so'zlar:** paleolit, olduvay, ashel, muzlik davri, neandertal, chopper, chopping, abbivel, Selungir, muste, Teshiktosh, nukleus, Xo'jakent, Ko'lbuloq, kromanon, Samarqand makoni, Siyobcha makoni.

### 1. Ilk paleolit davri va uning yodgorliklari

Insoniyat taraqqiyotida eng uzoq davom qilgan davr - qadimgi tosh davri – paleolit hisoblanadi. “Paleolit” so‘zi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, “paleos”– “qadimgi”, “litos”–“tosh”, ya‘ni qadimgi tosh davri degan ma‘noni beradi. Paleolit davri xronologik jihatidan 3 million yillikdan to 12 ming yillikkacha davom qiladi va uch davrga– ilk, o‘rta va so‘nggi davrlarga bo‘linadi.

Paleolit davri bosqichlari						
Ilk paleolit		O'rta paleolit-		So'nggi paleolit-		
2,6 mln-100 ming yy		100-40 ming yy.		40-12 ming		
Olduvay	Ashel	Must'e	Levallua- must'e	Orin'yak	Solyutre	Madlen

Ilk paleolit davriga oid Abbevil yodgorligi Fransiyaning Sena daryosi qirg'oqlaridan topilgan. U yerda 1835 yilda M.Pikar dastlabki tosh quollarini topgan. Keyinchalik Bushe de Pert tadqiqot ishlarini olib borgan. 1932 yildan F.Breyl Fransiyaning ilk paleolit davrini Abbevil davri deb nomlagan.

Ilk paleolit davrida mehnat qurollari tosh, suyak va shoxlardan yasalgan. Ulardan faqat tosh qurollargina bizgacha yetib kelgan. Olduvay bosqichida odamlar eng primitiv usulda yasalgan **qo'l cho'qmor- chopper**dan foydalanganlar. Mazkur qurollarni yasash uchun odamlar qulay shaklga ega bo'lgan (ko'proq yapaloq shakldagi), ishlov berganda o'tkir va uzoq vaqt ishlata oladigan tosh turlarini tanlab qurol yasaganlar. Olduvay darasidan topilgan tosh qurollari asosan kvarsitdan ishlangan. Bu davrda qayroqtosh ham ishlatilgan. Toshdan qurol yasashda toshning uch qismi qattiqroq tosh yordamida uchirilgan. Qo'l cho'qmorlari odatda bir tomoni bodomga yoki yurakka o'xshab, to'mtoq bo'lgan, lekin uni qo'l bilan ushlash qulay bo'lgan. Ikkinchi, qarama-qarshi tomoni esa, bir tomoni o'tkir uchli qilib ishlangan. Bu qurol yordamida kesish, chopish, kovlash mumkin bo'lgan. Ibtidoiy odamlar shu qurollar yordamida ov qilganlar, ildiz kovlaganlar, go'shtni maydalaganlar, terilarni shilganlar. Tadqiqotchilarning fikricha, **qo'l cho'qmorlari bundan 2,6 mln yil ilgari paydo bo'lgan.** Ilk qo'l cho'qmori Tanzaniyadagi Olduvay darasidan topilgan. Bunday qurollar Efiopiyaning Kada Gona, Keniyaning Lokaleley 1, Janubiy Afrika hududlaridan topilgan. Olduvay darasidan 1 mln 800 ming yil oldin bazalt toshlan ishlangan chopper ham topilgan.

Olduvay davri odamlari termachilik va yirik hayvonlarga to'da-to'da bo'lib xujum qilib, ovchilik bilan shug'ullanganlar. Odamlarning to'da bo'lib yurishlari ularni turli tabiat hodisalaridan va yirtqich hayvonlardan himoya qilgan. Bu davr odamlari

tabiatga to'la qaram bo'lib, uy-joy qurilishini ham, olovdan foydalanishni ham bilmaganlar. Yirtqich hayvonlardan oddiy va dag'al qurollar bilan himoyalanganlar. Tabiat ham insonlar yashashi uchun qulay, issiq bo'lgan.

Bundan 1,7–1,6 mln yil ilgari ikki tomoniga ishlov berilgan qo'l cho'qmori-choppingdan foydalana boshlanganlar. Bunday qurol dastlab Fransiyaning Sent –Ashel makonidan topilgani uchun ashel davri deb ataladi. Bunday qurollar dastlab Afrika hududida paydo bo'lgan. Old Osiyoda 1 mln oldin, Yevropa hududida 750 ming yil oldin tarqalgan, O'rta Osiyoning Selungir makonidan topilgan. Uzoq Sharqda esa, bunday makonlar deyarli topilmagan.

Ashel davriga kelib odamlar birmuncha taraqqiyot darajasiga erishganlar. Endi kishilar turli tog', daryo jinslari, asosan chaqmoqtoshdan qurol yasashni o'rgana boshlaganlar. Qurollarni ishlash texnikasi birmuncha takomillashgan. Chaqmoqtosh qo'l cho'qmorining ikkala tomoniga ham qo'pol kertish yo'li bilan ishlov berilgan. Kertish davomida vujudga kelgan turli uchrindilardan turli narsalarni kesishda foydalanganlar. Uchrindilarning qirra tomonlari mayda kertish usuli bilan o'tkirlangan va keskich asboblari sifatida foydalanilgan. Uchburchaksimon tosh uchrindilariga ko'proq ishlov berilgan.

Asta–sekin tosh quollarining turi ko'paya boshlagan. Dastlab sixcha va qirg'ichsimon qurollar vujudga kelgan. Tosh sixcha qurollardan yog'och qurollar yasashda va ovda nayza tig'i sifatida foydalanilgan bo'lsa, qirg'ichlardan kiyim–kechak uchun hayvon terilariga ishlov berishda foydalanganlar.

Ashel davri oxiriga kelib havo keskin ravishda sovugan, muzlik davri boshlangan. Yevropa hududini muzlik qoplagan, tropik o'lkalarda esa, plyuvia davri (“plyuvia” lotincha so'z bo'lib –“yomg'ir” degan ma'noni beradi) boshlangan.

Geolog va arxeologlar yer yuzida 4 muzlik davri – gins, mindel, riss, vyurm muzliklari bo'lganligini aniqlashgan. Bu nomlar muzlik yotqiziqdari aniq saqlangan to'rtta alp qishlog'i nomidan olingan. Muz bosish sabablari to'g'risida hali aniq fikrlar aytilmagan. Gins va mindel muzligi kengligi O'rta Yevropagacha borib yetgan. Eng keng hududni egallagan muzlik davri Riss muzligi hisoblanib, uning markazi Grenlandiya bo'lgan. Muzlik Amerika qit'asida nihoyatda katta hududni, butun



Yevropa hududini egallagan. Muzliklar paleolit davrida qalinligi 1, 2 km va undan ortiq bo'lib goh kengayib, goh torayib turgan. Muzlikning siljishi jarayonida muzlik yotqiziq-lari vujudga kelgan va u morenalar deb atalgan. Uning ichida gil, qum qatlamlari, harsang tosh va shag'allar bo'lgan. Vyurm bosqichida muzlik keng hududlarni egallamagan.

Bu davrda O'rta Osiyoning tog'li zonalarida muzliklar hosil bo'lgan. Pasttekisliklarda esa yomg'irlar uzluksiz yog'ib, ko'l va daryolar hosil bo'lgan. Havo goh sovub, goh iliq bo'lib turgan.

Odamlar tabiiy sharoitga moslashib, boshpana sifatida g'orlarni o'zlashtirganlar va tabiiy olovdan foydalana boshlaganlar. Ibtidoiy odamlar barcha g'orlarda ham yashamaganlar. Odatda tagi tuproqli, quyosh nuri tushadigan, buloq suvi yaqin, ovchilik va termachilik qilishga qulay g'orlarda yashaganlar. Olduvay davri makonlariga ko'ra, ashel davri makonlari ko'proq topilgan. Bu davr odamlarining u davrga nisbatan ko'paya boshlaganidan darak beradi. Termachilikning ahamiyati pasayib, ovchilik ahamiyati oshgan.

Yashash uchun kurash odamlarni birlashtirgan. Bir tomondan yirik hayvonlarni to'da bo'lib ovlash zarur bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan g'orlarni o'zlashtirish jarayonida u yerdagi yiritqich hayvonlarni haydash va ulardan himoyalani-sh zarur bo'lgan.

Ilk paleolit davri makonlari G'arbiy Yevropa, Afrika, Janubiy Osiyo, Armaniston, O'rta Osiyo, Qozog'iston, Xitoy hududlaridan topib o'rganilgan. O'rta Osiyo va Qozog'istonning 20 dan ortiq joyidan topilgan. Jumladan, Turkmanistonda Yangadja, Tojikistonda Onarcha, Qizilqala, Qayroqqum, Ko'hipiyoz, Qirg'izistonda Xo'jago'r, Uchqo'rg'on, Farg'ona vodiysida Selungur, Ko'lbuloqning quyi qatlami va boshqalar.

O'zbekiston hududidan ashel davriga oid yodgorliklarni o'rganishda U.Islomov, K.A.Kraxmal, M.Qosimov, T.Omonqulovlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

**Sel- Ungur makoni**— Farg'ona vodiysi hududidagi ashel davriga oid eng noyob makon. Selungur g'ori Farg'ona shahridan janubiy—g'arbda Haydarkonning g'arbiy chekkasida, janubiy Qirg'izistondagi Batken viloyatidagi

Aydarkon shahrining g'arbiy tomonidagi Eshme-Too tog'i etagida joylashgan. Sel-Ungur g'ori 30-40 metr balandlikda joylashgan. G'orning balandligi 25 metr, kengligi 20 metr, chuqurligi 50 metrga yaqin. Yodgorlik dastlab, 1958 yilda akademik A.P.Okladnikov tomonidan o'rganilgan va u yerdan bir necha tosh uchrindilar topilib, ularning yoshi so'nggi paleolit davriga oid deb belgilagan. 1980 – 1988 yillarda arxeolog O'.Islomov boshchiligidagi O'zR FAga qarashli Arxeologiya institutining paleolit otryadi Sel - Ungur makonni qayta tekshirdi. Tadqiqotlar davomida 7 metr chuqurlikda o'rtacha qalinligi 20-40 sm dan iborat 5 ta madaniy qatlam aniqlandi. Madaniy qatlamlardan toshdan yasalgan mehnat qurollari: qo'l cho'qmori, to'mtoq boltalar, pichoqsimon qurollar, ko'plab tishli qurollar, qush tumshug'iga o'xshash qurollar qazib olingan. Beshinchi qatlamdan ashel davriga mansub qo'l cho'qmori topildi. U ajdodlarimiz ishlatgan ilk quroldir. U nayzasimon shaklga ega bo'lib, qizil yashma toshdan tayyorlangan.

Makonning eng muhim topilmalari bo'lgan odam suyaklari 3- va 2-qatlamlardan topilgan. U yerdan odamning yelka suyagining bir bo'lagi, bosh suyagi engak qismining bir bo'lagi, 14 ta tish topilgan. Antropologlar ularni tadqiq qilib, ashel davrida yashagan arxantropalar deb topdilar. Selungur odamining yashash davri va uning tuzilishi to'g'risida munozaralar hali tugagan emas. Bu yerda topilgan tishlar 4ta shaxsga mansubligi aniqlangan. Shulardan biri pastki tish bo'lib, 40 yoshlardagi ayolniki degan fikrga kelingan. Selungur odami o'ziga xos tuzilishga ega. U arxantropalar va poleantropalar o'rtasida oraliq masofani egallaydi. Unda arxaik tuzilishning saqlanishi olimlar fikricha, dag'al o'simliklar bilan oziqlanganligidir. Antropolog A.Zubov fikricha esa, u arxantropalarning maxalliy turidir. Olimlar uning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatish uchun unga Ferganatrop deb nom berdilar. Mazkur odam olovdan foydalangan, ovchilik va termachilik bilan shug'ullangan. Ferganatropning topilishi O'rta Osiyoning ilk paleolit davrida o'zlashtirilganligini ko'rsatdi.

Sel-Ungur makonining yoshini aniqlashda ham ilgari olimlar uni bundan 800-ming yillar oldin yashagan degan umumiy xulosani bergan edilar. Lekin keyingi davrlarda arxeologlar K.Kraxmal va O'.Islomovlarning olib borgan tadqiqotlari va bu

ishga ko'pgina soha mutaxassislarini jalb qilinishi natijasida makonning yoshini 1,2 mln yil deb belgilangan. 2014-2016 yillarda "Rossiya-Qirg'iziston-Germaniya" halqaro ekspeditsiyasi tadqiqotlari natijasida esa, bu odamning yoshini 126 ming ilgari, ya'ni so'nggi ashel davrida yashagan deb xulosa bergan.

Makondan 1350 ga yaqin turli hayvonlarga tegishli suyaklar topilgan. Ular sutemizuvchilarning 15 turiga mansub: kiyik, buqa-tur, ot, jayron, qo'chqor, quyon, ayiq, sirtlon, tulki, kemiruvchilar va qushlarning bir qancha turlari. Suyaklar orasida kiyik, tur va jayronning shoxlari ham aniqlangan.

**Qo'lbuloq makoni** –Angren shahridan 10-12 km g'arbda Qizilolma soyining o'rta oqimidagi qirlikda joylashgan. Bu makon 1963 yilda topilgan.

Ko'lbuloq ochiq tarzdagi ko'p qatlamli makon. Hozirgacha uning 19 m chuqurlikkacha bo'lgan joyida tadqiqot o'tkazilib, ilk, o'rta va so'nggi paleolit davrlariga oid ashyolar topib o'rganildi. U yerdan topilgan nukleuslar, paraqalari, qo'l cho'qmorlari, sodda tosh qirg'ichlarning ishlanish texnikasi o'ziga xosdir. Shuningdek, bu yerdan kul, ko'mir qoldiqlari va har xil hayvon suyaklari topilgan Ko'lbuloqda istiqomat qilgan odamlar ovchilik, termachilik bilan hayot kechirganlar.

Mustaqillik yillarida ilk paleolit davrini o'rganishda ko'plab yutuqlar qo'lga kiritildi. 1994-1995 yillarda O'zbekiston – Rossiya, 2007- 2010 yillarda O'zbekiston-Rossiya-Belgiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari tadqiqot ishlarini olib borganlar. 10.000 ga yaqin birlamchi va ikkilamchi ishlov berilgan tosh qurollar o'rganildi. 2003 yilning 3 oktyabrida Ko'lbuloq makoni moddiy manbalari asosida Xalqaro ilmiy konferentsiya o'tkazildi. Hozirgi kunda Ko'lbuloq makoniga davlat tomonidan muhofaza etiladigan «Tarixiy qo'riqxon» maqomi berilgan.

## **2. O'rta paleolit davri va uning yodgorliklari**

O'rta paleolit davri ilmiy adabiyotlarda muste davri deb nomlanadi. Bu davrga oid moddiy yodgorliklar dastlab Fransiyaning Muste g'or makonida topilgani uchun shunday nom olgan. O'rta paleolit davrining avvalgi xronologiyasi mil.avv. 100–40 ming yilliklar edi.

Oʻrta paleolit davri yodgorliklari jahon fanida muste va levallua–muste (rivojlangan davri) bosqichlariga ajratib beriladi. Oʻzbekiston arxeologiyasida ham shu boʻlinishlar qabul qilingan boʻlsa–da, tadqiqotchilar oʻrta paleolit davrining mahalliy oʻziga xos jihatlari, yaʼni toshni paraqalashdagi oʻziga xos texnikaviy uslub asosida, uning 4 ta mahalliy guruxini ajratib koʻrsatadilar: muste, levallua, levallua–muste, soan. Oʻrta paleolit davrida ibtidoiy odamlar hayoti nihoyatda ogʻir kechgan. Bu davrda yer yuzida muzlik davri boʻlgan. Ibtidoiy odamlar sovuqqa moslashish uchun avvalgi turmush tarzini oʻzgartirishga majbur boʻlishgan. Sovuqdan himoyalani, gʻorlarni oʻzlashtirganlar. Hayvon terisidan kiyim tikib kiyganlar va gulxan atrofida jon saqlaganlar. Termachilikning ahamiyati pasayib ketgan. Ovchilikning insonlar tirikchiligida ahamiyati oshgan. Bu esa ov uslublarini va quollarini takomillashtirishni taqozo etgan. Ular toʻda - toʻda boʻlib yurib, olov bilan hayvonlarni yo jarlikka, yo gʻor ichiga haydab tutganlar. Toshni qayta ishlash texnikasi takomillashgan. Ixcham quollar yasay boshlaganlar. Bu davr tosh quollarining 60 dan ziyod turlari aniqlangan. Ular orasida oʻtkir uchli quollar va tarashlagichlar keng tarqalgan.

Oʻrta paleolit davrida tosh qurolni ishlashda yangi usul **yorma texnikadan** foydalanganlar. Bunda qurol yasaladigan chaqmoqtoshning bosh tomoni urib, tekis maydoncha hosil qilinib, shu maydoncha orqali toshning mayda paraqalari ajratib olingan. Toshdan barcha paraqalar olingach, uchirib boʻlmaydigan oʻzak qolgan. Bu oʻzak **nukleus** deb atalgan. Muste davri uchun disksimon nukleuslar va uch burchakli tosh paraqalari harakterli boʻlgan. Tosh paraqalar yogʻoch yoʻnish, teri ishlash, qurol va kiyim tayyorlashda qulay hisoblangan. Nayzasimon tosh quroldan asosan erkaklar yogʻoch qirqich, yoʻnish, hayvon oʻldirishda foydalanganlar. Tosh qirqichlardan esa ayollar teri shilish, yopinchiqlar tayyorlashda ishlatishgan. Toshdan oʻroqanda yasashgan, undan daraxt poʻstini shilish va randalash quroli sifatida foydalanishgan. Oʻroq randa - chaqmoqtosh plastinkasidan iborat boʻlib, tigʻi keng yoysimon qilib oʻyib ishlangan. Oʻrta tosh davri odamlari qumtosh yoki ohaktoshdan sharlar yasab, hayvonlarni ovlashda foydalanganlar. Ularni uzun tasma uchiga juft qilib bogʻlab, hayvonlarni



oyog'idan ilintirganlar. O'rta paleolit davri odamlari hayotida olov muhim o'rin egallagan. Ular hayvon go'shtini gulxanda pishirib, iste'mol qilganlar, bu ularning jismoniy va aqliy rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Shuningdek, olov ularni sovuqdan va yirtqich hayvonlardan himoya qilgan. Shu sabab olovni saqlash masalasi ko'ndalang bo'lgan. Insoniyat olovdan foydalanishni o'rganganidan buyon tabiiy olovdan foydalanib kelgan, lekin o'rta paleolit davrida **sun'iy olov** chiqarishni o'rganib olganlar. Ular yog'ochni bir bir-biriga ishqalash natijasida olov chiqarganlar. Bu nixoyatda ko'p mehnat talab qilgan. Yog'ochni yog'ochga uzoq vaqt qattiq ishqalagandan so'ng juda mayda kipik hosil bo'lgan, u qizib tutay boshlagan, puf lab alanga oldirilgan. O'rta paleolit davri yodgorliklarida ko'plab gulxan qoldiqlari topilgan. Odamlar o'tin bilan birgalikda hayvon suyaklarini ham yoqqanlar.

O'rta paleolit davrida **neandartal** tipdagi odam yashagan. Bu davr odami dastlab Germaniyaning Neandertal vodiysidan topilgani uchun ham shu nomni olgan. U ilk paleolit odamidani ancha farq qilgan. Uning bo'yi past peshonasi tor va nishab, qosh ustidagi suyaklari qalin, yonoq suyaklari chiqib ketgan, iyagi nihoyatda kichkina, tizzalari sal bukilgan, 2 oziq tishi bo'rtib chiqqan, qo'l panjalari kalta va yo'g'on bo'lgan. Bosh miyasining hajmi 1200-1400 sm ni tashkil etgan. Xuddi shunday tipdagi odam 1938 yili A.P.Okladnikov tomonidan Teshiktosh g'oridan topilgan.

O'rta paleolit davri yodgorligi O'zbekistonda dastlab 1938 yilda Teshiktoshda topilgan. Hozirgi kunda esa O'rta Osiyo hududi bo'yicha ularning soni 300 dan ortgan. Ulardan 50 dan ortiq makon keng o'rganilgan. Lekin hozirgacha Teshiktosh makoni o'zining qadimiyligi va arxeologik materiallarga boyligi bilan ajralib turadi.

Muste bosqichi tosh davrining boshqa davrlariga nisbatan keng o'rganilgan. Bu davrga oid makonlarning tadqiq qilinishi o'rta paleolit davri xo'jalik madaniy hayotining barcha tomonlarini yoritdi. Bu davr O'.Isломov, K.Kraxmal, A.Okladnikov, V.Ranov, M.Qosimov, R.Sulaymonov, T.Mirsoatov, N.Toshkenboev, Z.Abramova va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

O'zbekistonda keyingi davrlarda muste davriga oid ko'plab makonlar topib tadqiq qilingan. Faqatgina Toshkent vohasining o'zidan 30dan ortiq yodgorlik topilgan. Lekin muste davrining ko'pgina topilmalari tuproq qatlamlarida sochilma holda topilgan. Chunki adir va tekisliklardagi manzilgohning keyingi davrlarda buzilib ketishi natijasida madaniy qatlamlar yo'qolgan yoki tabiat ta'sirida yuvilib ketgan. Moddiy buyumlar esa tuproq qatlami tashqarisida topilgan va arxeologlar tomonidan qayd qilingan. Muste davri yodgorliklarining to'liq madaniy qatlamlari ko'proq g'or-makonlarda saqlanib qolgan. Ular Zarafshon vohasi va Qizilqum hududlaridan ham ko'plab topib tadqiq qilingan. Boysun tog'i mintaqasidan Teshiktosh g'or-makoni, Amir Temur g'ori, Toshkent vohasidan Obiraxmat, Xo'jakent, Bo'zsuv, Ko'lbuloq makonlari, Farg'ona vodiysidan Jarqo'ton, Bo'ribuloq, Tomchisuv manzilgohlari, Zarafshon vohasidan Omonqo'ton, Go'rdara, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Takalisoy g'or makonlari, shuningdek Uchtut-Vaush-Ijond va Qopchig'oy ustaxonalaridir.

**Teshiktosh g'or-makoni** Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi Boysun tog'ining janubiy yon bag'ridagi Zavtalashgan dasida joylashgan. G'or 1938–1939 yillarda A.P.Okladnikov tomonidan tekshirilgan. 5 ta madaniy qatlamdan toshdan yasalgan mehnat qurollari, uchrindi tosh qurollar, turli shakldagi nukleuslar, o'tkir uchli tosh nayzalar, tosh pichoqlar, paraqalar, sixcha, qirg'ich, kurakcha, chopper, chopqi va hokazolar topilgan. Teshiktoshdan topilgan mehnat qurollarning aksariyati qirquvchi va tarashlovchi vazifalarni bajargan. Bu yerdan yana faqat neandertal odamiga xos disksimon nukleuslardan (o'zaklar) bir necha nusxa topilgan. Ularning diametri 10–15smni tashkil etgan. Uchrindi toshlardan terilarga ishlov berish, yog'ochlarni kesish, randalash kabi ishlarda foydalanganlar. Bunday mehnat qurollar eng ko'p Teshiktoshdan topilgan.

Teshiktosh g'orining eng qimmatli topilmasi odam suyagi qoldiqlarining topilishidir. U eng pastki madaniy qatlamdan topilgan. U chalqanchasiga yotqizilib, ustiga qizil oxra sepilgan holda ko'milgan. Qabri atrofida arhar shohlari terilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu diniy e'tiqod bilan bog'liq.

1938 yilda antropolog G.Gerasimov, uni o'rganib, 9 yoshli neandertal bola deb xulosa bergan. 1970 yillarda bu odamni antropolog A.Alekseev ham o'rgangan.

Neandertal odamning 2003-2004 yillarda qilingan maxsus taxlili , uning ilk xomo sapines (homo sapiens) odami ekanligini ko'rsatdi.

G'ordan gulxan izlari, uning atrofida tog' echkisi, bug'u, yovvoyi ot, ayiq, sirtlon (giena), leopard, bars, quyon, kemiruvchilar va parrandalarning suyak qoldiqlari topilgan. Teshiktoshliklar ovchilik bilan birga termachilik bilan shug'ullanishgan.

**Amir Temur g'ori** Boysun tog'i mintaqasidan muste davriga oid makon sanaladi. U Teshiktoshdan uncha uzoqda bo'lmagan yerda joylashgan. Yodgorlik 1939 yilda A.P.Okladnikov tomonidan o'rganilgan. U yerdan 3 ta madaniy qatlam topilgan. 1–2– madaniy qatlamlar so'ngi tosh davriga oid bo'lib, faqat 3–madaniy qatlamdan topilgan tosh qurollar Teshiktoshning yuqori qatlamidan topilgan muste davri qurollariga o'xshaydi. U yerdan gulxan qoldig'i, pista ko'mir, qo'pol ishlangan qirg'ich, gardishsimon nukleus, siniq uchrindi va boshqa buyumlar topilgan. Shuningdek, yovvoyi ot, bars, ayiq, sirtlon, quyon, kemiruvchi va qushlarning suyaklari topilgan. G'orda yashagan kishilar ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar. A.P.Okladnikov fikricha, bu makon mavsumiy harakterda bo'lgan va tosh qurollarini ishlab chiqarish ham Teshiktoshga nisbatan ancha farq qilib, ular birmuncha takomillashgan.

**Obirahmat g'or makoni** Toshkent shahridan 100 km shimoli—sharqda, G'arbiy Tyan—Shanning Chotqol tizmasidagi Paltov soyining yuqori sohilida joylashgan. G'or yoysimon shaklda bo'lib, eni 20 metrdan ortiqroq, janubga qaragan, sathi keng, quruq va yorug'. G'or–makon 1966–1972 yillarda R.X.Sulaymonov tomonidan o'rganilgan. U mustening rivojlangan va so'nggi bosqichlariga oid.

Unda 10 m qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan. Ulardan 30 mingdan ortiq ohaktoshli chaqmoqtoshdan yasalgan turli mehnat qurollari–nukleuslar, paraqalar, o'tkir uchli sixchalar, qirg'ichlar, pichoqlar va kurrakchalar topilgan. Ular o'ziga xos prizma shaklidagi yorma texnika, qisman levallua tipidagi texnika asosida ishlangan. G'ordan hayvon suyagidan ishlangan bigizlar ham topilgan. Shuningdek, gulxan izlari, kul, ko'mir, bug'u, tog'

echkisi, to'ng'iz, jayron, g'or sheri, arhar va boshqa hayvonlarning suyaklari ham topilgan. Bu yerda odamlar 120—40 ming yil muqaddam istiqomat qilganligi aniqlangan. Ular ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar. Keyingi yillarda Obirahmat makonini qayta o'rganish natijasida u yerdan so'nggi paleolit davri mehnat quolarini va 16- qatlamdan 70 ming yil oldin yashagan odam suyaklari (6 ta tish va kalla suyagining bo'laklari) topildi. Mazkur topilma bo'yicha 2004 yilda halqaro simpozium o'tkazildi. Unda Obiraxmat odamida neandertal va xomo sapines (zamonaviy odam) odamidagi xususiyatlar omuxtalashganligi va uning olamshumul ahamiyati qayd etildi.

Obiraxmat makonidagi mehnat quollari o'rta paleolitdan so'nggi paleolitga o'tish davriga mansubdir. Bunday xususiyatga xos makonlar Yevropa, Yaqin Sharq, Oltoy yodgorliklaridan ham topilgan. Tadqiqotlar natijasida olimlar, Obiraxmat odamlarining o'rta paleolitdan uzoq tadrijiy rivojlanish orqali yuqori paleolit davriga o'tishgan degan xulosaga kelishdi.

**Xo'jakent manzilgohi** Toshkent vohasidagi muste davriga oid g'or turidagi yodgorliklaridan biri bo'lib, Toshkent shahridan 80 km shimoliy—sharqda Xo'jakent qishlog'i yaqinida, Chirchiq daryosining chap sohilidagi qoyatoshlar ostida joylashgan. G'or shimoli-g'arbga qaragan, balandligi 2,5 m, kengligi 6 m, chuqurligi 4m. Makonda 1958—1959 yillarda A.P.Okladnikov va X.Nasriddinovlar tadqiqot ishlarini olib borganlar. Uning madaniy qatlami g'orning ayrim joylaridagina saqlanib qolgan. Tadqiqot jarayonida makondan 524 ta tosh quollar topilgan. Shulardan paraqalar 88 ta, nukleuslar 49 ta, qolganlari tosh uchirmalari va siniqlaridir. Topilgan quollar levallua—muste madaniyatiga xos bo'lib, Obirahmat va Teshiktosh makonlaridagi mehnat quollariga o'xshashdir.

**Ko'lbuloq makoni.** Angren shahridan 10—12 km g'arbda joylashgan Oblik qishlog'idan 5 km shimoliy—g'arbdagi qirlikda joylashgan.

Ko'lbuloq manzilgohi ko'p qatlamli bo'lib, ilk, o'rta va so'nggi paleolit davriga oid qatlamlari aniqlangan (49 qatlam). Uning 4—8 qatlamlarigina muste davriga oiddir. Madaniy qatlamlardan 8300 dan ortiq tosh quollari: har xil shakldagi nukleuslar, siniq uchrindilar, qirg'ichlar, qo'l cho'qmorlari va



boshqalar topilgan. Ko'lbuloqdan topilgan mehnat qurollari son va sifat jihatdan Toshkent vohasining boshqa joylaridan topilgan makonlardagi mehnat qurollardan farq qiladi. Faqat tishli qirg'ichlar Bo'zsuvdagi muste davri qurollariga o'xshash hisoblanadi.

Ko'lbuloq madaniy qatlamlaridan tog' echkisi, ayiq, arhar va boshqa hayvonlarning suyak parchalari, kul va gulxan qoldiqlari topilgan.

Toshkent vohasidan Zog'ariq, Bo'zsuv, Ko'hisim mazilgohlari va Qoraqamish topilmalari, jami 30 dan ortiq makon qayd qilingan. Bu ayniqsa Toshkent shahrining 2200 yilligi munosabati bilan keng arxeologik qidiruv ishlari bajarildi. Bu yerlarda arxeologik tadqiqot ishlari hozirda ham davom etmoqda.

Muste davri yodgorliklari Farg'ona vodiysida ham keng tarqalgan. Ularni tadqiq qilishda A.P.Okladnikov, P.T.Konoplya, M.R.Qosimov, O'.I.Islomov, V.A.Ranov, Yu.A.Zadneprovskiylarning xizmatlari kattadir.

1954 yilda P.T.Konoplya Sharqiy Farg'onada birinchi marta paleolit qurollarini topdi. Shu yili A.P.Okladnikov G'arbiy Farg'onada tadqiqot ishlarini olib borib Qayroqqum manzilgohlarini aniqladi va tadqiqot ishlarini 1961 yillragacha davom qildirdi. Olim Qayroqqum dalasining 31 punktidan tosh qurollarini topdi. Ayniqsa, Bulochap va Sho'rko'l punktlari topilmalari diqqatga sazovordir. Bu joylardan ko'plab tosh o'zaklar, sixchalar, tosh siniqlari topildi. Topilmalar shuni ko'rsatdiki, neandertal odamlar Sirdaryoning qadimgi irmoqlar bo'ylab, bir necha joylarda o'z manzilgohlarini qurganlar va ovchilik, termachilik bilan shug'ullanganlar.

**Jarqo'ton makoni** Farg'ona vodiysining sharqiy rayonida topilgan. Shahristonsoy daryosining chap qirg'og'ida joylashgan. Manzilgoh 1961– 1963 yillarda V.A.Ranov tomonidan o'rganilgan. Yodgorlikdan 670 ta tosh buyum yig'ib olingan. Shulardan 25 tasi nukleuslar, 25 tasi mehnat qurollari bo'lgan. Qurollar ichida tosh sixcha, nayza tig'lari, pichoqsimon tosh qurollar mavjud. Nukleuslarga ishlov berish va qurol yashash uslubi Xo'jakent makonidagiga o'xshaydi. Tosh qurollar yashash madaniyati levallua–muste davriga oiddir.

Farg'ona vodiysidan M.R.Qosimov, P.T.Konoplya muste davriga oid bir necha manzilgohlar topganlar. Ularning ko'pchiligining madaniy qatlamlari saqlanib

qolmagan, chunki ular adir va soylar bo'ylaridagi ovchilarning mavsumiy karorgohlari bo'lgan. U yerlardan topilgan tosh buyumlar levallua–muste davriga oid bo'lgan.

O'zbekiston hududida o'rta paleolit davrini o'rganishda Zarafshon vohasi alohida o'rinni egallaydi, chunki bu hudud arxeologlar tomonidan bir necha makonlar topib, keng o'rganilgan. Bu hududda Samarqand Davlat universitetining arxeologlari, O'zFA Arxeologiya instituti xodimlari tadqiqot ishlarini olib borganlar. Omonqo'ton, Zirabuloq, Go'rdara, Takalisoy kabi makonlar o'rta paleolit davrini o'rganish uchun olimlarga muhim manbalar berdi.

**Omonqo'ton g'or makoni**—Samarqand viloyati Urgut rayonining Omonqo'ton qishlog'i yaqinida, Samarqanddan 43-44 km janubda joylashgan. Makon 1947 yilda D.N.Lev raxbarligidagi SamDU ekspeditsiyasi tomonidan topildi va 1957 yillargacha tadqiqot ishlari olib borildi. Tadqiqotlar jarayonida qalinligi 25smdan 1,5 mgacha bo'lgan madaniy qatlam aniqlanib, undan 220 ta tosh buyumlar topildi. Ulaming asosiy qismi chaqmoqtoshdan yasalgan. 30 ga yaqin turli xildagi nukleuslar bo'lib, ular orasida gardishsimon va prizma shaklidagi nukleuslar ham bor. Paraqalar levallua–muste texnika madaniyatini eslatadi. kertish texnikasi asosida toshning ikkala tomoniga ham ishlov berish natijasida qurol tig'lari arrasimon va to'lqinsimon bo'lib chiqqan. Bu yerda bargsimon paraqalar ham bor. Bunday qurol namunalari Ko'tirbuloq va Zirabuloq makonlaridan ham topilgan.

Omonqo'ton g'oridan xayvonlarning suyak qoldiqlari ham topilgan. Arxeolog D.N.Levning tadqiqoticha, makon ilk va rivojlangan muste davriga oiddir.

**Takalisoy g'ori** – Omonqo'ton g'origa yaqin joylashgan muste davri yodgorligidir. Uni 1952 yilda D.N.Lev tadqiq qilgan. Bu yerdan chaqmoqtosh siniqlari, uchburchaksimon uzun paraqa, kertish usulida ishlangan pichoqsimon qurol, gulxan izlari va hayvon suyaklari topilgan. Toshning ishlanish texnikasi asosida uni D.N.Lev mustening so'nggi bosqichiga oid deb ko'rsatadi, chunki bu yerdan topilgan paraqalar va otsheplar gardishsimon va prizmaga o'xshash nukleuslardan ajratib olingan. Bu makonda neandertal odamlar vaqtincha yashaganlar.

Takalisoy makonidan topilgan ashyolar Qo'tirbuloq makonidan topilgan ashyolarga o'xshash bo'lib, bu neandertal odamlarning Zarafshon vohasida muste davri boshidan to oxirgi bosqichigacha uzluksiz yashaganlaridan darak beradi.

**Qo'tirbuloq makoni**— ochiq joydagi qarorgoh xisoblanadi. Uning topilishi neandertal odamning g'orlardan chiqib, o'ziga sun'iy boshpana qura olishi va dasht mintaqalarida yashashga o'tganligini ko'rsatdi. Makon Samarqand shahridan 100 km g'arbda, Qattaqo'rg'on tumanidagi Charxin qishlog'i yaqinidagi Zirabuloq tog'ining shimoliy yon bag'ridagi Qo'tirbuloq deb nomlangan buloq atrofidan topilgan. Uni dastlab Yu.F.Buryakov rahbarligidagi O'rta Zarafshon ekspeditsiyasi tomonidan 1971 yilda ro'yxatga olingan. Keyinchalik uni N.Toshkentboev o'rgangan. Bu yerdan 5 madaniy qatlam topilgan. Ulardan 10mingdan ko'proq tosh buyumlar topilgan. Bu topilmalar asosan chashma yonidan topilgan. Shuningdek, tosh qurollari va chiqindilar yonida gulxan izlari ham topilgan. Bu tosh qurol yasashda ibtidoiy odamlarning olovdan foydalanganligini ko'rsatadi. Shuningdek bu yerdan turli ov qurollari palaxmon toshi va nayzalar ham topilgan.

Qo'tirbuloq makonidan topilgan qurollarning ishlanish texnikasi Obiraxmat va Teshiktosh madaniyatiga o'xshaydi. Shuni inobatga olib, olimlar uni ham rivojlangan muste davriga oid deb hisoblaydilar. Lekin bu makonda qurol yasashda kertish texnikasida qurollarning o'tkirlanishi bir tekisda emasligi bilan boshqa madaniyatlardan farq qiladi.

Arxeologlar Zirabuloq tog' tizmasining shimoliy etaklaridan va Zarafshon daryosining o'ng qirg'oqlaridan ibtidoiy kishilarning bir necha qarorgohlarini ham ruyxatga oldilar. Bularning madaniyati ham Qo'tirbuloq madaniyatiga o'xshash bo'lib, ularning ko'pchiligida madaniy qatlam yaxshi saqlanmagan. Ular orasida Zirabuloq makoni alohida o'rinni egallaydi.

**Zirabuloq makoni**—Qo'tirbuloqdan 1 km sharqda joylashgan. U ham 1971 yilda ro'yxatga olinib, tadqiqot ishlari 1978 yillargacha arxeolog M.Jo'raqulov tomonidan olib borildi. Bu yerdan Qo'tirbuloq makonidan topilgan tosh buyumlarga o'xshash buyumlar topildi. Bundan arxeologlar bir-biriga yaqin qo'shni bo'lgan

ibtidoiy odamlar yashagan degan xulosaga keldilar. Lekin bu yerdan soʻnggi muste davriga oid tosh qurollari ham topilgan.

**Goʻrdara gʻor makoni**— Samarqand viloyati Urgut rayoni Zarafshon togʻ tizmasining shimoliy yon bagʻrida Goʻrdara soyi yaqinida topilgan. Uni 1966 yilda A.Asqarov raxbarligidagi arxeologik otryad roʻyxatga olgan va keyinchalik N.Toshkentboev tomonidan tadqiq qilingan. Bu yerdan gardish shaklidagi tosh siniqlari va qirgʻich topilgan. Uning tosh buyumlari Qoʻtirbuloq makonining yuqori qatlamidan chiqqan tosh buyumlari oʻxshaydi. Lekin bu yerda hali tadqiqot ishlari oxiriga yetkazilmagan.

Ibtidoiy odamlar hayotida tosh mehnat qurollari muhim oʻrinni egallagan. Shu sababli mehnat quroli uchun yaroqli tosh xom ashyolarini topish ular uchun juda muhim boʻlgan. Ilk paleolit davrida odamlar qayroq toshlardan foydalanishgan boʻlsa, uning soʻnggi bosqichlarga kelib chaqmoqtoshning afzalliklarini bilib olishgan. Chaqmoqtosh tabiatda keng tarqalgani bilan birga unga ishlov berish va oʻtkir qirra xosil qilish oson boʻlgan. Ibtidoiy odamlar oʻrta paleolit davriga kelganda chaqmoqtosh konlarini topib, u yerlarda tosh ustaxonalarini tashkil qilganlar. Shuningdek, ibtidoiy odamlar ochiq xavoda yotgan chaqmoqtoshdan koʻra, uzoq yillar davomida nam tortgan chaqmoqtoshga ishlov berish osonligini ham payqab, chaqmoqtosh konlarini toshgan intilganlar. Bunday ustaxonalar nafaqat Oʻzbekiston hududida, balki Kavkaz, Belorussiya, Boshqirdston, Volga boʻylari, Ukraina va Sibirdan ham topilgan. Bunday tosh ustaxonalarini tadqiq qilish olimlarga oʻsha davr moddiy buyumlarini tadqiq qilishnigina emas, balki tosh konlar ibtidoiy urugʻ jamoalari oʻrtasida madaniy va iqtisodiy aloqa vositasi sifatida ham katta oʻrin egallaganini aniqlash imkonini berdi. Ibtidoiy odamlar tosh hom—ashyosini oʻzaro iqtisodiy ayirboshlashda va qurol yasash tajribalarini almashinishda foydalanganlar.

Bu oʻrinda muste davriga oid Qopchigʻoy, Qoratov, Ohangaron ustaxonalari qiziqarli. Ularni 1951 – 1965 yillarda Arxeologiya institutining Ya.Gʻ.Gʻulomov raxbarligidagi arxeologik otryadi tomonidan oʻrganilgan.

**Qopchigʻay ustaxonasi**— Fargʻona shahridan 40 km janubda, Oloy togʻining shimoliy yonbagʻridagi Dangi darasining ichkari qismidagi Qopchigʻoy



degan joydan topilgan. U ochiq joydagi chaqmoqtosh koni xisoblanadi. U yerdan topilgan tosh qurollar va chiqindilarga asoslanib tadqiqotchilar, uni muste davridan boshlab odamlar o'zlashtirganligini ta'kidlaydilar. Bu ustaxonada A.P.Okladnikov, M.R.Qosimov ham tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Paleolit davri oid tosh ustaxonalari Navoiy viloyati Navoiy tumanida Uchtut, Ijond, Vaush va Zarafshonning qadimgi irmoqlari, Ohangaron daryosi bo'ylarida ham mavjudligi qayd qilingan.

**Uchtut yodgorligi** Navoiy viloyati Navbahor tumani Uchtut qishlog'i yonidagi Qoratog'ning janubiy qiyaligida joylashgan. Yodgorlik 1958 yili arxeolog X.Muhammedov tomonidan topilgan. Keyingi yillarda uni T.Mirsoatov keng ko'lamda o'rgandi.

Uchtut ilk va o'rta paleolit davriga oid ochiq manzilgoh va chaqmoqtosh xom ashyosi qazib olinadigan joy bo'lgan. U yerdan muste davriga oid tosh qurollari topilgan. U yerdan qo'pol cho'qmorlar, nukleuslar, uchrindi va boshqa qurollar topilgan.

Tosh ustaxonalari Zarafshonning qadimgi irmoqlari, Ohargaron daryosi bo'ylarida ham mavjudligi qayd qilingan. Ular arxeolog T.Mirsoatov tomonidan o'rganilgan. Chaqmoqtosh konlari va ustaxonalari keng tadqiq qilish ibtidoiy madaniyati tarixni o'rganishda muhim manba sanaladi.

### 3. So'nggi paleolit davri va uning yodgorliklari

So'nggi paleolit davri mil.avv. 40—12 ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ilmiy adabiyotlarda so'nggi paleolit davri yuqori paleolit davri tushunchasi bilan ham ishlatiladi. Bu davr arxeologiyada uch bosqichga bo'lib o'rganiladi:

#### 1.Orin'yak

#### 2.Solyutre

#### 3.Madlen

Orniyak mil.avv. 40-21 ming yilliklarga to'g'ri keladi. Yodgorlik XX asrning boshida Fransiyaning Yuqori Garonna departamentidagi Orinyak g'oridan topilgan. Bu davrga plastinkasimon tosh quroli va qalin uchrindining tig'ini mayda zarbalar

yordamida o'tkirlab yasalgan tosh qurollar xos. Orinyak madaniyati g'arbiy va markaziy Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Bu davrda dastlabki qoya tosh rasmlari topilgan.

Salyutre madaniyati **mil.avv. 21-16 ming yilliklarga** oid bo'lib, dastlab 1860 yillarda fransuz antropologi va arxeologi G.Mortele Fransiyaning Sona va Luar departamenti hududida joylashgan Solyutre makonidan topgan madaniyatga shu nomni bergan.. Bu davrda tosh qurollari bargsimon shaklda yasalib, retushlangan. Fransiya va shimoliy Ispaniya hududlarida keng tarqalgan.

Madlen davri madaniyati **mil.avv. 15-12-8 ming yilliklarga** oid. XIX asrning 60 yillarining oxirlarida Fransiyaning Dordon departamentining

La-Madlen g'oridan topilgan madaniyatni G.Mortele shu nom bilan ajratgan.

Bu davrda tosh qurollariga ishlov berish usullar keskin o'zgargan. Bu davr qurollari prizmasimon nukleusdan sirtqi tomoni tekis qilib sindirib olingan tosh bo'lagidan yasala boshlaydi. Bunday tosh qurollarining ish samaradorligi ilgargiga nisbatan ancha mukammal bo'lgan. Suyakdan qurollar yasash kengaygan. Qoya tosh rasmlarining ham aksariyat qismi shu davrda ishlangan (Lasko, Altamir, Fon-de-Gom va bq.) Madlen madaniyati Fransiya, shimoliy Ispaniya, Belgiya, Shvesariya, janubiy Germaniya hududlarida keng tarqalgan.

So'nggi paleolit davrida ibtidoiy odamlar qon-qarindoshlik aloqalari asosida birlashgan jamoa bo'lib yashay boshlaganlar, ya'ni ibtidoiy **urug'chilik jamoasi** davri boshlangan. Urug'ni boshqaruv ayollar qo'lida bo'lgan, chunki ular uy yumushi bilan band bo'lganliklari sababli oilani boshqarish zimmasida bo'lgan, erkaklar esa, doimo ovda bo'lganlar. Bunday davr tarixda **matriarxat**, ya'ni onalar hukmronligi davri deb ataladi.

So'nggi paleolit davrida — *homa sapiens* - *aql-idrokli odam* – zamonaviy qiyofaga ega bo'lgan ongli odamning shakllangan. Bunday odam turi dastlab 1868 yilda E.Larte tomonidan Fransiya'dagi Kromanon g'oridan topilgan va unga **kromanon** odami nomi berilgan. Yevrosiyo hududidan so'nggi paleolit davriga oid yuzga yaqin *homa sapiens* odamiga tegishli qabrlar o'rganilgan

So'nggi paleolit davri yodgorliklari O'zbekiston hududida o'rta paleolitga nisbatan kam topilgan. Bunga asosiy sabab, muzliklar eriy boshlagach, odamlar vodiy va daryo bo'ylarida chayla, yerto'la va yarim yerto'lalarda yashay boshlaganlar. Chayla va yarim yerto'lalar vaqt o'tishi bilan shamol, yomg'ir, insonlar tomonidan yerlarning o'zlashtirilishi natijasida yo'q bo'lib ketgan. Yerto'lalarni topish esa, qiyin. Shu sababli so'nggi paleolit davri makonlarining ko'pchiligi tasodifiy ravishda topilgan.

So'nggi paleolit davri odamlari xo'jaligining asosini ovchilik tashkil etgan. Asosan bug'u, yovvoyi ot, sirtlon, arhar, qulon, tuya kabi yirik hayvonlar ovlangan. Daraxt mevalari, don va ildiz mevali o'simliklarni ham ovqat sifatida ishlatganlar. Baliqchilikning ham dastlabki kurtaklari paydo bo'lgan.

Tosh qurollari ishlash uslubi o'zgargan. Yorma texnika usuli ilk bosqichda keng qo'llanilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda **retushlash** usuli ixtiro qilingan. Bu qurollar turini ko'paytiribgina qolmay, ularning mayda, ya'ni ixchamlashtirishga olib kelgan. Retushlash deganda chaqmoqtosh qurolni suyakdan yasalgan ingichka va uzun tayoq bilan bir necha ming marta urib yupqa tosh paraqalar uchirib, kerakli shaklga keltirish tushuniladi. Bu usul juda murakkab bo'lib, salgina ehtiyotsizlik qilinsa, qurol sinib ketgan. Retushlangan nukleuslar to'g'ri pichoqsimon shaklga kirgan va yupqalashgan. **Tosh pichoqlar** paydo bo'lgan. Bu davrda eng muhim mehnat qurollari **tosh kesgich** va **tosh qirg'ich** bo'lgan. Tosh kesgich qattiq materiallarni ishlashda foydalanilgan. Tosh qirg'ich uzunchoq parrakcha bo'lib, bir uchi yoysimon tig' bo'lgan, muste davridagi qirg'ichdan ancha farq qilgan, undan yumshoq materiallarni ishlashda foydalanilganlar. Asosiy ov quroli chaqmoqtoshdan yasalgan nayza bo'lgan.

Ajdodlarimiz yog'och va hayvon suyaklaridan ham ko'plab qurollar yasaganlar. Suyakdan garpunlar, nayzalar, nayza otqichlar, shuningdek terini tikish uchun ignalar va bigizlar yasashgan. Suyakdan qurollar yasash yuqori paleolit davrining so'ngi bosqichlarida ko'paygan. Bu bosqich jahon arxeologiyasida Madlen bosqichi deb (20 ming—13 ming yil oldin) ajratiladi.

So'nggi paleolit davrida qarindosh urug'chilik munosabatlarining tartibga solinishi natijasida kishilarning jismoniy va aqliy rivojlanishida o'zgarishlar yuz berdi. Insonlarning tashqi ko'rinishida o'zgarish yuz berishi bilan birga ularning tabiiy –geografik sharoitga moslashishi natijasida **irqlar** vujudga keldi - yevropoid, mongoloid, negroid. Yevropoid irqi fanda kromanon odami nomini olgan. O'zbekistonning ham Samarqand makonidan kromanon odamning qoldiqlari topilgan.

So'nggi paleolit davrida yuz bergan muhim o'zgarishlardan yana biri, bu **san'atning** kashf etilishidir. San'atning vujudga kelishi o'sha davr odamlarining diniy qarashlari bilan bog'liq bo'lsa-da, ular qoldirgan ona haykalchalari va qoya tosh suratlari o'sha davr ijtimoiy hayoti haqida bizga ko'p ma'lumotlar beradi. O'rta Osiyoning ko'pchilik joyidan qoyatosh suratlari topilgan.

So'nggi paleolit davriga oid yodgorliklar kam topilganiga qaramasdan, ulardagi madaniy qatlamlarning yaxshi saqlanishi yuqori paleolit davri taraqqiyotining o'ziga xos tomonlarini ochishga imkon berdi. Hozirgi kunda O'rta Osiyoda yuqori paleolit davriga oid 30 ortiq yodgorlik topib o'rganilgan bo'lsa, shulardan 10 tasi O'zbekistondan topilgan. Ulardan Zarafshon vohasida topilgan Samarqand, Siyobcha, Xo'jamazgil makonlari yaxshi o'rganilgan. Toshkent vohasidan Ko'lbuloq, Bo'zsu, Takalisoy, Tuyabo'g'iz makonlaridan ham yuqori paleolit davri izlari topilgan.

**Samarqand makoni** — So'nggi paleolit davrining eng noyob yodgorligi hisoblanadi. U 1939 yilda geolog N.G.Harlamov tomonidan Samarqand shahridagi qadimgi Siyobcha soyi yoqasidan topildi. Makonda I.D.Lev va I.Jo'raqulovlar 1969 yildan 1972 yilga qadar tadqiqot ishlarini olib bordilar. 2002 yilda SamDU arxeologiya kafedrasini ilmiy xodimlari tomonidan tadqiqot ishlari yana davom ettirilgan. Uning madaniy qatlamidan 7,5 mingga yaqin tosh qurollar topilgan. Ularning aksariyati chaqmoqtosh, xalsedon, diorit, amfibolit, rogovik kabi tosh jinslaridan yasalgan. Makondan xilma xil qurollar topilgan; qirg'ichlar, keskichlar, sixlar, pichoqchalar, disksimon nukleuslar, uchrindilar, ushatgichlar, boltalar, yupqa paraqalar va boshqalar. Bular orasida hayvon terilarini ishlash uchun



mo'ljallangan qirg'ichlar, teshgichlar, suyakdan yasalgan mehnat qurollari diqqatga sazovordir. Tosh boltalar va yo'ng'ichlar o'ziga xos ravishda ishlangan.

Samarqand makonning madaniy qatlami 3-7 m. dan iborat bo'lgan. Chayla 10 kv. m. joyni egallagan va yog'och ustunlar bilan qurilgan. Atrofida yog'och ustunlarining o'rni saqlanib qolgan. Ustunlarning usti shox-shabbalar va qamish bilan yopilgan. Uning ichkarisida o'choq qoldig'i saqlangan va kichik maydoncha mavjud bo'lgan.

2002 yilda G.F.Korobkova makondan topilgan tosh qurollarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqladi. Jumladan, o'zaklardan ajratib olingan tosh paraqalardan turli qurollar sifatida foydalanilgan. Tosh qurollarga dag'al kertish usuli bilan ishlov berilgan. Tosh va suyakdan sanchqilar yasaganlar. Bu odamlarning baliqchilik bilan shug'ullanganliklarini ko'rsatadi. Makonning madaniy qatlamlaridan gulxan qoldig'i, kul, hayvon suyaklari, o'simlik, chayla ustunlari qoldiqlari topilgan. U soy bo'yida bo'lib, maydoni 100 kv m, to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan.

Samarqand makonini D.N.Lev 30—35 ming yilliklarga oidligini aniqladi. Ammo keyingi tadqiqotlar, uning yoshini mil.avv. 20ming yillik bilan belgilashni to'g'ri deb topmoqda.

Makondan kromanon qiyofasidagi odamlarning suyak qoldiqlari topildi. Antropologlar ularning 25 va 35 yoshli ayollarga tegishli ekanligini aniqladilar. Shuningdek, yosh bolaning oziq tishi, pastki jag' suyagi ham topilgan.

Samarqand makonidan ibtidoiy odam tomonidan 5 ta maxsus belgi chizilgan hayvon qovurg'asi qoldig'i, maxsus teshikli dengiz chig'anog'i topilgan. Dengiz chig'anog'i zeb—ziynat bo'lib, Hind okeani, Qizil dengiz va Fors qo'ltig'i hududlarida uchraydi. Chig'anoqning topilishi O'rta Osiyo qabilalari bilan Hind okeani sohillaridagi qabilalar o'rtasida aloqa bo'lganligi va bu chig'anoqlar Samarqand hududiga mahsulot ayirboshlash natijasida kelib qolganligini ko'rsatadi. Makondan 20 ga yaqin ayollar taqinchog'i topilgan. Umuman, Samarqand makoni yuqori paleolit davrini o'rganishga oid qimmatbaho ma'lumotlar beradi.

**Siyobcha qarorgohi** – Samarqand shahrining markaziy qismidan oqib o'tadigan Siyobcha daryosining Chashmasiyob suvi quyilishi joyida joylashgan. Qarorgoh 1969

yilda U.Olimov tomonidan topilgan. Tadqiqot ishlarini esa, N.X.Toshkentboev olib borgan. Qazilmalarning ayrimlarida madaniy qatlam yaxshi saqlanmagan. Topilmalar orasida tosh o'zaklar, qirg'ichlar, teshuvchi qurollar, paraqalardan ishlangan qurollar asosiy o'rinni egallaydi. Topilmalar Samarqand makoniga nisbatan qadimiyroqdir.

**Xo'jamazgil qarorgohi**—Samarqand shahridan 35 km g'arbiy–sharq tomonda Turkiston tog' tizmasining g'arbiy etaklarida joylashgan Xo'jamazgil degan joydan topilgan. Yodgorlikni 1969 yilda arxeologlar A.Asqarov va N.X.Toshkentboevlar topib, tadqiq qilishgan. Tadqiqot davomida makondan 200 dan ortiq tosh buyumlar yig'ib olingan. Topilmalar ichida gardishsimon tosh o'zaklar, paraqadan yasalgan pichoqsimon qurollar, qirg'ichlar, randalar, tosh siniqlari topilgan. U yerda oxra qoldiqlari va gulxan izlari ham topilgan. Qarorgoh topilmalari Samarqand makoni topilmalariga o'xshaydi. Ikkala makonda ham qurollarni ishlash uslubida muste davri uslubi izlari saqlangan.

Takalisoy g'ori – Samarqand viloyatidan 50 km. janubi-sharqda, Taxtaqorachi devoni hududida, dengiz sathidan 2000 metr balandlikda joylashgan. Bugungi kunda Qashqadaryoning Kitob tumani hududiga to'g'ri keladi. G'or-makondan nukleuslar, parrakchalar, uchrindilar, tosh pichoq, qirg'ich va boshqa tosh qurollari, kul qoldiqlari, yovvoyi hayvonlarning suyak qoldiqlari topilgan.

**Angillak makoni** – Qashqadaryo viloyati Kitob tumani Oyoqchisoyniing shimoliy qirg'og'ida Yorma g'oridan 700-800 metr balandlikda joylashgan. 2001 yilda R.X.Sulaymonov tomonidan topilgan. 2002-2004 yillarda R.X.Suleymanov va M.Glantz rahbarligidagi O'zbek-Amerika arxeologik ekspediyasi a'zolari tomonidan o'rganilgan. 2013-2014 yillarda O'zbekiston-Yaponiya xalqaro qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan yodgorlikda arxeologik tadqiqotlar davom ettirilgan.

500 dan ortiq retushlangan paraqalar, asosan uzunchoq shaklli paykonlar, qirg'ichlar tosh quroli topilgan. Angillak g'oridan topilgan moddiy manbalarni radiokarbon analiz 27 000 yilni ko'rsatgan.

Angillak g'oridan ibtidoiy odamning o'ng oyog'i suyagi qoldig'i topilgan bo'lib, uning tadqiqoti hozirda davom etmoqda.

**Ko'lbuloq makoni** – qadimgi tosh davriga oid ko'p qatlamli yodgorlik bo'lib, uning yuqori 1,2,3 qatlamlaridan so'nggi paleolit davriga oid materiallar topilgan. U yerdan gulxan, ko'mir qoldiqlari, tosh buyumlardan – nukleuslar, qirg'ichlar, sixchalar, tosh pichoqlar, tosh siniqlari va hayvon suyaklari topildi. Makondan eng ko'p miqdorda nukleuslar topilgan, chunki ibtidoiy odamlar nukleuslarni ajratib olishning yangi texnikasini kashf etganlar. Ilgaridagidek, paraqalarni tosh bolg'a bilan emas, balki tosh pona bilan ajratib olganlar. Bu bilan ular xohlagan shakldagi paraqani toshdan ajratib olish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Qo'lbuloqdan topilgan tosh qurollar o'zining ishlanishi jihatidan Samarqand, Bo'zsuv va Tuyabo'g'iz makonlaridan topilgan so'nggi tosh davri qurollariga o'xshaydi. Arxeolog M.R.Qosimovning ta'kidlashicha, Toshkent vohasida ilmiy ahamiyati jihatidan Ko'lbuloqqa teng keladigan yodgorlik topilganicha yo'q.

2001-2002 yillar mobaynida Ko'lbuloq makonida qayta tadqiqot ishlari olib borildi va so'ngi paleolit dariga oid retushlangan mehnat qurollari, turli shakllardagi nukleuslar topildi.

Toshkent vohasidan so'nggi paleolit davriga oid Bo'zsuv I, Bo'zsuv II, Bo'zsuv VI, Tuyabo'g'iz II, III, IV, V, VI makonlari ham topib o'rganilgan. Ulardan topilgan tosh buyumlar Ko'lbuloqdan topilgan tosh buyumlariga o'xshaydi. Bular asosida arxeologlar Toshkent vohasida ibtidoiy odamlar paleolit davrining barcha bosqichlarida isteqomat qilib, bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lganlar va ovchilik xo'jaligi bilan shug'ullanganlar degan xulosaga kelishgan.

Bo'zsuz I yodgorligi Toshkent shahrining g'arbida Bo'zsuv kanali qirg'og'i Shoimko'prik hududlaridan topilgan. Bugungi kunda u Zangiota tumani Eshonguzar mavzusi hududlariga to'g'ri keladi. Yodgorlik dastlab G.V.Parfyonov o'rgangan. So'nggi paleolit davriga 100dan ortiq tosh qurollari, shu jumladan xos pichoqsimon plastina, qirg'ich, nukleus, chaqmoqqoshdan yasalgan qurollar va turli hayvonlarning suyak qoldiqlari topilgan. Bo'zsuv I makonidan topilgan tosh qurollari Bo'zsuv II, Tuyabo'g'iz, Qo'lbuloqdan topilgan tosh qurollarga o'xshash. Bo'zsuv kanali yoqalab olib borilgan keyingi tekshirishlar natijasida paleolit davriga oid Bo'zsuv III, IV va V kabi yangi makonlar ochildi.

Bo'zsuv II makoni – Toshkent viloyatining Bo'zsuv sohilidagi Sho'ralisoy degan joydan topib o'rganilgan. Bugungi kunda bu hudud Toshkent viloyatining Yangiyo'l tumani Sho'ralisoy qishlog'iga to'g'ri keladi. Bu yerdan 100 dan ortiq tosh qurollar: ikki tomonlama ishlov berilgan tosh pichoqlar, qirgichlar, nukleuslar, qalamsimon plastinkalar, retushli qurollar va bq. topilgan. Bu tosh qurollari kulrang-qo'ng'ir chaqmoqtosh, ohaktoshli chaqmoqtosh, xalsedon va slanesdan ishlangan. Bo'zsuv II makoni tosh qurollari Bo'zsuv I, Tuyabo'g'iz va Qo'shilish makonidagi tosh qurollari o'xshash.

Bo'zsuv VI makonidan ham so'nggi paleolit davriga oid tosh qurollari topilgan. Bu yerdan qalamsimon nukleuslar, tosh siniqlari topilgan. Bu tosh qurollari ham Tuyabo'g'iz, Bo'zsuv I va II dan topilgan tosh qurollariga o'xshash.

Tuyabo'g'iz makonlari – Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumanida, Ohangaron daryosining o'rta oqimida topilgan. U yerda so'nggi paleolit davriga oid oltita makon aniqlangan. Undan to'rttasi so'nggi paleolit davriga oid. Makonlardagi madaniy qatlamlardan nukleuslar, paraqalar, qirg'ichlar topilgan. Ular asosan chaqmoqtosh va qisman slanesdan ishlangan.

Tuyabo'g'iz I makoni To'ytepadan 16 km. g'arbda joylashgan. Tuyabo'g'iz II makoni Tuyabo'g'iz I makonidan shimolroqda, Burg'uluq soyining Ohangaronga quyilish joyidan 300-400 metr yuqorida joylashgan. Bu makon o'rta paleolit davriga oid. Tuyabo'g'iz III makoni Tuyabo'g'iz II makonidan 50-60 metr yuqorida joylashgan. Bu makondan 145 ta so'nggi tosh asriga mansub tosh qurollar topilgan: nukleuslar, plastinkalar, qirg'nchlar, tosh siniqlari va tosh parchalaridir. Tuyabo'g'iz IV, V, IV makonlaridan so'nggi paleolit davri tosh qurollari topilgan.

So'nggi paleolit davriga oid Rossiyada (Kareliya), Mo'g'ulistonda, Ispaniyada (Altamira g'ori), Frantsiyada (Fon-de-Gaum, Montespan g'orlari), Italiya, Angliya, Germaniyada uchraydi. Hatto Sahroi Kabir cho'lida, cheksiz qumlar orasidan Tassilin-Adjer tog' platosining ulkan rang-barang rasmlari topilgan. Qoya tosh rasmlar o'sha davr odamlarining diniy e'tiqodi bilan bog'liq holda ishlangan. Ba'zida rasmlar g'orlarning yorug' tushmaydigan joylariga, ya'ni 900 m.gacha bo'lgan joylaridan ham topilgan. Fransiyaning Losel g'oridan odam va hayvonlar tasviri qizil va sariq ranglar



ishlangan. Angl-syur-L'Anglandan esa, 35m kenglikda bizon, ot, tog' echkisi tabiiy hajmda aks ettirilgan. Ularni uchta ayol kuzatib turibdi. Bu tasvirlar urib-o'yish yo'li bilan ishlangan. Ispaniyada Altamir g'oridan topilgan tasvirlar butunlay o'zgacha bo'lib, qizil rang bilan ishlangan. Ramziy ma'nolarga ega bo'lgan turli shakllar ham aks ettirilgan. Dastlab 1879 yilda M.Sautol tomonidan aniqlagan 1901 yilda E.Kartalyak va A.Breyl Altamir g'ori shifti va devorlariga chizilgan 150 ta hayvon tasvirlarini o'rgangan.

Fransiyadagi Vezer daryosi vodiysida paleolit davriga oid 147 ta yodgorliklar topilgan. Qoya rasmlari 25 ta g'or topilgan. Lasko g'orida 1940 yilda topilgan. 100 ga yaqin hayvonlar va ov sahnalari tasvirlangan. 17 ming yillikka oid bo'lib, uni muhofaza qilish maqsadida 1963 yildan beri kirish ta'qiqlab qo'yilgan.

Boshqiristonning Burzyan rayoni hududidan topilgan Kapova g'orini mahalliy aholisi bo'lgan boshqirdlar "Shulgan-tash" deyishadi. U bilan ko'plab afsonalar bog'langan bo'lib, aholi bu joyni muqaddas deb hisoblaydi. Makon Oq (Agidel) daryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan Sarikuskan tog'ining janubiy qismida joylashgan. G'orga kirish joyi ulkan bo'lib, 48x18 metrni tashkil qiladi. G'orning uzunligi 3 045 metrni tashkil qilib, shundan 728 metri suv ostida. U yerdan yer osti daryosi Shulgan oqib o'tadi. G'orda ko'plab tabiiy ravishda shakllangan zallar, galleriyalar bo'lib, ular uch qavatni tashkil qiladi.

Kopova g'ori 1760 yilda P.I.Rыchkov tomonidan aniqlangan. 1959 yilda Zoolog olim A.V.Ryumin tomonidan mamont, ot va karkidonlar chizilgan tasvirlarni o'rgangan. Ular g'orning to'rtta zalida chizilgan. 195 ta rasm aniqlangan, ulardan 30tadan ortig'i yaxshi saqlangan. Qoya tosh rasmlar qattiq jinsli tosh bilan uyib tasvir hosil bo'lgach, ustidan ustidan qizil oxra bilan bo'yalgan. Ularning dastlabki namunasi mil. avv. 14-14,5 ming yillikka oid. Rasmlar katta hajmda, 44 metrdan 112 metrgacha o'lchamda ishlangan.

Kopova g'ori hududi bugungi kunda muhofazaga olingan. "Shulgan" davlat qo'riqxonasiga aylantirilgan. Yodgorlikni saqlash maqsadida u yerga 1971 yildan beri kirish tadqiqlangan. Tadqiqotchilar tomonidan o'rganilish ishlari davom etgan. 2017 yilda g'oyada qizil oxra bilan ishlangan ikki o'rkachli tuyaning tasviri topilgan.

Bugungi kunda ham yodgorlikning suvga cho'qib borishi uni muhofaza qilish imkoniyatini kamaytirib bormoqda.

So'nggi paleolit davrida, mil.avv. 30-20 ming ilgari Shimoli –Sharqiy Osiyo hududidagi ibtidoiy odamlar Bering bo'g'ozini orqali Alyaskaga kirib borib, Amerika hududlari bo'ylab tarqaladilar va o'ziga xos madaniyatni yaratganlar.

#### **Mavzuni mustahkamlovchi savollar:**

1. Ilk paleolit davri qanday bosqichlarga bo'linadi?
2. Ashel davrida ibtidoiy odamlar hayotida qanday o'zgarishlar sodir bo'ldi?
3. Ilk paleolit davri yodgorliklari qaerlardan topilgan?
4. Sel-Ungur makonini kimlar o'rgangan?
5. Ko'lbuloq makoni qaysi davrlarga oid?
1. O'rta paleolit davrining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang?
2. Tosh qurollarining ishlanish uslubi qanday bo'lgan?
3. Nukleus nima?
4. Teshiktosh yodgorligi topilmalarini kimlar o'rgangan?
5. O'braxmatdan topilgan odam va Teshiktoshdan topilgan odam yashagan muhitni solishtiring?
6. Tosh ustaxonalari qaerlardan topilgan?
7. Ibtidoiy odamlar qanday g'orlarni o'zlashtirganlar?

#### **Yodda tuting!**

- Ilk paleolit olduvay va ashel davrlariga bo'linadi.
- Ilk qo'l cho'qmori qayroqtoshdan yasalgan.
- Ashel davrida qo'l cho'qmori chaqmoqtoshdan yasalgan.
- Qo'l cho'qmori kertma texnika asosida ishlangan.
- O'zbekiston hududidan ashel davriga oid makonlar topilgan.
- Farg'onadagi Sel-Ungur makonidan Ferganatrop odami topilgan.
- Toshkent viloyatidagi Ko'lbuloq makonidan 49 madaniy qatlam topilgan.
- Nukleus tosh o'zagidir.
- Nukleus yorma texnika asosida ishlangan.

- Oʻrta paleolitda sunʼiy olov ixtiro qilingan.
- Oʻrta Osiyodan 300dan ortiq oʻrta paleolit makonlari topilgan.
- 1938 yili Teshiktosh gʻoridan neandertal odam qoldiqlari topilgan.
- 2003 yilda Obiraxmatdan neandertal va xomo sapines odamidagi xususiyatlar omuxtalashgan odam qoldiqlari topilgan.

### **3-mavzu. Mezolit davri va uning oʻrganilishi.**

Reja:

1. Mezolit davri va uning xususiyatlari.
2. Mezolit davri bosqichlari.
3. Mezolit davri yodgorliklari.

#### **1.Mezolit davri va uning xususiyatlari.**

Yer yuzida muzliklarning chekinishi natijasida iqlim oʻzgaradi. Bu esa, oʻz navbatida ibtidoiy odamlarning turmush tarzida oʻzgarishlarga olib keladi. Olimlar bu davrning oʻziga xos xususiyatlarini eʼtiborga olib, uni oʻrta tosh davri, yaʼni mezolit davri deb belgilaganlar.

“**Mezolit**” soʻzi yunoncha “mezos”—oʻrta, “litos”—tosh soʻzlaridan kelib chiqqan boʻlib, miloddan avvalgi 12 ming yilliklardan 7 ming yilliklargacha davom etgan.

Mezolit davrida iqlimning oʻzgarishi bilan hayvonot dunyosi ham oʻzgaradi. Paleolit davridagi yirik hayvonlar yoʻqolib, ular oʻrniga tez chopar va mayda hayvonlar: arhar, muflon, togʻ echkisi, bugʻu, jayron, qulon, quyon, arslon, yoʻlbars, bars, qoplon va boshqa hayvonlar paydo boʻldi. Ularni ilgaridagidek ovlash ibtidoiy odam uchun murakkablik tugʻdirdi. Natijada **oʻq-yoy** ixtiro qilindi. Bu mezolit davrining eng katta yutugʻi edi. Oʻq yoyning kashf etilishi xoʻjalikda ovning ahamiyatini oshirdi. Endi ibtidoiy ovchilar uzoqdan turib oʻz oʻljasini nishonga olish imkoniyatiga ega boʻldilar va oziq-ovqatga boʻlgan talabni qondira oldilar.

O'simliklar dunyosida ham issiqtalab o'simliklar salmog'i oshdi. Daryolarning sersuv bo'lishi baliqchilikning vujudga kelishiga va dastlabki qayiqlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Bu esa ibtidoiy odamning turmush tarzini o'zgartirdi.

Ibtidoiy ovchilar hayvonlar (asosan bug'ular) izidan yurib, yangi—yangi yerlarni o'zlashtirib bordilar. Shu sababli, mezolit davri odamlari keng hududlarga tarqalganlar. Mezolit davrida O'rta Osiyoning deyarli barcha hududlari yashash uchun qulay bo'lgan. Amudaryo bilan Sirdaryo oraliqlarida mezolit davriga oid yodgorliklar ko'p uchraydi.

Bu davr jamoasida diniy tasavvurlar ma'lum bir shaklga kirdi. Bu haqda mezolit davri mozorlari, qoyatosh rasmlari darak beradi. O'rta Osiyodagi mezolit davri yodgorliklaridan 3tasida— Qayla, Tutkaul, Machay makonlarida mozorlar topilgan. Ular mezolit davrining so'ngi bosqichiga taalluqli. Qayla g'orida 2 mozor o'rganilgan. Skeletlar chalqanchasiga yotqizilib, oyoqlari biroz bukilgan, ustiga oxra sepilgan. Yonlarida dengiz chig'anoqlaridan yasalgan taqinchoqlar topilgan. Bosh suyagi ustiga ham mayda tosh munchoqlar tizib chiqilgan. Boshqa mozorlarda ham shu holat kuzatilgan. Bularni barchasi narigi dunyoga ishonishni bildiradi.

## **2. Mezolit davri bosqichlari.**

Jahon arxeologiyasida mezolit davri 2 bosqichga: **Azil** va **Tardenuazga** bo'linadi. (3-jadval) Ular Fransiyadan topilgan makonlar nomlari bilan atalgan. Azil davri tosh quollarining asosiy xususiyatlaridan biri —**mikrolit quollarning** yasalishidir (yunoncha mikros—kichik). Ular asosan o'q uchi vazifasini bajargan. Ularning ko'pchiligi tol bargiga o'xshash bo'lgan.



## Мезолит даври босқичлари



3-jadval.

Tardenauz makonlarida mikrolit qurollar juda ko'p uchraydi. Ular juda mayda bo'lib, ba'zilar 1 sm ga yetar yetmas bo'lgan, 2 sm lilari esa kam uchraydi. Mikrolitlar turli xil geometrik shaklda bo'lgan (uchburchak, trapesiya, romb). Ularning ishlatilishi haqida 2 xil fikr mavjud:

- 1) tayoq uchidagi yoriqqa tiqilgan va kamon o'qi yasalgan.
- 2) suyak yoki yog'och qurollarga taqab o'tkir tig' hosil qilingan.

O'rta Osiyo mezoliti industriyasini o'rganish orqali olimlar ulardagi rivojlanish jihatlarini aniqladilar. Shu asosda ularni ilk, o'rta va so'nggi bosqichga bo'ldilar.

Ilk mezolit bosqichi yodgorliklarida mikrolit texnikasi endigina paydo bo'lgan. Bunday yodgorliklarda geometrik shakldagi (segment, trapesiya, uchburchaksimon) tosh buyumlar kam uchraydi. Mikroparaqalar kam. Bu davr yodgorliklarida so'nggi paleolitga doir qirg'ichchalar, o'zaklar, paraqalar ko'p tarqalgan.

O'rta mezolit bosqichida geometrik shakldagi mikrolit qurollarning yirik va qalinroq turli tiplari paydo bo'ladi. Qirg'ichchalarning har xil shakldagilari vujudga keladi. Bunday qurollar ko'pincha tosh siniqlarining qirra tomonlariga va paraqalarning uchqir tomonlariga tig' chiqarish usuli bilan yasalgan, ularning hajmlari ancha kichiklashtirilib, takomillashtirilgan. O'zaklardan pichoqsimon uchirma ajratib olish

texnikasi vujudga keladi. O'rta mezolit davri yodgorliklarining yana bir xususiyati qayroqtoshlardan yasalgan qurol va qirg'ichlarning borligidir.

So'nggi mezolit davrida mehnat qurollarining ko'pchilik turlari maydalashgan. Qalamsimon mitti o'zaklar soni ko'paygan. Tosh bigiz paydo bo'lgan. Ikkala uchli tomonlari yo'nilgan shakldagi paraqalar va mikroparaqalar soni ko'payadi. Bu davr yodgorliklarida qurollarni yasash texnikasi murakkablasha boradi.

Bu bosqichlarga oid yodgorliklar quyidagi guruhlariga ajratilgan:

1. **Ilk mezolit** bosqichi miloddan avvalgi XI—X ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ko'shilish madaniyatida o'z aksini topgan.
2. **O'rta mezolit** bosqichi miloddan avvalgi IX—VIII ming yilliklar bo'lib, Obishir madaniyatida o'z aksini topgan.
3. **So'nggi mezolit** bosqichi miloddan avvalgi VII—VI ming yilliklar bo'lib, Machay madaniyatida o'z aksini topgan.

O'zbekistondagi mezolit davri yodgorliklarida prizma, konus, pona shakllaridagi nukleuslar topilgan. Tosh paraqalari bir tomonlama kertma tarzda o'tkirlangan. Qirg'ich qurollari tosh uchrindilardan va parchalaridan ishlangan. Shuningdek, tog'li hududlarda nukleuslar qayroqtoshlardan bo'lgan.

### **3. Mezolit davri yodgorliklari.**

O'zbekistonda ilk mezolit davriga oid manbalar XX asr boshlarida topilgan. Mezolit davrini sistemali o'rganishni A.P.Okladnikov boshlab bergan. Keyinchalik Katta va Kichik Balxash hududlarida ko'p qatlamli mezolit davriga oid yodgorliklar, Ustyurtda, Markaziy Farg'onada, Qizilqum, Pomirda mezolit yodgorliklari ko'plab topilgan.

A.M.Mandelstam, X.Yu. Yusupov, Yu.A.Zadneprovskiy, O'.Islomov—Farg'onada, Ye. Bijanov, V.Yagodin, A.Vinogradov, G.Xodjaniyozovlar Ustyurtda tadqiqot ishlarini olib bordilar. Lekin O'zbekiston mezoliti boshqa davrlarga nisbatan kam o'rganilgan. O'.Islomov shu kunga qadar O'zbekiston hududida o'rganilgan yodgorliklarni uchta —Farg'ona, Toshkent va Surxandaryo territorial xususiyatlarga bo'ldi.

**Qo'shilish makoni** Toshkentning g'arbida qadimgi Bo'zsuv anhorining chap sohilidan topilgan. U yerdan nukleuslar, mayda paraqachalar, qirg'ichlar va hech bir makonda uchramaydigan uchburchak shaklidagi qurollar topilgan. Qo'shilishning madaniy qatlamidan topilgan mazkur qurollar so'ngi tosh davri qurollariga nisbatan o'zining ancha ixchamligi va qurol turlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu yerdan topilgan nukleuslar va qirg'ichlar Farg'onadagi Obishir I, Y, Achchiko'l va Machaydan topilgan nukleuslar va qirg'ichlarga o'xshab ketadi. Lekin Qo'shilishdagi qurollar ancha qadimiy arxaik xususiyatga egadir. Qo'shilishdan topilgan qurollarda o'ziga xoslik ham bor, ya'ni bu yerda geometrik shaklda yasalgan qurollar uchramaydi. Shuningdek, Qo'shilishda boshqa makonlarda bo'lgan pichoqsimon paraqalar topilgan emas. Qo'shilish qurollarining ba'zilari Yaqin va O'rta Sharqdagi Shanidavr, Paligavr, Gari-Kamarbanddan topilgan qurollarga o'xshab ketadi.

Farg'ona vodiysida va uning janubidagi tog'li hududlarda mezolit davri makonlar ancha ko'p topilgan. Shular jumlasiga, Farg'ona vodiysining janubidagi Qatron tog'idan topilgan Obishir I va Obishir V g'or-makonlarini kiritish mumkin. Ular miloddan avvalgi IX–VIII ming yilliklarga oiddir.

**Obishir I g'or-makoni** Haydarkon shaharchasidan 4-5 km sharqda joylashgan. U yerning madaniy qatlamlaridan mikrolitlar, bigizlar, qirg'ichlar, pichoq qadamalari, nukleuslar topilgan. Ular boshqa joylardan topilgan mezolit davri qurollariga o'xshaydi.

**Obishir V g'or-makoni** esa Obishir I dan 200 metrcha g'arbda joylashgan. U yerda 3 ta madaniy qatlam aniqlangan. U yerdan topilgan mehnat qurollarining ishlanish texnikasi Obishir I ga o'xshaydi. U yerning quyi madaniy qatlamlaridan oq-qora va kul rang chaqmoqtoshdan yasalgan mikrolitlar– paraqalar, pichoq qadamalari, qirg'ichlar, keskichlar, teshgichlar, o'roq-randalar va turli shakldagi nukleuslar topilgan. Shuningdek bu yerdan yovvoyi hayvonlarning parchalangan va sindirilgan suyaklari ham topilgan.

Obishir V makoni 1965 yilda topilgan. Tadqiqot ishlari XX asrning 60-70 yillarida olib borilgan. 2015 yildan Rossiyalik va Qirg'izistonlik olimlar tomonidan tadqiqot ishlari qayta boshlanib, yangi zamonaviy uslublar asosida olib borilmoqda. 4 kv m. joydan 5 mingdan ortiq tosh qurollari topilgan. Asosan 1 sm dan kichik bo'lgan mikrolitlar topilgan. Yuqori madaniy qatlamdan 10-8 ming yilliklarga oid inson tishi topilgan.

Keyingi yillarda Markaziy, Janubiy va Sharqiy Farg'ona yerlaridan mezolit davri makonlari ko'plab topilgan. Markaziy Farg'onadan bu davriga oid 100ga yaqin joydan makonlar topilgan. Ulardan Ittak qal'a, Sho'rko'l, Achchiko'l, Yangiqadam, Bekobod, Zambor, Bosqumlar diqqatga sazovordir. U yerlardan har xil shaklda retushlangan va retushlanmagan nukleuslar, qirg'ichlar, paraqalar, mayda geometrik qurollar topilgan. Bu yerda ko'proq mayda nukleuslar uchrab, yirik nukleuslar deyarli uchramaydi. Daryo toshlaridan olingan uchrindilar ham bor. Bu yerdan topilgan mehnat qurollari qora, yashil, jigarrang chaqmoqtosh, slanes va boshqa toshlardan yasalgan. Bu yodgorliklar ochiq joydagi makonlar bo'lib, madaniy qatlamlar yo'q. Tadqiqotchilar fikricha, Markaziy Farg'onadagi ilk va so'nggi mezolit davri makonlar o'sha vaqtning o'zidayoq tashlab ketilgach, buzila boshlagan. Hozirda bu joylar keng qum barxanlari ostida qolgan. Lekin mezolit va neolit davrlarida bu yerlarda ko'llar bo'lgan. Ibtidoiy odamlar shu ko'l sohillarda yashaganlar. Termachilik, ovchilik, baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

Markaziy Farg'onada faqat tosh davri yodgorliklar mavjud. Boshqa davrlarga oid yodgorliklar va madaniy qatlamlar yuq.

Tadqiqotchilar Markaziy Farg'onadagi mezolit davri yodgorliklarini 2 guruhini aniqlab, uning rivojlanishidagi ilk va so'nggi bosqichini aniqladilar. Ilk mezolit davri miloddan avvalgi IX—VII yilliklarga oid bo'lib, unga Ittak qal'a 2, Achchiko'l 1,7, Yangi qadam 1,2 va Toypoq 1 makonlari kiradi.

Markaziy Farg'onaning so'nggi mezolit davri miloddan avvalgi VI ming yilliklarga mansub. Unga Achchiko'l, Bekobod 3,4, Sho'rko'l 1, 2, Madyor 11, Zambor 2, Toypoq 3,5,7 va boshqa joy makonlarni kiritish mumkin.



Markaziy Farg'onadagi yashagan mezolit davri qabilalari xo'jalik hayotida ovchilik va termachilik bilan bir qatorda baliqchilik ham muhim rol o'ynagan. Bunga ularning ko'llar yoqasida istiqomat qilganliklari imkoniyat yaratgan.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, mezolit davrida Janubiy va Markaziy Farg'ona hududlarining qulay geografik sharoiti mazkur joylarda ibtidoiy kishilarning keng tarqalib yashashlari uchun imkoniyat yaratgan.

**Machay g'or makoni** mezolitning so'nggi bosqichiga oid yodgorlik bo'lib, u Hisor tizmasining Ketmonchopti tog'ining janubidan Machay daryosining o'ng sohilidan topilgan.

G'or-makon ko'p qatlamli bo'lib, u yerdan ko'p miqdorda tosh qurollari va oz miqdorda suyakdan yasalgan mehnat qurollar ham topilgan. Suyak qurollar 15 nusxada bo'lib, ular bigiz, igna, so'zan va boshqalardir. G'orning madaniy qatlamlaridan jami 870ta toshdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. Ular har xil shakldagi nukleuslar, retushlangan va retushlanmagan paraqa va paraqachalar, tosh pichoqlar, arrasimon qurollar, keskich, ushatgich toshlar, nayza va o'q uchlari, trapesiyalar, sigmentlar va boshqa xil qurollar topilgan. Machay g'oridan topilgan qurollarning ishlanish texnikasi, katta kichikligi Tojikistonning Vaxsh daryosi havzasidagi, Markaziy Farg'ona va Toshkent vohasidagi mezolit qurollariga ancha o'xshab ketadi. Lekin ularning o'ziga xos jihatlari ham bor.

Machay g'orining madaniy qatlamlaridan antropologik materiallar – odam bosh suyaklari, tishi, jag'i va boshqa a'zolarining suyak qoldiqlari topilgan. Haligacha O'rta Osiyoning mezolit davriga oid yodgorliklaridan bunday topilmalar topilgani yo'q. Shu jihatdan Machaydan topilgan odam suyaklari juda katta amaliy va ilmiy ahamiyatga egadir. Tadqiqotlar natijasida kalla suyaklarining biri ayol kishiga, biri erkak kishiga va uchinchi yosh bolaga mansub ekanligi aniqlandi. Antropologik materiallarni chuqur o'rganish asosida, ularning qaysi irqqa mansub ekanligi aniqlandi. Ularning hammasi yevropoid irqiga mansub deb topildi. Bu materiallar O'zbekistonning eng qadimgi aholisini, uning tashqi qiyofalarini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

G'orning madaniy qatlamlarini qazish jarayonida antropologik materiallar bilan bir qatorda xilma-xil hayvonlarning suyaklari – paleontologik materiallar ham topildi. Paleozoolog B. Botirov Machay g'oridan 20 xildan ortiq hayvon suyaklarini topdi. Ular qizil bo'ri, tulki, bars, mo'ynali suvsar, quyon, jayra, olmaxon, dalasichqon, to'ng'iz, Buxoro bug'usi, ayiq, echki, toshbaqa va boshqa yovvoyi hayvonlarga mansub bo'lgan. Machayliklar asosan arhar va jayron ovlaganlar.

G'ordan hayvon suyaklarining topilishi bu yerda yashagan mezolit davri kishilari ovchilik va termachilik shug'ullanganliklarini bildiradi. Tadqiqotlar g'orning mil.av. VII – YI ming yilliklarga mansub ekanligini ko'rsatdi.

**Ayrtom yodgorligi** janubiy O'zbekistondagi mezolit davri yodgorliklaridan biri hisoblanadi. U Termizdan 18 km sharqda, Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan ko'p qatlamli yodgorlikdir. Bu yerdan mezolit davriga oid tosh qurollar, nukleuslar, pichoqsimon paraqalar, uchrindilar, qirg'ichlar, teshgichlar, tosh parmalagichlar, o'q va nayza uchlari topilgan. Ular Obishir, Tutqovul, yodgorliklaridan topilgan tosh qurollariga o'xshab ketadi. Qoyatoshlarga chizilgan rasmlar ibtidoiy odamlarning dunyoqarashi bilan bog'liq.

**Qoyatosh rasmlari** O'zbekistonning tog'lik rayonlarida keng tarqalgan. Qoya toshlarga rasmlar ikki usulda chizilgan: 1- har xil bo'yoqlar (oxra) bilan, 2- urib-o'yish yo'li bilan. O'zbekistonda urib-o'yib chizish usuli bilan ishlagan rasmlar, ya'ni **petrogliflar** juda keng tarqalgan. Bo'yoqlar bilan ishlangan rasmlar juda kam uchraydi.

O'zbekistonda qoya tosh rasmlarini o'rganish ishi asosan XX asrning 30 yillaridan boshlangan. Bu sohada G.V.Parfyonov, A.P.Okladnikov, J.Kabirov, X.Botirov, M.Xo'janazarov, Yu.Buryakov va boshqalarning xizmatlari kattadir.

O'zbekistondagi qoyatosh rasmlarining eng ajoyib namunalariga Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Qorachorvoqsoy, Ko'ksaroy, Ilonsoy, Teraklisoy, Tutlisoy, Sho'rbuloqsoy, Xo'jakent va boshqalarni kiritish mumkin. Ular jami 100 dan ortiq joydan topilgan.

Mazkur joylardagi qoyatosh suratlarda turli xayvonlarning tasvirlari, odamlarning harakatlari, ov manzaralari aks etgan. Ko'pincha bu tasvirlarda o'sha davr odamlarining diniy qarashlari bilan bog'liq tushunchalar aks etgan. O'zbekiston

hududidan topilgan eng mashhur yodgorlik Zarautsoy yodgorligi bo'lib, unda buqa va echkilarni ovlash manzarasi aks etgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu yodgorlik mezolit va neolit davrlariga, ya'ni mil.avv. VIII-IV ming yilliklarga mansubdir.

Qoyatoshlarga ishlangan tasvirlar arxeologik yodgorliklarning bir turi sifatida ajdodlarimiz madaniyati tarixini o'rganishda juda muxim ahamiyat kasb etadi. Qoyatosh rasmlari orqali qadimgi davr kishilarining xo'jalik xayoti haqida, hayvonlarni ov qilish, qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish, chorvachilikning vujudga kelishi, uning turlari haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlari qadimgi ota-bobolarimizning g'oyaviy qarashlari va diniy e'tiqodini o'rganishda juda muxim tarixiy manba hisoblanadi.

**Xo'jakent petrogliflar.** Toshkent shahridan 70 km uzoqlikda Chotqol tog' tizmasining g'arbiy tomonidan Chirchiq daryosining chap sohilida joylashgan. Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Xo'jakent qishlog'idagi qoya toshga ishlangan. Qoya toshning balandligi 12 mdan ortiq, uzunligi 18 metr bo'lgan monolit toshdir. Unda 90 dan ortiq petrogliflar aniqlangan: echkilar-49 ta, arxar-3 ta, kiyik-3 ta, ot-3 ta, ho'kiz-1 ta, it -2 ta, odam-6 ta, belgilar-2 ta, noaniq suratlar-17 tani tashkil qiladi.

Xo'jakent qoya tosh suratlarini 1949-50 yillarda X.Alpisboev topgan. XX asrning 70 -yillarida A.Kabirov, 80- yillarida M.Xo'janazarov tomonidan o'rganilgan. Bugungi kunda qoya toshning cho'kib borishi va tabiiy ta'sirlar natijasida bu rasmlar kamayib, xiralashib bormoqda. M.Xo'janazarov qoya toshda echki podalarining kelishi va ularning ikki tarafga ajralib ketishi jarayoni tasvirlanganligini aniqlagan. Echki podalarining old qismida yosh va kichik echkilar tasvirlari tushirilgan. Bunday rasmlar manzarasi Xo'jakentda 6 martotaba takrorlanadi. Arxarlar yugurayotgan holatda, bir-biriga qarab turgan holatda, shoxlari buralgan, ba'zida echki shohiga ramziy ma'no berilib, u bir necha bor aylangan tarzda chizilgan. Qoya toshda uchta ayol tasviri ham aniqlangan. Tadqiqotchilar fikricha, bu tasvirlar eneolit davriga, mil.avv. IV-III ming yilliklarga, ba'zilari mil.avv. I ming yilliklarga oid.

**Zarautsoy** – Surxondaryo viloyatining Sherobod tumani Qizil olma qishlog'idan 5 km. shimolda joylashgan. Hisor tog' tizmasining janubida-g'arbida

Qo'xitong tog'ining Zarautsoy dasarida, dengiz sathidan 2000 metr balandlikda bo'lgan. Qoya tosh rasmlari 1912 yilda I.Fyodorov tomonidan topilgan. Surxondaryo viloyati o'lkashunoslik muzeyi direktori, arxeolog G.V.Parfenov 1940-1945 yillarda tadqiqot ishi olib borgan. 1964 yilda A.A.Formozov, 70-yillarda A.Kabirov, 90-yillarda M.Xo'janazarov tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqotlar natijasida uning mil.avv. XII—V ming yilliklarga oidligi aniqlangan.

Qoya tosh rasmlar chizilgan g'or qoyaning 8,2 metr balandlikda joylashgan. G'orning balandligi 3,9 metr, kengligi 1,4-2,5 metr, uzunligi 5,2 metr bo'lgan. G'orga sharq tomondan kirilgan. G'orga chiqish juda murakkab, u yerdan madaniy qatlam topilmagan. Bu esa, g'orda hech kim yashamaganligini ko'rsatadi. G'ordagi rasmlar qizil oxra bilan chizilgan. U yerda uchta ov bilan bog'liq sahna aks ettirilgan. Odamlarning qushga o'xshab niqob qiyib buqalarni ovlayotgani, jayronlarni ovlash jarayoni va bunda bitta jayronga o'q tekkani aks ettirilgan. Uchinchi sahnada tog' echkilarni ovlash jarayoni tasvirlanagn. Unda echkilar real aks ettirilgan bo'lib, odamlar uchburchaksimon yopinchiqda. Ba'zilarining boshi qushga o'xshaydi.

**Sarmishsoy-** Navoiy shahridan 30-40 km shimoli-sharqda Nurota tog' tizmasining janubiy yonbag'rida Sarmishsoy dasarida joylashgan. Mezolit davridan o'rta asrlargacha bo'lgan davrlarga oid 10000 dan ortiq petrogliflar topilgan. Rasmlar daraning 2,5 km uzunligini egallagan. Rasmlarda ov jarayonlari, hayvonlarning o'zaro urushi, chorvachilik, raqsga tushayotgan odamlar, diniy marosimlar, xonaki va uy hayvonlari, o'q - yoy, xanjar, qilich, nayza, dubulg'a, turli kiyimlar aks etgan. Buqalar, echkilar, kiyiklar, tuya, itlar, qoplon, sirtlon kabi hayvonlar chizilgan. Sarmishsoy 2009 yilda tabiiy arxeologik muzey kompleksi-qo'riqxonasiga aylantirildi.

O'zbekiston hududida mezolit davri jamoasi geografik sharoiti qulay bo'lgan dasht, tekisliklar, ko'l, daryo sohillarida, tog'li hududlarda yashab, ovchilik, baliqchilik, termachilik bilan shug'ullanganlar. Paleolit davrga nisbatan bu davrda tosh qurollarini ishlash texnikasi takomillashgan, qurollarining turlar ko'paygan, sifati yaxshilangan. Bu esa xo'jalikning rivojlanishiga va odamlar tafakkurining o'sishiga olib kelgan. Bu hol ibtidoiy jamoa tuzumining keyingi rivoji uchun asos yaratib bergan.



### **Mavzuni mustahkamlovchi savollar:**

1. Mezolit davrida iqlimning o'zgarishi insonlar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?
2. Qanday mehnat qurollari paydo bo'ldi?
3. Ko'shilish makonining o'ziga xos tomonlarining tushuntirib bering?
4. Farg'onadan qanday makonlar topilgan?
5. Machay g'or makoni topilmalarining ahamiyatini tushuntiring?
6. Mezolit davri yutuqlari nimalardan iborat?
7. Obishir makoni haqida ma'lumot bering?

### **Yodda tuting !**

- Miloddan avvalgi 12 ming yillikdan 7 ming yillikkacha davom qiladi.
- O'q-yoy ixtiro qilingan
- Baliqchilik vujudga kelgan
- Qayiqalar ixtiro qilingan
- Tosh bigiz paydo paydo bo'lgan
- O'zbekistonda mezolitning 3 bosqichi aniqlangan
- Mikrolit qurollari vujudga kelgan.
- Odamlar ko'chmanchi hayot kechirganlar
- Qo'shilish makoni Toshkent shaxridan topilgan.
- Obishir makoni Farg'ona vodiysidan topilgan.
- Machaydan topilgan odamlar yevropoid irqiga mansub.
- Qoyatosh rasmlari O'zbekistonning tog'lik rayonlarida keng tarqalgan.

#### 4-mavzu. Neolit davri va uning yodgorliklari

Reja:

1. Neolit davrining o'ziga xos xususiyatlari.
2. O'rta Osiyodagi neolit davri yodgorliklari.

**Tayanch so'zlar:** neolit, makrolit, chorvachilik, dehqonchilik, to'quvchilik, Joytun, Kaltaminor, Xisor, Sazag'on.

##### 1. Neolit davrining o'ziga xos xususiyatlari.

Jamiyat taraqqiyotidagi keyingi davr **neolit** deb nom olgan. U yunoncha "neo"—yangi, "litos"—tosh, ya'ni yangi tosh davri degan ma'noni beradi. Bu davr uzoq davom etgan tosh davrining yakunlovchi bosqichi bo'lganligi uchun shu nom bilan atalgan. Bu tushunchani fanga ingliz arxeologi Lebbok 1865 yilda kiritgan. Neolit davri xronologik jihatdan **miloddan avvalgi VI—IV ming yilliklarni** o'z ichiga oladi. Lekin turli xududlarda turli davrlarga to'g'ri keladi:

- Yaqin Sharqda mil.avv. 9500 yil oldin boshlanib, mil.avv. 4,5 ming yilikkacha davom qilgan va 9 bosqichda rivojlangan.
- Zakavkazeda mil.avv. 6-5 ming yilliklarni,
- O'rta Osiyoda mil.avv. 6-4 ming yilliklarni,
- Evropada — mil.avv. 7-1 ming yilliklarni o'z ichiga olgan.
- Mezoamerikada — mil.avv. 5-1,5 ming yillikdan milodiy 10-12 asrlargacha davom etgan.
- Avstraliya, Okeaniyaning tub aholisida, Janubiy Amerikanig ba'zi qabilalarida, Afrikda, tropik Osiyoning ba'zi qismlarida bu madaniyat milodiy 20 aslargacha ham saqlanib qolgan.

Yaqin Sharqda shakllangan neolit asosida Shummer va qadimgi Misr madaniyati vujudga kelgan. Bu mil.avv. 7 ming yillikda shakllangan Balkon neoliti va Jaytun madaniyatiga ham asos solgan. Neolit davrida jamiyatlar har xil taraqqiyot bosqichida bo'lganlar. Ba'zi mintaqalarda dehqonchilik va chorvachilik vujudga kelgan bo'lsa, ba'zi urug' jamoalar ovchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar.

Neolit davrida ibtidoiy qabilalar o'troq turmush tarziga o'tganlar. Doimiy yerto'la, loy, guvaladan qurilgan kulbalarda yashaganlar. O'troq turmush tarzi janubiy hududlarda dehqonchilikning kelib chiqishiga, cho'l mintaqalarda esa, o'troq ovchilik xo'jaligining qaror topishiga olib kelgan. Keyinchalik ovchilik xo'jaligi zamirida chorvachilik paydo bo'ladi.

Neolit davrining eng katta yutug'i ham **dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi** edi. Ko'pchilik olimlar bu kashfiyotning insonlar hayotidagi ahamiyatini inobatga olib, neolit davri inqilobi deb baho beradilar. Dastlab ingliz arxeolog olimi Gordon Chayld "*neolit inqilobi*" deb atashni taklifini kiritgan. Amerikalik olim R.Breydvud "*oziq-ovqat yetishtirish inqilobi*" nomi bilan yuritish lozim deb hisoblagan. Ibtidoiy odamlarning o'zlashtiruvchi xo'jalikdan **ishlab chiqaruvchi xo'jalikka** o'tishdi. Bu uzoq va mashaqqatli davom etgan jarayon bo'lgan. Termachilikning zamirida dehqonchilik yotgan, ovchilikning zamirida esa, chorvachilik yotgan. Tadqiqotchilar fikricha, dehqonchilik va chorvachilikning paydo bo'lishiga ayollarning mehnati va sinchkovligi sabab bo'lgan.

Neolit davrida toshni ishlash texnikasida yangi usullar—**silliqlash, pardozlash, arralash va parmalash** usullari ixtiro etiladi. Bu esa ibtidoiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni yanada tezroq rivojlanishiga olib keldi. Bu usullar hamma qurollarga nisbatan qo'llanilmagan. O'tkir tig' beruvchi qurollar yasashda kertma va yorma uslubidan foydalanganlar.

Ilk neolit davrida **makrolit qurollar** keng tarqalgan. Ular og'ir katta hajmdagi chaqmoqtoshdan ishlangan qurollar bo'lgan. Qurollar qumtosh taxtada silliqilgan. Tosh taxa tayanch vazifasini o'tagan. Qurollar ho'l kvars qumi bilan uzoq vaqt ishqash jarayonida silliqilgan. Silliqlangan tosh qurollar neolit oxiriga kelib parmalangan. **Parmalashda** suyak parma vazifasini bajargan. Suyak parmani qalqon ipiga o'rab aylantirganlar, unda suyakning uchiga nam qum sepib turilgan. Parmalangan qurolga **dasta o'rnatish** mumkin bo'lgan.

Neolit davrida qurollarning turi ko'paygan: tosh boltalar, ponalar, tosh teshalar, iskanalar, og'ir cho'qmorlar paydo bo'lgan. Tosh boltalar neolit davrida barcha og'ir yumushlarni bajargan. Uning xo'jalikdagi ahamiyati katta bo'lgan,

shuni e'tiborga olib, ba'zi olimlar bu davrni **"boltalar asri"** deb atashni ham taklif qilishgan.

Neolit davri jamoalarida mehnat qurollarini takomillashtirish bilan bir qatorda hunarmandchilikning bir qator tarmoqlari—**kulolchilik, to'quvchilik, zargarlik** kabi sohalari ixtiro qilindi.

Paleolit, mezolit davrlarida idishlar yog'ochdan yoki novdadan yasalgan bo'lsa, neolitning rivojlangan bosqichiga kelib, dag'al, chala kuydirilgan sopol buyumlar ishlab chiqarila boshlandi. Ularning tagi tuxumsimon bo'lib, ularning shakli neolit davri odamlarining ko'l yoqalarida, qumloqlardagi chaylalarda yashaganliklari bois shunday bo'lgan, ya'ni sopol idishlar ko'l yoqasidagi qum ustiga o'rnatilgan va ularni toshdan terilgan o'choqlarga qo'yish ham qulay bo'lgan. So'nggi neolit davriga kelib sopol buyum shakli o'zgaradi. Tuvaksimon - osti yassi va tekis idishlar paydo bo'ladi, maydalashadi. Idishlar loy lentalar asosida qo'lda ishlangan. Idishlar naqshi ham oddiydan murakkabga o'zgarib boradi. Idishlar bir yarusli xumdonlarda pishirilgan. Lekin idishlar qo'pol, mo'rt bo'lgan.

To'qimachilik hunarmanchilikning vujudga kelishi ham neolit davrining buyuk kashfiyoti hisoblanadi. Neolit davri odamlari hayvon yungi va o'simlik tolasidan mato to'qishni o'rganganlar. Shuningdek, yigirilgan ipdan baliq to'ri ham to'qilgan. Bu esa baliq ovlash ahamiyatini keskin ravishda oshirib yuborgan. Bunga suvda suzuvchi qayiqarning yaratilishi ham imkon bergan.

Neolit davri yutuqlaridan yana biri ona urug'i doirasida juft oilaning vujudga kelishi bo'lib, u urug' ichida oilaviy munosabatlarning izga tushishiga olib keldi va jamiyat taraqqiyotini yanada olg'a siljitdi.

Neolit ilk bosqichining boshlanishi jahon olimlari Natuf madaniyatidan boshlaydilar. Natuf madaniyati mezolit davriga oid bo'lib, mil.avv. 12 500 – 9 500 yillarda mavjud bo'lgan. Levanta (O'rta yer dengizining sharqiy tomonidagi mamlakatlar – Suriya, Falastin, Isroil, Iordaniya, Misr, Tursiya, Kipr) hududida shakllangan. Bu madaniyatda termachilik asosida ilk dehqonchilikni shakllantirgan. Ular birinchi bo'lib, itni xonakilashtirganlar. Inson bilan birga itlarni dafn qilishganlar.



Bu davrni sopolgacha bo'lgan neolit davri deb nomlanadi va u mil. avv. 9500-8500 yillarga to'g'ri keladi.

Natuf madaniyatining dastlab Quddus (Isroil)dan 27 km. shimoli-sharqda Shukbana g'oridan topilgan. Uni 1928-1932 yillarda D.Garrod tadqiq qilgan.

Natufchilarning uyi doira shaklidagi yarim yerto'la bo'lgan. Diametri 3-6 metrni tashkil qilgan. Uylarining poydevori toshdan ishlangan, uning ustiga xom g'ishtdan devor tiklangan. Devorlari qizil va oq-sariq rangli ohaq bilan bo'yalgan. Uylarning poli tosh to'shalgan. O'choq yirik toshdan ishlangan. Ovqatni ham issiq toshda pishirganlar. Makonda 100-150 odam yashagan. Markazda o'choq joylashgan. Mikrolit, o'q yoy, garpunlar, mayda keskichlar, yog'ochga o'rnatilgan qistirma o'roqdan foydalanganlar.

Natuf madaniyati asosida mil. av. IX/VIII-VII ming yilliklarda *Ierixon madaniyati* shakllangan. Bu madaniyatga oid ilk o'troq dehqonchilik qishlog'ining o'rni Tell as Sulton ("Sulton tepaligi") manzilgohining quyi madaniy qatlamida aniqlangan. 1950 yillarda Ketlin Kenyon tadqiqot ishlarini olib borgan. Ierixon madaniyatining dastlabki (Ierixon IA) bosqichda aholi yerto'la uy-joylardan iborat qishloqlarda yashagan. U 2,5 gektarni egallagan bo'lib, aholisi 2-3 mingni tashkil qilgan. Bu manzilgoh asosida keyinchalik Ierixon shahri shakllangan.

Mil. avv. 8000 yillarda qishloq atrofi tosh devor bilan o'rab olingan. Uning balandligi 3,7 metrdan 5,2 metrgacha bo'lib, qalinligi 1,5 metrni tashkil qilgan. Devor tashqi tomonidan 2,7 metr chuqurlikdagi handak bilan o'rab olingan. Tadqiqotchilar fikricha, bunday baland devor aholini suv toshqinidan himoyalagan. Devor bo'ylab doira shaklidagi binolar qurilgan bo'lib, ularda bir necha xonalar bo'lgan. Ierixonning devori yonidan baland minora ham topilgan. Uning balandligi 8,5 metr, poydevori diametri deyarli 9 metr, tepasi - 7 metr bo'lib, devorlarning qalinligi 1,5 metrni tashkil qilgan. Minoraning ichiga tepasidan yigirma ikki zinapoya bilan tushilgan. Minoraning mil.avv.8 ming yilliklarga oid ekanligi isbotlandi. Tadqiqotchilar fikricha, minorada diniy e'tiqod bilan bog'liq marosimlar o'tkazilgan bo'lishi mumkin.

Shahar ichida ko'chalar shakllanmagan va uylar betartib tarzda qurilgan, rejalashtirilmagan. Manzilgohdan motiga, o'roq qadamasi kamon paykoni vazifasini bajargan ko'p sonli mikrolitlar topilgan. Tirikchilik manbai termachilikdan iborat bo'lib, uning asosida dehqonchilikning ilk kurtaklari paydo bo'la boshlagan. Yerixon madaniyatini yaratgan aholi marhumlarni o'z uylari poli ostiga dafn qilganlar. Uylarning poli ositidan 279 marhumlarning qabrlari topilgan. Marhumlar gujanak holda kuzatuv buyumlari bilan birga ko'milgan. Ierixonliklar diniy e'tiqodida ajodlar ruhiga sig'inish odatiga amal qilingan.

Ierixon madaniyatining ikkinchi bosqichda (Ierixon IB) shimoldan aholi ko'chib kelib joylashadi. Ularning uy-joylari yer ustida qurilgan. Bu davrda dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Dehqonchilikda lalmikor sug'orish uslubidan foydalanganlar. Soylarning etagida joylashgan tekis maydonlarga ekilgan boshhoqli don ekinlari bahorgi yomg'ir suvi bilan liman usulida ikki-uch marta sug'orilgan. Dehqonchilikda arpa va bug'doy ekilgan. Yerlarga motiga yordamida ishlov berilgan. Hosil tosh o'roqda o'rib olingan. Ovchilik asosida xonaki chorvachilik shakllangan. Topilgan suyaklarga ko'ra faqat echki, qo'y, mushuk xonakilashtirilgan. Aholi orasida ovchilik xo'jaligi ahamiyatini saqlab qolgan.

Tosh qurollardan kamon o'qining uchi, o'roq qadamalari, keli, don yanchgich, turli idishlar, tosh boltalar topilgan. Loydan antropomorf va zoomorf haykalchalar yasalganlar. Ierixon madaniyatining oxirgi bosqichida sopol idishlar paydo bo'lgan. Dastlabki sopol idishlar qo'lda yasalgan.

Ilk ishlab chiqarishning ikkinchi markazi Kichik Osiyo hisoblanadi. Bu yerda muqum o'troqlashgan aholining muntazam qishloqlari shakllangan. Xojilar, Cheyniyutepa, Chatal Huyuk, Ashikli Huyuk, Jon Hasan yodgorliklarida neolit davri o'troq dehqon jamoasining uy-joy imoratlari aniqlangan. Xojilar manzilgohining quyi qatlamida neolit davrining ilk bosqichiga oid xom g'ishtdan qurilgan uylarning o'rni aniqlangan.

## 2. O'rta Osiyodagi neolit davri yodgorliklari.

O'rta Osiyoda neolit davri jamoasi rivojlanishining 2 xil ko'rinishi mavjud bo'lgan:

1. Janubiy—g'arbiy hududlarida, hozirgi Turkmanistonning Kopetdog' tog'i oldi daryo xavzalarida ilk dehqonchilik madaniyati shakllangan.

2. Markaziy va shimoliy hududlarida esa, neolit davri jamoalari ovchilik va baliqchilik xo'jaligi bilan shug'ullanganlar. Mintaqalararo rivojlanishning o'ziga xos jihatlari tabiiy—iqlim sharoitidan kelib chiqqan.

O'rta Osiyoda neolit davri yodgorliklarini bir necha yirik territorial—xo'jalik shakllarga ajratilgan:

- ✓ **Joytun madaniyati** - Kopetdog' yon bag'rilarida shakllangan,
- ✓ **Kaltaminor madaniyati** - Amudaryo va Zarafshonning quyi havzalarida, Qizilqumda shakllangan,
- ✓ **Hisor madaniyati** - Hisor tog' tizmalarining dara va yaylovlarida shakllangan,
- ✓ **Markaziy Farg'ona madaniyati**- Farg'ona vodiysida keng tarqalgan,
- ✓ **Sazag'on madaniyati** - O'rta Zarafshon vohasida keng tarqalgan,
- ✓ **Ustyurt neoliti madaniyati** Ustyurtda tadqiq etilgan.

**Joytun madaniyati** O'rta Osiyoning janubiy—g'arbiy hududida ilk **dehqonchilik** bilan shug'ullangan qabilalar yodgorligidir. Uning izlari faqat Turkmanistonning janubiy—g'arbiy hududlaridan topilgan. Olimlar uni miloddan avvalgi VI ming yilliklar oxiri V ming yilliklar boshlariga oid deb hisoblashadi. Uni B.A.Kuftin, V.M.Masson, D.Durdiev, O.Berdievlar tadqiq qilgan. Joytun madaniyatiga Bami, To'g'oloqtepa, Chag'illitepa, Munchoqlitepa, Cho'pontepa, Joytun, Nayzatepa, Chag'illitepa, Pessejiktepa\_ kabi bir qator ibtidoiy dehqonlarning manzilgohlari kiradi. Joytun qishlog'ida uch qurilish bosqichi aniqlangan. Unda uylar to'rtburchak shaklida qurilib, devorlari guvaladan ishlangan va somon bilan suvalgan. Uylarning yonida xo'jalik xonalari - omborxonalar, saroy va o'ralar ham bo'lgan. Joytun uylari devorining qalinligi 30 sm ni tashkil etgan. Har bir uyda (xonadonda) 5-6 kishidan iborat oila

yashagan, deb taxmin qilinadi. Hammasi boʻlib, Joytunda 30 ga yaqin uy-joy komplekslari boʻlgan, ularda 150-180 kishi isteʼqomat qilgan.

Uyning ichki oʻng tomonida katta toʻgʻri burchakli oʻchoq mavjud boʻlib, u loydan (guvala) qurilgan. Tosh qurollari asosan chaqmoqtoshdan ishlangan. Prizma va konussimon nukleuslar koʻplab topilgan. Geometrik shakldagi mikrolitlarning keng tarqalishi Joytun madaniyatining muhim xususiyati hisoblanadi. Ulardan qadama tigʻ sifatida foydalanishgan.

Joytunliklar kulolchilik buyumlarini qoʻlda yasaganlar va geometrik naqshlar bilan bezaganlar. Ilk Joytun madaniyatida bezakli sopol idishlar kam uchraydi. Bezakli idishlar koʻproq qizil rang bilan ishlangan. Ilk Joytun sopol idishlarida toʻlqinsimon chiziqalar uchrasa, soʻnggi Joytun sopol idishlarida toʻrsimon chiziqalar asosiy oʻrinni egallaydi.

Bu yerdan hayvon va odam gavdasi tasvirlangan haykalchalar, munchoq, shaxmat donalari topilgan. Haykalchalardan koʻproq echki, qoʻy haykallari uchraydi. Haykalchalar urugʻning sigʻinadigan buyumi deb taxmin qilinadi.

Choʻpontepa qishlogʻidan bir necha qabrlar topib oʻrganilgan. Qabrlardan gʻujanak holda yon tomoniga yotqizilgan va ustiga qizil oxra sepilgan odamlarning suyaklari topilgan. Bu qabrlar neolitning eng soʻnggi bosqichiga tegishlidir.

Joytun madaniyati yodgorliklaridan topilgan moddiy manbalar ularning dehqonchilik bilan birga, chorvachilik, ovchilik bilan ham shugʻullanib, oʻz davrining katta yutuqlarini qoʻlga kiritganligini koʻrsatdi.

**Hisor madaniyati** togʻli mintaqalarda yashab, asosan hayvon ovchiligi bilan shugʻullagan qabilalar madaniyatidir. U Tojikistonning togʻli mintaqalarida keng tarqalgan. Ularning izlari 300 dan ortiq joydan topilgan. Bu madaniyatga oid dastlabki yodgorlik Dushanbe shahri yaqinidagi Hisor vodiysidan topilganligi sababli Hisor madaniyati nomini olgan.

Hisor madaniyatining harakterli tomoni, uning aholisi qayroqtosh tosh qurollariga oʻziga xos ishlov berishgan. Uning ishlanish uslubi oʻrta paleolit davridagiga oʻxshaydi. Sopol idishlar qoʻlda ishlanib, geometrik naqsh berilgan.



Arxeologlar Tutkovul makonidan yarim yerto'la shakldagi uy qoldig'ini va 4 ta qabrni topib o'rganganlar. Jasadlar g'ujanak holda yotqizilib, oyoq–qo'llari bog'langan holda ko'milgan. Bu mozorlar Hisor madaniyatining so'nggi bosqichiga tegishlidir.

Xuddi shu davrda O'rta Osiyoning shimoliy va markaziy hududlarida ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug'ullangan neolit davri jamoalari istiqomat qilganlar. Bunday yodgorlik XX asrning 30–40 yillarida S.P.Tolstov tomonidan Amudaryoning quyi havzasida topilgan va fanga **Kaltaminor madaniyati** nomi bilan kiritilgan. Yodgorlik Amudaryoning Oqchadaryo o'zanidan chiqqan qadimgi Kaltaminor kanali etaklaridan topilgani uchun shu nom berilgan.

Kaltaminor madaniyati O'rta Osiyoning g'arbiy va shimoli–g'arbiy tomonidagi yerlarida keng tarqalgan. Uning shimoli–g'arbiy chegarasi Ural daryosining o'rta va quyi oqimlarigacha, g'arbiy chegarasi Kaspiy dengizigacha borib taqalgan. Janubda Qoraqum va Qizilqum etaklarigacha, sharqda esa, Orol dengizining shimoliy, sharqiy va janubiy tomonidagi quyi Sirdaryogacha borib taqaladi. Qizilqum va Ustyurtning katta teritoriyasida ham Kaltaminor madaniyati ancha keng tarqalgan.

Kaltaminor madaniyatini o'rganish jarayonida olimlar uning rivojlanish bosqichlarini aniqladilar – Daryolisoy (mil.avv. YI–IY ming yilliklarga oid), Jonbos (mil.avv. IY–III ming yilliklarga oid) va Saksovul (mil.avv. III ming yillik oxiri –II ming yillik boshlariga oid).

Oqchadaryo havzasidan ko'plab kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar topilgan. Ularning 3-4 ta manzilgohning madaniy qatlami buzilmasdan saqlanib qolgan. Bular Jonbas-4, Qavat-7, Tolstov manzilgohi, Tumek Kichidjik qabristonidir.

**Daryolisoy yodgorliklari** qadimgi Zarafshon daryosining eng qadimgi o'zanlardan biri – Daryolisoy bo'ylaridan topilgan makonlar hisoblanadi. Daryolisoy sohillaridan ilk neolit davriga oid qirg'ichlar, tarashlagichlar, paraqalar va trapesiyalar topilgan. Bu yerdan boshqa joylarga xos bo'lmagan o'ziga xos shoxdor trapesiyalar topildi. Makondan naqshli sodda sopol idishlarining parchalari ham topilgan. Neolit davri odamlari daryo sohilida makon qilib, baliqchilik, ovchilik bilan shug'ullanganlar.

Neolit davri yodgorliklari Qizilqumning Chinkeldi, Echkiliksoy, Xo'ja Gumbaz, Qoraqat degan joylardan ham topilgan. U joylardan topilgan arxeologik manbalar Daryolisoy topilmalariga o'xshash bo'lganligi sababli uni Daryolisoy tipidagi ilk neolit davri yodgorliklari qatoriga kiritadilar.

**Jonbos-4 makoni** Oqchadaryo qirg'oqlaridan topilgan. Uni S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari o'rgangan. Makondan chaqmoqtoshdan yasalgan mehnat qurollari, sopol parchalari, hayvon va baliq suyaklari bilan birga katta chayla qoldig'i ham topilgan. Chaylada neolit davrida yong'in bo'lganligi aniqlangan. U qalin loyqa ostida qolgan.

Chayla yarim yerto'la shaklida bo'lib, uning maydoni 290kv.m (24m x 17m) bo'lgan. U yog'och ustun, sinchlar bilan ko'tarilgan. Uning tomiga ko'ndalang yog'ochlar tashlanib, usti qamish bilan yopilgan. Chayla sathining ko'p joylaridan katta-kichik chuqurchalar topilgan. Bu ustun va sinchlar o'rnatilgan chuqurchalar bo'lgan. Chayla o'rtasida katta markaziy o'choq qoldig'i, uning atroflaridan esa, 100ga yaqin mayda o'choqlar qoldig'i, chayla atrofidan esa kul, kuygan qamish va yog'och qoldiqlari topilgan. S.P.Tolstov hisobiga ko'ra, bu yerda 120-125 odam yashagan. Jonbos-4 katta urug' jamoaning makoni bo'lgan.

Jonbos-4 makonidan so'nggi neolit davriga xos nukleuslar, nayza paykonlari, qirg'ich, o'q uchlari va tosh qurollar topilgan.

Makonning madaniy qatlamidan baliq, yovvoyi cho'chqa, qirg'ovul, o'rdak, g'oz tuxumlari po'choqlari, jiyda danaklari ham topilgan. Topilgan suyaklarning 86% baliqlarning suyaklari bo'lib chiqqan. U yerdan sopol idishlarning parchalari ham topilgan bo'lib, ular tuxumsimon shaklda, osti yassi bo'lib, sopol idishlarning sirti ilon izi, archa bargi singari, romb, uchburchak, to'lqinsimon geometrik naqshlar berilgan. Kaltaminorliklar sopol idishlarini o'ziga xos tarzda yasaganlar. Ular qopga o'xshash narsaga qum solib, atrofini loy bilan shuvab chiqqanlar va quritilgan. Keyin yer tandariga o'xshash xumdonga bir nechtasini terilib, olov yoqilgan va xumdon og'zi bekitilgan. Katta haroratda olov yonib, idish ichida iz qoldirgan. Shu sabab sopol buyumlari tuxumsimon shaklda bo'lgan, lekin idish ichi pishmasdan qolgan. Sopol

loyiga yantoq yoki qamishning toza kuli solingan. Sopol qozonlarga esa maydalangan toshlar qoʻshilgan.

Jonbos-4 atrofidagi taqirlardan neolit davriga oid ikkita qabr topilgan. Marhumlar gʻujanak holda, yaʼni oyoq-qoʻllarini bukib koʻmilgan. Qabrlarning har xil joylaridan turli taqinchoqlar, chaqmoqtosh qurollar, sopol idishlar siniqlari va qizil boʻyoq qoldiqlari topilgan. Bu topilmalar kaltaminor madaniyatiga xos edi.

**Tolstov manzilgohini** A.V.Vinogradov Jonbos-4 makoniga yaqin joydan topgan va ustози S.P.Tolstov sharafiga "Tolstov manzilgohi" nomini bergan. Tadqiqotlar natijasida makonning rivojlangan neolit davriga toʻgʻri kelishi va mil.avv. IVming yilliklarga oid ekanligi aniqlandi.

Makondan ikkita xona qoldigʻi topilgan boʻlib, ulardan birining maydoni 110–120kv.m. Xonaning konussimon tomi avval qamish, soʻngra daraxt qobigʻi bilan yopilgan. Xonadan ustun qoldiqlari va oʻchoq izlari aniqlandi. Makondan chaqmoqtoshdan ishlangan mikrolit qurollar, kamon oʻq uchlari, turli xil suyak qurollar – garpunlar, qarmoqlar, ignasimon uchli qurollar, ignalar, silliqanib ishlangan boltachalar, tosh va sopollarni silliqlaydigan asboblardan, chigʻanoqlardan, parranda suyaklari va feruza toshdan yasalgan taqinchoqlar topilgan. Shuningdek, qora-qizgʻish va oq rangdagi boʻyoqlar bilan boʻyalgan turli naqshlar bilan bezatilgan sopol buyumlarning parchalari topilgan. Tolstov manzilgohidagi tosh qurollarning Darvozaqir I, II va Katta Tuzkon makonlaridagi qurollar bilan oʻxshash tomonlari aniqlangan.

Tolstov manzilgohidan topilgan ashyolar Kaltaminor madaniyatining oʻziga xos xususiyatlarini yanada oydinlashtirdi. Jumladan, Kaltaminor xoʻjaligining asosini baliqchilik tashkil qilgan. Baliq ovida toʻrdan, suyak garpunlardan, tosh sanchqidan va qarmoqlardan keng foydalanganlar. Ularning namunalari Kaltaminor madaniyati yodgorliklarida koʻplab uchraydi. Xoʻjalikda hayvon ovi ham muxim axamiyatga ega boʻlgan. Ular asosan, yovvoyi choʻchqa, buxoro ohusi, jayron, qulon, saygʻoq va boshqa hayvonlarni ovlaganlar. Ovda ular oʻq-yoydan keng foydalanganlar. Xoʻjalikda pardozlangan tosh boltalar va teshalardan foydalanishgan. Axolisi toʻqimachilik bilan ham shugʻullanib, oʻzlari uchun kiyim-kechak va baliqlar uchun

to'rt to'qishgan. Xo'jaligining uchinchi tarmog'i termachilik bo'lgan. Yodgorliklarda yovvoyi jiyda danagi ko'plab topilgan.

Sirdaryoning pastki oqimida so'nggi neolit davriga oid ko'pgina makonlar tadqiq qilindi. Shulardan Saksovol va Shulqum qarorgohlaridan katta material olingan. Bu yerdagi ibtidoiy jamoalar ko'pincha qirg'ich qurollarini tosh siniqlaridan yasaganlar. Sopol idishlarning turli shakllari mavjud. Ular tuxumsimon shaklda bo'lib, tagi tekis ishlangan va qisman naqshlangan.

Kaltaminor madaniyatining ijtimoiy rivojlanishida matriarxat davri bo'lib, juft oilalar shakllagan edi. Bundan Jonbos-4 makonidan topilgan 100 ga yaqin mayda o'choqlar darak beradi. Shuningdek, kaltaminorliklar o'z faoliyatlarida tabiatga butunlay qaram edilar. Ular yashash joylari- kulbalarini daryo va ko'l buylarida qurganlar. Daryolar o'z o'zanini o'zgartirishi bilan ular ham o'z manzilgohlarini o'zgartirganlar.

Hozirgi kunda Kaltaminor madaniyati izlari Sirdaryoning quyi oqimi, Qizilqumning ichki hududlari va Zarafshonning quyi havzalarida topilgan.

**Tumek-kichidjik qabrstoni** – so'ngi neolit davriga oid muhim yodgorlik bo'lib, u 1972 yilda Amudaryoning quyi oqimidan topilgan. U yerda tadqiqotlar 1973–1974 yillarda olib borildi. Qazishmalar vaqtida 27 ta qabr ochib o'rganildi. Qabrga dafn etilganlar chalqanchasiga yotqizilgan, boshlari esa, asosan, shimoli-sharqqa qaratib qo'yilgan va kiyim boshlari bilan ko'milgan. Skletlar ustida taqinchoqlar saqlanib qolgan. Tosh qurollar va sopol buyumlarning parchalari qo'yilgan. Qabrdagi suyaklarda qizil rang izlar mavjud. Bu ularning diniy e'tiqodlari bilan bog'liq bo'lgan.

Tadqiqotlar natijasida neolit davrida Zarafshon daryosining beshta tarmog'i Amudaryoga qo'shilganligi aniqlandi. Mazkur tarmoqlar Qizilqum hududida katta, kichik ko'llarni hosil qilgan. Zarafshon daryosining yirik tarmog'i Moxandaryo bo'lib, uning ham oqimida ko'llar shakllangan. Bugungi kunda ular sho'rlanib, xalq orasida Katta tuzkon, Kichik tuzkon deb atalib kelinadi. Shu qadimgi ko'l yoqalarida neolit davri aholisi iste'qomat qilgan. 1950 yillarda Ya.G'.G'ulomov Moxandaryo bo'ylab arxeologik qidiruv ishlarini olib bordi. 1960 yillarda esa bu hududda A.Asqarov bilan



O' Islomovlar tadqiqot ishlarini olib borib, 100 dan ortiq neolit davri manzilgohlarini topdilar.

Ular bir-biriga juda yaqin massofada joylashgan. Bu joylardan qirg'ichlar, pichoqlar, o'roq-randalar, nayza uchlari, o'roqlar, parma, teshkichlar, yorg'uchoq, qayroqtosh, bolta va boshqa buyumlar topilgan. Tosh qurollardan tashqari bu yerdan, taqinchoqlar, munchoqlar, sopol idishlari topilgan. Sopol idishlarning katta-kichikligi, bezagi har xil bo'lib, og'zi kengroq, osti dumaloq shaklda bo'lgan. Lekin bu yerda suyakdan qurollar topilmagan. Uning ko'plari mavsumiy manzilgohlar bo'lib, madaniy qatlamlar yetarli saqlanib qolmagan. Faqatgina Darvozaqir manzilgohida madaniy qatlam yaxshi saqlangan.

**Darvozaqir I** makoni Buxoro viloyatining Qorako'l shaharchasidan 40–45 km shimoli-g'arbidagi Katta Tuzkon ko'lidan 600–700 metr masofada joylashgan. U yerda 3ta madaniy qatlam topilgan bo'lib, yuqori qatlami buzilib ketgan. Lekin undan ancha boy materiallar tosh mehnat qurollari – silliqlangan tosh boltalar, qirg'ich, teshgich, o'roq-randa, parma topilgan. Ikkinchi qatlamdan esa gulxan qoldiqlari va oz miqdorda qurollar topilgan. Uchinchi qatlamdan esa, o'choqlar va turar joy qoldiqlari, silliqlangan tosh bolta, boshqa xil tosh qurollar, to'liqinli chiziqlar bilan bezatilgan sopol buyumlar va hayvon suyaklari qoldiqlari topilgan.

Darvozaqir madaniy yodgorliklariga o'xshash buyumlar Qashqadaryoning quyi oqimidan Qumsulton va Poykent pasttekisliklaridan ham topilgan. Poykent makonlaridan tosh bolta, qirg'ich, teshkich, o'roq qadamalar va sopol idishlarning siniqlari topilgan. Tadqiqot natijasida ularning mil.avv. IY–III ming yilliklarga mansubligini aniqlandi.

Neolit davrining **Sazag'on madaniyati makonlari** (Sazag'on 1,2, Tepako'l 3) Zarafshon daryosining o'rta xavzasida Samarqanddan 30 km janubi-g'arbda joylashgan. Sazag'on makonlaridan neolit davriga oid ko'plab tosh qurollari va hayvon suyaklari topilgan. Sazag'on madaniyati axolisi tog'li hududlarda yashab, asosan hayvon ovi bilan shug'ullanganlar. Shu sabab makonni qazish vaqtida ovchilikka moslashgan mehnat qurollari bilan birgalikda, uning yuqori qatlamlaridan yovvoyiy va uy hayvonlarining suyak qoldiqlari ham topilgan. Mehnat qurollari asosan tosh

parchalari va qo'pol paraqalar asosida yasalgan. Uning tosh qurollarining ishlanish texnikasi Markaziy Farg'onaning mehnat qurollariga o'xshaydi. Turli qurol aslahalar tarkibida silliqlangan tosh boltalar, qadama toshlar, yog'uchoqlar, kamon poykonlari bor. Sopol idishlari naqshlangan. Shuningdek, makondan eneolit davri qabrlari ham topib o'rganilgan. Ma'lum bo'lishicha, bu odamlar yevropoid irqiga mansub bo'lgan. Shunday tipdagi odamlar va dafn marosimlari Tojikistondagi Tutkovul makonida kuzatilgan. Makondan topilgan tosh industriyasi va boshqa topilmalarning umumiy xususiyati Sazag'on I manzilgohining ilk neolit davriga taalluqli ekanligini asoslash bilan birgalikda Markaziy Farg'onadagi shu tipdagi yodgorliklarga o'xshashligini ko'rsatdi.

**Markaziy Farg'ona neolit yodgorliklari** ilk neolit bosqichiga oid yodgorlik bo'lib, u XX asrning 50- yillarda tadqiq qilingan. Ular markaziy Farg'onaning cho'llarida topilgan bo'lib, bugungi kungacha 80 dan ortiq makon aniqlangan. Ular umumiy tarzda **Markaziy Farg'ona madaniyati** deb nomlanadi.

Neolit makonlari Qoraqalpoq dashtida, Mingbuloq, Sariqsuv, Oqqum, Damko'l va Qiziltepa hududlaridan topilgan. Ular jumlasiga Zambar 1,2, Yangiqadam 12,14, 16,19, 35, Mingbuloq, Sariqsuv, Uzunko'l, Dorozko'l, Madyor va boshqalarini kiritish mumkin.

Makonlarda madaniy qatlamlar saqlanmagan. U yerdan prizma, qalam shaklidagi tosh o'zaklar, qirg'ichchalar, randa, burg'u, keskich qurollari, paykonlar topilgan. Paykonlar asosan bargsimon shaklda bo'lgan. Qurollarning ko'pchiligi paraqa va tosh siniqlari asosida yasalgan. Geometrik shakldagi qurollar topilmagan.

Ibtidoiy odamlar ko'l, daryo va buloqlar atrofida o'z makonlarini qurib, ovchilik, baliqchilik va termachilik bilan shug'ullanganlar.

Markaziy Farg'onaning shimoliy qismida joylashgan Madyor 3,4 va boshqa makonlari so'nggi neolit davriga, ya'ni mil.avv. IY – III ming yilliklarga oiddir.

**Uchtut yodgorligi** chaqmoqtosh qazib olish va birlamchi ishlov berish ustaxonasi bo'lib, Navoiy viloyati Uchtut hududidan topilgan. Uni Ya.G'.G'ulomov rahbarligidagi ekspeditsiya 1960 yilda topgan. Yodgorlikni 1966–1967 yillarda

T.Mirsoatov o'rgangan va neolit davrga oid o'ra(shaxta)larni ochgan. Shuningdek, bu yerdan tosh davrining turli bosqichlariga oid moddiy buyumlar ham topilgan.

Dastlabki davrlarda ibtidoiy odamlar qoyalarda ko'rinib yotgan chaqmoqtoshlarni sindirib olganlar. Keyingi davrlarda chaqmoqtoshni qidirib, tog' yonbag'irlarida 4,5 va 5 metrli o'ralar kovlaganlar. Kerakli xom ashyoni olish uchun o'ralarning pastki qismidan har tomonga qo'shimcha yo'laklar ochib borganlar. O'ralar maxsus tosh, suyak va yog'ochdan yasalgan kurakchasimon qurollar yordamida qazilgan. O'ralar devorlarida kurakchalar izlari mavjud. Chaqmoqtoshni konchilar tosh boltalar yordamida kovlaganlar. Shuningdek, u yerda o't yoqib toshni qizdirishgan va sovuq suv quyib, portlatganlar. Ular keragicha xom–ashyodan olib, keyinchalik o'ralar og'zini harsang toshlar bilan yopib qo'yanlar. Arxeologlar bu yerda 100dan ortiq bunday o'ziga xos o'ralarni topganlar, ulardan faqat 35tasi o'rganilgan.

Uchtut yodgorligi singari shaxtalar faqat neolit davri yodgorliklarida uchraydi. Neolit shaxtalari Angliya, Fransiya, Daniya, Shimoliy Germaniya va Belorussiya kabi davlatlarda ham topilgan.

### **Mavzuni mustahkamlovchi savollar:**

1. Neolit davri yodgorliklarini sanang.
2. Kaltaminor madaniyati necha bosqichda rivojlangan?
3. Neolit davri yutuqlari nimalardan iborat?
4. Uchtutdagi neolit davri shaxtalari haqida ma'lumot bering?
5. Ishlab chiqaruvchi xo'jalik va uning mohiyati nima?
6. Joytun madaniyati qaysi hududda shakllangan?
7. Xisor madaniyati xususiyatlarini tushuntirib bering?
8. Markaziy Farg'ona yodgorliklarining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

### **Yodda tuting!**

- Miloddan avvalgi VI ming yillikdan IV ming yillikkacha davom qiladi.
- Dehqonchilik va chorvachilik vujudga kelgan.
- Kulolchilik, to'quvchilik, zargarlik paydo bo'lgan.

- Tosh quollarini silliqlash, parmalash uslublari vujudga kelgan.
- Odamlar o'troq hayot tarziga o'tganlar.
- Ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tilgan.
- Boltalar ixtiro qilingan
- Makrolit qurollar keng tarqalgan
- Juft oila vujudga kelgan

## **5-mavzu. Eneolit davri va uning yodgorliklari.**

### **Reja:**

1.Eneolit davrining o'ziga xos xususiyatlari.

2.Eneolit davri yodgorliklari.

**Tayanch so'zlar:** eneolit, Chatal-Uyuk, Cheyyunyu, mis, Sarazm, Anov, Zamonbobo, Lavlakon.

### **1.Eneolit davrining o'ziga xos xususiyatlari.**

Neolitdan keyingi davr eneolit deb ataladi. Lotincha "acneus"-mis va yunoncha "litos"-tosh so'zlaridan olingan bo'lib, mis—tosh davri ma'noni anglatadi. Eneolit miloddan avvalgi IV—III ming yilliklarni o'z ichiga oladi. Ko'pgina hududlarda neolit davri jamoalari bilan bir vaqtda hukmron bo'lgan.

Misning kashf etilishi va undan mehnat qurollari yasashning ixtiro qilinishi haqida fanda 2 xil fikr mavjud. Ba'zi olimlar mis dastlab bir joyda kashf qilinib, keyinchalik shu yerdan boshqa joylarga tarqalgan degan fikrni ilgari suradilar. Ular o'z fikrlarni janubi-g'arbiy Erondagi Chatal-Uyuk va Cheyyunyu tepaliklaridan mil.avv. VIII-VII ming yilliklarga oid misdan ishlangan taqinchoqlarning topilishi bilan isbotlaydilar. Ba'zi olimlar esa, mis va unga ishlov berish uslublari har bir hudud aholisining o'zlari kashf etganlar deb ko'rsatadilar.

Olimlar tomonidan misga ishlov berishning 4 bosqichi aniqlangan:

1-bosqichda misga sovuq holda ishlov berilgan. Mis qizil rangda bo'lganligi sababli, dastlab undan turli taqinchoqlar yasaganlar.

2-bosqichda misga olov orqali ishlov berib, undan turli mehnat qurollarining yasaganlar. Misning olovda erish xususiyati tasoddfan topilgan.



3-bosqichda rudadan misni ajratib olish usuli kashf etilgan.

4-bosqichda mis bilan qalayning aralashmasidan qattiq metall, ya'ni bronza kashf etilgan.

Mis Sharqiy Eron hududida mil.avv. VII ming yilliklarda, Ikki daryo oralig'i va Hindistonda mil.avv. VI ming yilliklarda, Misr va Bolkon yarim orolida mil.avv. V ming yilliklarda, Sharqiy Yevropa va qadimgi Amerika hududlarida mil.avv. IV ming yilliklarda, Janubiy Amerikada mil.avv. I ming yilliklarda kashf etilgan.

Misning erish xususiyati undan ancha kech ixtiro qilingan. Bu Yaqin Sharqda, Janubiy Turkmaniston hududlarida mil. avv. IV ming yilliklarda, Yevropa, Xitoy, O'zbekiston hududlarida mil.avv. III- II ming yilliklarda sodir bo'lgan.

B.A.Kuftin va V.M.Massonning janubiy Turkmanistonda olib borgan arxeologik tadqiqotlari asosida eneolit davrining rivojlanish bosqichlarini aniqladilar va eneolit davri rivojlanishi ilk, o'rta, so'nggi bosqichlarga bo'ldilar. Ular tadqiqodi natijasiga ko'ra, Nomozgoh-1—ilk eneolit davriga, Namozgoh-2—o'rta eneolit davriga, Namozgoh-3—so'nggi eneolit davriga xosdir. Eneolit davrida sug'orma dehqonchilik va xonaki chorvachilik ibtidoiy xo'jalikning asosini tashkil etgan.

Eneolit davri iqlim sharoiti hozirgi davrdan ancha farq qilgan. Yog'ingarchilik ko'p bo'lgan. Tog' oldi soylari, daryolar sersuv bo'lib, ular cho'l zonalarining ichkarisigacha kirib borganlar. Eneolit jamoalari shu suv etaklarida o'zlariga manzilgohlar qurib, yangi yerlarni o'zlashtirganlar.

Eneolitning ilk bosqichida aholi bir-biriga zich qilib qurilgan bir xonali uylardan iborat qishloqlarda istiqomat qilganlar. Uylar tor, kvadrat shaklida xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, xona devorlari somonli loy bilan suvalgan. O'rta bosqichida esa qishloqlarning markaziy qismi mudofaa devori bilan o'ralib, ko'p xonali uylar ham uchraydi. Ularning orasida doira shaklidagi xonalar ham bo'lib, tadqiqotchilar fikricha bu ibodatxona bo'lib, ular bu yerda olovga sig'inishgan. Eneolitning so'nggi bosqichida qishloqlar hududi kengayadi va ko'p xonali uylarning soni oshadi. Ularda dahlizlar va hovlilar vujudga keladi. Hovlilarni birlashtiruvchi tor ko'chalar rasmiylashgan va ularning hammasi qishloqning

markazidagi maydonga chiqqan. Har bir uyda xo'jalik kompleksi—omborxonalari bo'lgan.

So'nggi bosqichda qishloqlar yiriklashib, shaharlar qiyofasiga o'ta boshlagan. Shu jihatini inobatga olib, arxeologlar uni shaharlargacha (protogorod) bo'lgan davr madaniyati belgilari deb hisoblaydilar.

Eneolit davrida mehnat qurollari asosan toshdan, hayvon suyaklaridan va qisman misdan yasalgan. Mis mehnat qurollari mavjud bo'lganligi eng qadimgi mehnat qurollarini ximiyaviy analiz qilish asosida isbotlandi. Dastlabki mis qurollar sof misdan yasalgan. Odamlar dastlab misni toshning bir turi deb, sovuq holda ishlov berganlar. Miloddan avvalgi IV ming yilliklardagina uning olovda erish xususiyati kashf etilgan. Mis qurollari mehnat unumdorligini oshirgan, lekin mis tabiatda kam uchraganligi va tannarxi qimmat bo'lganligi sababli, u tosh qurollarni siqib chiqara olmagan. Shuningdek, uning boshqa metallarga nisbatan yumshoqligi va egiluchanlik xususiyati, ulardan hamma hududlarda bir xil foydalanishga imkon bermagan.

Eneolit davridagi mehnat qurollari asosan dehqonchilik xo'jaligi bilan bog'liq edi. Bu qurollar chaqmoqtoshdan ishlangan qistirma o'roq, pichoq, o'roq randa, qirg'ich, bigiz, yorg'uchoq, ketmoncha va boshqalar bo'lgan. Misdan bigiz, igna, to'g'nag'ich, bolta, pichoq, nayza, kurakchalar va turli taqinchoqlar yasaganlar.

Eneolit davrining ilk va o'rta bosqichida sopol loyiga maydalab ezilgan somon qo'shib idish yasalgan. Bu sopol buyumlar qalin va mo'rt bo'lib, tagi yassi bo'lgan. Sopol idishlar sarg'ish, och sariq, och qizil va qizil angob bilan bo'yalib, qora mineral rang bilan sodda geometrik naqsh berilgan.

So'nggi bosqichida esa sopol idishlar yasashda katta o'zgarishlar yuz beradi. Birinchidan, sopol buyumlar sifati yaxshilanadi, ya'ni loyga gips aralashtiriladi. Natijada sopol buyumlar jarangli va mustahkam bo'ldi. Ikkinchidan ba'zi sopol idishlarda 3 tadan oyoq paydo bo'ldi. Uchinchidan sopol buyumlar naqshi murakkablashib, jimjimador bo'ldi va hayvon, parrandalarning rasmini solish odat tusiga kirdi. Sopol idishlar turi ko'paygan.

## 2.Eneolit davri yodgorliklari.

O'zbekiston hududida Amudaryo etaklaridagi eneolit davri yodgorliklarini S.P. Tolstov, quyi Zarafshon hududlarini Ya.G'. G'ulomov, A. Asqarov, O'. Islomovlar tadqiq qilishgan.

O'rta Osiyoning shimoliy va markaziy hududlaridagi qabilalar metall bilan mil. avv. III ming yilliklar oxiri va II ming yilliklarning boshlarida birinchi bor tanishishgan. Bu hududlardagi eneolit davri makonlari qalin madaniy qatlamga ega bo'lmagan, ular qisqa muddatli makonlar tipidagi qishloqlar bo'lgan. Shunday makonlar Zarafshonning quyi oqimida Kaptar ko'li va Katta Tuzkon-35 mavzolari atrofining 4 ta joyidan eneolit davri makonlari topilgan. Bu yodgorliklar 1960 yillarning boshlarida A.Asqarov va O'.Islomovlar tomonidan o'rganilgan. Bu joylardan miloddan avvalgi III–II ming yillikning chegarasida iste'qomat qilgan eneolit davri urug' jamoalarining kulbalari qoldiqlari topilgan. Moddiy buyumlar – yorg'uchoqlar, o'roq, pichoq qadamlari, mis mehnat qurollarining siniqlari taqir va qum ustida sochilib yotgan.

**Sarazm madaniyati** eneolit davrining noyob yodgorligi hisoblanadi. Hozirgi Sarazm qishlog'i Zarafshon vohasining yuqori qismida O'zbekiston bilan Tojikistonning chegara hududida joylashgan. Shu qishloqda isteqomat qiluvchi Ashurali Toyloqov 1976 yili o'z tomorqasi va qo'shnilarining hovlilaridan topilgan sopol siniqlari, bronza bolta va pichoqlarni olib, Panjikent muzeyiga topshiradi. Bu topilmalar darhol olimlarning diqqatini o'ziga jalb qiladi va 1977 yilda u yerda tojikistonlik arxeologlar tadqiqot ishlarini boshlab yuboradilar. U yerda 1977 yildan beri Tojikistonlik arxeolog Abdulla Isaqov tadqiqot ishlari olib boradi. Keyinchalik bu yerda fransuz va amerikalik olimlar ham hamkorlikda tadqiqot ishlari olib bordilar.

Sarazm qishlog'i 90 gektar maydonni egallagan bo'lib, 10 tepalikdan iborat. Bu yerda aholi eneolit davridan ilk bronza davrigacha yashagan.

Sarazm madaniyati 4 bosqichda rivojlangan bo'lib, uning I va II bosqichlari eneolit davriga taalluqli.

Birinchi bosqichda Sarazmga asos solinadi. Bu davrda Sarazmliklar guvaladan bir xonali uylar qurib atrofni mudofaa devori bilan o'rab oladilar. Kulbalar yaqinida

ularning xilxonalari bo'lgan. Bu yerlardan sirtiga qora va qizil bo'yoqlar turli geometrik naqshlar solingan sopol parchalari, misdan yasalgan qurollar, mis oyna, oltin va kumushdan yasalgan taqinchoqlar, qimmatbaho toshlar—bronza, lazurit va serdolikdan yasalgan munchoqlar topilgan. Bu topilmalar Turkmanistonning Anov II moddiy buyumlariga ancha o'xshaydi. Olimlar bu davrning xronologiyasini radiokarbon usulida aniqlaganlar. U mil.avv. 3100–2930 yilliklarga mansub bo'lgan.

Ikkinchi bosqich so'nggi eneolitdan ilk bronza asriga o'tish davri hisoblanadi. Bu davrda qadimgi qishloqlar hududi ancha kengayadi, bir xonali guvala uylar o'rnida xom g'ishtdan yasalgan ko'p xonali uylar paydo bo'ladi. Ayrim uylarda oilaviy e'tiqod joyi—dumaloq shaklda ishlangan altar (olovxona) bo'lgan. Ko'p xonali xovlilar oralig'ida tor ko'chalar va maydonlar shakllangan. Qishloqning ikkita joyida ibodatxona bo'lgan. Ibadatxonalarning devorlari boshqa uylardan farqli ravishda qizil rangda bo'yalgan va ularning qoq o'rtasida mehrob joylashgan. Bu sarazmliklarning olovga sig'inish e'tiqodi mavjud bo'lganligini ko'rsatadi.

Qishloqdan toshdan ishlangan tarozi toshlari, to'qimachilik dastgohining qismlari, eshik osti toshlari, urchuq toshlari, misdan ishlangan pichoqlar, xanjarlar, qarmoqlar, igna va bigizlar topilgan.

Eneolit makonlari Buxoro viloyatining Lavlakon, Beshbuloq va Zamonbobo I makonlaridan ham topilgan.

O'zbekistonda eneolit davri manzilgohlari kam o'rganilgan. Lekin mavjud arxeologik manbalar asosida eneolit davrining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish yo'llarini aniqlab olish mumkin. Bu davrda O'zbekistonning shimoliy hududlarida hali neolit davri jamoalari, ya'ni Kaltaminor madaniyati jamoasi yashab kelardi. Lekin ularning janubiy hududlar bilan aloqasi ularning iqtisodiy xayotlariga o'zgarishlar olib keldi. Jumladan, 3 ming yillikning oxirlarida metall bilan tanishdilar, ilk chorvachilik va dehqonchilik xo'jaliklari paydo bo'la boshladi. Bu o'zgarishlar O'zbekiston hududida bronza davrida ijtimoiy – iqtisodiy hayotni jadal rivojlanishiga asos yaratdi.

### **Mavzuni mustahkamlovchi savollar:**

1. Nima uchun bu davr eneolit deb nomlandi?
2. Ilk eneolit davriga xos xususiyatlarni aniqlang?



3. O'rta eneolit davriga xos xususiyatlarni aniqlang?
4. So'nggi eneolit davriga xos xususiyatlarni aniqlang?
5. O'zbekistonning qaysi hududlaridan eneolit davri makonlari topilgan?
6. Sarazm madaniyatida uylar qanday qurilgan?
7. Nomozgoh madaniyatini kimlar o'rgangan?

### **Yodda tuting!**

Mis-tosh davri

Mil. avv. IV—III ming yilliklar

Mis qurollar yumshoq va egiluvchan bo'lgan

Ilk eneolit davrida bir xonali uylar bo'lgan

O'rta eneolit davrida ko'p xonali uylar paydo bo'lgan

So'nggi eneolit davrida qishloqlar shahar qiyofasiga kira boshlagan

So'nggi eneolit davrida sopol loyiga gips ko'shilgan

Jo'mrakli idishlar paydo bo'ladi

## **6-mavzu. Bronza davri va uning o'rganilishi.**

Reja:

1. Bronza davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Bronza davri xo'jaligida yuz bergan o'zgarishlar.
3. Bronza davri yodgorliklari

**Tayanch so'zlar:** Bronza, qalay, mis, tigel, qolip, Sopollitepa, Jarqo'ton, kenataf, to'g'ama tuzoq, mudofaa.

### **1. Bronza davri va uning o'ziga xos xususiyatlari.**

Bronzaning kashf etilishi ibtidoiy jamoa xo'jaligida buyuk o'zgarishlarga olib keldi. Bu insoniyatning iqtisodiy hayotigagina emas, balki siyosiy, madaniy, ma'naviy hayotida ham tub o'zgarishlar yasadi.

Bronzaning tarkibi mis va qalay qorishmasidan iborat bo'lgan. Eng yaxshi bronzaning tarkibida 90 % mis va 10 % qalay bo'lgan. U dastlab miloddan avvalgi III ming yillik oxirlarida Mesopatamiyada (ikki daryo oralig'ida) kashf etilgan. Bronza qurollar qattiq va ularga ishlov berish oson bo'lganligi uchun mis qurollarni siqib chiqardi. Shuningdek bronza misga nisbatan past haroratda erigan. Mis 1084 gradus haroratda erisa, bronza 700-900 gradusda erigan. Uning bunday past haroratda erishi, uning har bir xo'jalikda qurollar yasash imkonini bergan. Bu esa mehnat, jangovor qurollarning turi ko'payishiga va samaradorligining oshishiga olib kelgan.

Bronza maxsus qalin sopol idish—tigellarda eritilib, sopol qoshiqlar orqali tosh va sopoldan yasalgan qoliplarga solingan. Bronza qoliplarga yopishib qolmasligi uchun qoliplarga mumiyo surtilgan va bronza qolipdan oson ajralgan

Jahon tarixida bronza davri miloddan avvalgi III ming yillik oxirlaridan boshlanadi. Bu davrda Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning janubi-g'arbida davlatlar shakllanib, quldorlik jamiyati keng ravnaq topgan edi. O'zbekiston hududida esa bu davr miloddan avvalgi II ming yillikning I choragida boshlanib, miloddan avvalgi VIII asrlargacha davom etadi. Shuningdek jamiyat taraqqiyoti ham o'ziga xos tarzda davom etgan. O'rta Osiyoning janubiy hududlarida dehqonchilik madaniyati ravnaq topib, ilk shahar madaniyati tarkib topdi. O'zbekistonning janubiy—sharqiy va markaziy hududlarida, ya'ni Samarqand, Farg'ona, Qarshi vohasi hududlarida ilk shahar madaniyati izlari so'nggi bronza davriga kelganda vujudga keldi. Ungacha bu hududlarda ko'chmanchi chorvadorlar madaniyati, ya'ni Andronova va Tozabog'yob madaniyatlarini aholisi yashab kelgan. O'zbekistonning shimoliy hududlarida cho'l va dasht chorvachilik xo'jaligi yetakchi o'rinni egallagan. Zarafshon, Sirdaryo va Amudaryo etaklarida so'nggi bronza va ilk temir davrida chorvador qabilalar o'troqlashib, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullana boshlaganlar va ular asosida qishloqlar tashkil etiladi.

## 2. Bronza davri xo'jaligida yuz bergan o'zgarishlar.

Bronza davri xo'jaligining eng katta yutug'i bu dehqonchilik madaniyatining keng yoyilishi va uning chorvachilikdan ajralib chiqishidir. Bu jarayon fanda birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti deb nomlanib, miloddan avvalgi II ming yillikning 2 chi yarmida sodir bo'lgan. Ijtimoiy mehnat taqsimoti birinchi navbatda tabiiy sharoit muhitidan kelib chiqib ixtisoslashdi. O'rta Osiyoning janubiy va janubi-g'arbiy rayonlari dehqonchilik madaniyatining o'choqlariga aylandi. Uning cho'l va dasht zonalarida chorvadorlar va O'rta Osiyoning shimoli-sharqiy, shimoli-g'arbiy, markaziy hududlaridagi daryo etaklarida dehqonchilik madaniyati tarkib topa boshladi. Dehqonchilikdan chorvachilikning alohida soha bo'lib ajralib chiqishi qonuniy zaruriyat bo'lgan.

Bronzadan yasalgan qurollari mehnat unumdorligini oshirdi, takroriy sug'orma dehqonchilik asosida doimiy qishloqlar ko'paydi, yangi yerlar o'zlashtirildi, hunarmandchilikning yangi sohalari—metallurgiya, zargarlik rivojlandi, kulolchilikda charxdan foydalanishga o'tildi, uy-joy qurilishida g'ishtdan foydalanildi, mustahkam mudofaa devorlari qurila boshlandi. Chorvadorlar zonasida ot va eshakdan transport sifatida foydalanishga o'tildi. Gupchakli g'ildirakli aravalar paydo bo'ldi, jamiyat hayotida monogam oila tarkib topib, hayotda otalar yetakchi bo'la boshladilar, patriarxat davri boshlanib, urug' jamoasi yemirila boshladi va ilk davlatchilik elementlari shakllandi. Qo'shni mamlakatlar, ayniqsa chorvadorlar bilan dehqonlar o'rtasida tovar ayirboshlash jonlandi. Qabilalararo munosabatlarda, bir – biri bilan aralashib, yangi etnoslarning shakllanishi va ularning madaniyatlari vujudga kela boshladi. Masalan, hozirgi Qirg'iziston, Qozoqiston cho'llarida yashagan Andronova madaniyati chorvadorlari miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida O'zbekistonning shimoliy va janubiy hududlariga kirib borib, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan va Tozabog'yob, Qayroqqum kabi madaniyatlar shakllangan.

### 3. Bronza davri yodgorliklari

O'zbekiston hududidagi bronza davri yodgorliklarini o'rganishda S.P.Tolstov, V.I.Masson, Ya.G'ulomov, A.Asqarov, B.A. Litvinskiy, M.A.Itina, Yu.A. Zadneprovskiy, V.I.Sprishevskiy, T.Shirinov, B.Matboboev, B.Abdullaev va boshqalar olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, O'zbekistonning janubiy hududlarida, ya'ni Surxondaryo viloyati hududlarida ilk bronza davridayoq qadimgi dehqonchilik madaniyati shakllangan. Uning shakllanishida Murg'ob vohasidan kelgan dehqonlar asosiy o'rinni egallaganlar. Ular dastlab Sherobod cho'lini o'zlashtirib, Sopollitepa qishlog'ini tashkil qilganlar. Keyinchalik sopollitepaliklar asta-sekin Ko'hitong va Boysun tog' etaklari bo'ylab shimoli-sharqqa siljiganlar va Sherobod daryosi bo'ylab dehqonlarning qishloqlarini tashkil qilganlar. Tadqiqotchilar bu yodgorliklarni o'rganib, ularni **Sopolli madaniyati** nomi ostida fanga kiritganlar. Sopolli madaniyati 5ta xronologik bosqichga bo'linadi. O'zbekiston arxeologlarining keyingi yillarda olib borgan tadqiqotlari natijasida Sopollitepa madaniyatining xronologik sanasini ancha aniqlashtirdilar, ya'ni radiokarbon analizi va madaniyatlararo tarqalgan ashyolar tahlili yordamida 300–400 yilga qadimiylashtirdilar. Ular quyidagilardan iborat:

1. Sopolli bosqichi—miloddan avvalgi 2150—1900 yillar;
2. Jarqo'ton bosqichi—miloddan avvalgi 1900—1600 yillar;
3. Ko'zali bosqichi—miloddan avvalgi 1600—1450 yillar;
4. Mo'lali bosqichi—miloddan avvalgi 1450—1250 yillar;
5. Bo'ston bosqichi—miloddan avvalgi 1250—1000 yillar;

**Sopollitepa manzilgohi** Surxondaryo viloyatidagi Sherobod cho'lida Qaynarbuloqsoy hududida topilgan. U Termiz shahridan 70 km shimoliy—g'arbida joylashgan. Bu manzilgoh Sherobod cho'lini o'zlashtirish jarayonida 1968 yilda L.I.Albaum tomonidan ro'yhatga olingan. Uning tadqiqot ishlari bilan 1969—1974 yillarda A.Asqarov shug'ullangan. Ushbu madaniyatga tegishli 20 dan ortiq yodgorliklar topilgan.

Sopollitepa koridorsimon bloklar sistema asosida qurilgan, uch qator mudofaa devorlari bilan o'rab olingan yirik qishloq bo'lgan. Uning umumiy



maydoni 4 ga ga yaqin. Katta qismi paxta maydoniga qo'shib yuborilganligi sababli, faqatgina, uning markaziy qal'a qismi saqlanib qolgan. U kvadrat 82 X82 metr bo'lgan istehkomdir. Qal'a mudofaa devorlari qalinligi 2 metr bo'lib, somon qo'shilgan xom g'ishtdan qurilgan. Mudofaa devorlari to'lg'ama tuzoq usulida ishlanib, aniq o'lchamli koridorsimon bloklarga bo'lingan. Tashqi bloklar yo'laklar orqali ichkaridagi uy-joylar bilan birlashtirilgan. Ichki bloklar mudofaa tizimida qopqon vazifasini bajargan. Tashqaridan qaraganda ular qal'aga olib kiradigan darvozalarga o'xshaydi. Lekin qal'aga bitta darvoza orqali kirilgan. U qal'aning janubiy tomonida joylashgan. Qolganlari "yolg'on davrvoza" bo'lgan. Bu juda murakkab me'moriy reja edi. Mudofaa tizimidagi ichki va tashqi bloklar Sopollitepaning keyingi bosqichlarida urug' xilxonasi, uy-joy, kulolchilik ustaxonasi kabi maqsadlarda foydalanishgan.

Sopollitepada 3 ta qurilish bosqichi aniqlangan. Sopollitepaning 2 ta qurilish davri bir xil materiallar bergan. Yuqori 3-chi qurilish davrida ba'zi o'zgarishlar mavjud. Bu o'zgarishlar Jarqo'ton yodgorligining quyi qatlami materiallariga o'xshaydi. Shuning uchun Sopollitepadagi 2ta quyi qatlam "sopolli bosqichi", uning yuqori qatlami "Jarqo'ton" bosqichi deb yuritiladi.

Sopollitepadagi uy-joylar 8ta kvartallarga bo'lingan. Kvartallar urug'lar asosida shakllangan. Qishloqdagi 8 ta urug' jamoalari yashagan. Har bir kvartaldan 2-3 yoki undan ortiq xumdonlar va non pishiriladigan maxsus tandirlar, uy-joy qoldiqlar va 158 ta qabr topilgan.

Birinci qurilish bosqichiga oid 30 ta uy, ikkinchi qurilish bosqichiga oid 61ta va uchinchi qurilish bosqichiga oid 47ta uy qoldiqlari ochilgan. Olimlar fikricha, qishloq aholisi 155-315 kishidan iborat bo'lgan. Har bir oila o'z uyiga ega bo'lgan. Uylar orasida ko'chalar bo'lib, ular markaziy maydoni bilan bog'langan. Uylar ko'p xonali qilib, xom g'ishtdan qurilgan. Devorlari bir necha bor somonli loy bilan suvalgan, pollarga alebastr aralashgan loy yoki sopol siniqlari yotqizilgan. Xonalarda o'choq va sandal izlari saqlangan. Har bir xonadonning omborxonasi bo'lgan. Uylar ichidan toshdan, suyakdan, bronzadan yasalgan turli xil mehnat qurollar, sopol idishlar, turli taqinchoq va bezaklar, urug' va qabilalarning muhrlari, tamg'alari

topilgan. Ular mahorat bilan ishlangan. Topilmalar o'sha davr aholisining yuksak madaniy-xo'jalik rivojiga erishganligidan guvohlik beradi.

Sopollitepada sopol buyumlar kulolchilik charxida ishlanib, ikki yarusli xumdonlarda pishirilgan. Sopol idishlar jarangdor, yupqa qilib ishlangan. Ularning turli xil shakllari - oyoqli vazalar, qadahlar, jo'mrakli choynaklar, ko'zalar, xurmachalar, konussimon kosalar, tog'oralalar, xumlar, sopol tagkursi, qozonlar topilgan. Bular kulolchilikning rivojlanganligini ko'rsatadi. Sopol buyumlarda naqshlar yo'q, faqat ko'zali bosqichining ko'zalarida gorizontaal chiziqalar uchraydi.

Sopollitepada to'qimachilik sohasi ham rivojlangan. Bu haqda mozorlardan topilgan kiyim mato qoldiqlari darak beradi. Bu kiyim qoldiqlari ilmiy laboratoriya tekshiruvidan o'tkazilganda, ularning paxta va tabiiy ipakdan ishlanganligi ma'lum bo'lib, paxtachilik va ipakchilik bronza ham mavjud bo'lganligini isbotlaydi. Bu esa, ipakning bundan 2000 yil oldin Xitoydan O'rta Osiyoga kirib kelgan, degan fikrni rad qilib, O'zbekistonda paxtachilik va ipakchilik 3,5 ming yillik tarixga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Bu davrda metall bilan ishlash hunarmandchiligi ham taraqqiy etgan. Arxeologik qazishmalar vaqtida yuzlab metall buyumlari- uy-ro'zg'or buyumlari, harbiy qurollar, surmadonlar, to'g'nag'ich, hayvon ma'budalari, turli naqshdor tamg'a va muhrlar topilgan.

Sopollitepa manzilgohida urug' jamoa a'zolari olamdan o'tsa, uni o'zi yashagan xonaning poli ostiga, eshik yoki o'choq oldiga yoki xona devorlari ostiga ko'mish odati bo'lgan. Agar o'lgan kishi jamoada nufuzli obro'ga yoki urug' oqsoqoli bo'lsa, u holda uning qabri unga ajratilgan xonaning qoq o'rtasida bo'lgan. Sopollitepaliklar abadiy o'limga ishonmaganlar, "narigi dunyo" tushunchasi ularda kuchli bo'lgan. Shuning uchun o'lgan kishi qabriga o'z shaxsiy mulki va urug'doshlar keltirgan idish-tovoqlardagi ovqatlar bilan ko'mganlar. Har bir qabrda 2-3 tadan to 50 tagacha buyumlar topilgan. Yosh bolalar qabrlarida idishlar kam, o'smirlar qabrida esa 5-6 ta buyumlar topilgan. Ularning aksariyati sopol idishlar bo'lgan. Muzorlarda bronzadan ishlangan turli xil taqinchoqlar, diniy e'tiqod bilan bog'liq bo'lgan tumor-muhrlar, qimmatbaho toshlardan ishlangan turli xil munchoqlar, oltin munchoqlar, kumush halqa

va bilakuzuklar, erkaklar mozorlarining baʼzilari chaqmoqtoshdan ishlangan paykonlar, bronza oybolta, pichoq, mitti tesha, bolta va boshqalar, ayollar qabrida urchuq tosh, bronza surmadonlar, surmatosh, toʻqimachilik asboblari, turli shakllardagi bronza toʻgʻnogʻichlar, bronza oynalar, igna, bigiz, mitti kurakcha va boshqa narsalar qoʻyilgan.

Baʼzi yaxshi saqlangan mozorlarda lux, bugʻdoy va arpa poyasidan toʻqilgan savatchalar, teridan, yogʻochdan ishlangan idishlar, marmar toshdan yoʻnilgan hurmachalar topilgan. Muzorlarga qoʻyilgan buyumlarga qarab, marhumning duradgor usta, boʻzchi, kulol, tabib, podachi, ovchi, jangchi yoki chilangar ekanligini aytish mumkin. Qabrga erkaklar oʻng biqini bilan, ayollar chap biqini bilan yotqizilgan, oyoq–qoʻllari esa, gʻujanak holda koʻmilgan.

Baʼzi mozorlarga bedarak yoʻqolgan jamoa aʼzosining ruhi koʻmilgan. Bunday qabrlarga odatda odam haykalchasi yoki qoʻy va echki bolasi koʻmilgan. Bunday qabrlar fanda **ʻkenatafʼ** deb ataladi.

Qabrlardan topilgan predmetlarga qaraganda, urugʻ jamoalarini boshqarishda hali ayollarning mavqei katta boʻlgan, yaʼni ularning anʼanaviy obroʻyi jamoada saqlanib qolgan. Sopollitepadagi har bir kvartal xilxonasida boy ayol qabri bor. Faqat shunday qabrlardagina bronza yoki toshdan yasalgan tumor–muhrlar chiqqan. Ular urugʻ totemlari haqidagi diniy tasavvurlarning namunasi hisoblanadi.

Sopollitepada hayot taxminan 200–250 yillar davom etgan. Keyinchalik uning aholisi yangi yerlarni oʻzlashtirish maqsadida sharq tomon siljib, hozirgi Sherobod yaqinidagi Oqqoʻrgʻon qishlogʻi hududiga koʻchib borganlar.

**Jarqoʻton yodgorligi** sopollitepaliklar asos solgan ilk shahar hisoblanadi. U Boʻstonsoyning chap sohilida joylashgan boʻlib, 100 ga maydonni egallagan. Bu yerning aholisi ham dehqonchilik bilan shugʻullanib, kamida 500 yil shu yerda yashaganlar.

Jarqoʻton uch qismdan iborat. Uning arki 3ga maydonni egallagan. Arkning atrofi mudofaa devorlari bilan oʻrab olingan. U yerda hukmdorning qarorgohi joylashgan. Mudofaa devori somon qoʻshilgan xom gʻishtdan ishlangan. Devor qalinligi 3m, balandligi 5–6m boʻlgan. Hozirda saqlangan qismi 1 m gacha boradi.

Devor kvadrat shaklidagi burjlar bilan mustahkamlangan. Arkka kirish darvozasi janub tomonda joylashgan. Arkda hukmdor saroyi alohida ajralib turadi. Saroyda ko'p oddiy xonalar bo'lib, saroy maydonida 20kv.m supa joylashgan. Arkning sharqiy tomonida bir necha uy-joy massivlari topilgan. Ular 1,5 m qalinlikdagi supa ustiga qurilgan. Bu yerda ko'p xonali hovlilar ochildi. Har bir hovlida 2-3 ta o'choq topilgan.

Shaharning janubida 20 ga maydonni egallagan shahar qabristoni topilgan.

Jarqo'tonda otashparastlik ibodatxonasi ochildi. Ibodatxonaning atrofi 4,5 m qalinlikdagi devor bilan o'rab olingan. Ibodatxona ikki qismdan – muqaddas ziyoratxona va xo'jalik qismlaridan iborat bo'lgan. Ibodatxonaning muqaddas qismi kvadrat shaklida bo'lib, 35x35 metrga teng. Uning tarkibida muqaddas olov, muqaddas quduqlar, altarlilar va 4 bosqichga doir tosh yo'laklar bo'lgan. Bular yerga, suvga, olovga sig'inish unsurlari hisoblanadi. Ibodatxonaning ishlab chiqarish-xo'jalik qismida muqaddas ichimlik-xaoma tayyorlaydigan xona, mozor inventarlari tayyorlaydigan ustaxonalar va ibodatxonaga ajratilgan oziq-ovqat ombori joylashgan.

Ibodatxonada hech kim yashamagan, u faqat olovga sig'inish bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar va diniy marosimlar o'tkazish markazi bo'lgan.

Hozirgi kunda Janubiy O'zbekiston territoriyasida 20 dan ortiq bronza davri yodgorliklari topilgan. Bular Jarqo'ton, Bo'ston, Kultepa, Maydatepa, Mo'lali va boshqalar bo'lib, ular asosan, Surxandaryo oblastining Sherobod, Jarqo'rg'on va Sho'rchi hududlarida joylashgan. Bu yodgorliklarni o'rganish natijasida Sopollitepa madaniyati qadimgi Sharq sivilizatsiyasining ajralmas bir qismi ekanligini ko'rsatdi.

Bronza davrida O'rta Osiyoning cho'l va dashtlarini chorvador qabilalar egallagan. Ularning iqtisodiy hayoti asosini chorvachilik va ibtidoiy tog' sanoati xo'jaligi tashkil etgan. Bu qabilalar yengil tipdagi qarorgoh yoki qisqa muddatli makonlarda iste'qomat qilganlar. Ular Qozog'iston cho'llari, Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonning quyi havzalarida, tog'li hududlarda yashaganlar. Bu chorvador qabilalar ko'pincha cho'l zonasida yashaganliklari uchun maxsus adabiyotlarda "bronza asrining cho'l zonasi qabilalari" nomi bilan yuritiladigan bo'ldi.

Cho'l zonasi qabilalari u yerlarning tabiiy geografik sharoitga moslashib hayot kechirishgan. Ular yerto'la va yarim yerto'la tipdagi kulbalarda, qora uylarda



yashaganlar. Sopol idishlar qo'lda yasalib, qo'pol va mo'rt bo'lgan. Ularning turlari ham kam bo'lib, ochiq gulxanda pishirilgan, sirtiga chiziqli, taroq uslublaridagi geometrik naqshlar chizilgan. Lekin bronza metallurgiyasi sohasida anchagina muvaffaqiyatlarga erishganlar.

N.A. Avanesova Bo'ston-6 qabristonidagi bir qabrda Mo'lali davri sopollari bilan birga bir dona Jarqo'ton davri qadahi uchrashini kuzatgan va shu asosda bo'stonliklarda ajdodlar ruhini eslash an'anasining mavjudligi to'g'risida xulosa chiqargan.

Bo'ston-6 qabristonida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida bronza davri dafn etish marosimlari to'g'risida yangi ma'lumotlar qo'lga kiritilgan. Tadqiqotlar davomida 300 ga yaqin qabrlar o'rganilib, bu yerdan ilk marotaba qabristonning o'zida diniy marosimlar o'tkaziladigan kvadratsimon va trapesiyasimon inshootlar, mayda tosh to'shalgan maydoncha, toshdan terilgan quyoshsimon disk, xar xil shaklli (kvadrat, dumaloq, to'g'riburchakli) altarlari va gulxan qoldiqlari aniqlangan.

N.A. Avanesova 1999-2000 yillarda qabriston chekkasida olib borilgan tadqiqotlarda diniy marosim bilan bog'liq udum izlari va idishlar to'plami (qurbonlik qilish altari, uchta gulxan qoldig'i) mavjud, uch qator g'arbdan sharqqa cho'zilgan g'ishtdan terilgan maydonni aniqlagan bo'lib, gulxan atrofida idish siniqlari yoyilganligini ta'kidlaydi. M.P. Gryaznov bu kabi diniy inshootlarni qurbonlik qilish marosimi o'tkaziladigan joy sifatida e'tirof etgan.

2005 yilda N.A. Avanesova Bo'stonda olib borilgan tadqiqotlar asosida dafn an'analarini quyidagicha tizimlashtirgan:

1. Ingumatsiya;
2. Jasadni kuydirish;
3. Ramziy (kenotaf) qabrlar\*.

Yuqorida tahlil qilingan ma'lumotlar asosida Bo'ston bosqichiga kelib Sopolli jamiyati diniy-g'oyaviy hayotida yangi davr shakllana boshlaganligini kuzatish mumkin.

---

\* Kenotaf (kadimgi yunon tilida "κενοτάφιον" s'uzidan olingan b'ulib, "κενός" – b'ush va "τάφος" - kabr), - mayitsiz ya'ni b'ush kabr ma'nosini bildiradi. Qadimda Misr, Yunoniston, Rim, U'rtta Osiy'e va boshqa u'lkalarda bedarak i'yoqolganlarga atab shunday mayitsiz kabrlar kazib q'u'yilgan.

2002-2004 yillarda Sherobod tumani Pashxurt qishlog'i aholisi qishloq xo'jalik, irrigatsiya ishlari mobaynida tasodifan topilgan Sopolli madaniyatining Mo'lali davriga oid vazasimon, kosasimon va tuvaklardan iborat idishlarni topshirgan. Mazkur topilmalar Ko'hitangtog'-Boysun tog' oldi hududlarining bronza davrida dehqonchilik maqsadida keng o'zlashtirilgani haqida ma'lumot berdi.

A.A. Asqarov va A.S. Sagdullaevlar avvalgi tadqiqotlarida bronza davri dehqonlari tosh qurollarni yasashda (yorg'uchoqlar, xovonchalar) Ko'hitangtog' va Boysun tog'lari konlaridagi mavjud toshlardan foydalanganliklari haqida xulosa chiqarganlar.

XXI asr boshida Surxon vohasida O'zbekiston va Fransiya, Germaniya, Chexiya, Rossiya, olimlari bilan hamkorlikda arxeologik ekspeditsiyalar amalga oshirilmoqda. R.Strayd, L.M. Sverchkov, N.B. Boroffka tomonidan Denov atrofiga hamda Bandixon va Qiziltepada, shuningdek 2002 yildan Chexiyaning Praga universiteti va Termiz davlat universiteti olimlari hamkorligida Ko'hitang yodgorliklarida tadqiqotlar amalga oshirilgan. L.Stancho, A.Augustinova, Sh.Shaydullaev va boshqalarning izlanishlari tufayli so'nggi bronza va ilk temir davriga oid Burguttepa, Kayrittepa va boshqa yodgorliklarning aniqlanishi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston-Chexiya xalqaro arxeologik ekspeditsiya tomonidan Ko'hitangtog' etaklarida amalga oshirilgan arxeologik qidiruv tadqiqotlari davomida Kuchuk I davriga mansub qo'lda yasalgan naqshli sopollar madaniyatiga oid 9 yangi yodgorlik aniqlangan. Natijada yangi Zarabog' sug'orilish rayoni fanga kiritilgan. Sug'orilish rayonining Burguttepa va Kayrittepa kabi yodgorliklarida olib borilgan tadqiqotlar davomida ilk zardushtiylikka xos bo'lgan xarakteridagi dafn inshooti, Kayrittepada o'rganilgan patriarxal jamoaga tegishli uy-joy qoldiqlari aniqlangan.

2006 yil sentyabrda arxeolog Toxariston arxeologik ekspeditsiyasi a'zosi S.B. Bolelov (Davlat Sharq Muzeyi, Moskva) Pashxurt qishlog'i yaqinida Tillabuloq yodgorligini topgan. Tadqiqotchilarning fikricha topilmalar yodgorlikning bronza davriga tegishli ekanligini ko'rsatgan. Natijada shu yilning kuzida O'zR FA San'atshunoslik institutining Toxariston ekspeditsiyasi, Termiz Davlat universiteti

Tarix fakulteti va Lyudvig Maksimilian universiteti (Myunxen) o'rtasida shartnoma tuzildi. 2007 yildan boshlab bu yerda K. Kaniut boshchiligidagi olimlar tadqiqot olib bormoqda. Yodgorlik topilmalari Sopolli madaniyatiga xos bo'lib, ya'ni, miloddan avvalgi II mingyillikning birinchi yarmiga oiddir.

Tillabuloq uncha katta bo'lmagan yodgorlik bo'lib, uni arxeologlar qadimgi aholi punkti deb hisoblashmoqda. Tillabuloq bronza davriga oid Sopolli madaniyatining to'rtinchi yodgorligi hisoblanib, tog'li hududdagi dastlabki yodgorliklari sirasiga kiritilgan.

2009-2013 yillarda O'z R FA Arxeologiya instituti va Fransiyaning SNRC (Ilmiy tadqiqotlar milliy markazi) O'zbek-Fransuz (MAFOUZ) qo'shma ekspeditsiyasi tomonidan (S.Bendezu-Sarmiento, J.Lyuile, S.Mustafoqulov va boshq.) Jarqo'tonda tadqiqotlar olib borilib, Jarqo'ton yodgorligining tuzilish tarhi va me'morchiligi, dafn inshootlari, xronologiyasi, moddiy madaniyat ashyolari va o'sha davr xo'jaligi atroflicha o'rganilgan. Tadqiqot natijasida bu yerda ilk marta sinch konstruksiyali, o'choqlari bo'lgan bo'lgan ilk temir davriga oid g'ishtdan qurilgan turar-joy binolari, so'nggi bronza davriga oid sopol pechlar, ilk temir davri dafn marosimlarining ba'zi turlari, temirdan yasalgan noyob xalqasimon buyum, antropomorf suyet tushirilgan sopol, tashqi yuzasida mato qoldiqlar qayd etilgan qo'y haykalchasi tasvirli bronza surmadon aniqlanib, ular "O'zbekistonda arxeologik tadqiqotlar", "O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi" jurnallarida yoritilgan.

**Zamonbobo madaniyati** Zarafshon daryosining quyi havzasida topilgan chorvachilik va motiga dehqonchiligi bilan shug'ullangan qabilalarning yodgorligi hisoblanadi. U Buxoro viloyati Qorako'l tumanining cho'l zonasidagi Zamonbobo ko'li bo'yida joylashgan.

Zamonbobo madaniyatiga oid qabriston 1950 yilda Ya.G'.G'ulomov topdi. Qabristonda 1951-1960 yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida bronza davriga oid 40dan ortiq qabr ochilgan. Mozorlar tuzilishi jihatidan ayvonli laxat (podboy) shaklida bo'lgan. Zamonbobo qabristonidan yaproqsimon shaklda ishlangan tosh paykonlar, osti yassi va tuxumsimon bo'lgan sopol idishlar, bronzadan ishlangan kurakchalar, halqasimon bilakuzuklar, qimmatbaho toshlardan yasalgan juda ko'p

munchoqlar, jez oyna, igna, bigiz, terrakota haykalcha, namozgoh madaniyatiga tegishli sopol parchalari va boshqa narsalar topilgan.

1961 yili A.Asqarov Zamonbobo qabristonidan uncha uzoq bo'lmagan joydan, Zarafshonning qadimgi o'zani Gurdush–Gujayli sohilidan shu madaniyatga tegishli qishloq qoldiqlarini topdi. U yerda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida zamonboboliklarning xo'jaligi va turmushiga doir yangi materiallar to'plandi. U yerdan yerto'la tipidagi kulba harobasi, bir nechta yengil chayla o'rni, ikki yarusli xumdon harobasi va devor qoldiqlari topib o'rganildi. Yerto'la maydoni 200 kv.m bo'lib, uning maydonida qator o'choqlar, kulba karkasining ustun chuqurchalari saqlangan.

**Tozabog'yob madaniyati** 1938 yilda Amudaryoning quyi havzasidagi Oqchadaryo o'zani bo'yidagi Tozabog'yob kanali bo'yidan S.P.Tolstov tomonidan topilgan.

Tozabog'yob madaniyati qadimgi Xorazm hududida miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida shakllangan. Bu madaniyat aholisi asosan, yerto'la va chaylalarda yashab, chorvachilik va qisman, qo'ltiq dehqonchiligi bilan shug'ullanganlar. Tozabog'yob kulbalari yarim yerto'la shaklida qurilib, ularning o'rtacha maydoni 12–18 kv.m ga teng. Kulba markazida o'choq bo'lgan. Kulba bir oila uchun mo'ljallangan. Lekin kulbalar orasida maydoni 100–120 kv.m.ga tenggi ham uchraydi, ular bir urug' jamoa uchun mo'ljallangan.

Bu madaniyatga oid materiallar qum va taqir yuzasida sochilib yotgan geometrik naqshli sopol parchalar hisoblanadi. Sopol idishlar qo'lda yasalgan qo'pol, mo'rt bo'lib, xurmacha, bankasimon idishlar va yarim doira shaklidagi kosalardan iboratdir. Arxeologlar ularni tahlil qilish orqali qisqa muddatli bronza davri cho'lli zona qabilalarining moddiy madaniyat yodgorligi ekanligi isbotladilar. Shuningdek, bu materiallar Qozog'iston va janubiy Sibir hududlarida tarqalgan Andronova madaniyatiga aynan o'xshab ketishi ta'kidlandi. Tozabog'yob madaniyati materiallariga o'xshash bronza davri makonlari va qabristonlari quyi Zarafshon, quyi Qashqadaryo havzalarida, Toshkent vohasining adirli zonalarida va Farg'ona vodiysida keng tarqalganligi aniqlandi.



Tozabog'yob madaniyatining shakllanishida Srub va Andronova madaniyatlarining ta'siri katta bo'lgan. Lekin Tozabog'yob madaniyatining xo'jalik va madaniy hayotining o'ziga xos xususiyatlari bor. Tozabog'yob qabilalarida dehqonchilik ancha rivojlangan. Mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmiga oid irrigatsiya inshootlari B.V.Andrianov tomonidan yaxshi o'rganilgan.

Tozabog'yob madaniyatiga oid qabriston Ko'kcha 3 qabristoni bo'lib, u 1954 yilda qadimgi Xorazm hududidagi Sulton Uvays tizmalarining sharqiy chekkasidan topib o'rganildi. U yerdan 100 dan ortiq qabr topilgan va boy arxeologik material olingan. Qablardan har xil darajada saqlangan 43 ta odam skeleti topildi. Mozorlarda bittadan, ba'zi xollarda bir vaqtda yoki har xil vaqtda ko'milgan ikkitadan skelet topildi. Ayollar bilan bolalarni ko'mish, erkak va ayolni bir qabrga ko'mish xollari ham uchraydi. Marhumlar oyoq-qo'llari buklangan holda o'ng yoki chap biqini bilan ko'milgan. Har bir mozorda bir yoki bir nechta sopol idishlar, erkaklar mozorida bronza buyumlar, ayollarnikida esa bronza taqinchoqlar uchraydi.

Tozabog'yob madaniyati odamlarining antropologik tiplari ikki xil bo'lib, ularning birinchisi andronova qabilalariga oid protoevropoid tipi bo'lsa, ikkinchisi O'rta Osiyoning qadimgi aholisi sharqiy O'rta Yer dengizi tipini beradi. Shuningdek odamlar orasida Sharqiy Yevropaning Srub madaniyati tiplari ham uchraydi.

**Suvyorgan madaniyatiga** oid dastlabki yodgorliklar 1945–1946 yillarda Qoraqalpog'istonning Jonbosqal'a rayonidagi Jonbos–6 qarorgohidan va 1954 yillarda Oqchadaryoning qadimgi irmoqlari bo'yidan Qamishli 1, Qamishli 2 qarorgohlaridan topilgan. Ularning materiallari asosida S.P.Tolstov Suvyorgan madaniyatini rivojlanishining bosqichlarini aniqlagan. Olim uni miloddan avv. II ming yillikning birinchi yarmiga oid bo'lib, Kaltaminor madaniyatining qamishli bosqichi deb ko'rsatadi. Miloddan avv. II ming yillikning ikkinchi yarmiga kelib, bu madaniyatni yaratgan urug'-jamoalar tozabog'yobliklar bilan aralashib ketadilar.

Suvyorgan madaniyati sopol idishlari ustida qizil rang izlari saqlanganligi bilan ajraladi. Tadqiqotchilar fikricha, bu madaniyat janubiy hududlardagi qadimgi dehqonchilik qabilalari madaniyati ta'sirida shakllangan.

**Andronova madaniyati** mil.avv. II- I ming yilliklarda G'arbiy Sibir, O'rtasiyo va janubiy Ural hududlarida tarqalgan madaniyati biri biriga yaqin bo'lgan qabilalarga nisbatan aytiladi. Andronova nomi Achinsk yaqinidagi Andronova qishlog'i nomidan olingan, chunki shu yerda 1914 yilda dastlabki yodgorlik topilgan. 1948 yilda K.V.Salnikov andronova madaniyati yodgorliklarning 3 bosqichini aniqladi: fyodorov, alakul, zamarev. Bugungi kunda esa, uning 4 tarmog'i aniqlangan:

**Sintashta-Petrovka-Arkaim** – Janubiy Ural va Shimoliy Qozoqistonda tarqalgan, mil. avv. 2200—1600 yilliklarga oid;

**Alakul** Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi yerlarda va Qizilqum cho'lida tarqalgan, mil.avv. 2100—1400 yilliklarga oid;

**Fyodorovo** Janubiy Sibir hududida tarqalgan, mil.avv. 1500—1300 yilliklarda oid, bu yerda ilk bor o'likni yoqish (krematsiya) va olovga e'tiqod izlari kuzatilgan;

1. **Beshkentskiy rayon** — Tojikistondagi Vaxsh vohasi, mil. avv. 1000—800 yilliklarni o'z ichiga oladi

Andronova madaniyati aholisi yarim yerto'la va chaylalarda yashaganlar. Ular asosan chorvachilik, qisman dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Ularda metallga ishlov berish rivojlangan. Ular misni Oltoy tog'laridan va Qozog'iston hududlaridan olganlar. Ko'pincha qishloqlari yonida qurbongohlari bo'lgan. U yerda ko'plab o'ralar bo'lib, ichidan andronova sopol idishlari topilgan. Sopol idishlarining tagi yassi bo'lib, murakkab geometrik o'yma naqshlar bilan bezatilgan. Andronovaliklarning qabrlari daryolar oralari bo'lib, ular toshlar bilan halqa qilib o'ralgan. O'liklar bukchaytirilib ko'milgan, qo'llari yuz tarafiga qo'yilgan. Ba'zi xollarda marhumlarning kuydirilganlari ham uchraydi. Qablardan chaqmoqtoshdan ishlangan o'q uchlari, bronzadan ishlangan mehnat va jangovor qurollari turli taqinchoqlar va sopol idishlar topilgan.

Miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida Toshkent viloyatining tog'oldi hududlari ham Andronova chorvador qabilalari tomonidan o'zlashtirilgan. Hozirgi kunda ularning qisqa muddatli qarorgohlari Toshkent yaqinidagi Achiko'l atrofida, Yangier rayonida va Toshkent kanali hududlarida makon va mozor izlari

topilgan. Ularning hech birida madaniy qatlam saqlanmagan. Faqat qadimgi qishloq harobalarida chizma naqshli sopol parchalari, bronzadan ishlangan uy-ro'zg'or buyumlari, tosh yorg'uchoq siniqlari uchraydi. Qabrlarda esa, oyoq-qo'llari buklanib, yoni bilan yotqizilgan skeletlar va bir necha sopol buyumlari topilgan. Ayollar qabrlarida bronza taqinchoqlar uchraydi.

Cho'l zonasi qabilalariga tegishli yodgorliklar Farg'ona vodiysida keng o'rganilgan. Jumladan, Farg'ona viloyatidagi Vodil, Karamko'l qabristonlari, Leninobod hududidagi Qayroqqum va Dahana qabristonlarini ko'rsatish mumkin.

**Qayroqqum madaniyati** Farg'ona vodiysining g'arbiy qismi joylashgan bo'lib, 1950 yillarda A.P.Okladnikov va B.A.Litvinskiylar tomonidan topib o'rganilgan. U joydagi taqir ustidan 60 dan ortiq makon va minglab sopol siniqlari, bronza va tosh qurollar, hayvon suyaklari topildi.

Makon va qabrlardagi sopol idishlar ko'p jihatdan tozabog'yob sopollariga o'xshab ketsa-da, lekin Qayroqqum sopollari ichida quloqli, tarnov jo'mrakli xillari bo'lgan. Sopol idishlarning o'ndan bir qismi chizma, taroq shakllar bilan naqshlangan. Bu ularning xronologik jihatdan Andronova madaniyatining eng so'nggi bosqichiga tegishli ekanligini ko'rsatgan.

Qayroqqum madaniyatida metall hunarmandchiligi rivojlangan. 15 ta joydan metall eritish o'choqlari va toshqollar uyumi topilgan. Shuningdek, taqirlarda ikki tig'li yaproqsimon pichoqlar, xanjar, iskana, qarmoq, igna, bigiz, ikki parrakli bronza paykonlar ko'plab uchraydi.

Qayroqqum madaniyati broza davrining oxiri va ilk temir davriga oid yodgorlik hisoblanadi.

Yuqori Farg'ona hududidan Vodil, Qaramko'l, Yapagin, Chakka qabristonlarini B.Z.Gamburg va N.G.Gorbunovlar o'rganganlar. 50dan ortiq mozor-qo'rg'ondan tosh yashiklarga solingan oyoq-qo'li buklangan odam skeletlari topilgan. Lekin mozorlarning 90% o'g'irlangan. Ularning ba'zilarida qo'ng'iroqsimon bronza isirg'alar, spiral boshli bilakuzuklar, bronza munchoqlar, ikki parrakli paykon va sopol parchalari uchraydi.

Toshkent va Fargʻona vodiysi choʻlli zona qabilalarida chorvachilik rivojlangan. Lekin chorvadorlar hayotida dehqonchilik ham muxim oʻringa ega boʻlgan.

**Mavzuni mustahkamlovchi savollar:**

1. Bronza davri yutuqlari nimalardan iborat?
2. Bronzadan qanday qurollar ishlab chiqarilgan?
3. Sopolli madaniyati nechta bosqichda rivojlangan?
4. Sopolli madaniyatlarini rivojlanish jarayonlarini solishtiring?
5. Sopolli madaniyati aholisining eʼtiqod izlari nimalarda koʻrinadi?
6. Chorvador qabilalarning sopol idishlari bilan dehqonchilik bilan shugʻullanuvchi qabilalarning sopol idishlarini solishtiring?
7. Zamonbobo madaniyatining oʻziga xos jihatlarini koʻrsating?
8. Suyogʻan madaniyati aholisi qaysi madaniyat bilan aralashib ketgan?
9. Tozabogʻyob madaniyatini kimlar oʻrgangan?
10. Qayroqqum madaniyati qaysi hududlarga tarqalgan?

**Yodda tuting!**

- Birinchi mehnat taqsimoti sodir boʻldi.
- Patriarxat davri boshlandi.
- Doimiy qishloqlar paydo boʻldi.
- Kulolchilik charxi ixtiro qilindi.
- Uy-joy qurilishida gʻishtdan foydalanildi.
- Gupchakli gʻildirakli aravalar paydo boʻldi.
- Mudofaa devorlari qurildi.
- Ipakdan matolar toʻqildi.
- Oʻzbekistonda ilk shahar –Jarqoʻton shakllandi.
- Zamonbobo madaniyati Buxoro viloyatidan topilgan.
- Tozabogʻyob madaniyati Amudaryoning Oqchadaryo oʻzani boʻyidan topilgan.
- Suyorgan madaniyati Qoraqalpogʻiston hududidan topilgan.



- Andronova madaniyati Gʻarbiy Sibir, Oʻrta Osiyoning gʻarbiy qismi va janubiy Ural hududlarida tarqalgan.
- Qayroqqum madaniyati Fargʻona vodiysining gʻarbiy qismidan topilgan.

### **7-mavzu. Soʻnggi bronza va ilk temir davri yodgorliklari.**

1. Temir davrining boshlanishi
2. Oʻzbekiston hududidagi soʻnggi bronza va ilk temir davri yodgorliklari.
3. Koʻchmanchi qabilalarning moddiy yodgorligi.
4. Evropa va Sibirdagi ilk temir davri yodgorliklari.

**Tayanch soʻzlar:** temir rudasi, bosqonchi koʻra, poʻlat, soʻqa, omoch, xanjar, Kuchuktepa, Qiziltepa, Sangirtepa, Burgʻuluq, Amirobod, Chust, Elatan, Galshtat, Laten, Tagisken, Uygarak, Issiq mozor qoʻrgʻoni.

#### **1. Temir davrining boshlanishi.**

Soʻnggi bronza va ilk temir davriga kelib Oʻzbekistonning barcha hududlarida oʻtroq dehqonchilik madaniyati shakllandi. Zarafshon va Qashqadaryo hududida Sugʻdiyona, Amudaryoning quyi oqimida Xorazm, Sirdaryoning yuqori havzasida qadimgi Fargʻona va uning oʻrta oqimida Choch dehqonchilik madaniyatlarini markazlari shakllandi.

Amu va Zarafshon daryolari havzalarida tarkib topgan har bir dehqonchilik voxalarining oʻtroq aholisi Avestoda Baxdi, Gava Soʻgʻuda, Xvarizam, Sirdaryo xavzalarida shakllangan dehqonchilik oʻlkalarini esa Choch va Fraganik nomlari bilan eslatib oʻtiladi.

Mehnat qurollari ishlab chiqarishda temirning kashf etilishi oʻsha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tub oʻzgarishlarning asosi boʻldi.

Temirdan foydalanish natijasida jamiyatning sotsial-iqtisodiy hayotida katta oʻzgarishlar boʻldi. Ikkinchi yirik mehnat taqsimoti sodir boʻldi. **Dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralib chiqdi.** Bu oʻz navbatida mehnat unumdorligining

oshishiga, tovar ayirboshlashning jonlanishiga, xususiy mulkning rivojlanishiga, davlatning mustahkamlanishiga sabab bo'ldi. Temir davri boshlarida Osiyo va Yevropaning hamma joylarida mustaxkam istehkomlar qurilgan, shaharlar rivojlangan.

Umuman, odamlar tabiatda yer ustida uchraydigan temir bilan eneolit davridayoq tanish bo'lganlar, lekin uning amaliy ahamiyatini bilmaganlar. Tabiatda sof temir, faqat meteoritlarda uchraydi. Osmondan tushgan buyum esa, ibtidoiy odamlar uchun muqaddas buyum sanalgan. Temirdan ishlangan taqinchoqlar, munchoqlar qadimgi Sharqda iste'qomat qilgan qabilalarning qabrlaridan topilgan. Temir to mil.av. I ming yillikgacha aholi uchun noyob zeb-ziynat buyumlari yasash uchun material sifatida ishlatib kelingan. Mil.av. XIY asrlarga oid Misr, Mesopotomiya va Egey dengizi atrofida temirdan ishlangan buyumlar uchraydi. Bunday buyumlar Italiyada mil.avv. XII asrda, Germaniya, Skandinaviya va Rossiya hududlarida X asrlarda paydo bo'lgan.

Temirning ommaviy ravishda qo'llanilishi esa, mil.av. IX asrga to'g'ri keladi. O'rta Osiyo hududida ilk temir buyumlari mil.av. VIII asrlarga oiddir.

Temir tabiatda ruda xolida juda ko'p uchraydi, deyarli ibtidoiy qabilalar yashagan barcha hududlarda mavjud bo'lgan. Lekin qalay va mis ayrim hududlardagina mavjud bo'lib, bu qabilalarga o'zlariga yetarli xom-ashyo olishda qiyinchiliklarni tug'dirgan.

Bronzaga ishlov berish, temirga ishlov berishdan ko'ra, ibtidoiy odam uchun oson kechgan, chunki bronza 700-800 Sda, mis 1084S da erigan, temir esa 1530Sda erigan. Shu sabab dastlab temirni eritmasdan ishlov berganlar va u sarg'ish va bo'sh metall shaklida bo'lgan. Ibtidoiy davrda rudadan temirni ajratib olish jarayonining kashf etilishi, eng buyuk kashfiyot bo'lgan. Bu kashfiyot asosida esa temir rudasiga **dam berish usuli** yotadi. Dam berish usulidan ba'zi joylarda so'nggi bronza davridan foydalanib kelingan. Dam berishda bosqonli qo'radan foydalanilgan.

Rudadan temir ajratadigan **bosqonli qo'ra** toshdan yasalgan va loy bilan suvalgan qozonsimon o'choq bo'lgan. O'choq ba'zan guvaladan yasalgan. Dam berish uchun uning ikki tomonida kichikroq teshik ochilgan. Bu teshiklarga naycha

o'rnatilgan, naychalarga esa teri damlarga biriktirilgan dastani bosib dam berilgan. Qo'raga temir va ruda taxlangan. Unga faqat pista ko'mir yoqilgan va ko'pincha botqoq rudasi ishlatilgan. Tiklangan temir zarralari pishib, sof temir bo'laklari xosil bo'lgan. Rudadagi boshqa aralashmalar toshqolga chiqqan. Temir bo'laklari bolta bilan urilib jipslashtirilgan va kerakli shakl berilgan. Bolta bronza davrida toshdan yasalgan bo'lsa, temir davriga kelib u temirdan ishlangan.

Rudadan temir olish usulida sof temirning ko'pi toshqolga chiqib ketgan. Bu protsess kam maxsul bo'lganligi sababli odamlar o'rta asr oxirlarida rudadan temir olish usulidan cho'yardan temir olish usuliga o'tganlar.

Temirchilar o'zlarining ishlash uslublarini odamlardan sir tutganlar va ustaxonalarini axoli yashaydigan joylardan uzoqroqda qurib, unga hech kimni kiritishmagan. Shu sabab odamlar orasida temirchilar xaqida turli xil tushunchalar paydo bo'lgan. Ularning ko'plari iloxiylashtirilgan va har bir xalqda o'zining temirchi xudolari shakllangan. Masalan, yunonlarda Gefest, rimda Vulkan, nemislarda Viland, ruslarda Svarog, o'rta osiyoliklarda Dovud hisoblanib, odamlar ularning sharafiga turli marosimlar o'tkazgan va sig'inishgan.

Temir qurollarga o'tish ko'pchilik mamlakatlarda uzil-kesil dehqonchilikka o'tish uchun zarur sharoit yaratib bergan. Yevropada o'rmonzorlarda ekin maydonlarni kengaytirish imkonini bergan. Yerlarga ishlov berish sifatini oshirgan. Unda so'qa va omochdan keng foydalanilgan. So'qa yordamida yerlar chuqur va sifatli haydalgan. Omoch yordamida esa, egatlar xosil qilingan va toshloq, qattiq yerlarga ishlov berish oson bo'lgan. Temir so'qa tishlar mil.av. VIII asrlarga oid Osur podsholari saroyidan topilgan. Boshqa joylarda esa, ilk temir davrida yog'ochdan yasalgan omoch va so'qalarga temir tish kiydirilgan.

Ilk temir davrida ko'pgina yangi mehnat qurollari yaratilgan. Egov paydo bo'lgan, uning kesiklari bir qator bo'lib, hozirgi egovlarga o'xshash bo'lgan. Egov skanja bilan birgalikda ishlatilgan. Qulf va kalitlar paydo bo'lgan. Ular egovlab yasalgan. Ilgarigi davrlarda kulf va kalitlar qadimgi Sharqda bo'lib, u yog'ochdan ishlangan.

Ilk temir davrida temir o'roq randalar chaqmoqtosh o'roq randalarni siqib chiqargan. Temir o'roq randa yoysimon o'tkir yupqa temirdan iborat bo'lib, ikki uchiga dasta o'rnatilgan. U g'ola po'stini shilish va yog'och randalash uchun ishlatilgan.

Harbiy qurol aslahalarning asosiy turlari: qilich, xanjar, nayza, cho'qmor, jang boltalari bronza davridayoq ishlatilgan bo'lsada, temir davriga kelib, uning faqat metalli o'zgargan. Bu davrda yoy o'qlarini yasashda temir kam ishlatilgan, asosan bronzadan ishlangan.

Oddiy temir harbiy va mehnat qurollari uchun yumshoqlik qilgan. Yunon tarixshunosi Polibiy mil.av. III asrda galliyalik jangchilar qilich bilan bir urgandan keyin uni oyog'i bilan to'g'rilab olishga majbur bo'lganligini yozib qoldirgan.

Biroq ko'pchilik davlatlarda ilk temir davridayoq **po'lat** ishlatila boshlangan. Temirni o'choqda bir necha marta qizitib va uni bir necha marta sovuq suvga solib toblab po'lat xosil qilingan.

## **2.O'zbekiston hududidagi so'nggi bronza ilk temir davri yodgorliklari.**

Qadimgi Baqtriyada o'troq dehqonchilik madaniyati bronza davridanoq shakllana boshlagan. Bu madaniyat Sopollitepa, Jarqo'ton, Kuchuktepa, Qiziltepa, Bandixon-1, Tallashkan, Jondavlattepa kabi qadimgi dehqonchilik madaniyati yodgorliklari asosida o'rganilgan.

**Kuchuktepa** Qadimgi Baqtriya hududida so'nggi bronza davriga oid yodgorlik hisoblanadi. U Surxandaryo viloyati Muzrabod qishlog'ining janubida, Amudaryodan 10 km. shimolda, Ulanbuloqsoy sohilida joylashgan. Yodgorlik mil.avv. X-VIII asrlarda Chust madaniyati tipidagi bir urug' jamoaning turar-joy maskani sifatida qad ko'targan. Bu qishloq qo'rg'oni mil.avv. VI-V asrlargacha mavjud bo'lgan. Uning maydoni 0,5 gektar bo'lib, balandligi 8 metrni tashkil qilgan. Qal'a qo'rg'onida 4 ta qurilish bosqichi aniqlangan. Har bir qurilish bosqichida xonalar soni ko'payib, qo'rg'on hududi kengayib borgan. Birinchi qurilish bosqichida 4 metr balandlikdagi platforma ustiga, 60 kv.m. maydoniga 4 xonali uy to'g'rito'rtburchakli xom g'ishtlardan (50x30x8 sm) qurilgan. Devorlari somonli loy



bilan suvalgan. To'rtinchi qurilish bosqichida xonalar 23 taga yetkazilgan va uy-joylar 250 kv.m. da qurilgan. A.Asqarov qo'rg'on mahalliy aholi me'morchiligi an'analari asosida, qadimgi baqtriyaliklar tomonidan bunyod etilgan deb ko'rsatadi.

Kuchuktepa yodgorligining rivojlanish bosqichlari quyidagi davrlarni o'z ichiga olgan:

Kuchuk I co'nggi bronza davriga oid bo'lib, mil. avv. X-VIII asrlarni o'z ichiga oladi.

Kuchuk II bosqichi mil.avv. VIII asr ikkinchi yarmi-VII asrlarga oid bo'lib, uning arxeologik kompleksi Kuchuk I moddiy madaniyatidan tubdan farq qiladi.

Kuchuk III mil. avv. VII asrning oxiri-VI asrlarga oid bo'lib, bu davrda yodgorlikning bir xonasi patriarxal oilaning ibodatxonasiga aylantirilgan.

Kuchuk IV davri mil. avv. VI asrning oxiri-V asrlarni o'z ichiga oladi. Xuddi shunday holat Qiziltepa yodgorligida ham kuzatiladi.

**Qiziltepa** yodgorligi Surxondaryo viloyati Sho'rchi tumani hududida Qizilsuv daryosining o'ng sohilida joylashgan. Shahar to'rtburchak shaklda qurilgan bo'lib, 22 ga maydonni egallagan. Mil.avv. IX-IV asrlarga oiddir.

1971 yilda G.A.Pugachenkova rahbarligidagi O'zbekiston san'atshunoslik ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Yodgorlikda tadqiqot ishlari A.S.Sagdullaev tomonidan amalga oshirilgan. Uning quyidagi bosqichlari aniqlangan:

Qizil I mil.avv. IX—VIII asrlarga oid bo'lib, bu davrda Mirshodi vohasiga dehqonchilik bilan shug'ullagan aholi kelib joylashib, qishloq bunyod qilganlar.

Qizil II davri mil.avv. VII—VI asrlarda yirik mudofaa devoriga ega bo'lgan shahar qurganlar. Devorlar paxsa yoki to'g'riburchakli (44x27-28x10, 40x28x9-10 sm) xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, 0,5 dan 1,5 metrgacha saqlanib qolgan. Bu bosqichda ko'plab turar joy va xo'jalik xonalari qurilgan. Ular kichik, to'g'rito'rtburchak, kvadrat va yo'laksimon tarzda qurilgan. Ularning katta hajmdagisi 17,5 m<sup>2</sup>ni tashkil qilgan. Uylarning pollari somon aralashgan loy yoki mayda toshlar bilan suvalgan. Bu davr qal'aning rivojlangan bosqichi sanaladi.

Qizil III davri mil.avv. V—IV asrlarni o'z ichiga oladi. Qal'a Aleksandr Makedonskiy hujumidan keyin vayronaga aylangan. Mudofaa devorlari nuragan, ularning yonlari axlatxona aylantirilgan.

Qiziltepa yodgorligi mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan. Minoralar, shinaklar o'rnatilgan va handak bilan himoyalangan. U yerdan yorg'uchoq, xovoncha, o'g'ir dasta, o'roq, sopol buyumlari, uy hayvoni suyaklari topilgan.

Qadimgi Xorazmda esa, uning tabiiy geografik sharoitidan kelib chiqib, sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyatini yaratadilar. Bu fanda Amirobod madaniyati deb nomlanadi. Keyinchalik mil.avv. I ming yillikning o'rtalarida dehqonchilik vohalarining qal'a-shaharlari tarkib topadi (Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Dingilji).

**Amirobod madaniyati** so'nggi bronza davri, ya'ni mil.avv. X-VIII asrlarga oid bo'lib, 1940 yilda Amudaryo quyi xavzasining Oqchadaryo o'zanidagi Amirobod kanali atroflaridan topilgan. Bu madaniyat Suvyorgan va Tozabog'yob madaniyatlarini yaratgan aholining qorishuvi natijasida shakllangan. Amirobodliklarning asosiy xo'jalik mashg'uloti chorvachilik bo'lgan, lekin daryo o'zanidan keng, sayoz kanallar chiqarib, qo'ltiq dehqonchiligi va metallga ishlov berish hunarmandchiligi bilan shug'ullanganlar. Amirobod yodgorliklari atrofida shu davrlarga oid irrigatsiya izlari va qadimgi ekinzor maydonlari ham ko'plab uchraydi. Amirobodliklarning Yakka Parson 2 makoni tadqiq qilingan. Makonni qazish vaqtida 20 yaqin yerto'la tipidagi kulbalar topildi. Kulbalar maydoni va atrofidan g'alla o'ralari, omborlar, o'choq, gulxan qoldiqlari, sopol parchalari, tosh yorg'uchoqlar, bronzadan ishlangan bir tig'li pichoqlar, o'roq, bigiz va ko'plab hayvon suyaklari topildi. Har bir kulbaning o'rtasida o'choq bor. Ular bir juft oilaga tegishli ekanligidan dalolat beradi.

Sopol idishlari charxsiz, qo'lda yasalgan. Ularning shakli, turlari kamchilikni tashkil etadi. Xurmacha, kosa, bankasimon idish va sopol qozonlardan iborat bo'lgan. Idish sirti qizg'ish qoramtir rangda pardozlangan, yuqori qismi esa geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Sopol buyumlarining qorni qavariq, tagi yassi, gardishi ko'p qayirilgan yoki to'g'ri qilib ishlangan. Sopol loyining tarkibida ko'p miqdorda shag'al bo'lganligi sababli, idishlarning devori qalin, ko'pol qilib ishlangan. Sopol idishlarning gardishiga

archasimon tarzda naqshlar chizilgan. Bozorqal'a yodgorligidan Amirobod madaniyatiga oid kulolchilik buyumlari topilgan. Ular qo'lda ishlanib, och qizil rang bilan bezak berilgan.

Amirobodliklar butun bir jamoa birgalikda sopol idishlarni pishirish bilan shug'ullanganlar. Ular buni ochiq manzilgohlar yoki maxsus tepaliklarda amalga oshirganlar. Sopol idish ochiq katta gulxanlarda pishirilsa, idish yaxshi pishib atrofi qorayib qolmagan. Amirobod madaniyatidan topilgan sopol idishlar orasida yaxshi pishirilgan idishlar ham uchraydi. So'nggi amirobod davridan qo'l charxidan foydala boshlaganlar. Bu yerdan bronzadan ishlangan quloqli ignalar, ikki parrakli bronza paykonlari va bronza mehnat qurollari yasaydigan tosh qoliplar, tosh yorg'uchoq, bronzadan ishlangan o'roqlar ko'plab uchraydi.

Amirobodliklarning qishloqlari kanallar bo'ylarida qurilgan. Ular kanallarni eski o'zan yoki kichik irmoqlardan chiqarilganligi sababli, bir joyda muqum yashamaganlar. Saqani suv olib ketishi yoki ariqlarning loyqa bilan to'lishi bilan boshqa joyga ko'chib, yangi tarmoq qurishgan. Chunki kanallar, ariqlar bir necha marta tozalangach, qirg'oqlari baland bo'lib ketgan va uni yana qayta tozalashdan ko'ra yangi ariq qazish kam mehnat talab qilgan. Shuning uchun eski ariq yonidan yangi ariqlar qazishgan. Tadqiqotchilar fikricha, amirobodliklar tabiiy suv irmoqlarini dalalarga yo'naltirish jarayonida kanallar uzaygan, kengaygan va tarmoqlangan. S.P.Tolstovning yozishicha, mil.avv. VIII asr oxiridan boshlab kengligi 40 m ga yetadigan yirik sun'iy kanallar bunyod etila boshlangan.

Mil.avv. VIII-VII asrlarda janubiy Oqchadaryo o'zanida suvning kamaya borishi amirobodliklarning turmush tarzini o'zgartirishlariga sabab bo'lgan. Ular chorvachilik xo'jaligini rivojlantira boshlaganlar va shimoliy Oqchadaryo, Sirdaryoning qadimiy deltalari va Sariqamish bo'yi havzalari ko'chganlar.

**Quyisoy madaniyati** mil.avv. VIII asrning oxiri - VII asrning boshlarida Sariqamish havzalarida suvning ko'payishi natijasida turli hududlardan o'troq va yarim ko'chmanchi chorvadorlar kelib joylashishi natijasida shakllangan. Ular qoldirgan moddiy ashyolar Amirobodliklarnikidan farq qilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu madaniyatga quyi Sirdaryo saklari-chorvadorlari asos solgan.

Quyisoy madaniyati mil.avv. VIII–V asrlarga oid boʻlib, aholisi yarim yertoʻla, chaylalarda yashab, chorvachilik, lalmikor dehqonchilik, hunarmandchilikning – metallurgiya, kulolchilik, suyakka va feruza toshga ishlov berish sohalari bilan shugʻullanganlar. Quyisoy madaniyatiga oid moddiy manbalar Quyisoy–2, Yassiqir qishloqlari, Sakarchaga, Tumek-Kichijik mozor-qoʻrgʻonlari, Tarmqoya qishlogʻi va qabristonidan topib oʻrganilgan.

Quyisoyliklar sopol idishlarni pishirishda oʻziga xos texnologiyadan foydalanganlar. Ular tayyorlagan soppalar kulrang yoki kulrang-jigarrang tusda boʻlib, tashqi qismi qizil rangli boʻlgan. Tadqiqotchi B.I.Vaynberg buni quyisoyliklar sopol idishlarni ikki marotaba pishirganliklarida deb koʻrsatadi. Dastlab shakl berilgan sopol idish pishirilgan, pishirish jarayonida oksidlanish natijasida idish devorlari kulrang tusga kirgan. Ikkinchi bosqichda qizil angob bilan boʻyalgan buyum olovda pishirilgan. Natijada idishning tashqi qismi qizil rangga kirgan. Quyisoyliklar sopol idishlarni ochiq gulxanlarda pishirganlar. Idishlarning ranggi olovda pishirish jarayoniga bogʻliq holda turlicha ranglarda boʻlgan: oqish qizil, qizil-jigarrang, binafsharang. Ularning sopol idishlarida naqshlar umuman uchramaydi. Sopol idishlarining gardishiga alohida ishlov berilmagan. Vertikal, kesilganga oʻxshatib ishlangan. Bu yerdan oziq-ovqat saqlanadigan, ovqat pishiriladigan va ovqatlanish uchun zarur boʻlgan idishlar topilgan. Donlarni saqlashga moʻljallangan yirik xumlar lentasimon uslubda tayyorlangan. Ovqatlanish uchun ishlatiladigan sopol idishlar orasida charxda ishlanganlari ham boʻlgan. Tadqiqotchilar buni janubiy Xorazm, arxaiik Dogʻiston va Margʻiyona hududlaridan topilgan idishlarga oʻxshashligini aniqlashgan. Demak, quyisoy axolisi qoʻshni xalqlar bilan oʻzaro aloqada boʻlganlar.

**Meshekli va Uch oʻchoq yodgorliklari** mil.avv. VIII–V asrlarga oid koʻchmanchi chorvadorlar madaniyati boʻlib, Janubiy Xorazm hududidan, Tuyamoʻyin havzasi boʻylarida topilgan. Bu yodgorliklar saklar, yaʼni avtoxton chorvador qabilalarning qabrlari hisoblanadi. Janubiy Xorazm hududida Amudaryoning oʻng qirgʻogʻida joylashgan Meshekli mozor-qoʻrgʻonlari orasida etdan tozalangan suyaklar qoʻyilgan mozor-qoʻrgʻonlar aniqlangan. Meshekli mozor-



qo'rg'onlarining ustki qismi toshlar bilan qoplangan. Ularning balandligi 150 sm. diametri 15 m. tashkil qiladi. Qo'rg'onlar 3-7 tagacha guruh qilib qurilgan. Guruhlar bir-biridan 1-3 km. uzoqlikda joylashgan. Bunday qo'rg'onlar Meshekli qo'ltig'idan shimol va janubga qarab 10 km.gacha cho'zilgan. Qo'rg'onlar atrofidan bronza, ilk temir, arxaiik, antik va o'rta asrlarga oid sopol buyumlarning qoldiqlari topilgan. To'rtinchi guruhga oid 3- mozor-qo'rg'on o'ziga tarzda qurilgan. U doirasimon tarzda qurilib, atrofi yirik toshlar bilan o'rab chiqilgan. Diametri 8 m. doiraning ichki tomoni yog'och o'ralar mustahkamlangan. Markazida to'g'rito'rtburchakli qabr o'rasi bo'lgan. Uning eni 300x160, chuqurligi 90 sm. tashkil qilgan. O'raning shimoliy qismida poldan 50 sm. tepalikda tokcha qazilgan. Tokchadan insonning tozalangan suyak qoldiqlari topilgan. Bitta suyakda g'ajilgan izlar ham aniqlangan. Muzor-qo'rg'on ichida, o'ralarining atrofida ko'p miqdorda sochilgan pista ko'mir topilgan. Ostidan mayda shoxli hayvonlarning suyak qoldiqlari, sal teparoqda otning suyak qoldiqlari topilgan. Bu yerdan mil.avv. V asrga oid ko'zasimon qizil angobli charxda ishlangan sopol idish topilgan. Bu guruhdagi 2 qurilma ham mazkur muzor-qo'rg'onga o'xshab qurilgan, lekin unda o'ra va suyak qoldiqlari topilmagan.

Ilk temir davrida quyi Amudaryo havzasining shimoli-g'arbiy qismida Quysisoy aholisi, shimoli-sharqiy tomonida amirobodliklar, janubi-sharqiy qismida Meshekli madaniyati aholisi yashagan. Ular asosan chayla, yarim yerto'lalarda yashab, chorvachilik, qair dehqonchiligi va metalga ishlov berish hunarmandchiligi bilan shug'ullanganlar.

So'nggi bronza va ilk temir davrida Choch (qadimgi Toshkent vohasi) o'ziga xos rivojlanish yo'lidan bordi. Bu yerlarda dehqonchilik kichik-kichik soy etaklarida yoki buloq suv yoqalarida vujudga kelib, ibtidoiy usul asosida olib borilgan. Zaminning tabiiy geografik sharoitidan kelib chiqib, sug'orma dehqonchilik xo'jaligi rivojlangan. Chirchiq, Ohangaron va ularning irmoqlari Toshkent vohasining eng qadimgi dehqonchilik markazlariga aylangan. Masalan, Ohangaron daryosining o'rta oqimida joylashgan Burg'uluksoy havzasida ilk dehqonchilik madaniyati tarkib topgan. Uni birinchi bor 1940 yilda A.I.Terenojkin aniqladi va unga Burg'uluk madaniyati nomini berdi, u burganlisoy madaniyati nomi bilan xam ataladi.

**Burg'uluk madaniyati** ikki bosqichda rivojlangan: 1 bosqich mil avv. IX–VII asrlarga oid bo'lib, bunda aholi yarim yerto'la, chaylalarda yashab dehqonchilik qilganlar. 2 bosqich mil.avv. VI –IV asrlarga tegishli bo'lib, bunda aholining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'ladi. Endilikda aholi guvala va xom g'ishtdan kulbalar qurganlar, ular oval, aylana, to'g'ri to'rt burchak va kvadrat shaklida bo'lib, ularning o'rtacha maydoni 12–15 kv.m. bo'lgan. Kulbalar asosan bir xonali bo'lib, 2 xonali kulbalar kam uchraydi. Qishloqlarning atrofini mudofaa devorlari bilan o'rab olganlar va dehqonchilikda sun'iy sug'orishdan foydalanganlar.

Keyingi davrlarda X.Duke va M.Filonovichlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning davrlari aniqlandi. 1972 yilda X.Duke Tuyabo'g'iz suv omborining qurilishi munosabati bilan Ohangaron daryosining chap sohilida taqiqot ishlari olib bordi va shu madaniyatga tegishli 14 ta qishloq va 60ga yaqin yarim yerto'la va chayla tipidagi kulbalarining qoldiqlarini topib o'rgandi. Olimning tadqiqotlari natijasida Burg'uluk madaniyatining birinchi bosqichini aniqlandi. Mazkur madaniyatning ikkinchi bosqichi esa, 1978–1982 yillarda Shoshtepada olib borilgan keng stratigrafik qazishmalar natijasida M.Filonovich tomonidan aniqlandi. 1981 yilda shu madaniyatga tegishli bir qabr Shoshtepadan topildi. Unda marxum oyoq–qo'llari buklagan holda chap yoni bilan boshi shimolga qaratib yotqizilgan. Mozordan bitta sopol idish chiqqan. Skelet ustida bir qator xom g'ishtlar qo'yilgan.

Burg'uluk madaniyati qishloqlarini qazish vaqtida behisob sopol parchalari, qumtoshdan yasalgan o'roqsimon pichoqlar, bronzadan yasalgan o'roq va pichoqlar, bigiz, oyna, ignalar topilgan. Tosh qurollari nihoyatda ko'plab topilgan, ular orasida yorg'uchoqlar, tosh o'g'ir va o'g'ir soplari ko'plab uchraydi.

Sopol idishlar ko'pol va mo'rt bo'lgan, chunki ular qo'lda yasalib, ochiq gulxanlarda pishirilgan. Ularning turi ko'p bo'lmagan. Ular osti yassi qilib ishlangan kosalar, tuvakcha va xurmachalardan, quloqli sopol qozonlardan iborat bo'lgan. Sopol idishlarning sirtiga och qizil angob berilib, so'ng pardozlangan. Uning ustidan idishlarning gardishi bo'ylab och qora yoki och qizil rangda oddiy chiziqlardan iborat gullar solingan.

Burg'uluq 2 bosqichida qadimgi Toshkent vohasi dehqon jamoalari olovga e'tiqod qilishgan. Burg'uluk madaniyati Toshkent vohasining eng qadimgi dehqon jamoalarining madaniyati bo'lib, ana shu madaniyat asosida keyingi asrlarda Toshkent vohasida urbanizatsiya jarayoni rivojlandi. Sirdaryoning o'rta xavzasida so'nggi bronza va ilk temir davrida burg'uluk madaniyati shakllanib, uning asosida antik davrga kelib qadimgi Choch dehqonchilik vohasi vujudga keldi.

**Chust madaniyati** qadimgi Farg'onadagi ilk dehqonchilik madaniyati yodgorligi hisoblanadi. Bu madaniyatni yaratgan aholi dastlab chorvachilik bilan shug'ullangan, keyinchalik esa o'troq hayot tarziga o'tishgan. Ularning ilk qishlog'i 1951 yilda M.E.Vorones tomonidan Chust shahri yaqinidagi Buvanamor deb atalgan buloq yonidan topilgan. Arxeologlar bu yodgorlikka shartli ravishda Chust madaniyati nomini berganlar, chunki u yodgorlikka yaqin yirik aholi punki Chust shahri bo'lgan.

Chust madaniyati so'nggi bronza va ilk temir davriga oid bo'lib, u mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragida shakllangan. Olimlar olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning rivojlanish davrini 2 davrga bo'lib ko'rsatadilar.

1. So'nggi bronza davri bo'lib, mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragidan to mil.avv. VIII davom qilgan.

2. Ilk temir davri bo'lib, mil.avv. VIII – VII asrlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kungacha Farg'ona vodiysidan Chust madaniyatga oid 80 dan ortiq yodgorlik topilgan. Shuningdek, uning izlari Namangan, Andijon, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo hududlaridan ham topilgan.

“Naqshinkor rangli sopol” madaniyati mil. avv. X-VIII asrlar davomida Markaziy Osiyo hududlarida tarqaladi. Uning izlari Jarqo'ton yodgorligining arki hududidan, Kuchuk I, Qizil I, Tilla I, Ko'ktepa, Afrosiyob, Yerqo'rg'on kabi yodgorliklardan, umuman Janubiy O'zbekiston hududlarida 40 tadan ortiq yodgorliklarida uchratilgan. “Naqshinkor rangli sopol” madaniyatining qaerdan tarqalganligi masalasi tadqiqotchilar o'rtasida munozara mavzusi hisoblanadi. Lekin bu madaniyatning moddiy buyumlari turar-joy massivlari, yerto'lalari, g'alla o'ralari, charxsiz qo'lda ishlangan rangli naqshli

sopol idishlari, qayroqtoshdan, bronzadan yasalgan o'roqsimon pichoqlar va boshqa moddiy ashyolari Chust madaniyatiga o'xshashligi masalasi dastlab A.Asqarov tomonidan ta'kidlanib, ularning kelib chiqishini Chust madaniyati bilan bog'ladi. A.Asqarovning ta'kidlashicha, "Sopoli madaniyati o'zining Bo'ston bosqichida gullab-yashnab turgan kezlarda, Baqtriya sarhadlariga Qadimgi Farg'onaning Chust madaniyati tipidagi etnik guruhlar kirib keladilar. Ularning moddiy madaniyat izlari ibtidoiy urug'chilik jamoasining bronza bosqichidan ilk temir bosqichiga o'tish davri madaniyati sifatida Qadimgi Baqtriya hududlari bo'ylab keng tarqaladi". Keyingi yillarda sharqiy Turkistondagi Sinszyan yodgorligidagi sopol idishlarning Chust madaniyati bilan bog'liq ekanligi aniqlangach, "Naqshinkor rangli sopol" madaniyatining sharqdan g'arbga tarqalganligi haqida mulohazalar yuritildi. Mil.avv. I ming yillikning boshlarida Chust madaniyati aholisining Amudaryo havzasi hududlariga kirib kelishi natijasida "Naqshinkor rangli sopol madaniyati" ga asos solganlar. Ularning kirib kelishi natijasida "Oks sivilizatsiyasi" inqrozga uchragan.

Chust madaniyatiga oid yodgorliklar tog' oldi soy etaklarida, ularning o'rtta oqimida, vohaning tekis rayonlarida uchraydi. Qoradaryo havzasi va uning irmoqlari bo'ylab esa, Chust madaniyatiga oid qishloqlar uchraydi.

Chustda M.E.Voronesdan keyin V.I.Sprishhevskiy, B.Matboboev, Yu.A.Zadneprovskiyilar tadqiqot ishlarini olib bordilar. Qazishmalar Dalvarzintepa, Qoraqo'rg'on, To'raqo'rg'on, Tergovchi, Yaztepa, Go'rmiron, G'ayrattepa, Chimboy, Ashkaltepa kabi yodgorliklarda olib borildi. Ularda madaniy qatlam 1,5—3 metrgacha qalinlikda saqlanib qolgan, bu ham chust madaniyati axolisining o'troq hayot kechirganligidan dalolat beradi.

Chust madaniyatining ikkinchi davrida ilk shaharlar vujudga kela boshlagan. So'nggi bronza davri shakllangan yirik qishloqlarida mudofaa devorlari barpo etiladi. Shaharlar ikki qismdan iborat bo'lib, ark va shaxriston ham mudofaa devori bilan o'ralgan. Mudofaa devori qoldiqlari Chust qishlog'ida va Ashkaltepadan topilgan. Chustda xom g'ishtdan ishlangan devorning qalinligi 3 metr, uning balandligi 3,5 metrga teng.



Chust madaniyati yodgorliklarini qazish jarayonida ularning quyi qatlamidan doira shaklida qurilgan ko'plab o'ralar topilgan. Masalan, Chust makonida 60 ta, Chimboyda esa 16ta shunday o'ralar ochilgan. Bu o'ralarning qanday maqsadda qurilganligi to'g'risida har xil fikrlar mavjud. Ba'zilari kulba desa, ba'zilari uni g'alla o'ralari deb talqin qiladi. Akademik A.Asqarov ham uni g'alla o'rasi deb hisoblab, ularning maydoni kulba uchun juda noqulay ekanligini ta'kidlaydi.

Chust madaniyati oid qabriston hali topilgani yo'q. Lekin makonlardagi uylarni qazish vaqtida bir necha tartibsiz qo'milgan mozorlar topilgan. Ularda odamlar yoni bilan g'ujanak holatida qo'yilgan. Mozorlarda sklet atrofida sopol buyumlar yoki taqinchoqlar uchramaydi. Faqat Chust makonida bir mozordagina skelet bosh suyagi yonidan bitta gulli sopol kosa topilgan. Ba'zi yodgorliklarda yosh bolalar sopol idishlarga solib ko'milgan. Lekin chust madaniyati yodgorliklarida dafn marosimi bilan bog'liq bo'lgan aniq bir tartib kuzatilmaydi. Chunki ba'zi hollarda odam suyaklari xo'jalik o'ralarida va ko'p xollarda esa, bir chuqurchada o'ntalab odam boshi suyaklari topilgan. Bu masala hozirgacha o'z yechimini topgan emas.

Chust madaniyatida metall hunarmandchiligi yaxshi rivojlangan. Masalan, Chust makonidan 80dan ortiq, Dalvarzintepadan 60dan ortiq metall predmetlar topilgan. Shuningdek u yerlardan tosh qoqliklar ham topilgan bo'lib, ularda oyna, o'roq, pichoq va bigizlar quyilgan. Chust madaniyati yodgorliklarining yuqori qatlamidan bronza buyumlar bilan birga temirdan ishlangan pichoq ham topilgan. Yodgorliklarda temir shlamlari ko'plab uchraydi.

Chust madaniyati yodgorliklarida tosh va suyakdan yasalgan mehnat qurollari topilgan. Masalan, Dalvarzintepadan 1500 ga yaqin tosh qurollari topilgan. Ular orasida qum-toshdan yasalgan o'roqsimon pichoqlar alohida diqqatga sazovordir. Ularning 400ga yaqini topilgan.

Suyakdan taroq, moki, bigiz, urchuq va boshqa buyumlar ishlangan. Urchuq toshlari, moki va suyak taroqlarning topilishi aholining to'qimachilik bilan ham shug'ullanganligidan darak beradi. Suyakdan yasalgan buyumlar orasida qo'y va echki oshiqqlari nihoyatda ko'p. Ularga tegishli chuqurchalar yasab, chuqurchalarga bronza quyilgan. Oshiqqlarning deyarli ko'pchiligi juda silliq, ustki qismi to'q qizil tusda va

ularga pardozi berilganligini tufayli tovlanib turibdi. Tadqiqotchilar fikricha, bular bilan chust aholisi qimor o'ynini o'ynagan.

Chust aholisi kulolchilik idishlarini qo'lda yasaganlar, ular hali charxni bilishmagan. Ularning xo'jaligining asosini sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik tashkil qilgan. Dehqonlar bug'doy, tariq, arpa ekanlar. Ikkinchi o'rinda xonaki chorvachilik turgan. Xo'jalikda ot, qoramol boqqanlar. Dehqonlar g'allalarini o'ralarda saqlaganlar. Har bir o'rada 200 kgdan to 2 tonnagacha g'alla saqlash mumkin bo'lgan. Yerni haydashda va ekinlarni yanchishda hayvon kuchidan foydalanishgan. Bu haqda Qirg'iziston hududida joylashgan Soymalitosh qoya toshlari darak beradi. Uning suratlari Chust madaniyatiga oid bo'lib, unda qo'shga qo'shilgan ho'qizlarning tasviri bor.

Chust madaniyatiga oid sopol parchalari Samarqand hududida joylashgan Afrosiyob yodgorligining quyi qatlamidan, janubiy Sug'diyonaning bosh shahri bo'lgan Yerqo'rg'on shahri harobasining pastki qatlamidan, Shahrisabz hududida joylashgan ilk o'rta asrlar davriga oid bo'lgan To'rtkultepa yodgorligining quyi qatlamidan va qadimgi Baqtriya hududidagi Kuchuktepa, Bo'yrachi, Qizilcha, Maydatepa kabi yodgorliklardan topilgan. Lekin Chust madaniyati qadimgi Baqtriyada keng rivojlana olmadi, chunki bu yerda sharq sivilizatsiyasi ta'sirida rivojlangan dehqonchilik madaniyati ularni o'ziga singdirib yubordi. Shuningdek, bu yerdagi Chust madaniyati izlari Farg'ona va Sug'diyonadagi madaniyatdan tubdan farq qilar edi. Bu yerdagilar kulbalarda iste'komat qilib, kulolchilik charxini o'zlashtirgan.

Chust madaniyati mil.avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragida Farg'ona vodiysida qadimgi dehqonchilik madaniyati tarkib topganligini ko'rsatadi. Bu madaniyat aholisi O'rta Osiyoning tub yerli axolisi bo'lib, ular jismoniy tuzilishi va antropologik tip jihatdan Yevropa tipiga mansub bo'lgan.

Chust madaniyatidan so'ng qadimgi Farg'onada ularning vorislari sifatida Elatan madaniyati shakllandi.

**Eylatan madaniyati** ilk temir davriga oid bo'lib, u mil.avv. VII–Y asrlarga oiddir. Elatan madaniyatiga doir yodgorliklar Farg'ona vodiysining deyarli barcha hududlaridan aniqlangan. Ulardan Eylatan manzilgohida keng ko'lamli qazish ishlari

olib borilgan. Bu manzilgoh uchburchak shaklda bo'lib, mudofaa devori bilan o'ralgan (eni 4m). Mudofaa devorlarining bir necha joyida va darvoza burchagida burjlar aniqlangan. Qurilishda paxsa, xom g'isht va guvaladan foydalanganlar. Dehqonchilikda asosan bug'doy, arpa, sholi ekishgan. Chorvachilik ham taraqqiy qilgan bo'lib, asosan mayda tuyoqli chorva mollari boqilgan.

Sopol idishlar qo'lda va kulolchilik charxida ishlangan. Bu davrdan temirdan buyumlar yasash keng tarqala boshlagan. To'qimachilik ham rivojlangan.

Qadimgi shaharlar tarkib topishi, albatta, aholining o'troq dehqonchilik madaniyati bilan bog'liq bo'lib, dehqonchilik vohalarining markazlari sifatida shaharlar qad ko'targan.

### **3.Ko'chmanchi qabilalarning moddiy yodgorligi.**

Temir davri boshlarida Orol bo'ylari, Qozog'iston cho'llari, Qora dengiz bo'ylari, Kaspiy orti va janubiy Sibir hududlari dashtlarida ko'chmanchi chorvador qabilalar iste'qomat qilishgan. Yozma manbalarda ko'rsatilishicha, bular kimmeriy, skif, sak, massaget, savromat, sarmat qabilalari bo'lgan.

Yozma va modiy manbalarida ularning turmush tarzi va urf-odatlar haqida to'liq ma'lumot berilgan. Ko'chmanchi qabilalardan moddiy yodgorlik sifatida mozor-qo'rg'onlar saqlanib qolgan.

Temir davridan boshlab, ko'chmanchi qabilalar orasida mulkiy tabaqalanish boshlangan. Buni mozor-qo'rg'onlardagi topilmalar tasdiqlaydi. Katta hajmdagi mozor- qo'rg'onlar badavlat sardorlariga tegishli bo'lib, u yerdan qurol aslaxa va turli qimmatbaho buyumlar topilgan. Kichik mozor-qo'rg'onlar esa oddiy aholiga tegishli bo'lib, ma'lum miqdorda o'qlar va zeb-ziynatlar bor, ba'zilarida esa umuman hech nima uchramaydi.

Bugungi kunda **saklar** Orol bo'yi, shimoli-sharqiy O'rta Osiyo, Qozog'iston va janubiy Sibir hududlarda yashagan, degan fikrlar ilmiy adabiyotlarda mavjud. Saklarning turmush tarzi, urf-odati to'g'risida ma'lumotlar Eron axomoniylari qoya tosh bitiklarida saqlanib qolgan (Bexistun yozuvi, Nakshi-Rustam, Persopol saroyi releflari va bq.da). Qozog'iston hududida yashagan saklar ko'chmanchi chorvachilik bilan, Sirdaryo oralig'i va janubiy Qozog'iston hududida yashagan saklar

dehqonchilik bilan shug'ullanganlar. Mil.avv.VII-III asrlarda sak qabilalari ittifoqi vujudga kelgan.

Ko'chmanchi qabilalarda hunarmandchilik nihoyatda keng rivojlangan. Qimmatbaho metallarga nihoyatda mohirona ishlov berganlar. Ularning bunday ishlash uslubi fanga "hayvoniy uslub" deb kiritilgan. Bunga sabab turli bezak-taqinchoqlar, idishlar va harbiy qurolarni yasashda hayvonlar tasvirini aniq va o'z navbatida murakkab, naqshindor qilib yasashgan. Sak va skiflar yaratgan madaniyat bir biriga o'xshash bo'lsada, skiflar madaniyatida yunonlarning ta'siri seziladi. Shuningdek, saklar uchi uzun (70sm.ga yaqin) qalpoq va uzun chakmon kiygan. Tasvirlarda u tizzadan past qilib aks ettirilgan. Oyoq kiyimlari uzun ko'njli etik bo'lgan. Skiflar tasvirida ular uchi qayilgan qalpog'da, ba'zan qalpoqsiz bo'lib, sochi yelkaga tushib turgan xolda tasvirlangan. Oyoq kiyimlari kalta ko'njli bo'lib, oyoqning to'pig'idan boylab qo'yilgan. Keng shalovar ishton kiyganlar.

Gerodot o'zining asarida massagetlar haqida to'liq ma'lumot berib, o'tgan. Arxeologik tadqiqotlar sak va massagetlarning bir xil madaniy jarayonda ishtirok etganligi ko'rsatdi. Shu sabab, ilmiy adabiyotlarda "sak-massagetlar madaniyati" termini ishlatiladi.

Sak qabilalaridan Tagisken, Uygarak, Issiq va Chiliktin qo'rg'onlari saqlanib qolgan.

**Tagisken mozor–qo'rg'onlari** Orol dengizining sharqiy qismida joylashgan. U yerdan 70dan ortiq mozor–qo'rg'onlar topilgan bo'lib, ulardan 38 tasi o'rganilgan. Tadqiqotlar jarayonida ularning ba'zilari bronza davriga, ba'zilari ilk temir davriga oid ekanligi aniqlandi. Tegisken mozor–qo'rg'onlari murakkab konstruksiyali monumental inshootlar bo'lib, yirik hajmdagi xom g'isht va yog'ochdan qurilgan. Ular o'z shakllariga ko'ra o'tovga o'xshaydi.

Mozor –qo'rg'onlarning har biri urug' oqsoqoli yoki qabila boshlig'iga tegishli bo'lib, ularning ichidan sopol, bronza, oltindan ishlangan buyumlar va hayvon suyaklari topilgan. Hayvon suyaklari qurbonlikka so'yilgan hayvon go'shtining bir qismi bo'lib, chorvadorlar odati bo'yicha uni marxum bilan birga qo'yishgan.



**Uygarak mozor- qo'rg'oni** –quyi Sirdaryo bo'yidagi Inkardaryoga yaqin bo'lgan Uygarak tepaligida joylashgan. Mil.avv. VII-V asrlarga oid 70ga yaqin mozor qo'rg'on o'rganilgan. Bu yerdan yoqilgan va ma'lum bir marosimlar bo'yicha ko'milgan jasadlar topilgan. Ularning yonida sopol buyumlar, zargarlik buyumlari, ot anjomlari, bronza o'q uchlari va boshqalar topilgan. Muzor-qo'rg'onlar qadimgi davrlardayoq o'g'irlab ketilgan bo'lsada, o'sha davr madaniyati haqida darak beruvchi materiallar saqlanib qolgan.

Tagisken va Uygarakdan topilgan moddiy buyumlar hayvoniy uslubda ishlangan dastlabki buyumlar ekanligi isbotlangan. Bu esa, Old Osiyo, Oltoy va Janubiy Sibir hududlari bilan madaniy aloqada O'rta Osiyoning o'rni kattaligini isbotlaydi.

**Issiq mozor qo'rg'oni** Olma-Ota shahridan 50 km sharqdagi Issiqdaryoning chap sohilidan topilgan. Uni 1972 yilda A.K.Akisev o'rgangan. Bu qo'rg'onda saklarning kiyim – kechaklari, oyoq kiyimlari va qurollari nihoyatda yaxshi saqlangan. Bu topilmalar orqali olimlar saklarning bayramlarda kiyadigan kiyim tasvirini to'liq tiklaganlar. Ularning qalpog'i, ko'ylagi va oyoq kiyimlari oltin qadama bezaklar bilan bezatilgan. Bu yerdan 4 mingdan ortiq oltin buyumlar topilgan.

#### **4.Evropa va Sibirdagi ilk temir davri yodgorliklari.**

Skiflar madaniyati mil.avv.VII asrdan shakllana boshlagan. Skiflar dastlab ko'chmanchi hayot kechirishgan. mil.avv.V asrdan ularning dastlabki mustahkamlangan manzilgohlari paydo bo'ladi. U quyi Dnepr bo'yidagi hozirgi Nikopol yonida bo'lgan. mil.avv. IV asrlarga kelib, u nixoyatda tez rivojlanib, hunarmandchilik va savdo markaziga aylanadi. Mil.avv. IV –III asrlarga kelib skiflarning bir qancha shaxarlari bo'lgan- Kamensk, Yelizavetovskiy va boshqalar. Skiflarning eng qadimiy qo'rg'onlari mil.av. VI asrlarga oiddir.

Skiflar, Gerodotning xabaricha, qilichga ham sig'inishgan, hatto unga qurbonliklar keltirishgan. Ularning qilichi temirdan yasilib, dastasining boshi yoysimon qilib qayirligan, dastaning tagi esa, kapalak qanotlariga o'xshash gulband qo'yilgan. Ammo, skiflar o'q-yoyni ishlatishda juda moxir bo'lishgan. O'qlari bronzadan ishlangan va uch qirrali bo'lgan. Bunday o'qlar ilk temir davrida Sharqiy

Yevropa, Sibir va O'rta Osiyoning juda ko'p yerlaridan topilgan. Skiflarning sopol idishlari qo'lda ishlangan. Naqshi kam bo'lgan, tagi yassi bo'lib, turlari ko'p bo'lgan. Gerodot skiflarning ko'mish marosimini to'liq tasvirlab bergan, buni arxeologik ma'lumotlar ham tasdiqlaydi. Skif podshosi qaerda o'lsa ham, uni Dneprning ostonalaridan pastroqdagi Gerri degan joyga olib borib ko'mishgan. Bu joydan g'oyat boy skif qabrlari topilgan. Lekin ularning barisi talab ketilgan.

Gerodotning xikoyasi bo'yicha, qabrga podshoning ayollari, jangchilari, qullari, otboqarlari va otlari o'ldirilib birga ko'milgan. Shuningdek, bu yerda ularning diniy e'tiqodi bilan bog'liq turli xayvonlarning oltin haykalchalari (bug'u tasviri ko'plab topilgan), kumush idishlari va sopol buyumlari ham qo'yilgan. Soloxa, Chertomlik, Kuloba mozor–qo'rg'onlari bularga misol bo'la oladi.

**Chertomlik mozor– qo'rg'oni** - quyi Dnepr bo'yida joylashgan. Uning balandligi 20 metr, aylanasi esa 350 metr bo'lgan. Chertomlik qo'rg'oni buyumlari skiflar davridayoq o'g'irlab ketilgan bo'lsada, ba'zi narsalar saqlanib qolgan. Kamon o'qlari saqlanadigan oltidan ishlangan g'ilof topilgan. Unda yunonlar xudosi Axil hayotidan tasvirlar aks etgan. Bu yerdagi skif podshosi malikasining xonasi to'liq saqlangan. Malika oltinlar bezatilgan holda yotgan. Yonidan kumush lagan va balandligi 1 m keladigan vaza topilgan. Vazada o'simliklar, qushlar, otlarni bezayotgan skiflar aniq tasvirlangan. Lekin bu yunonlar uslubida ishlangan. Mil.av.II asrgacha skiflarda matriarxat tuzumi hukmronlik qilgan. Bu davrda ko'chmanchi chorvadorlar orasida sarmatlar, keyinchalik alanlar hukmron bo'lganlar. Sarmatlarning qilichi 1 metr va undan uzunroq bo'lgan va otda chopishga qulay bo'lgan. Dastasi yog'ochdan ishlangan. O'qlari esa temirdan ishlanib, uch parrakli shaklini saqlab qolgan. Sarmatlar tomonidan siqib chiqarilgan skiflar mil.avv. II asrda Qrimga ko'chib kelib, o'z davlatlariga asos solganlar. Ularning markaziy shahri Neopol bo'lgan. Shahar tosh devor bilan o'ralgan. Uylar ham toshdan yasalgan. Skif zadogonlari maqbaralari ham toshdan ishlangan. Shuningdek, qoya tosh ichiga o'yilgan daxmalar ham topilgan. Ularning barchasi talangan bo'lsada, u davr to'g'risida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Rossiya hududida mil.av YII–II asrlarga oid Volga, Oka daryolari bo'ylarida Dyakovo shahar harobalari va Kama bo'yidan Ananino shahar harobalari topilgan. Bu yerning axolisi asosan chorvachilik (yilqichilik), qisman dehqonchilik bilan shug'ullangan.

**Dyakovo yodgorligidan** yerto'lalar, temir o'roqlar, yorg'uchoqlar, urchuqtoshlar topilgan. Bu yerdan asosan suyakdan ishlangan mehnat qurollari topilgan. **Ananno yodgorligidan** esa katta urug' iste'qomat qilgan uzunasiga solingan uylar qoldig'i topilgan. Ularning dafn marosimlari axoli o'rtasida mulkiy tabaqalanish boshlanganligini ko'rsatadi. Boylarning qabrlarida turli zeb-ziynatlar, qurol yarog'lar bor. Oddiy odamlarilarnikida esa bunday buyumlar kam uchraydi, ba'zilarida esa umuman yo'q.

Sibirning temir davri yodgorliklaridan Sayan va Oltoy yodgorliklari mashhurdir, bu hududlar unumdor va metallga boy bo'lgan. Sibirliklar temir bilan mil.avv. Y asrdan tanishishgan. Aholisi lalmi dehqonchilik bilan shug'ullangan. Bu davrga oid ko'plab qoyatosh suratlari saqlanib qolgan. Ularda dehqonchilik bilan bog'liq jarayonlar, axolining turmush tarzi aks etgan. Boyari tog'idagi suratda 3ta yog'och va bitta paxsa uy va o'tov rasmi solingan. Uning chap tomonida echki va bug'ularni haydab kelayotgan cho'pon tasviri bor. Bundan arxeologlar bu yerning axolisi chorvachilik bilan ham shug'ullanishgan degan xulosaga kelgan. Ularning qabrlari mozor–qo'rg'onlar shaklida bo'lib, u yerlarda haqiqiy mehnat va harbiy qurollar o'rniga ularning kichik modellari qo'yilgan.

Umuman, temir davrida Sharqiy Yevropa va Sibir aholisi yaratgan moddiy madaniyat bir-biriga juda yaqin. Ulardagi urf–odatlar, ko'mish marosimi shuningdek, oltin, kumush, bronza, suyakdan ishlangan deyarli barcha mehnat qurollari, turli haykalchalar, harbiy qurollari o'rtasidagi o'xshashlik katta. Bu esa, ilk temir davrida Sharqiy Yevropa, O'rta Osiyo va Sibir o'rtasida mustakam aloqalar bo'lganligidan darak beradi.

#### **Mavzuni mustahkamlovchi savollar:**

1. Xo'jalikda temir buyumlarining asosiy o'rin egallashi sabablarini aniqlang?

2. Ikkinchi mehnat taqsimoti jamiyatda qanday o'zgarishlarga olib keldi?
3. Kuchuktepa yodgorligi necha bosqichda rivojlangan?
4. Sangirtepa yodgorligi qayerda joylangan?
5. Amirobod aholisi nima bilan shug'ullangan?
6. Burg'uluk madaniyatini kimlar o'rgangan?
7. Chust madaniyati izlari qaerlardan topilgan?
8. Elatan madaniyati qaysi madaniyat asosida shakllangan?
9. Skiflar to'g'risida qaerlarda ma'lumotlar saqlanib qolgan?
10. Sayan va Oltoy yodgorliklari qaerdan topilgan?

### **Yodda tuting! So'nggi bronza va ilk temir davri**

- Dehqonchilikdan hunarmandchilik ajralgan.
- Dastlab temirdan zeb-ziynat buyumlari yasalgan.
- O'rta Osiyo temir buyumlari mil.avv.VIII asrdan tarqalgan.
- Temir rudasi tabiatda keng tarqalgan.
- Dam berish usuli yordamida rudadan temir ajratib olingan.
- Egov, skanja, kalit va qulflar paydo bo'lgan.
- Po'lat sof temirga ko'ra mustahkam bo'lgan.
- Kuchuktepa Surxondaryo viloyatida joylashgan.
- Sangirtepa Qashqadaryo viloyatida joylashgan.
- Amirobod madaniyati quyi Amudaryo hududida vujudga kelgan.
- Burg'uluq madaniyati Ohangaron daryosi hududlaridan topilgan.
- Chust va Elatan madaniyatlari Farg'ona viloyati hududlarida shakllangan.
- Qozog'iston cho'llari va Qora dengiz bo'ylari dashtlarida ko'chmanchi chorvador qabilalardan moddiy yodgorlik sifatida mozor–qo'rg'onlar saqlanib qolgan.
- Temir davrida ko'chmanchi qabilalar orasida mulkiy tabaqalanish boshlangan.
- Mil.av.II asrgacha skiflarda matriarxat tuzumi bo'lgan.



- Mil.av YII–II asrlarda Dyakovo yodgorligi aholisi yertoʻlalarda yashagan.
- Ananno yodgorligidan katta urugʻ isteʼqomat qilgan uzun solingan uylar qoldigʻi topilgan.
- Sibirning temir davri yodgorliklaridan Sayan va Oltoy yodgorliklari keng oʻrganilgan

## **8-mavzu. Qadimgi davr xususiyatlari.**

### **Reja:**

1. Qadimgi davr taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatlari.
2. Qadimgi Gresiya va Rim madaniyati.
3. Oʻzbekiston hududidagi ilk shaharlar.

**Tayanch soʻzlar:** tabaqalanish, arxaik, antik, klassik qulchilik, uy qulchiligi, axamoniylar, amfora, pifos, suv tegirmoni, papirus, Koʻktepa, Afrosiyob, Koʻzaliqir.

### **1.Qadimgi davr taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatlari.**

Qadimgi davrda ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotida tub oʻzgarishlar sodir boʻlgan. Bunda, birinchi navbatda ishlab chiqarish usuli va mulkchilik shakllari tubdan oʻzgargan. Bu temir davri jamiyatining rivojlanishi asosida vujudga kelgan boʻlib, jamiyatda shaharlar, davlatlar va jahon imperiyalari tarkib topgan. Aholi oʻrtasida tabaqalanish kuchaygan. Zodagonlar, qohinlar, jangchilar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar patriarxal oilaning kichik aʼzolari – xizmatkorlar “qullar” – jamiyatning asosini tashkil etgan. Lekin qulchilik hamma mamlakat va halqlarda ham bir xil taraqqiy etmagan. Ular Yunoniston va Rimda oʻzining eng rivojlangan–klassik shakliga ega boʻlgan. Bu mamlakatlarda ishlab chiqarish usulining asosini qullar mehnati tashkil etgan. Qullar xuddi jonli buyum tariqasida foydalanilgan. Ularning hech qanday huquqi boʻlmagan. Ular eng ogʻir ishlarda betinim ishlashga majbur etilgan.

O`rta Osiyoda esa, ishlab chiqarishning asosini erkin dehqon jamoalari tashkil etgan. Qul nomi ostida yuritilgan xonadon xizmatkorlari mehnatidan esa, faqat uy yumushlarini bajarishda foydalanilgan va ularga oilaning kichik a`zosi sifatida qaralgan. O`rta Osiyoda uy qulchiligidan vujudga kelishini tabiiy iqtisodiy sharoit taqozo etgan. Bu asosan, sug`orma dehqonchilik xo`jaligi bilan bog`liq. To`g`onlar, ariqlar, kanallarni qurish va tozalab turish kabi ishlarni faqat jamoaning erkin, o`z mehnatidan manfaatdor aholigina bajara olgan. Bu ishlarni bajarishda sustkashlik, loqaydlik, beparvolikka yo`l qo`yib bo`lmagan.

Arxaik davr taraqqiyoti miloddan avvalgi YI asrda dunyodagi birinchi imperiyaga asos solgan Erondagi ahamoniylar sulolasi tarixida aks etgan. Ular o`zlariga qaram o`lkalar to`g`risida ko`plab ma`lumotlar qoldirganlar. Ular jumlasiga Bexistun qoya toshlaridagi tasvirlar, Naqshi Rostam va Persepol saroyidagi tasvirlarni keltirish mumkin. Ularga bo`ysungan mamlakatlarda ahamoniylar madaniyatiga xos bo`lgan moddiy madaniyat izlari topilgan. Shuningdek, imperiyada yagona pul tizimi(darik), yagona aloqa tizimi va diniy e`tiqod(zardushtiylik) shakllantirilgan. Buyuk ipak yo`lining dastlabki shahobchasi "Shoh yuli" xuddi shu davrda o`z faoliyatini boshlagan.

Ahamoniylar imperiyasi 200 yilcha hukmronlik qilgan. Mil.avv.IY asrda jahon sahnasida yunon–makedonlarning gegemonligi ko`rina boshlaydi. Mil.avv.YII–IY asrlarda yuksak madaniyat yaratgan yunonlar, mil.avv.IY asrda Makedoniyali Aleksandr tomonidan bo`ysundiriladi va u boshqa xalqlarni, shu jumladan, ahamoniylar imperiyasini ham o`ziga bo`ysundirib, ikkinchi jahon imperiyasini tashkil etadi. Shu tariqa Aleksandr Makedonskiy tobe qilgan xalqlarda yunon madaniyati kirib kela boshlaydi.

Mil.avv.IY asrdan boshlab yunon tangalari jahon savdosida yetakchi o`rinni egallaydi. Qadimgi davrda tanga mil.avv. VII asr boshida Kichik Osiyodagi Lidiyada paydo bo`lgan va shu davrdan tanga pullar ishlab chiqish Yunoniston, Mesopotamiya, Eron, Misr va boshqa davlatlarga yoyilgan. Qadimgi davrda tanga pullar uch xil metall–oltin, kumush va misdan ishlangan, ulardan kumush keng iste`molda bo`lgan. Lidiy halqi yaratgan tangalar dumaloq yoki tuxumsimon shaklda bo`lib, ularga davlat

tamg'asi bosilgan. Yunonlarning pullarida esa, badiiy jihatdan tasvirlar mukammal bo'rttirib ishlangan. Ularga ko'proq mifologik suratlar ishlangan. Shuningdek, har bir mamlakatning o'z tangalari ham bo'lgan. Ularda ko'pincha o'z podshosining surati, uning nomi va ular e'tiqod qiladigan xudolar tasviri bo'lgan.

O'zbekistonning qadimgi davrida amaliy san'at ham yuksak darajada rivojlanadi. Xususiyl muhr, tamg'alar, mahalliy hokimlik nishoni – gemma va tangalar zarb qilina boshlandi. Diniyl va dunyoviy harakterga ega bo'lgan har xil terrokota haykalchalari ham ishlab chiqila boshlandi. Terrakota haykalchalarda ayollar aks ettirilgan bo'lib, ular ikki xil tuzilishda bo'lgan. 1) Tik turgan holda, o'ng qo'li ko'krak ostida, chap qo'li qorni ustida qo'yilgan. 2) Tik turgan holda bo'lib, qo'llarida oyna ushlab turgan holda tasvirlangan. Terrakota haykalchalarda mahalliy etnik tiplar va mahalliy kiyimlarda tasvirlangan. Mil.avv. II asrlardan boshlab, otliq chavondoqlar tasvirlangan terrakota haykalchalar keng tarqalgan. Bular yuejilar faoliyati bilan bog'liq edi.

Bu davrda mulkiyl tabaqalanish jarayoni ham jadal sur'atlar bilan kechdi. Natijada ilgari markazlashgan shahar hokimiyati nufuzi pasayib, dehqonzodalar ta'siri oshib bordi.

Qadimgi davrda dehqonchilikning rivojiga alohida e'tibor bilan qaralgan. Yerga asosan omoch va so'qa bilan ishlov berilgan. Pantikapeyl tanga pullarida so'qaning tasviri ham saqlanib qolgan. Uning tishi yotiq, shoti egri va qo'l ushlaydigan dastasi tikka qo'yilgan. So'qa va omoch temirdan ishlangan.

## **2.Qadimgi Gresiya va Rim madaniyati.**

Don dastlab yorg'uchoqlarda yanchilgan, antik avtorlarning ma'lumotlariga ko'ra, yorg'uchoqlarda cho'rilar ishlagan. Neolit davridan to antik davrgacha yorg'uchoqlar deyarli o'zgormagan. Mil.av.IY–III asrlarda **qo'l tegirmoni** tarqalgan. U Italiyada ixtiro qilingan. Qo'l tegirmon ustma–ust qo'yilgan ikkita yumaloq yassi toshdan iborat bo'lib, bu toshlarni aylantirib, un tortganlar. Uning pastki toshi qavariq, ustidagi botiq bo'lib, ikki tosh o'rtasiga don sekinlik bilan to'kib turilgan. Kichikroq tegirmonlar qo'l bilan aylantirilgan, kattalarini esa, cho'ri yoki hayvonlar aylantirganlar. Mil.avv. II asrga kelib, qo'l tegirmonlari deyarli barcha mamlakatlarga

tarqalgan. Mil.avv. I asrda suv tegirmoni Rimda ixtiro qilingan, lekin u keng tarqalmagan. U bizning davrimizgacha saqlanib qolmagan. Faqat antik davr mualliflari asarlarida yozib qoldirilgan.

Qadimgi davrda sopol buyumlari ishlash texnikasi takomillashgan. Yunonistonda o'ziga xos idishlar ishlangan. **Amfora** (ko'za) eng ko'p ishlatadigan idish bo'lgan. Amforaning og'zi tor, tagidan yuqoriga tomon kengaytirilib ishlangan, ikkita dastasi bo'lgan. Uning ichiga har xil narsalar solib tashiganlar. Ko'proq don, vino, yog', suv, baliqlar solingan. Kemalarning katta kichikligi ularga siqqan amforalar soni bilan belgilangan. Don, vino va suv saqlashda yana – **pifos** degan idishdan ham foydalanganlar. Bu katta sopol xum bo'lib, unga bemalol odam ham siqqan. Katta pifoslar yerga ko'milib, undan ombor sifatida foydalanganlar.

Yunonlar sopol idishlarni kulolchilik charxida ishlaganlar. Ro'zg'orda ishlatadigan idishlar yaxshi pishirilgan, ularning ranggi sariq va pushti rang bo'lgan. Sopol idishlarga turli badiiy bezaklar berilgan. Badiiy sopol buyumlar naqsh solishdan oldin va naqsh solingandan keyin ham ikki marta pishirilgan.

Mil.avv.YI asrda yunonlarda sopollarga **qora lak bilan ishlov berish** keng tarqalgan. Idishlarda mifologiyaga doir yoki hayotdan olingan turli xil manzaralar tasvirlari ishlangan. Mil.avv.Y–IY asrlarda **qizil suratli vazalar** keng tarqalgan. Bunda idish butunlay qora lak bilan bo'yalib, suratlar va atrofdagi naqshlar sopolning tabiiy rangida qoldirilgan. Mifologik va realistik mavzular nihoyatda aniq va nafis chiziqlar bilan ishlangan. Mil.avv.IY asrdan sopol buyumlarni bezashda oq, qizil, yashil va ko'k bo'yoqlar bilan ham ishlov berganlar. Badiiy sopol buyumlar ayniqsa, olimpiada g'oliblariga taqdim etilgan. U oddiy amforaga o'xshatib ishlangan, lekin qaysi sport turi g'olibiga mo'ljallagan bo'lsa, shu sport turining tasviri tushirilgan. Jumladan, mushtlashish, yugurish, nayza otish o'yinlari va xk. Shuningdek, ularda ma'buda Afina tasviri ham tushirilgan.

Rim imperiyasi davrida sopol buyumlariga bezak berishda o'zgarishlar kuzatiladi. Ular idishlarni **qizil lak** bilan qoplashgan. Naqsh va suratlar esa bo'rtma tarzda aniq ishlangan. Ko'pincha meva, gul va barglar tasviri berilgan.



Shisha buyumlari ishlab chiqarish ham qadimgi davrda rivojlangan. **Shisha** bronza davrida Misrda ixtiro qilingan. Misrning shisha munchoqlari bu davrda ham haridorgir bo'lib, u suv yo'li orqali Yevropa, Rossiya, O'rta Osiyo xudularigacha tarqalgan.

Yunonlar va rimliklarda kitoblar ko'pincha o'ram shaklida bo'lgan. Ular ikki xil materialga: papirus va pergamentga yozganlar. **Papirus** Misrdan keltirilgan. Papirus nil o'simligi bo'lib, uning poyasi qat-qat bo'lib, qatlarga ajralgan. Uning qatlamlari dumalatib silliqdangan. Natijada qog'ozga o'xshagan sarg'ishroq pishiq narsa hosil bo'lgan. Yozish uchun ishlatadigan materiallarning ikkinchi xili uy hayvonlari terisidan ishlangan. Bu Kichik Osiyodagi Pergam shahrida kashf qilingan va uning nomidan **pergament** so'zi kelib chiqqan. Keyinchalik Rimda o'ram shaklidagi kitoblar bilan birgalikda, hozirgi kitoblarga o'xshash kitoblar ham paydo bo'la boshlagan.

Qadimgi davrda murakkab geometrik bezaklarni ishlashda **sirkul** ishlatilgan. U dastlab ikki daryo oralig'ida kashf etilib, Yunoniston va Rimda keng ishlatilib, takomillashtirilgan. Italiyada esa, mashstablarni ko'paytirish va kamaytirish uchun ishlatiladigan **proporsional sirkullar** ham topilgan. Bu sirkullarning hammasi hozirgi zamon sirkullariga o'xshab ketadi.

Rim imperiyasi davrida baliqchilik, dehqonchilik, vinochilik, sohalari rivojlangan. Vino ishlab chiqarishda **presslardan** foydalanilgan. Rim avtorlaridan Vitruvius **burama va richagli presslar** haqida yozib qoldirgan. Ular bulardan tashqari **o'roq mashina** va **suv tegirmoni** ham ixtiro qilganlar, lekin ularning qiymati qul mehnatidan qimmat tushganligini sababli, Rimdan tashqarida keng yoyilmagan. Mil. I asrda Italiyada **deraza oynasi** ixtiro qilinadi. U tezlik bilan ob-havosi yomon hududlarga tezlik bilan yoyiladi.

Qadimgi davr ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotida Eron, Yunoniston va Rim muhim o'rinni egallagan. Ularning madaniy sohada qo'lga kiritgan yutuqlar iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida boshqa xalqlarga ham yoyilgan va bu ularning madaniy rivojlaniishda muhim o'rinni egallagan.

### 3.O'zbekiston hududidagi ilk shaharlar.

Qadimgi davrda O'zbekiston hududida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan katta o'zgarishlar sodir bo'ldi.

O'zbekiston tarixining **qadimgi davri mil.avv. YI asrdan - mil. IY gacha** davom qilgan. Bu davrda O'zbekistonning moddiy madaniyati rivojiga yunon-makedonlar, kushonlar madaniyati sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

O'zbekistonning qadimgi davri ikki bosqichga bo'lib o'rganiladi:

1–bosqich miloddan oldingi YI–IY asrlar bo'lib, u arxeologik adabiyotlarda **arxaik davr** deb beriladi.

2–bosqich miloddan oldingi IY asrdan mil. IY asrgacha davom qiladi va **antik davr** deb aytiladi.

Bu davrda O'zbekiston hududida ham katta o'zgarishlar kuzatilgan. Mil.avv. YI–IY asrlarda bu o'lkada ahamoniylar hukmronligi o'rnatilgan bo'lsa-da, har bir hudud o'z rivojlanish yo'lidan borgan va ahamoniylarning unga ta'siri bo'lmagan.

Shaharlarning tarkib topishi insoniyat taraqqiyotidagi asosiy bosqich hisoblanadi. Insonlar yashagan hududlar makon, manzilgoh, qishloq va shahar kabi turlariga ajratilib, ular bir-biridan o'ziga xos xususiyatlari va tashqi ko'rinishlari asosida farqlanadi. A.Asqarov shaharning quyidagi beshta alomatini ko'rsatib o'tgan:

- 1.Shahar maydonida arki a'lo va shahristonni tarkib topgan bo'lishi;
- 2.Mudofaa devorlari bilan o'rab olingan bo'lishi;
- 3.Shaharning ark qismida monumental mahobatli bino ya'ni shahar hokimining o'rdasi-qarorgohi bo'lishi;
4. Shahar maydonida ibodatxona;
- 5.Shaharda hunarmandchilikning turli tarmoqlari mavjud bo'lishi kerak.

Markaziy Osiyoda ilk shaharlar dehqonchilik vohalari markazlaridagi ibodatxonalar atrofida shakllangan. Shaharlarda hunarmandchilik, savdo, diniy e'tiqod va boshqaruv bilan bog'liq bo'lgan binolar bunyod qilingan. Ilk shaharlarda davlatchilik elementlari shakllana borgan.

Markaziy Osiyoda ilk shaharlar Anov madaniyatining Nomozgoh V bosqichidan vujudga kela boshlagan. Shaharsozlik Markaziy Osiyoning shimoli-sharqiy

hududlariga tomon kengayib borgan. Dastlab Marg'iyonada, keyinchalik Baqtriyada Qadimgi Sharq sivilizatsiyasi ta'siri natijasida vujudga kelgan. Qadimgi Baqtriyada shakllangan ilk shahar Jarqo'ton yodgorligi hisoblanadi. U mil. avv. II ming yillikning birinchi yarmida shakllangan.

O'rta Osiyoda shaharlarning shakllanishidagi keyingi bosqich - ikkinchi sivilizatsion taraqqiyot - mil.avv. VIII-VI asrlarda yuz bergan. Bu davrda yirik shaharlar Sug'diyona hududida Ko'ktepa, Afrosiyob, Yerqo'rg'on yodgorliklari vujudga kelgan. Ular dastlab qishloq sifatida o'zlashtirilib, yirik shaxarlarga aylangan. Bu qadimiy shaharlar atrofida aholi bugungi kungacha yashashda davom qilib kelmoqda.

Samarqand Sug'didagi ilk shahar Ko'ktepa yodgorligi hisoblanadi. U Samarqanddan 30 km. shimolda, Chelak shahri yaqinida joylashgan bo'lib, 1988 yilda topilgan. Yodgorlik Shamot va Chandir qishloqlari oralig'ida Bulungur kanalining o'ng tomonidagi tabiiy tepaliklar ustida joylashgan. Ko'ktepa noto'g'ri kvadrat shakliga o'xshash bo'lib, 2 ta mudofaa devori bilan o'ralgan. Birinchi mudofaa devori hududi 23 ga.ni, ikkinchi mudofaa devori hududi 100 ga.ni tashkil etgan. Tashqi shahar hududi asosan bo'sh yerlardan iborat bo'lib, ba'zi joylardagina imoratlarning izlari topilgan.

Ko'ktepa yodgorligining to'rtta qurilish bosqichi aniqlangan. M.Isamiddinovning davriy sanasiga ko'ra, Ko'ktepa I davri mil.avv. IX-VIII asrlarga oid. 2006-2008 yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Ko'ktepa I davrining 3 ta fazasi va 2 ta inqroz davri aniqlangan. Birinchi faza davriga oid madaniy qatlamlarda bir necha o'rasimon chuqurchalar topilgan. Ularning diametri 1,2 metr bo'lib, chuqurligi 3 m.gacha bo'lgan. Lekin bu o'ralarning funksiyasi aniq aytilmagan. Lekin ikkinchi fazada bu o'ralarga yaqin 20-30 sm. qalinlikda paxsadan va guvalasimon g'ishtlardan devor bilan qurilgan xona va yo'lakning izlari aniqlangan. Lekin qurilmaning tarhi aniqlanmagan, chunki qurilmalar suv ostida qolgan. Uchinchi fazada ilgari qurilgan binoning ustidan qurilgan bir necha qurilmalar topilgan. Devordan sharq va g'arb tomonidan katta 5 ta o'ra aniqlangan. O'rganilgan o'raning chuqurligi 2,50 m., diametri 1,50 m. bo'lgan. O'raning devorlari bo'ylab turli

hajmdagi toshlar oʻrnatib chiqilgan. Boshqa bir oʻraning hajmi 3,50x2,50 m boʻlib, chuqurligi 1,50 m.ni tashkil qilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu oʻralardan devor tiklash uchun loy olingan. Keyinchalik esa, faqat shu oʻra oziq-ovqat saqlash uchun, qolganlari axlat uchun ishlatilgan. Bu davrga oid bir necha yertoʻlalarning izlari aniqlangan.

Koʻktepa I bosqichida 3 ta qurilish fazalari aniqlangan. Bu davrga oid yorgʻuchoq, tosh oʻroq va qayroqtoshlarning topilishi, aholining dehqonchilik bilan, mayda va yirik shoxli hayvon suyak qoldiqlarining aniqlanishi esa, aholisining yaylov chorvachiligi bilan shugʻullanganligidan dalolat beradi. Koʻktepa I qatlamlaridan bronza quyish qoliplari va shlaklarining topilishi metallsozlik bilan shugʻullanganliklarini koʻrsatadi. 2006-2008 yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Koʻktepa I da ikki xil keramik komplekslar mavjudligi aniqlangan. Tadqiqotchilar fikricha, sopol idishlarning tashqi koʻrinishi, oʻra, yarim yertoʻlalarning mavjudligi Koʻktepa I ni Toshkent vohasida tarqalgan Burgʻuluk va Fargʻona vodiysidan tarqalgan Chust madaniyati yodgorliklariga oʻxshashligini koʻrsatadi.

Demak, M.Isamiddinovning taʼkidlashicha, Koʻktepa I davrida, yaʼni mil.avv. IX-VIII asrlarda Koʻktepa yodgorligida yashagan aholi dastlab paxsa va guvalasimon gʻishtdan bunyod etilgan binoda isteʼqomat qilib, keyingi vaqtlarda uni mustaxkam mudofaaga ega boʻlgan qalʼa-shaharga aylantirganlar.

Koʻktepa II davrida ijtimoiy turmush tarzida oʻzgarishlar yuz bergan. Yirik binolar, ibodatxona va hokim qarorgohi qurilgan. Hokim qarorgohi mil.avv. VII asrning boshlari bunyod etilgan. Ark qismining pastki qatlamidan radiokarbon analiz olinib, Fransiya Milliy markazi laboratoriyasida tahlil qilinganda, u 2690+-50 yoshni bergan. Qurilgan mudofaa devorining qalinligi 6 m.ni tashkil qilgan. Ibodatxona 70x70 m. hajmda qurilgan boʻlib, u yerdan guvalasimon gʻishtlar topilgan. Gʻishtlarda “0” va “F” koʻrinishida tamgʻalar bosilgan.

Koʻktepa II bosqichining asosiy xususiyati aksariat sopol idishlarning charxda ishlana boshlanganligi bilan xarakterlanadi. Sopol buyumlarning 40-50 foizi qoʻlda yasalgan. Lekin naqshli soppalar uchratilmagan. Tadqiqotchilar fikricha, inqroizga yuz



tutgan Sopolli madaniyati anʼanalari qayta tiklangan. Ilgaridagidek, yupqa ishlangan sharsimon koʻza va xumchalar paydo boʻladi. Silindr-konik shaklidagi sopol idishlar ishlab chiqariladi.

Koʻktepa III davrida tashqi mudofaa devori qurilgan. Uning yil sanasi mil.avv. VII asrlarga tegishli. Uning qalinligi 9 m.ni tashkil qilgan. Devor qurilishida guvalasimon va toʻgʻritoʻrtburchakli (45x25x10, 45x27x9, 50x34x9 sm) xom gʻishtlardan foydalanilgan. Gʻishtlarda oldingi davrga xos tamgʻalar bosilgan. Hokim qarorgohida yangi binolar bunyod qilingan. Yodgorlikda ibodatxona, ark, aholining turar-joylari, hunarmandchilik ustaxonalarining izlari, koʻchalar topilgan. Koʻktepa mustahkam mudofaa devorga ega boʻlib, handak bilan himoyalangan. Qadimgi shahar ichki va tashqi mudofaa devorlariga ega boʻlib, devorlar oʻrtasida boʻshliq boʻlgan. Mudofaa koʻtarma devor (val) bilan ham mustahkamlangan. Shahar darvozasi egarsimon tarzda boʻlib, ichki shaharning devorlarining markazida qurilgan. Janubiy devor markazidagi darvoza boshqa darvozalarga nisbatan katta hajmda qurilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu darvoza orqali markaziy binoga kiritilgan. Shuningdek, janubiy va shimoliy devorlarning yon tomonlarida kichik hajmdagi darvozalar ham boʻlgan. Bu darvozalar piyodalar uchun moʻljallangan boʻlishi ehtimoldan holi emas. Ichki shaharning markaziy qismida ark joylashgan. Uning ikki yon tomonida kichik bino izlari topilgan boʻlib, tadqiqotchilar uni ibodatxona boʻlishi mumkin deb hisoblaydilar. Aholining turar joylari ichki shaharning devorlari boʻylab joylashgan. Shimoliy devor tomondan shaharni suv bilan taʼminlovchi – akveduk qurilgan. Shaharga suv Zarafshon daryosidan chiqqan Bulungur kanalidan sopol quvurlar orqali olib kiritilgan.

Tadqiqotchilar Koʻktepani Sugʻdiyona hududidagi eng katta qadimgi shaharlardan biri, Sugʻd hukmdorlarining rezidensiyasi boʻlgan deb koʻrsatadilar. Koʻktepa tadqiqotchilar fikricha, qadimgi mualliflar tilga olgan sugʻdyonadagi “basileya”, yaʼni “podsho shahri” boʻlishi mumkin. Mil.avv. 328 yilda Spitamen Maroqanda qamalidan soʻng Sugʻdionanining shimoliga, yaʼni basileyiya – Koʻktepaga chekingan.

Ko'ktepa IV ilk ellinistik davrga oid bo'lib, Aleksandr Makedonskiy hujumidan keyin vayron etilgan qal'ada qayta qurilish ishlari olib borilgan. Bu davrda mudofaa devori orasida yo'lak qurilgan. Ta'mirlash ishlarida kvadrat, to'g'rito'rtburchak shakldagi g'ishtlardan foydalanganlar. Ko'ktepa yodgorligi mil.avv. III asrlarda tashlab ketilgach, qayta tiklanmagan.

Afrosiyob Samarqand Sug'dning makaziy shahari hisoblangan. Uning eng quyi madaniy qatlamlarni o'rganish jarayonida yer sathidan 10-15 m. chuqurlikda miloddan avvalgi IX-VII asr o'rtalariga oid qo'lda yasalgan rangli naqshli sopol idishlarning parchalari va 7 metr qalinlikdagi guvalasimon g'ishtdan tiklangan mudofaa devor qoldiqlari topilgan. Devor monolit tarzda qurilgan. Guvalasimon g'ishtlar Ko'ktepadagi guvalasimon g'ishtlardagi tamg'alarga o'xshash bo'lsa-da, bu yerda chizilgan rasmlar turli xil bo'lib, asosan 8 raqamiga o'xshash belgilar keng tarqalgan. Ushbu namunalar Fransiyada radiokarbon tadqiqot usulida o'rganildi va ular miloddan avvalgi VIII asr, ya'ni Samarqandning 2750 yoshga ega ekanligi isbotlangan. Demak, Afrosiyob mil.avv. VIII asrda yirik shaxarga aylangan. Afrosiyobning turli joylarida olib borilgan arxeologik izlanishlar davomida Lolazor, Ko'ktepa I va Ko'ktepa II bilan bir davrda mavjud bo'lganligini asoslangan.

Afrosiyob ikki qismdan iborat bo'lgan. Ichki shahar - ark 19 gektardan iborat bo'lib, uning sharqiy tomonida saroy, g'arbida diniy majmua qurilgan. Ular mustahkam mudofaaga ega bo'lgan. Quyi shahar 200 gektarni egallagan. Quyi shaharning keng qismida hech qanday qurilma aniqlanmagan. Bu qismida aholi chorvalarini bosqinlar davrida saqlagan bo'lishi mumkin.

Afrosiyobdan mil.avv. VI-V asrlarga oid monumental saroyning izlari topilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu Kvint Kursiy Ruf asarida tilga olingan Samarqand sarpapining saroyi bo'lishi mumkin. Axamoniylar davrida Afrosiyobning tarhida o'zgarishlar qilinmagan, lekin qayta ta'mirlangan. Mil.avv.V asr oxirlarida Afrosiyobning mudofaa devorlari tashlandiq holga kelgan, bu unga ehtiyoj bo'lmaganligini ko'rsatadi. Bu esa, axamoniylar imperiyasi siyosati natijasida o'zaro urushlar kamayganligidan dalolat beradi.

Afrosiyob haqidagi yozma ma'lumotlar mil.avv. IV asrning oxirlariga, ya'ni Sug'diyonaga Aleksandr Makedonskiy hujumi davriga o'ldir. Yunon tarixchilari asarida Sug'diyonaning markaziy shahri "Maroqanda" deb nomlanib, u ikki qismdan "akropol" – yuqori shahar va "quyi shahar"dan iborat bo'lganligi yozilgan. "Akropol" mustahkam mudofaa devori va handak bilan himoyalangan. Darvozasi janubiy tomonda bo'lgan. Tashqi devorning uzunligi 70 stadiy, ya'ni 13 km.ni tashkil qilgan. Yozma manbalardagi bu ma'lumotlar arxeologik tadqiqotlar natijasida o'z isbotini topgan. Shuningdek, ark hududidan katta miqdorda yongan don qoldiqlar topilgan. Bu mil.avv. IV asrning uchinchi choragi davriga oidligi aniqlangan. Tadqiqotchilar fikricha, bu don ombori yunon-makedonlarga tegishli bo'lib, mil.avv. 329 yilda Maroqandni Spitamen qamal qilgan paytda yoqib yuborilgan bo'lishi mumkin. Ellinizm davrida Afrosiyobning qayta ta'mirlanishi jarayonida bir qator o'zgarishlar qilingan. Birinchi navbatda baland fundament qurilib, uning ustiga ikki yo'lakli mudofaa devor kvadrat shaklidagi g'ishtlardan qurilgan. Yirik minoralar o'rniga simmerik shakldagi pilyastrlar, o'q shaklidagi shinaklar, ba'zida yolg'on shinaklar o'rnatilgan.

Qashqadaryo Sug'dida ilk temir davrida shakllangan shaxarlar Yerqo'rg'on, Sangirtepa va Uzunqir yodgorliklari hisoblanadi. Bu hududlarni aholi dastlab ilk temir davrida o'zlashtirgan bo'lib, yodgorliklarda mil. avv. V-IV asrlargacha hayot davom etgan.

Yerqo'rg'on shahri mil.avv. VIII asrlarda janubiy Sug'dning markaziy yirik shahri hisoblangan. Shahar o'ziga xos uslubda bunyod etilgan bo'lib, Qarshi vohasida bunday qurilish uslubida qurilgan shahar hozirgacha qayd etilmagan. U Qashqadaryo daryosi havzasi shakllangan bo'lib, uning atroflarida va daryo bo'ylarida qishloqlarning izlari aniqlangan. Bu ham vohada markaziy shahar bo'lganligini aks ettiradi. Tadqiqotchilar Yerqo'rg'onning to'rtta qurilish bosqichini aniqlaganlar:

1. Mil.avv. IX-VIII asrlarda mudofaalangan qishloq sifatida shakllangan.
2. Mil.avv. VI asrlarda ichki mudofaa devori qurilgan. 35 gektar maydonni egallagan.

3. Mil.avv. III-II asrlarda mudofaa devori qayta qurilib, tashqi mudofaa devori qurilgan. U noto'g'ri to'rtburchak shaklda qurilib, 150 gektar hududni tashkil qilgan. Bu davrda daxma xam bunyod etilgan.
4. Milodiy III asrda shaharning ichki va tashqi mudofaa devorlari qayta tiklangan. Ark, ibodatxona majmuasi, maqbara bunyod etilgan. Shaharda hayot milodiy VI asrgacha davom etgan.

Yerqo'rg'on yodgorligi XX asming boshlarida qayd qilingan bo'lsa-da, 1973 yilda keng tadqiqot ishlari boshlangan. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqot ishlari natijasida yodgorlikning topografiyasi, stratigrafiyasi, moddiy manbalari keng o'rganilgan. Bu natijalar R.X.Sulaymonovning 2000 yilda nashr qildirgan "Qadimiy Naxshab" nomli yirik monografiyasida o'z aksini topgan.

Yerqo'rg'onning ichki shahar mudofaa devorining balandligi 8 metr bo'lib, har 10-12 metrdan minoralar qurilgan. Ark ichki shaharning shimoliy qismida to'g'rito'rtburchak g'ishtdan qurilgan platforma ustiga qurilgan. Ichki shaharning janubida ibodatxona bo'lgan. Shimol va janub tomonida shahar darvozasi o'rnatilgan. Shaharning sharqiy tomonidagi devorlar bo'ylab kulolchilik ustaxonalari joylashgan. Tashqi shaharning janubida daxma, shimolida maqbara qurilgan. Janubi-sharqiy tomonida aholining turar joylari aniqlangan. Aholining uylari va qo'rg'onlari to Qashqadaryo havzasi bo'ylarigacha borgan. Bu hududlarda bog'lar va dalalarning izlari aniqlangan. Bu esa, aholining bog'dorchilik, dehqonchilik bilan shug'ullanganliklaridan darak beradi.

Uzunqir qal'asi Qashqadaryo viloyatidagi Sho'robsoy sohilida joylashgan. Uzunqir Janubiy Sug'dning ilk shaharlaridan biri bo'lib, Nautaka viloyatining yirik harbiy istehkomi bo'lgan.

Uzunqirda uchta qurilish bosqichi aniqlangan. Uzunqir I davri mil. avv. IX asrning oxiri-VIII asrlarni o'z ichiga oladi. Bu davr sopol idishlarning faqat qo'lda yasalganligi bilan ajraladi.

Uzunqir II mil. avv. VII-VI asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda charxda ishlangan sopol idishlar paydo bo'lgan. Silindrokonus shaklli xum va xumchalar, tog'ora va bikonik shakldagi kosalar topilgan. Ba'zida ularning gardishi aylanasi bo'ylab tiniq



jigarrang angob berilgan. Xum va xumchalar to'liqsimon yoqali ishlangan. Uzunqir II davrida mudofaa devorining ichki tomonidan unga yopishtirib, 1,6 m. qalinlikda ikkinchi devor qurilgan. Bunda birinchi devor shinaklari yopilib, faqat minoralardagi shinaklar qoldirilgan.

Uzunqir III mil. avv. V-IV asrlar bilan belgilangan. Bu davrda mudofaa devori qayta tiklangan. Uning qalinligi 4,65 m. bo'lgan. Qal'a devorlari bo'ylab aholi turar joylarning izlari aniqlangan.

Ilk temir davriga oid yirik shaharlar janubiy Baqriya hududidan topilgan. Ular Baqtra va Oltindilyor tepa bo'lib, Baqtra qadimgi Baqtriya davlatining markaziy shahri hisoblangan. Oltindilyortepa doira shaklida bunyod etilgan shaxar bo'lib, uning atrofida ham aholining turar joylari va sopol ishlab chiqarish ustaxonalarining izlari aniqlangan. Bu yodgorliklar 1968-1979 yillarda Sovet-Afg'on arxeologik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularni stratigrafik jihatdan tadqiq imkoni bo'lmagan.

Axamoniylar davrida Jigat-tepa, Yemshi-tepa, Dilberjin kabi o'ziga xos mudofaa devoriga ega bo'lgan shaharlar bunyod etilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu shaharlar axamoniylar davrida bunyod etilgan bo'lib, ellinizm davrida yanada rivojlangan. Uchala yodgorlik o'ziga xos me'moriy tarzda bunyod etilgan. Yemshitepaning tarhi doira shaklida bo'lib, diametri 560 m.ga teng. Beshta qurilish bosqichi aniqlangan. Jigat-tepaning markaziy qismi doira shaklida qurilgan bo'lib, atrofida aholining tartibsiz qurilgan uylar bo'lgan. Dilberjinning arki doira shaklida qurilib, shahar kvadrat shaklidagi mudofaa devori bilan o'rab olingan.

Janubiy Baqtriyada qurilgan ilk shaharlarning tarhi shimoliy Baqtriya hududidagi markaziy shaxarlarning qurilishidan farq qilgan. Jumladan, shimoliy Baqtriya hududidagi shaharlar tarhi ark va shaxriston bir xil kvadrat yoki to'g'rito'rtburchak shaklda bunyod qilingan bo'lsa, janubiy Baqtriyada ark doirasimon tarhda qurilib, shaxriston to'g'rito'rtburchak shaklda qurilgan va shahar atrofida aholining mudofaaga ega bo'lmagan qishloqlari bo'lgan.

Qadimgi Xorazmda ilk shaharlar mil.avv. VI asrda shakllangan Ularning bunyod bo'lishida Markaziy Osiyoning janubiy davlatlari aholisining ta'siri seziladi.

Bu davrda bunyod etilgan Qoʻzaliqir, Xazorasp qalʼalari hududda urbanistik jarayonni boshlab bergan va oʻziga xos sivilizasion taraqqiyot yoʻlidan borgan.

Koʻzaliqir yodgorligi Amudaryoning chap sohilida Chirmonyob kanalining oʻrta qismida, Toshhovuz shahridan 85 km uzoqlikda joylashgan. Qalʼa uchburchaksimon tepalik ustida bunyod etilgan, bu uning tarhini belgilagan. Koʻzaliqir 25 ga hududga ega boʻlgan va shinak, minoralar bilan mustahkamlangan, yoʻlaksimon toʻrt qator mudofaa devori bilan oʻralgan. Qalʼa devorining har 36 m. masofasida yarim aylanasimon burjlar qurilgan. Mudofaa devorlari yoʻlagining ichki qismida oʻchoq izlari aniqlangan, yaʼni aholi dushman hujumi davrida devor ichida himoya qilingan. Qalʼa hududining asosiy qismi tekislikdan iborat boʻlib, aholi tomonidan oʻzlashtirilmagan. Tadqiqotchilar fikricha, bu yerda dushman bosqinlari davrida aholining chorvalari saqlangan boʻlishi mumkin.

Koʻzaliqir qalʼasining janubiy-gʻarbiy qismida 1 gektar hududida qurilgan saroy izlari topilgan. Saroy 20 dan ortiq xonalardan iborat boʻlgan. Saroyning shimoli-sharqiy qismida 6 ustunli zal boʻlib, u alohida ajralib turgan. Zaldagi oʻchoqlar va stollarning bir necha bor qayta taʼmirlanganligi aniqlangan. Tadqiqotchilar bu xonani katta ommaviy tadbirlar, marosimlar, bayramlar oʻtkaziladigan joy degan fikrni berishgan. Bu xonaning janub tomonida omborxonaga boʻlgan. U yerdan donlar saqlangan 10lab xumlar va xoʻjalik oʻralari topilgan. Saroyning markaziy qismida 2 metr qalinlikdagi devor bilan oʻralgan kvadrat (270 m<sup>2</sup>) shaklda qurilgan xona boʻlgan. Uning janubiy tomonidan asosiy hovliga chiqilgan. Hovli 800 m<sup>2</sup> maydonni egallagan boʻlib, devor boʻylab xom gʻishdan ishlangan supalar qurilgan. Shimol tomonida boshqa supalarga nisbatan balandroq va keng qilib qurilgan supa topilgan. Tadqiqotchilar uni hukmdor taxti ravoni qoʻyilgan joy degan fikrni bildirishmoqda. Hovlining oʻrtasida baland platforma boʻlib, bu yerda muqaddas olov yoqilgan. Chunki platformaga yaqin joydan koʻp miqdorda toza kul qoldiqlari boʻlgan oʻra topilgan.

Qalʼaning shimoliy tomonida qalin devorli, ichki qismi tor boʻlgan 3 ta minorali bino topilgan. Uning devorlarida olov izlari saqlanib qolgan, bu u yerda doimiy olov yonib turganligidan dalolat beradi. Qalʼaning sharqiy tomonida temirchilik ustaxonasi

qoldiqlari ham topilgan.

Oʻziga xos iqtisodiy, madaniy taraqqiyot janubiy Xorazm hududidan topilgan Xumbuztepa yodgorligida kuzatiladi. Yodgorlik Xazorasp shahridan 17 km sharqda, Amudaryoning chap sohilida joylashgan. Bugungi kunda uning 4,6 *ga* qismi saqlanib qolgan. Xumbuztepa mil.avv. VI boshlaridan – III asrlargacha mavjud boʻlgan yirik kulolchilik va diniy markaz hisoblanadi.

Xumbuztepada olib borilgan stratigrafik tadqiqotlar natijasida uning uchta qurilish bosqichi aniqlangan. Birinchi bosqichda yarim yertoʻla va chaylalarning izlari, sopol ishlab chiqarish majmuasi, undan janubroqda ikki yarusli xumdon, ustaxona topilgan. Bu xumdon qurilish jihatdan mil.avv. I ming yillikning ikkinchi choragiga oid Margʻiyonaning Uchtepa va Churnok yodgorliklaridan topilgan xumdonlarga oʻxshashligi aniqlangan. Shuningdek, bu bosqichda asosan, silindrokonus shaklli gardishi qarmoqsimon tarzda ishlangan sopol idishlar topilganligini qayd qiladi. Ammo, gardishi qarmoqsimon shaklli sopollarning uchrashini akademik A.Asqarov inkor etadi, chunki bu sopol buyumlar Kuchuk II yodgorligidan topilgan sopol idishlardan farq qiladi. Oshxona uchun ishlatiladigan uzun silindr shaklli sopol qozonlar va tova (jarovnya) uchraydi. Oʻz tadqiqotlarida S.R.Bolelov birinchi bosqichni mil.avv. VII asr oxirlari –mil.avv. VI asrlariga oid deb koʻrsatadi.

Ikkinchi bosqichida ishlab chiqarish obʻektlari monumental xarakter kasb etib, yangi ustaxonalar quriladi. Yarim yertoʻla va chaylalar qum bilan toʻldirilib, oʻrinda xumdonlar qurilgan. Bu davrga oid ibodatxona izlari topilgan. Sopol idishlarning ishlanishi birinchi bosqichdan farq qilib, xumchasimon idishlarning boʻyin qismi alohida ajratilgan, gardishi uchburchaksimon uchi oʻtkir qilib ishlangan. Silindrokonik sopol idishlar sirtining baʼzi bir qismlari qizil rang bilan boʻyalgan yoki qizil rang oqizilgan. Kosa, togʻorachalarning tashqi va ichki qismi esa, qizil rang bilan boʻyalgan. Bunday sopol idishlar Qoʻzaliqir yodgorligi uchun ham xarakterlidir.

Uchinchi bosqichga oid qurilish qoldiqlari aniqlanmagan, lekin bu davrga oid nihoyatda koʻp sopol idishlarning parchalari va toshqollar uchratilgan.

Xumbuztepa yodgorligidan hunarmandchilik ustaxonalari, xumdonlar, koʻplab

kulolchilik toshqollari va axlat oʻralari topilgan. Bu yerdan topilgan xumdonlarning kattaligi 2.2 metrdan 7.5 metrgacha boʻlib, ular atrofida kul, haykalchalarning siniqlari, idishni pishirishda ishlatiladigan tagliklar, pishgan va xom gʻisht boʻlaklari topilgan. Bu topilmalar Xumbuztepaning sopol buyumlar ishlab chiqaruvchi hunarmandchilik markazi boʻlganligini asoslaydi.

Xumbuzpeta yodgorligini oʻrganish jarayonida ogʻirligi 50-100 gramm boʻlgan loydan ishlangan tuxumsimon yadrolar topilgan. Tadqiqotchilar ularni mudofaa palaxmon toshlari deb baholaydilar. Bu esa, oʻsha davrlarda qalʼalar himoyasiga alohida eʼtibor qaratganligini koʻrsatadi. Keyingi yillarda yodgorlikda olib borilgan tadqiqotlar natijasida xumdonlarga yaqin joydan miloddan avvalgi V-IV asrlarga oid zardushtiylik ibodatxonasi izlari topilgan. Ibadatxonaning 12x12 metr hajmli maydonida markaziy zali va uning sharqiy qismidan oziq-ovqat ombori boʻlganligi aniqlangan. Bu joydan yerga koʻmilgan 12 ta xum va xumchalar topilgan boʻlib, ularda turli donlar va oziq-ovqat mahsulotlari saqlangan boʻlishi mumkin. Ibadatxona markazida pishiq gʻishtdan ishlangan 4 ta ustun tagkursi topilgan. Yodgorlikdan koʻzasimon idishlar, kosalar, suvdonlar, togʻoralar, xum, xumchalar, turli terrakota-haykalchalari va mil.avv. V-IV asrlarga oid bronzadan ishlangan kamon oʻq-uchlari topilgan.

Koʻzaliqir va Xumbuztepa yodgorliklari qadimgi Xorazm hududida urbanizasion jarayonga asos solgan boʻlsalarda, bu yodgorliklarining bunyod etilishi masalasi olimlar oʻrtasida koʻplab munozaralarga sabab boʻlmoqda. O.A.Vishnevskaya, V.N.Yagodin, M.Mambetullaev, S.B.Bolelov, S.R.Baratovlar oʻz tadqiqotlarida Koʻzaliqir va Xumbuztepa yodgorliklarga mil.avv. VII asrning oxirlari va VI asrning boshlarida asos solingan degan fikrni bildirishadi.

Amudaryo havzasi hududlarida, Baqtriyada ilk shaxarlarning shakllanish jarayoni bronza davridan boshlangan. Lekin ilk temir davri boshlarida hududga koʻchmanchi chorvador qabilalarning kirib kelishi bu jarayonni biroz kechiktirgan. Mil.avv. VIII-VII asrlarda janubiy Baqtriyada yirik shaharlar boʻlganligi kuzatilsa, shimoliy Baqtriyada dehqonchilik vohalari markazida mustahkam qalʼalar qurilgan (Qiziltepa, Kuchuktepa, Bandixon). Markaziy va Janubiy Sugʻdiyona hududlarida ilk



shaxarlar mil.avv. VIII-VII asrlarda paydo bo'lgan. Qadimgi Xorazmning shimoliy tomonida ilk shaxar -Ko'zaliqir mil.avv. VI asrning boshlari tarkib topgan bo'lsa, uning janubiy qismida Xazorasp shakllangan. Hududlarda tarkib topgan ilk shaxarlar arxaik va antik davrlarga kelib yanada taraqqiy qilgan va hududlarning keng o'zlashtirilishi natijasida ularning soni yanada ortgan.

## **9-mavzu. Qadimgi davr yodgorliklari**

### **Reja:**

1. Qadimgi Baqtriya yodgorliklari.
2. Qadimgi Xorazm yodgorliklari va ularning o'rganilishi.
3. Qadimgi Farg'ona yodgorliklari
4. Toshkent hududidagi qadimiy yodgorliklar

**Tayanch so'zlar:** Kal'aliqir, Oybuyirqal'a, Qo'yqirilgan qal'a, Tuproqqal'a, Oqchaxonqal'a, Bandixon, Qiziltepa, Kuchuktepa, Daratepa, Uzunqir, Mingtepa, Axsikent, Dovon, Sho'rabashat, Fayoztepa, Qoratepa, Dalvarzintepa, Zartepa, Kampirtepa, Eski Termiz, Jondavlattepa, Qanqa, Shoshtepa, Qovunchitepa, Amudaryo xazinasi.

### **1.Qadimgi Baqtriya yodgorliklari.**

Mil.avv. 330–327 yillarda Makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyoga qilgan harbiy yurishlari natijasida Parfiya, Marg'iyona, Baqtriya va Sug'diyona davlatlari vayronaga aylandi. Natijada uzoq vaqtgacha bu yerlarda madaniy taraqqiyot sezilmadi. Faqatgina mil.avv. III asrda salavkiylar hukmronligi davrida biroz o'zgarishlar yuz berdi. Salavkiylar yunonlar madaniyatini O'rta Osiyoga olib kirdilar. Mil.avv. III asr o'rtalarida Yunon-Baqtriya davlatining qaror topishi bilan mahalliy madaniyatga ellinizm elementlarning kirib kelishi jadallashdi. Lekin O'rta Osiyoda ellinizm madaniyati tom ma'noda shakllanmadi. Uning ba'zi xususiyatlarigina kirib keldi. Bu

moddiy madaniyatda kuzatildi. Kvadrat g'ishtlar va mudofaa devorlarining qurilish uslublarida, kolonnali zallarning qurilishida, ayol terrakota haykalchalarining va ochiq shakldagi sopol idishlarning keng tarqalishida yaqqol ko'zga tashlandi.

Mil.avv. II asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning shimoli-sharqidan ko'chmanchi yuechji (tohar) qabilalarining kirib kelishi va bu joylardan o'rtnashishi natijasida yangi madaniy o'zgarishlar boshlandi. Qadimgi Baqtriya hududida Kushonlar imperiyasi o'rnatildi.

Qadimgi Baqtriya hududida antik davrda asos solingan shaharlardan biri Kampirtepa yodgorligidir. U Surxondaryo viloyati Muzrabod tumanidagi Sho'rob qishlog'idan 0,6 km. g'arbda joylashgan. Mil.avv. IV asrning oxirlari – milodiy II asrning o'rtalariga oid. Yodgorlik dastlab 1972 yilda akademik E.V.Rtveladze tomonidan o'rganilgan.

Kampirtepa Amudaryo qirg'og'i bo'ylab g'arbdan sharqqa tomon 400 metr uzunlikda qurilgan, 5 gektar hududni egallaydi. Qal'a ikki qismdan ark va "quyi shahar"dan iborat. Ark 5 metr kenglikdagi mudofaa devori va xandak bilan mudofaalangan. Kampirtepani qazish vaqtida ko'chalar, ibodatxona, shahar hazinasi, hunarmandchilik ustaxonalari topilgan. Shahar dastlab yunonlarning frurioni, ya'ni mudofaa punkti yoki port bo'lgan. Tadqiqotchilar bu yerdan kemalar uchun qulay ko'rfaz, pristan va port mayog'ining izlarini aniqlashgan. E.V.Rtveladze o'z tadqiqoti jarayonida yozma manba va arxeologik tadqiqot ishlari natijalarini solishtirish orqali Kampirtepa Oks bo'yidagi Aleksandriya shahri ekanligini asoslaydi. Kampirtepaning eng rivojlangan davri milodiy I-II asrlarga to'g'ri keladi va shu davrda shahar Kushonlar davrida shahar yanada taraqqiy qilib, asosiy savdo ishlari bilan bog'liq bojxona va suv yo'llarini nazoratini olib borish kabi vazifalarni o'tovchi shaharga aylangan. Shahar arki darvozasiga yaqin joydan budda ibodatxonasi topilgan. Shahardan zardushtiylik, buddaviylik va mahalliy diniy e'tiqodlarga oid ibodatxonalar topilgan.

Eski Termiz – Termiz shahridan 7 km. shimoli-g'arbda joylashgan. Shahar dastlab Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi tabiiy tepalik ustiga qurilgan. Ark to'g'rito'rtburchak shaklida bo'lib, 10 gektar maydonni egallagan. V.Tomashek

“Termiz” soʻzini baqtr tilidan olingan, uning maʼnosi “daryoning narigi tomonidagi manzilgoh” deb koʻrsatgan.

Shaharning eng rivojlangan davri Yunon–Baqtriya va Kushonlar hukmronligi davrida boʻlgan. Mil.avv. III–II asrlarda shahar “Demetriya”, Kushonlar davrida “Tarmida” deb atalgan.

Baqtriyaning antik davriga oid yirik shaharlaridan biri Ayritom hisoblanadi. U mil.avv. II asrda port–shahri sifatida Amudaryoning oʻng qirgʻogʻida Termiz shahridan 18 km sharqda, Amudaryoning kechuvi ustida qurilgan. Shahar 1930 yillarda M.E.Masson boshchiligidagi Termiz arxeologik ekspeditsiyasi, 1960 yillarda Oʻzbekiston Sanʼatshunoslik ekspeditsiyasi olimlari tomonidan oʻrganilgan. Port–shahar shimoldan janubga 3 km. choʻzilgan boʻlib, 90 gektar hududda joylashgan. Shahar uch tomonlama mudofaa devori bilan mudofaalangan. Kushonlar davrida bu yerda yirik budda monastiri bunyod etilgan. 1933 yilda V.M.Masson budda haykallari, musiqachilar va gulchambar koʻtargan ayollarning boʻrtma tasviri ishlagan koshinni topgan. Shahar atrofida kulolchilik xumdonlari aniqlangan. Milodiy III asrning ikkinchi yarmida Ayritom vayron boʻlgan, qayta tiklanmagan.

Qadimgi Baqtriya davlatining poytaxt shahri – Baqtra mil.avv. I ming yillikning oʻrtalardan mil. III–IV asrlargacha mavjud boʻlgan. U janubiy Baqtriya hududida joylashgan. Yodgorlik dastlab 1924-25 yillarda fransiyalik Alfred Fushe tomonidan tadqiq qilingan. XX asrning 70 – yillarida I.T.Kruglikova boshchiligidagi Sovet-Afgʻon arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan ham oʻrganilgan. Bugungi kunda Afgʻonistonning Balx shahri hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikricha, Baqtra shahriga axamoniylar davrida asos solingan va dastlab u 120 gektar hududni egallagan va “Bolo–Xissor” – yuqori shahar oʻrnida boʻlgan. Yunon–Baqtriya podsholigi davrida quyi shahar – yangi Balxga ham asos solingan. Uning umumiy maydoni 400 gektarni tashkil qilgan.

Qadimgi davr meʼmoriy obidalarida tasviriy sanʼat keng qoʻllanilgan. Masalan, Dalvarzintepa ibodatxonasining Baqtriya xudolariga bagʻishlangan devoriy surʼatlari, Fayoztepa va Qoratepa Buddha ibodatxonalaridagi devoriy suratlar, Tuproqqalʼa va Yerqoʻrgʻon devoriy rasmlari bunga misol boʻla oladi. Lekin tasviriy sanʼat

monumental san'atning ustivor yo'nalishi hisoblanmagan, u haykaltaroshlik bilan bog'liq holda rivojlangan. Haykaltaroshlikning asl namunalari Shimoliy Tohariston va Xorazm madaniyatida o'zining yorqin ifodasini topgan.

Baqriya–Toharistonda eng qadimgi haykallar kompozitsiyasi **Xolchayon** saroyidan topilgan. Xolchayon Surxondaryo viloyati Denov tumanida joylashgan. U ikki qismdan iborat. Arxeologik tadqiqotlar Qorabog'tepa va Xanaqotepada olib borildi. Bu yerdan 9 xonali xokim saroyi topildi. U asosan xom g'ishtdan qurilgan. Mazkur saroyning to'rt ustunli ayvoni va katta zali tasviriy san'at va haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan.

Haykallarning asosiy qismi kushon podsholari (Geray)ga bag'ishlangan, ular tarkibida yuechjilar birga boshqa etnos vakillari boxtariylar ham bor. Xalchayon haykallari saroy devorining uch tomonini egallagan. Unda a'yonlar va kurash sahnasi, teatrlashgan mavzu, ya'ni og'ir gulchambarlarni ko'tarib turgan bolalar haykallari, aktyor byustlari, muzika asboblari tutgan ayol haykallari va boshqalar. Kompozitsiya markazida podsholik xomiysi — Afina, Gerakl, Nika (Yunon xudolari)ning siymolari tasvirlangan.

**Ayritom** Termizdan 18 km sharqda Amudaryo soxilida joylashgan. 1932 yilda bu yerda topilgan tosh rasmlarni M.E.Masson o'rgangan. 1933 yilda maxsus ekspeditsiya uyushtirildi. Ayritom - ibodatxona harobasi bo'lib, bu yerda asosan oxaktoshdan yasalgan haykallar topildi. Haykallarda soz chalayotgan ayollar tasvirlangan, budda diniga oid haykallar ham topilgan. XX asrning 60-70 yillarida O'zbekiston San'atshunoslik ekspeditsiyasi tadqiqot ishlarini davom ettirdilar. Natijada fort, buddizm dini kompleksi, qabr va baktriya yozuvi bo'lgan haykallar guruhi topilgan.

Baqriyada buddizm davlat dini darajasiga ko'tarilgach, Budda haykaltaroshlik san'ati ma'naviy hayotning mazmuniga aylandi. Bularni Dalvarzintepa, Fayoztepa, Ayrtom, Qoratepa va boshqa yodgorliklarda ko'rishimiz mumkin. Baqriya–Toharistonda buddizmni qabul qilgan mahalliy ustalarning professional maktabi shakllanadi. Budda diniga oid inshootlarning qurilishi avj olib ketadi. Budda diniga oid asosan 3 xil inshoot bunyod etilgan: vixara (monastir), chaytya (ziyoratgoh, ibodatxona) va stupa. Baqriyada monastirlar yer ustida, yer ostida, tabiiy va sun'iy g'orlarda, ikki qavatli, ya'ni yer osti va ustida bunyod etilgan. Budda dini bilan



bog'liq inshootlar majmua holda, ya'ni monastir, ibodatxona va stupalar bilan birgalikda bunyod etilgan.

Shimoliy Baktriyaning eng katta budda ibodatxonasi Termiz yaqinidagi **Qoratepa** yodgorligi hisoblanadi. Yodgorlik dastlab B.Ya.Staviskiy tomonidan o'rganilgan. Bugungi kunda bu yerda turli soha mutaxasislari, yapon olimlari tadqiqoti ishlarini olib borishmoqda. Bu yerda sakkizdan ortiq inshootlar majmuasi ochib o'rganilgan. Har bir bunday inshoot yo'lak – ayvonlar o'rab turgan to'g'ri to'rtburchakli katta hovli va yer ostiga qurilgan inshootlardan iborat. Xonalardan Buddha haykali, buddizmga xos inshoot-**stupalar** topilgan.

Barcha stupalar bir xil qurilgan. Ularning asosi to'rtburchak bo'lib, uning ustiga silindirsimon inshoot qurilgan, uning usti gumbazsimon tarzda bo'lgan. Ustiga yog'och yoki toshdan yasalgan langar o'rnatilgan. Langarda toshdan yasalgan bir necha soyabon bo'lgan. Soyabonlar muqaddas daraxt ramzi bo'lib, buddistlar uni chatra deb atashadi. Shu daraxt soyasi ostida Buddha o'zining g'oyalari ishlab chiqqan. Yer ostiga qurilgan inshoot bilan yer ustiga qurilgan inshoot bir biri bilan bog'liq bo'lgan. Ular zinalar orqali birlashtirilgan. Koratepa ibodatxonasining devorlariga diniy mazmundagi rasmlar va ibodatxonani qurilishda homiylik qilgan insonlarning rasmlari solingan. Rasmlar katta mahorat bilan chizilgan va o'sha zamonning diniy mafkurasini o'zida aks ettiradi.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qoratepaning shimoliy qismidan mahobatli stupa topildi. Uning faqatgina tagkursisi saqlanib qolgan.

1968 yili yuqoridagi ibodatxonadan 2-3 km shimoli-sharkda **Fayoztepa** ibodatxonasi topilgan, hozirda u to'la o'rganib chiqilgan. Fayoztepa vihara tipidagi ibodatxona ekanligi isbotlangan. U uch qismdan iborat bo'lib, har birida hovli bo'lgan, ularning atrofida uylar joylashgan. Ibadatxonaning markaziy qismida diniy marosimlar o'tkazilgan. Ikkinchisi qismi monastir, uchinchisi esa xo'jalik ishlariga mo'ljallangan inshootlar bo'lgan. Markaziy qismda yaxshi saqlangan stupa topilgan. Markaziy qismning ayvonidan loy va ganchdan yasalgan Buddha, uning safdoshlari-badisatvalarning haykallari topilgan. Ular qizil rang va tilla suvi bilan bezatilgan. Devorlarga diniy marosim rasmlari tasvirlangan bo'lib, ularda hayotiylik izlari ko'rinadi. Oq marmar va alebastrdan ishlangan haykallar ham topilgan. 1972 yilda bu yerdan oq marmartoshdan yasalgan muqaddas Badxi daraxti tagida o'tirgan Buddha va tik turgan ikki ruxoniy haykali topilgan. Qoratepa va

Fayoztepa rasmlari Xindistondagi ibodatxonalar qurilishi va uning rasmlaridan farq qiladi, lekin Sharqiy Turkiston va Uzoq Sharqdagi ibodatxona va rasmlarga yaqin. Shuning uchun ham buddizm O`rta Osiyodan mazkur

hududlarga tarqalgan degan xulosaga kelingan. Lekin, Xitoy va Olmon olimlari Buddha dini Sharqqa O`rta Osiyo orqali kirib bormagan, degan fikrdalar.

1971 yilda Surxondaryo viloyati Sho`rchi tumanida **Dalvarzintepa** yodgorligi ochildi. U ma`muriy bino qoldiqlari, kulollar yashaydigan xonalar tadqiq etildi. Dalvarzintepadan ikki yarusli xumdonlar ham topilgan. Topilgan ashyolar kulolchilik yuksak darajada bo`lganligini ko`rsatadi.

1972 yilda Dalvarzintepadan 115 ta oltin buyumlardan tashkil topgan xazina topilgan. Mil. II-III asrlarga oid mazkur xazinadan sirg`a, bilakuzuk, kamarband, uzuk, oltin shodasi, sopol idishlar, haykalchalar, taqinchoqlar, tangalar, shaxmat donalari topilgan.

Dalvarzintepa atrofida ibodatxonalar bo`lib, ularning harobalaridan buddizmga oid turli haykallar topilgan. Dalvarzintepadan ancha uzoq bo`lmagan joyda Kushon davriga oid qabriston ochildi. Unda odam suyaklari, sopol idishlar, taqinchoqlar, tangalar olindi. Uning eng pastki qatlamida murdalar xumga ko`milgan. Tozalangan suyaklarning borligi uni zardushtiylarga xos ekanligini bildiradi. Bunga o`xshash qabristonlar Tojikistondagi Tulhar, Ko`kqum, Oriqtov, Turkmanistondagi Babashov qabristonlaridir. Tulhar qabristonidagi 350 go`rdan 219 tasi o`rganilgan. Bu yerdagi go`rlar laxad va yorma shaklida. O`liklarni yasatib, boshlarini shimolga qaratib ko`mganlar. Qabrlarga sopol idish, taqinchoq, qurollar ham ko`yilgan.

1972 yilda Angor tumanidan 16 gektarni egallagan **Zartepa** shahar harobasi topildi. Uylarning devorlari paxsadan qilingan. Aholi yashash xonalarining maydoni 4-15 m<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. Bu yerdan ibodatxona, Buddaning oltin suvi yuritilgan boshi va gavdasi topilgan. Buddistlarning saqlanib qolgan stupasidan bitta oltin plastinka ko`zacha va yunon tangalariga taqlid qilib ishlangan Vasudeva I tangalari (ular 500 dan ortiq tanga) topildi. Shuningdek, Zartepaning 100 metrli mudofaa devori ham o`rganildi. Topilgan ashyolar Zartepaning mil.av I asrga mansub ekanligini ko`rsatadi. Qadimda mazkur shaharning 4 ta darvozasi bo`lgan. Mudofaa devorlarining 9 metr, IV-V asrlarda esa 2 metr bo`lgan.

1877 yilda Vaxsh daryosining Amudaryoga quyiladigan joyida Qo‘bodiyon bekligi (Janubiy Tojikiston) hududida maxalliy aholi tomonidan qadimgi davrlarga oid oltin va kumush buyumlar ko‘plab topilgan. Bu noyob buyumlar olimlar ko‘liga tushgachgina, uni saqlab qolishga harakat qilindi. Ulardan faqat 180taga yaqin zargarlik buyumlari va tangalar saqlanib qolindi. U “**Amudaryo xazinasi**” nomini olgan bo‘lib, ko‘pchilikning qiziqishini o‘ziga tortgan. Ular orasidan maxorat bilan ishlangan oltindan yasalgan ot– arava bo‘lib, uni kumushdan yasalgan ikkita odam boshqarmoqda, odam tasvirlangan oltin plastinkalar, oltin bug‘u haykali, feruza ko‘zli buqaning bosh qismi, oltin bilakuzuklar va boshqalar. Bular qadimgi Baqtriyada zargarlik sohasi nixoyatda rivojlanganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu yerdan Yunoniston, Kichik Osiyo, Axamoniylar va Salavkiylar davlatida zarb qilingan 1300 ta tangalar ham topilgan. Buyumlar mil.avv.V-III asrlarga oid bo‘lgan. Olimlar fikricha, bu buyumlar Baktriyadagi Anaxita ibodatxonasiga tegishli bo‘lib, Aleksandr Makedonskiy yoki Salavka I xujumi natijasida vayron qilingan. Bugungi kunda mazkur xazina topilgan joy qadimgi Taxti-Kuvad shahri ekanligi o‘z isbotini topgan. Amudaryo xazinasi bugungi kunda Londondagi

Britaniya muzeyida saqlanmoqda. Bugungi kungacha ko‘pgina davlatlarda namoyish etilgan. 1979 yilda Leningraddagi Ermitajda namoyish etilgan.

**Taxti Sangin** (tojikcha so‘zdan olingan bo‘lib, “Tosh taxt” degan ma‘noni beradi) Oks xudosiga bag‘ishlangan ibodatxona hisoblanadi. U mil.avv. IV asrdan milodiy III asrgacha mavjud bo‘lib, Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida Tojikistonning Kobadiyon tumanida, Vaxsh va Panj daryolari qo‘shilib, Amudaryoning boshlanish joyida bunyod etilgan. Yodgorlik 1976-1991 yillarda I.R.Pichikyan va B.A.Litvinskiy tomonidan o‘rganilgan. 1998 yildan 2007 yilgacha A.Drujinina tadqiqotlarni yana davom qildirilgan. 2004-2007 yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ibodatxonaning sharq tomonida bronza quyish ustaxonasidan sopol idishlarning gardishiga yozilgan yozuvlar topilgan. Yozuv A.I.Ivanchuk tomonidan tahlil qildi. Unda ibodatxona olib kelingan hadya haqida ma‘lumot yozilgan. Yozuv yunon alifbosida yozilgan. Ibodatxonadan o‘n ikkita kichik va to‘rtta mahobatli olov otashgohi hamda ellinizm davriga oid buyumlar topilgan. Ibodatxonada boshqa

dinlarning sajdagohlari ham bo'lgan. Turli diniy e'tiqodga ega bo'lgan odamlar bu ibodatxonada o'z diniy amallarini amalga oshirganlar.

## **2.Qadimgi Xorazm yodgorliklari va ularning o'rganilishi.**

Mil.avv.IY asrdan qadimgi Xorazmda markazlashgan davlat tizimining mustahkamlanishi jamiyatning ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga imkon bergan. Shahar qurilishi, me'morchilik va hunarmandchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan. Abu Rayhon Beruniy ma'lumotiga ko'ra, bu davrda 300 dan ziyod shaharlar qurilgan. Ularning harobalari bugungi kungacha saqlanib qolgan.

**Oybuyirqal'**adan eng qadimgi yozuv namunasi topilgan. U xum sirtiga yozilgan bo'lib, unda xumning sig'imi ko'rsatilgan. Oybuyirqal'a Qoraqalpog'istondagi Shumanay qishlog'idan 41 *km* shimoli-g'arbda joylashgan. Xalq uni Djampikqal'a deb ataydi. Yodgorlik dastlab 1946 yilda Xorazm ekspeditsiyasi tomonidan ro'yxatga olingan. XX asrning 70-80 yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida uning mil.avv.V asrlarga oid madaniy qatlamlari topildi. Qal'aning umumiy maydoni 10 *ga*. Burjlar bilan mustahkamlangan mudofaa devoriga ega bo'lgan. Tadqiqotlar natijasida, uning 3 bosqichi aniqlangan: 1 – mil.avv. V-III asrlarning oxiri, 2 – mil. I- IV asrlar, 3 –mil. IX-XI asrlar.

Yodgorlikning quyi qatlamidan bir metr balandlikdagi 3 ta xum topildi. Ularda suyuq va sochiluvchan narsalarni saqlashgan. Xumlarning har birida yozuv bor, ularni sug'dshunos olim V.A.Livshis o'qigan. Oramiy yozuvi asosida shakllangan ilk Xorazm yozuvi ekanligini aniqladi.

**Qal'aliqir** qal'asi Ko'zaliqir yodgorligidan janub tomonda Tashxouz viloyati hududida joylashgan. Uning tarhi kvadrat shaklida bo'lib, 1000x700 m. Qal'ada 4 ta darvoza bo'lib, ular murakkab tuzilishdagi labirint bilan himoyalangan. Yodgorlik dastlab 1938 yilda ro'yxatga olingan. Arxeologik tadqiqot ishlarini S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi davom ettirgan. Tadqiqotlar davomida unda 2 ta qurilish bosqichi aniqlangan. 1- qurilish bosqichi arxaik davrning oxirlari bo'lib, bu davrda qal'a bunyod etilgan. Lekin qurilish oxiriga yetkazilmay tashlab ketilgan, yong'in izlari uchraydi. 2- qurilish bosqichi antik davrga tegishli



bo'lib, bu davrda qal'a zardushtiyarning qabristoni vazifasini bajargan.

Birinchi qurilish bosqichiga oid saroy aniqlangan. U kvadrat shaklda qurilgan 80x80 m. Uning ikkita xovlisi, ko'p ustunli zali va yo'laklar orqali bir biri bilan birlashtirilgan 30 ga yaqin xonalar topilgan. Qurilish ishida alebastr ishlatilgan. U yerdan antik standartdagi va turli shakllardagi alebastr g'ishtlar, grifon boshiga o'xshash qolip va kapitellar topilgan. Umuman yodgorlik ahamoniylarning qurilish uslublari asosida bunyod qilingan. Olimlar uni ahamoniylarning rezidensiyasi sifatida qurilayotgan bo'lib, xorazmiylar ahamoniylar hukmronligidan ozod bo'lgach, qurilish ishlari to'xtagan degan fikrni bildirganlar. Shuningdek, qal'ada qurilishining tugallanmay qolishi Xorazmda ahamoniylar hukmronligi uzoq davom etmaganligi va ular bu hududdan mil.avv. Y asr oxiri IY asr boshlarida chiqib ketishganligini isbotlaydi.

**Tuproqqal'a** ham o'ziga xos qurilish uslubiga ega. U to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, qudratli mudofaa devoriga ega. Devor burchaklarida burjlar bor. U 17,5 gektar maydonni (500 x 350) egallaydi.

Mazkur yodgorlik XX asming 40 – 50 yillarda S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Shahar markazidan katta ko'cha o'tgan bo'lib u shaharni ikki qismga bo'lib turibdi. Markaziy maydonda qasr va ibodatxonalar joylashgan. Ushbu yodgorlikdagi devorlar rasm va haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan. 138 ta haykallar, saroy a'yonlari, jangchilar, ohular, sozanda ayollar tasvirlangan rasmlar topilgan.

1948-1949 yillarda teri va yog'ochga yozilgan 140 ta hujjat chiqib, ulardan 26 tasi yaxshi saqlangan. Xorazm hududidan 60 ga yaqin Kushon tangalari topilib, ular Kadfiz II, Kanishka, Xuvishka, Vasudevalar davrida zarb qilingan.

Qadimgi davrda Xorazm haykaltaroshlik maktabida mintaqa aholisining tipi aniq mahorat bilan aks ettirilgan. Haykallarda mahalliy aholining kiyim –kechagi va turmush tarzi ham aniq ifoda etilgan. Xaykallari asosan Qo'yqirilgan qal'a, Oq qal'a, Tuproq qal'aladan topilgan.

Tuproqqal'aning deyarli barcha zallari haykallar bilan bezatilgan. Masalan, saroyning “podsholar zali” deb nomlangan zalining devorlari uzun yaxtak, sharovar

kiygan erkaklar va burmali ko'ylakdagi ayollarning haykallari bilan bezatilgan. "Harbiylar zali"ning markazida yirik haykal va uning ikki tomonida o'ziga xos bosh qiyimdagi qurolli harbiylar haykallari o'rnatilgan. Boshqa bir zalda chordana qilib o'tirgan podshohni parvozidagi xudolar tomonidan g'alaba bilan tabriklash lahzalari tasvirlangan. Saroyning yana bir zali mayxo'rlik bazmi va unda raqsga tushayotgan raqqosa va mas'harabozlarning bo'rttirib ishlangan haykallari bilan bezatilgan. "Ohular zali"da esa, ohular ketidan yeldek uchib borayotgan otliq ovchilarning tasvirlari devorga bo'rttirib ishlangan. Ilgarigi adabiyotlarda Tuproqqa'a Qadimgi Xorazmning poytaxti sifatida e'tirof qilib kelinar edi, lekin keyingi davrlarda olib borilgan tadqiqotlar tufayli uning mamlakatning diniy marosimlari o'tkaziladigan sulolaviy markazi ekanligi o'z isbotini topdi. Qadimgi Xorazm poytaxtining izlari esa, Oqshaxonqal'adan topildi.

**Oqshaxonqal'a** Qoraqalpog'istonning Beruniy tumani hududida, Sultonvays tog' tizmalaridan 15 km janubda joylashgan. Dastlab 1956 yilda B.V.Andrianov tomonidan o'rganilgan. 1982-85 yillarda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida qal'aning asosiy hududi, qurilgan davri aniqlandi. Bu yodgorlik qadimgi Xorazm davlatining birinchi poytaxti bo'lishi mumkinligi haqida ilk taxminlar ilgari surildi. O'zFA akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Tarix, Arxeologiya va Etnografiya instituti va Avstraliyaning Sidney Universiteti o'rtasida 1995 yilda o'zaro shartnoma tuzildi. Unga binoan 1995 yildan «Qoraqalpogiston-Avstraliya» xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi u yerda o'z ish boshladi va ularning faoliyati bugungi kungacha davom etib kelmoqda.

Oqshaxonqal'aning umumiy maydoni 47ga tashkil etib, ichki va tashqi qal'adan iborat to'g'ri to'rtburchak shakliga ega. Ichki qal'a va tashqi qal'a har biri alohida devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ular orasida darvozalar bor. Tashqi qal'a ikki qator devorlar bilan o'ralgan bo'lib, ular orasidan o'qchilar yo'lagi mavjud. Tashqi devorlariga yaqin to'pxonalar o'rnatilgan. Qal'a handak bilan ham himoyalangan.

Ichki qal'a himoyasiga tashqi qal'adan ham ko'proq e'tibor berilgan. Uning har tarafida 10,12 ta to'pxona bor. Shuningdek, mudofaa devorlari uch qavat qilib qurilgan. Qal'aning devori shinaklari va qo'shimcha devor bilan o'ralgan. Ichki

qal'aning markazida saroy-ibodatxona joylashgan. U juda baland fundament ustiga qurilgan bo'lib, unga pandus orqali chiqilgan. Bu bino otashkada bo'lib, u juda olisdan ham ko'rinib turgan. Tepada otashkada joylashgan. Unda kuyosh xudosisiga bag'ishlangan mangu olov turgan. Bu binoning, ya'ni otashkadaning bo'lishi otashparastlikning davlat dini bo'lganligini tasdiqlaydi. Bu inshootni markaziy ibodatxona bo'lgan deb hisoblashadi. Ibodatxona atrofida ikki qator yo'laklar bor. 2005-2008 yillardagi arxeologik tadqiqotlar natijasida, bu yo'laklardan hayvonlar, odamlarning portretlari topilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu portretlar xorazmshohlarga tegishli.

**Qo'yqirilgan qal'a** – Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumanida, To'rtko'l shahridan 22 km. shimoli-sharqida joylashgan. Miloddan avvalgi IV-milodiy IV asrlarga oid. Qo'yqirilgan qal'aning tarhi aylana shaklda bo'lib, xochsimon tarzda qurilgan. Yodgorlik dastlab 1938 yilda S.P.Tolstov boshchiligidagi Xorazm arxeologik- etnografik ekspeditsiyasi a'zolari tomonidan topilgan, 1951-1957 yillar mobaynida arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan.

Qo'yqirilgan qal'a qadimgi xorazmliklarning yirik ibodatxonasi va astronomik kuzatishlar olib boriladigan qadimiy madaniy markazlardan biri. Qadimgi Xorazm davlatining brazman, ya'ni hosildorlik ma'budasiga atab qurilgan yirik ibodatxonasi bo'lgan.

Qal'a ikki qator mudofaa devori va xandak bilan himoyalangan. Tashqi mudofaa devorining qalinligi 7,2 metr bo'lib, paxsa va hom g'ishtdan qurilgan. Ichki mudofaa devorining qalinligi 1 metr, balandligi 7 metr bo'lgan. Qal'a atrofidagi xandaqning eni 15 m, chuqurligi 3 m. bo'lib, suv bilan to'ldirilgan. Qal'a devorining mudofaa xususiyatini kuchaytirish uchun proteyxizma (qo'shimcha devor) ko'tarilib, eski devor o'rab olingan. Tashqi mudofaa devorda har 20 metrdan jami 9 ta burj-minora joylashgan.

Qal'aning sharqiy qismida darvoza bo'lgan. U to'g'ri burchakli labirint shaklida qurilgan. Darvoza oldida 34 metr uzunlikda pandus- nishab yo'lka qurilgan. Markaziy binoga ko'tarma ko'prik orqali kirilgan.

Qo'rqirilgan qal'ada olib borilgan tadqiqotlar natijasida, uning ikkita qurilish bosqichi aniqlangan. Birinchi qurilish bosqichi mil. avv. IV – III asrlarga oid. Birinchi bosqichda diametri 44,4 metr bo'lgan aylana shakldagi 2 qavatli bino qurilgan. Ikkinchi qurilish bosqichi milodiy eraning I asriga oid bo'lib, hayot IV asrgacha davom etgan. IV asrning boshlarida qal'ada katta yong'in izlari topilgan. Shu yong'indan keyin ibodatxona o'zining oldingi qudratini yo'qotgan. Tadqiqotchilar buni qadimgi Xorazm xududini boshqa e'tiqoddagi qabilalar egallagan bo'lishi kerak degan xulosani berishadi.

Qal'ada mil. avv. IV–II asrlarga oid sopol usturlob parchalari -astrolyabiya topilgan. Usturlobda o'ziga xos chiziqcha belgilar uchraydi. Qadimdan Xorazmda astronomik kuzatishlar olib borilganligini va uning asosida taqvim yuritilganligini ko'rsatadi. U yerdan sopol sirtiga yozilgan yozuv topilgan. Yozuv qisqa bo'lib, u xurning tepa qismiga “aspabarak” (“otda ketayotgan”, yoki “ot minib turgan”) tarzda yozilgan. S.P.Tolstov buni biror kishining ismi bo'lsa kerak degan fikrni ilgari suradi.

Markaziy binoning birinchi qavatidagi 8 ta xona qo'sh arkli qilib qurilgan. U maxsus diniy marosimlar o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Binoning ikkinchi qavati qurbonlik uchun olib kelingan oziq-ovqatlar saqlangan bo'lishi mumkin.

Qo'rqirilgan qal'adan topilgan xumlardagi bo'rtma tasvirlar o'ziga xos tarzda ishlangan. Xumlarning birida ayol bolasi bilan, ikkinchisida uzun qalpoq kiygan otliq nayza bilan, yana bittasida qush boshiga o'xshab ishlangan dubulg'a kiygan odamning bosh qismi, yana bittasida qo'lida bir bosh uzum ushlagan soqqoli odam tasvirlangan.

Yodgorlikdan nihoyatda ko'p terrakota haykachalari topilgan. Ular deyarli bir xil o'ziga xos uslubda ishlangan. Uzun ko'ylak kiygan ayol, bir qo'lini tushirib, bir qo'lini ko'ksiga qo'ygan xolda va sharf o'rab, qo'lida anor ushlab turgan haykalchalari ko'plab topilgan. Ilgari qadimgi Xorazm xududidan topilgan haykalchalarda ayolning bir qo'lida piyola, ikkinchisida ko'za bilan tasvirlangan holati ko'plab topilgan edi. Topilmalar orasida maymunning bolasi bilan ishlangan



haykalchasining topilishi qadimgi xorazmliklarning Hindistondagi aholi bilan o'zaro aloqalari borligini ko'rsatadi. Qal'a devorlarining birida rangli devoriy surat qoldiqlar topildi. Unda qo'lida kamon ushlagan jangchi tasvirlangan.

Qo'yqirilgan qal'adan topilgan ostodonlar qal'aning ikkinchi qurilish bosqichi, ya'ni mil.avv. I asr va milodiy II asrlarga oiddir. Ostodonlar ham o'ziga xos tarzda ishlangan. Odam bo'yi barobar bo'lgan ichi bo'sh haykallarga o'xshash tarzda yaratilgan. Ayollar to'g'ri to'rtburchak shaklida ishlangan taxtda ulug'vor, yuzida muloyim kulgu, uzun sochlari o'rilgan, qulog'ida isirg'a bilan aks qildirilgan. Erkaklar esa, jiddiy, salobatli, soqol va mo'ylabi bilan tasvirlangan. Ayollarning va erkaklarning yuz tuzilishida bir xillik kuzatiladi, bu ostodonlarda ularning xomiysi Anaxita va Siyovush tasviri berilgan degan xulosani berishgan.

Qo'yqirilgan qal'adan juda ko'p qo'y suyaklaridan oshiqlar topilgan. Ba'zi hollarda to'plam bo'lib turgan holda topilgan. Ko'p oshiqlarning o'rtasida teshik bo'lgan. Ba'zi bir oshiqlarning ustiga qandaydir belgilar qo'yilganligi oshiqlarning tumor vazifasida yoki diniy marosimlarda ishlatilganligidan dalolat beradi. Shuningdek, yodgorlikdan dafn marosimlari uchun ishlatiladigan sopol niqoblar topilgan. Bular o'sha davrlarda aholi orasida fetishizm diniga e'tiqod ham bo'lganligini ko'rsatadi.

Qo'yqirilgan qal'adan ro'zg'orda ishlatiladigan buyumlar juda ko'p topilgan. Temir pichoqlar, ko'zalar, 300 dan ortiq urchuq toshlar topilgan.

Qal'ada zardushtiylik diniga e'tiqod qiluvchi ruxoniylar yashaganlar. Qal'a atrofida esa, dehqonlarning dalalari, uzumzorlari va sopol ishlab chiqaruvchi ustaxona izlari topilgan. Bu esa, qal'a atrofida qishloqlar bo'lganligi va ular qal'ani oziq-ovqat bilan ta'minlab turganligini ko'rsatadi.

**Chilpik-Kala** (Шылпык-Kala) qal'a Amudaryo qirg'og'ida bunyod etilgan. Nukusdan 43 km uzoqlikda joylashgan. Yodgorlik dastlab 1940 yillarda S.P.Tolstov tomonidan o'rganilgan. Mil.avv. I asr va milodiy I asrlarga oid. U zardushtiylik diniga oid daxma – dafn marosimi bilan bog'liq inshoot. Daxma balandligi 35 metr bo'lgan konussimon tepalikning yuqori qismi baland devor bilan o'rab chiqilgan. Devorda minoralar va shinaklar aniqlanmagan. Suv bilan qal'aning ta'minoti ham

aniqlanmagan. Devor ichida qolgan tepalikning usti qismida hech qanday qurilish izlari topilmagan. Tepalik ustida 20 metrlik pillapoya orqali chiqilgan. Ular hozirda saqlanib qolmagan. Tepalik ustida esa, ostodonlarning siniqlari va yozuvlar topilgan. Yozuvlar turli davrlarga oid.

O`rta Osiyoga islom dini kirib kelganch, milodiy IX-X asrlarda Chilpiqdan atrofni nazorat qilib turish uchun, mudofaa uchun va xabar yetkazish uchun foydalangan. Bugungi kunda bu inshoot davlat himoyasiga olingan va qal`a tasviri Amudaryo bilan birgalikda Qoraqalpog`iston gerbida rasmi tushirilgan.

**Yonboshqal`a** me`moriy yodgorligi Qoraqalpog`iston Respublikasining To`rtko`l tumani hududida joylashgan. Yodgorlik to`g`ri to`rtburchak shaklida qurilgan bo`lib, uning maydoni 4 gektarga yaqin. Qal`a ikki qatorli devor bilan o`rab olingan. Balandligi 10 m, qalinligi 5m, ular o`rtasidagi yo`lakning kengligi 2,5 m. Qal`ada bitta darvoza bo`lgan. Uning old tomonida to`g`ri to`rtburchakli bir necha aylanali murakkab inshoot qurilgan. Darvoza oldida bir necha aylanma yo`lakdan iborat qilib qurilishi dushmanga qal`a ichkarisiga to`g`ri kirib borishiga imkon bermagan. Aylanma yo`lakka kirgan dushman devor ustida turgan o`qchilar zarbasiga duch kelgan. Bunday darvozaoldi murakkab mudofaa inshooti qadimgi Xorazm shaharlarining barchasi qurilgan.

Shahar ikkita mahallaga bo`lingan joylashgan. S.P.Tolstov fikricha, qal`ada mingga yaqin aholi iste`qomat qilgan. Qal`a devorlarida burjlar yo`q, lekin mudofaa uchun ko`p sonli. Shahar markazida ibodatxona shinaklar qo`yilgan. Shinaklarning qal`ani mudofaa qilishda va dushmanga zarba berishda ahamiyati katta bo`lgan. Yonboshqa`ada shinaklar nayzaga o`xshash uchli bo`lib, ikki qator qilib qurilgan. Bu qal`a Xorazm davlatining sharqiy tomonidagi harbiy chegara shaharlardan biri bo`lgan.

### **3.Qadimgi Farg`ona yodgorliklari.**

Farg`ona qadimiy tarixga ega bo`lib, o`ziga xos sivilizatsiyani shakllantirgan. Farg`onaning qadimgi davr tarixi keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijada yanada oydinlashgan. Qadimgi Farg`onaning tarixini yoritishda Yu.Zadneprovskiy, X.Matboboev, A.Anarboevlar ishlari diqqatga sazavordir.

Farg'ona haqida dastlabki yozma manba Gerodotning "Tarix" asarida uchraydi. Unda Sug'diyonaning shimoli-sharqida "parikaniylar yurti" bo'lganligini eslatib o'tiladi. Geradot malumotlariga ko'ra, Xaumavarka saklari parikaniylarning ajdodi bo'lib, «parikaniylar yurti» paxlaviy tekstlarida «Parkan davlati» deb yuritilgan».

Farg'ona so'zi so'g'd manbalarida "Fraganik" shaklida yozilib, "tog'lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik" ma'nosini anglatadi. Xitoy manbalarida "Dayyuan, ya'ni Davan" deb yuritilgan. Dayyuan ham "tog'lar orasidagi vodiy" ma'nosini beradi.

Davan davlati konfederativ bo'lgan. Har bir shaxarni mustaqil faoliyat yurituvchi hokim boshqargan. Chjan Syanning ma'lumoticha, Davanda 70 ga yaqin katta va kichik shaharlar bo'lgan. Ularning har biri mustaqil o'z xukmdoriga ega.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida qadimgi Farg'onaning bosh shahri Eski Axi (Axsiket) yodgorligi ekanligi aniqlangan.

Axsiketda 1939 yilda M.Masson tadqiqot ishini olib borgan. 1979 yilda Abdulhamid Anorboev boshchiligidagi Axsiket kompleks ekspeditsiyasi keng ko'lamli tadqiqot ishlarini olib borgan.

**Axsiket** shahri mil.avv. III asrda shakllangan bo'lib, milodiy XIII asrgacha hayot davom etgan. Qal'a paxsa va xom g'ishtdan qurilgan mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan. Devor balandligi 20 metrga yaqin bo'lib, qalinligi 10 metr bo'lgan, 5 ta darvozasi bo'lib, uning atrofi chuqur xandaklar bilan o'ralgan.

Shahriston 35 ga maydonni egallagan. Hozirda uning 25 ga hududi saqlanib qolgan. Shahriston ikki qism- ichki va tashqi qismdan iborat bo'lgan. Ichki shaharistondan 2 ta minora, tashqi shahriston devoridan 20 ga yaqin minora qoldiqlari topilgan. Milodning V-VII asrlarida shaharda aholi uylar 5-6 xonali qilib qurilgan. Xona devorlari suvalgan va turli ranglar berilgan. Har xonadonda alohida yotoqxona, omborxonona, oshxonona, toza suv qudug'i bo'lgan. Yotoqxonalarda devor bo'ylab keng supa, yerda esa sandalga o'xshagan isitish o'chog'i bo'lgan.

Axsiket shahri VII-IX asrning boshlaridagi arab yilnomalarida "Fraganik" deb beriladi. IX-X asrlar shaharning eng rivojlangan davri bo'lgan. Bu davrlarda

Axsikentda zarb qilingan mis tangalarning butun Somoniylar davlati hududiga tarqalgan. IX asr o'rtalaridan Axsikent shahristonining devorlari mudofaa holatini yo'qota boshlaydi, chunki markazlashgan davlat sharoitida devorga ehtiyoj bo'lmagan.

Shaxarga 14-15 km masofadan, ya'ni Kosonsoydan suv keltirilgan. Bosh vodoprovod qoldiqlari 1960 yillarda topilgan. Ichki shahristonning ikki joyidan yer osti vodoprovodi ochilgan. Ular X asrda bunyod etilgan. Uni qurishda dastlab, quruvchilar yer osti tunneli qazigan, keyin uning ichida pishiq g'ishtdan yarim gumbazsimon inshoot qurib, uning tubiga katta diametrli sopol quvurlar yotqizganlar. Sopol quvur parchalari shahriston va rabotning hamma joyidan topilgan. U aholiga 200 yildan ziyod xizmat qilgan.

Arkning sharqiy tomonidan X-XII asrlarga oid jome masjidi topilgan. U to'rtburchak shaklda bo'lib, uning ichki qismida ayvon bo'lgan. Hovlisida hovuz bo'lib, hovuz qirg'oqlari va masjid hovlisi pishiq g'ishtlar yotqizilgan.

Tashqi shahristondan XI-XII asrlarga oid savdo do'konlari, hunarmandchilik ustaxonalari, axolining turar joylari o'rganilgan. Axsikent ustalari po'latning egiluvchanligini oshirish usullarini yaxshi bilishgan, lekin uni qattiq sir saqlaganlar. U yerda yasalgan qilichlar mashhur bo'lgan, ya'ni "damashq qilichlar" deb nom olgan qilichlar aslida shu yerda ishlab chiqarilgan.

Axsikentdan topilgan sirlangan sopol idishlar alohida diqqatga sazovordir. Ularning ba'zilarida kufiy yozuvidagi bitiklar bor, ba'zilarida afsonaviy va yirtqich hayvonlar, xonaki qushlarning rasmlari tasvirlangan. Axsikent hunarmandlari bu davrda sirli sopol idishlarni bezash va sirlashda o'ziga xos maktab yaratganlar. Uning namunalari bugungi kunda Parijdagi Luvr muzeyida saqlanmoqda.

Shaxar raboti 350 gadan ziyod bo'lgan. U yerda tadqiqotlar natijasida boylarning uylari, bog'lar, hunarmandlar mahallasi va hammom topilgan.

XIII asrning boshlarida Muhammad Xorazmshoh va nayman qabilalari sardori Qushlihan o'rtasidagi kurashlar natijasida shimoliy Farg'ona hududidagi shahar va qishloqlar katta zarar ko'rgan. Axsikent ham shu davrda va mug'ullar davrida vayron etilganligi aniqlangan. Shaxar xarobaga aylantiriladi. Ustalari qul qilib



Mo'g'ulistonga olib ketiladi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, Eski Axsi yodgorligidan 5-6 km shimoli-g'arbda, hozirgi Yakkayigit qishlog'i o'rnida yangi shahar Yangi Xsiga asos solinadi.

Xitoy manbalarida tilga olingan Ershi shahri Andijon viloyati Marxamat tumanidagi Mingtepa yodgorligi hisoblanadi. Yodgorlik mil.avv. IV-III – milodiy V-VI asrlarga oid. Uni XX asrning 40-50 yillarida A.N.Bernshtam va Yu.A.Zadneprovskiy tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. XX asrning 90 – yillaridan B.Matboboev tadqiqot ishini davom qildirgan. 2015-2017 yillarda O'zbekiston – Xitoy qo'shma arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Mingtepa ichki va tashqi qal'adan iborat bo'lib, uning tarhi parallelogramma ko'rinishiga o'shsh. Hozirda ichki shaharning 38 gektari saqlanib qolgan. Tadqiqotchilar 52 ta tepalikni aniqlaganlar. Shahar arki 10 metr balandlikdagi tepalik ustiga qurilgan. Ichki shahar ikki qator mudofaa devori va handak bilan himoyalangan. Mudofaa devorining uzunligi 2 ming 600 metr bo'lib, har 38-40 metrda to'g'ri to'rtburchakli minoralar o'rnatilgan. Tashqi mudofaa devorining maydoni 272 gektar bo'lganligi aniqlangan. Tashqi devorning sharqiy tomonida shahar qabristoni bo'lgan. Hozirgacha 40 dan ortiq qabr o'rganilgan.

Mingtepadan ko'plab sopol idishlar, tosh qurollari, xum va palahmonlar topilgan. Ko'nchilik, hunarmandchilik, toshtaroshlik, to'qimachilikka oid topilmalar aniqlangan. Xumlar maxsus qir (tuproq, kul va ohak aralashmasi) bilan o'ralgan holda qo'milgan. Bu xumlarda xitoy yozma manbalarida tilga olingan uzum sharbati saqlangan bo'lishi mumkin. Bu esa, dehqonchilikning rivojlanganligini asoslaydi.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida Farg'ona vodiysining markaziy shaharlarining ko'chishiga hududda yuz bergan zilzilalar ham ta'sir ko'rsatganligi aniqlangan. Mil.avv. 91-90 yillarda Namangan viloyati hududida 10 balli zilzila bo'lgan. Natijada Farg'onaning bosh shahri Dayyuan (Farg'ona) va Yuchen (Eylatan) vayronaga aylanadi. Yangi bosh shahar Mug'tepaga (Kosonsoy)ga ko'chadi. U xitoy manbalarida Guyshuan deb yuritilgan. Bunday zilzilalar milodiy IV-V asrlarda va 1620 yillarda ham bo'lib o'tgan.

#### 4. Toshkent hududidagi qadimiy yodgorliklar

**Shoshtepa** Toshkent shahrining janubiy qismida, Jo'n kanali qirg'og'ida joylashgan. Bugungi kunda bu hudud Sergeli tumanining Shoshtepa mahallasiga qarashlidir. Yodgorlik dastlab qishloq tarzida shakllanib, mil.avv. II asrga kelib shahar qiyofasini ola boshlagan. Qang' davlatining uzoq chegarasida joylashgan bo'lib, uning shimoliy chegarasidagi strategik istehkom, hunarmandchilik markazi, ko'chmanchi chorvador aholi bilan o'troq dehqonlar o'rtasida olib boriladigan o'zaro savdo aloqalari rivojida asosiy vazifani o'tagan. Saqlanib qolgan qismining umumiy maydoni 300-250m<sup>2</sup>. Ilgari u 25 ga maydonni egallagan.

Shoshtepa yodgorligida dastlab 1896 yilda N.P.Ostroumov boshchiligida Turkiston havaskor arxeologlari qazish ishlarini olib boradilar. Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi 1978-1979 yillarda qazish ishlarini olib boradi. Shoshtepada o'tkazilgan tadqiqot ishlari natijasida, uning quyidagi bosqichlarini aniqladi:

1. Shoshtepa I - miloddan avvalgi VI – IV asrlar davri bo'lib, Burg'uluk madaniyatining so'nggi bosqichi davri.

2. Shoshtepa II - mil.avv. II asr bo'lib, Qovunchi I madaniyatiga o'tish davri.

3. Shoshtepa III - mil.avv. II-I asrlar bo'lib, Qovunchi I madaniyati davri.

4. Shoshtepa IV - Qovunchi II madaniyatining birinchi bosqichi, ya'ni milodiy II-III asrlar.

5. Shoshtepa V - Qovunchi II madaniyatining ikkinchi bosqichi, ya'ni milodiy IV-VI asrlar.

6. Shoshtepa VI - mil. VII-VIII asrlarga oid

7. Shoshtepa VII - X oxiri XII asrlardagi kulolchilik markazi sifatida fvaoliyat yuritgan

Shoshtepada yo'lakli aylanma devor qoldiqlari topilgan. Markaziy bino hochsimon shaklda qurilgan va unga kirish joyida ravoqli peshtoq aniqlangan. Yodgorlik zamonasining nodir me'moriy obidalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikricha, mil.avv. II-I asrlarda shaharning rivojlangan davri bo'lgan.

Shoshtepadagi tadqiqotlar chog'ida tashqi savdo aloqalaridan guvohlik beruvchi ikkita nodir buyum topilgan. Ulardan biri fil suyagidan yasalgan qadahning

bir bo'lagi bo'lib, uning hajmi 5-3,5 sm bo'lgan. Unda erkak kishining siymosi qabartma qilib tasvirlangan.

Ikkinchi bebaho topilma stil'-suyak qalam bo'lib, milodning I-II asrlariga mansubdir. Suyak qalam 15 sm uzunlikda bo'lib, bir tomoni yozish uchun uchli qilib, ikkinchi tomoni esa o'chirg'ich uchun romb shaklidagi kurakcha shaklida ishlangan. Shoshtepadan topilgan topilmalar orasida eng diqqatga sazovorlaridan biri nuroniy mo'ysafidning surati tushirilgan terrakota bo'lib, unda o'sha zamonlarda Choch yoki Shoshda yashagan qadimgi aholining etnik qiyofasi mujassamlashgan.

**Qovunchi madaniyati** Burg'uluk madaniyati asosida Toshkent vohasiga kirib kelgan sarmatlar, xunlar va boshqa ko'chmanchi xalqlarning etnik madaniyati asosida rivojlangan. Toshkent vohasi Qovunchi madaniyati rivojlanishining markazi bo'lgan. Bu madaniyat Toshkent vohasi, Sirdaryoning o'rta oqimi, Farg'onaning shimoli-g'arbiy qismlariga tarqalgan. Mil.avv.II asr-mil. VI asrlarga oiddir. Shoshtepani o'rganish jarayonida Qovunchi madaniyatining rivojlanish bosqichlari aniqlangan:

Qovunchi I- mil avv. II-I asrlar;

Qovunchi II ning ikki bosqichi aniqlangan: 1 –bosqich milodiy II-III asrlar, 2-bosqich milodiy IV-VI asrlar hisoblanadi.

Qovunchi madaniyati izlari dastlab Qovunchitepa yodgorligidan topilgani uchun shunday nom berilgan. Qovunchi I madaniyatidan ko'zacha, tovoq, qizg'ish va qo'ng'ir rang berilgan sopol idishlar topilgan. Qovunchi IIga oid yodgorliklardan quloqli xurmachalar, dastasi hayvon shaklida ishlangan turli idishlar topilgan. Umuman Qovunchi madaniyatida o'ziga xos idish qopqoqlari, ko'ralar, ikki boshli qo'chqor yoki shoxli ho'kiz boshi shaklidagi idishlar bo'lgan. Bu idishga tutatqi solingan va qurbonlik qilinadigan idish sifatida foydalanishgan. Qovunchi madaniyati aholisi dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Ular dehqonchilik ma'budalariga, olov va ajdodlar ruhiga sig'inishgan. Mil. VI asrga kelib, o'ziga xos xususiyatlarini yo'qotib, mahalliy aholi bilan aralashib ketgan.

**Qanqa** Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida Ohangaron daryosi bo'yida joylashgan. Yodgorlik mil.avv. III- mil. XII asrlarga oid. Qanqa xitoy yozma manbalarida

Bityan, oʻrta asrlarda Harashkent nomi bilan atalgan. Yodgorlik dastlab 1898 yilda Turkiston arxeologiya havaskorlar toʻgaragi aʼzolari tomonidan topilgan. XX asming 60-70 yillarida Oʻzbekiston respublikasi FA Arxeologiya instituti tomonidan tadqiqot ishi olib borildi. Qanqa toʻgʻri toʻrtburchak shaklida qurilib, umumiy maydoni 200 ga. Bir necha qator mudofaa devori va xandaklar bilan oʻralgan. Shahar ark, uchta shahriston va rabotdan iborat. U yerdan kumush va mis tangalar, oltin va qimmatbaho toshlardan ishlangan taqinchoqlar, sopol haykalchalar, ostodon, mehnat qurollari va devoriy suratlar topilgan. Mil. XII asrda Ohangaron daryosi oʻzanining oʻzgarishi tufayli suvsiz qolib harobaga aylangan.

### **10-mavzu. Oʻrta asrlar davri madaniyati.**

1. Ilk oʻrta asrlar madaniy taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatlari
2. Sibir va Oltoy hududidagi yodgorliklar
3. Oʻrta asrlar meʼmorchiligidagi oʻzgarishlar
4. Amir Temur va Temuriylar davri meʼmorchiligi

**Tayanch soʻzlar:** koʻshk, yer egaligi, dehqon, koroplastika, gemma, terrakota, ostodon, naus, renesans, masjid, madrasa, minora, xonakoh, rabot, sardoba, mayolika, koshin, shahri darun, hisor, Oq saroy, Shohizinda, Goʻri Amir, rasadxona, sektant, ravoq, handasa, islamiy.

#### **1. Ilk oʻrta asrlar madaniy taraqqiyotining oʻziga xos xususiyatlari.**

Oʻrta asrlarda yerga egalik munosabatlarning shakllanishi jamiyatda tubdan oʻzgarishlarga olib keldi. Oʻzbekiston tarixida oʻrta asrlar davri **mil. V-XVIII asrlarni** oʻz ichiga olgan. Rivojlanishi jihatidan 3 ta bosqichga boʻlinadi:

- 1 bosqich – ilk oʻrta asrlar, mil. V- IX asrgacha davom etgan.
- 2 bosqich – rivojlangan oʻrta asrlar, IX - XVI asrgacha davom etgan.
- 3 bosqich – soʻnggi oʻrta asrlar, XVI - XVIII asrlarni oʻz ichiga oladi.

Ilk oʻrta asrlarda yer **egaligining vujudga kelishi** dehqonchilikning rivojlanishiga, koʻplab yangi hududlarni oʻzlashtirilishiga va aholining yirik yer



egalari atrofida to'planishiga, ya'ni ko'plab qishloqlar bunyod qilinishiga olib keldi. Yirik yer egalari – **dehqonlar** ko'shklarda iste'qomat qilganlar. Bu yangi davrning yangi me'moriy binosi bo'lgan. Bugungi kunda ko'shklarning harobalari butun O'zbekiston bo'ylab, tuproq–qo'rg'onlar tarzida uchraydi. Ko'shklari ko'pincha to'g'ri to'rtburchak shaklida, baland platforma ustiga qurilib, atrofi xandak bilan o'ralgan va mustahkam mudofaa devori bilan o'rab olingan. Ko'shk bitta feodal oila yashashiga moslab qurilgan, u alohida suv bilan ta'minlangan. Ko'shk xom g'isht, paxsa, yog'och va tog' toshlardan qurilgan. Xonalarning devorlari mayin somonshuvoq va maxsus ganch bilan sayqallangan.

Ilk o'rta asrlarda hunarmandchilik va savdo aloqalari rivojlandi. Bu o'z navbatida qadimiy shaharlarning yanada taraqqiy etishiga va yangi shaharlarning bunyod etilishiga imkon yaratdi.

Ilk o'rta asrlardagi shaharlar yozma manbalarda 3 qismdan iborat deb berilgan bo'lsada, arxeologik tadqiqotlar ularning 2 qismdan ark va shahristondan iborat ekanligini ko'rsatgan.

Ark barcha shaharlarda bo'lib, o'zning mahobatligi bilan ajralib turgan. Odatda arklar tuproq va loydan ko'tarilgan tepaliklar ustiga qurilgan. Atrofi mudofaa inshooti sifatida chuqur handaklar bilan o'rab olingan. So'ng mustahkam poydevor ustiga xom g'isht va paxsadan qasr qurilgan. Turar joy binolari esa, katta kvadrat tarzidagi xonadan va uning atrofi uzunchoq va to'rtburchak xonalardan iborat bo'lgan. Kvadrat xonalar gumbaz bilan yopilgan. Katta xonaning o'rtasida to'rtta ustun joylashtirilib, yog'och to'sinlar bilan yopilgan. Uning markazi esa, to'rtburchak shaklida ochiq qoldirilgan. Tadqiqotchilar fikricha, bu katta xonalar mehmonxona va hovli rolini bajargan.

Ilk o'rta asrlarda shahar hunarmandchiligi keng rivojlangan. Samarqand, Buxoro, Poykent, Choch va janubiy So'g'd shaharlari o'sha kezlardayoq yirik savdo-sotiq markazlari hisoblangan. Bu shaharlarda hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, metallurgiya va to'qimachilik sohalari yuksak darajada rivojlangan bo'lib, ular ko'p hollarda tashqi savdo uchun mahsulot chiqarganlar.

**Mingo`rik** Toshkent shahrining Shimoliy Temir Yo`l vokzali yonidagi Salor kanaliga yaqin joylashgan. Mingo`rik yodgorligi I–XIII asrlarga oid qadimiy shahardir. Tarixiy manbalarga ko`ra, uning hududi 35ga bo`lganligi aniqlangan.

Mingo`rik nomi qadimiy obidaga nisbatan XIX asrda berilgan. Ilgarilari uni maxalliy axoli Afrosiyob nomi bilan atagan. Arab yozma manbalarida bu shahar “Madinat ash–Shosh” nomi bilan tilga olinsa, boshqa yozma manbalarda “Choch”, xitoy yozma manbalarida “Dje–She” va “Shi” deb nomlangan.

Shahar qalin paxsa va xom g`ishtdan qilingan mustaxkam mudofaa devori bilan o`ralgan. Shahriston ichida ham mustahkam mudofaa inshootlariga ega bo`lgan baland ark–qasr bo`lgan. U zinapoyalar shaklidagi to`g`ri burchakli minoralarga ega bo`lgan. Ark—qasr 0,5 gektarni, shahriston 15 gektar maydonni egallagan.

Mingo`rikda dastlab 1896 yil Ye.T.Smirmov, N.S.Likoshin tomonidan, 1912 yilda esa Turkiston arxeologiya xavaskorlar to`garagi a`zolar tomonidan arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Keyinchalik 1920 yillarda M.E.Masson, 1968 yillarda Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi tadqiqot ishlarini davom qildirganlar.

Shaharga dastlab mil.av.I asrning oxiri va mil. I asrning boshlarida asos solingan. Shu vaqtda uning dastlabki mudofaa devori tiklangan. Xom g`ishtdan tiklangan devorning qalinligi 9 metrni tashkil etgan. Lekin shaharning tez o`sib borishi uning hududining kengayshiga olib kelgan. Natijada mil. YI asrga kelib, Mingo`rik shahri Toshkentning ilk o`rta asrlar davri shaxarlaridan biriga aylangan markaz shahri o`rnini egallagan va bu yerda shahar hokimining qarorgohi – qasri bunyod etilgan.

Tadqiqotlar natijasida shaharda hayot uch asosiy davrda davom etganligi aniqlangan:

1-davr mil. I-IY asrlarga mansub bo`lib, bu davrga oid uzun yo`lakli, ikki qatorli qal`a devorlari qoldig`i topilgan. Devor tashqarisida to`rtburchak shaklda burj va mo`lalar bo`lib, ularning orasi 12 metrga teng bo`lgan. Bu davrda shahar hunarmandchilik va savdo sotiq markazi sifatida nom chiqqan.

2-davr Y-YI asrlarga oid bo'lib, bunda shahar tez sur'atlarda rivojlanib, axoli soni oshib borgan. Shu davrda shahar ark va shahristonga ega bo'lgan yirik markazga aylangan. YI asr oxirlaridan esa shahar Chochning poytaxtiga aylangan.

3-davr YII-YIII asrlarga oid bo'lib, bu davr shaharning eng yuksalgan davri bo'lgan. Bu davrda muxtasham saroy barpo etilgan. Shu davr saroyi birmuncha to'liq o'rganilgan. Saroyda ko'plab xonalar, zal, keng daxlizlar va omborxonalardan iborat bo'lgan. Xona devorlari turli bezaklar, haykaltaroshlik namunalari bilan bezatilgan. Bu yerdan muqaddas olovga sig'inish bilan bog'liq buyumlar ham topilgan. Shahristondan axoli turar joylarining izlari, hunarmandchilik ustaxonasi qoldiqlari topilgan.

**Shoxruxiya shahri** Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani Sultan Segizbaev jamoa xo'jaligi hududida Sirdaryoning o'ng qirg'og'ida joylashgan.

U dastlab 1876 yilda D.K.Zasepin va N. Pandusovlar tomonidan qayd qilingan. 1934 yilda M.E. Masson, 1970-1980 yillardan Yu.F.Buryakov tomonidan keng arxeologik tadqiqot ishlari olib borilgan. Tadqiqot natijasida shaharda 3 ta shahriston borligi, ilk madaniy qatlamlari Qovunchi 1 va Qovunchi 2 davrlarida shakllanganligi aniqlangan.

Shoxruxiya mil.avv. III-II asrlarda vujudga kelgan bo'lib, XVIII asrlargacha shaharda hayot davom etgan. Umumiy maydoni 400 ga. Shahar kvadrat shaklda qurilgan. Shaharning shimoli-g'arbiy burchagida ark joylashgan. Uning 25 metri saqlanib qolgan. Shaharning eng rivojlangan davri X- XIII asr boshlariga to'g'ri kelgan. U yirik hunarmandchilik va savdo markazi bo'lib, savdo karvonlarining Sirdaryodan kechib o'tish faoliyatini nazorat qilib turganlar. XIII asrda mo'g'ullar tomonidan vayron qilingan. 1392 yilda Amir Temur uni qayta tiklab, davlatning muhim mudofaa qal'aga aylantirgan. XVIII asrga kelib, uni Jung'orlar vayron qilgan. Keyinchalik uning shimoli-sharqiy qismida Qori Shamol Avliyo ziyoratgohi vujudga kelgan.

Arxeologik tadqiqotlar natijasida shahar hududidan X-XI asrlarga oid hunarmandchilik buyumlari, kulolchilik pechlari, shishasozlik, temirchilik ustaxonalari topilgan.

**Chilonzor Oqtepesi** IV-XI asrlarga oid arxeologik yodgorlik bo'lib, Toshkentning janubi g'arbiy qismida Bo'zsuv anhuri bo'yida joylashgan. 1940 yilda A.I.Terenojkin qayd etgan. 1969- 1971 yillarda Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Oqtepaning 3ta qurilish davri aniqlangan:

1-davri IV-asrlarga tegishli bo'lib, bu davrda 4 minorali qasr qurilgan. Bino ichida 3ta xona bo'lib, ular bir-biri bilan tor yo'lak orqali bog'langan. Bino 2 qavatdan iborat bo'lgan. U otashparastlarning istehkomli ibodatxonasi bo'lib, mudofaa devorlari qalin, minora va shinaklar bilan mustahkamlangan.

2-davri V-VI asrlarda dastlabki imorat atrofiga yangi xonalar,yordamchi xo'jalik xonalari va qo'shimcha shinakli devor qurilgan.

3-davri VII-VIII asrlarda dastlabki imorat qoldiqlari tuproq bilan to'lg'azilib shibbalangan va 9 metrli tagkursi qilingan. Ustiga tepasi ochiq to'rtburchak (38x27m) hovli ko'rinishidagi bino qurilgan. Ochiq hovli sahnining to'rida to'rtburchak supa kursi joylashgan. Qazishmalar natijasida u yerdan organik qoldiqlar, sopol buyumlar, yorg'uchoqlar, tangalar topilgan.

Arablar istilosidan so'ng Oqtepa zardushtiylar qabristoni vazifasini o'tagan, keyinchalik harobaga aylangan. X-XI asrlarga kelib, kichik bir qishloq bo'lib tiklangan.

**Yunusobod Oqtepesi** V-XIII asrlarga oid arxeologik yodgorlik bo'lib, Toshkentning shimoli- sharqiy qismida Oqtepa kanali bo'yida joylashgan.

Uni dastlab 1886 yilda V.P.Nalivkin qayd qilgan. 1940-41 yillarda A.I.Terenojkin qisman qazishmalar olib borgan. 1975-85 yillar davomida Toshkent arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan o'rganilgan. Oqtepa 100 ga dan iborat ark va qishloqdan iborat. Ark qishloqdan chuqur jarlik bilan ajratilgan. Ark xom g'isht va paxsadan qurilgan. Unda 3 qurilish bosqichi aniqlangan:

1-bosqich V-VI asrlar bo'lib, bu davrda ark bunyod etilgan. Uning tarxi kvadrat (80x80m) bo'lib, perimetri bo'ylab ikki (ustki va pastki) qator tuynuksiz gumbazli yo'laklari bo'lgan.

2-bosqich VII asr boshlarida tor xonalar tuproq bilan ko'mib tashlanib, mustaxkam tagkursi qilinib, ustiga binolar qurilgan.



3-bosqich VII asr oxiri -VIII asr boshlarida 3 qismga bo'lingan ark qurilgan. Bular minoradagi turar joy, diniy marosimlar o'tkaziladigan va yordamchi xo'jalik xonalariga bo'lgan. Bu esa arkning shaharning ma'muriy, diniy va mudofaa markazi bo'lganligini ko'rsatadi. Turar joy qismining devorlari rasmlar bilan bezatilgan. Diniy marosimlar o'tkaziladigan xonada sajdagoh bo'lgan. U yerdan metalldan ishlagan mehnat qurollari, qurol-aslahalar, shisha, sopol buyumlar, bezaklar, o'yinchoqlar, tangalar topilgan. Qal'ada mudofoa devori bo'lmagan.

Qal'a arab qo'shinlari tomonidan vayron qilingan. IX-XII asrlarda qishloq bo'lib qayta tiklangan. XIII asr boshlarida inqroqga uchragan.

Ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda to'qimachilik rivojlangan. Ayniqsa, ipak mahsulotlariga talab katta bo'lgan. Ipakchilik So'g'diyona va Farg'ona vodiysida ham keng yoyilgan. VI-VII asrlarda Buxoroning "zandanachi" ipak mahsulotlariga talab katta bo'lgan. Zandanachi ipak mahsulotlarining namunalari Afrosiyob devoriy suratlarida saqlanib qolgan.

Ilk o'rta asrlarda binolar devoriy suratlar va haykallari bilan bezatilgan. Qadimgi davrda binolar asosan haykallar bilan bezatilgan bo'lsa, ilk o'rta asrlarga ko'proq devoriy suratlar bilan bezatilgan. Ulardan saroylar, dehqon qasrlari, zardushtiylik va buddaviylik ibodatxonalarining inter'erlarini bezashda keng qo'llanilgan.

Arxeologik tadqiqotlar davomida Bolaliktepa, Varaxsha, Afrosiyob, Panjikentdan devoriy suratlari topilgan. Bu suratlarda ilk o'rta asrlardagi tarixiy voqealari, ajdodlarimizning urf-odatlarini, axloq normalari, xulq-atvorlari mohirona aks ettirilgan. Masalan, Bolaliktepa (V-VI asrlar) devoriy suratlarida moviy osmon fonida bazm tasvirlangan. Unda shohona kiyimdagi erkak va ayollarning qo'llarida oltin va kumush qadahlarni ko'tarib turgan holatlari aks ettirilgan. Afrosiyob devoriy suratlarida Samarqand ixshidi Varxumanning taxtga kelishi munosabati bilan mamlakatlararo diplomatik munosabatlar, diniy va dunyoviy mavzulardagi syujetlar va o'sha davr madaniy hayoti aniq tasvirlangan.

1948 yilda arxeolog A.I.Terenojkin **Afrosiyobning** ilk o'rta asrlarga oid qatlamlarini tekshirdi. Qazish ishlari natijasida VI asrga mansub Tolu Barzu yodgorligi, VIII asrga oid

sopol idishlar, sosoniy tangalari topildi. 1958 yildan buyon Afrosiyobni o'rganilish ishlari davom etmokda va hozirgacha turli davrlarga oid bir qancha yodgorliklar topildi.

Tadqiqotlar natijada IV-V asrlarda Samarqandning tushkunlikka uchragan davri ekanligi aniqlandi. Uning rivojlanishi yangitdan VI asrdan boshlangan. Bu davrda ark yangi devor bilan o'rab olingan va uzunligi 1,5 km bo'lgan 4-devor qurilgan. Shahar janubga qarab kengaytirilib, uzunligi 3 km bo'lgan ichki devor qurilgan.

VII asrlarda Afrosiyobda maxsus saroy devori quriladi va shaharning to'rtinchi tashqi devori butunlay qayta qurilgan. Saroy devorining ichida yirik inshootlar qurilgan. Shahar aholisi kasbiga ko'ra maxallalarga bo'lingan.

**Varaxsha** Buxoro xukumdorlarining qarorgohi bo'lib, bu yerdan saroy qoldiqlari bilan bir qatorda devoriy suratlar ham topilgan.

Mazkur yodgorlik 1938-1953 yillarda tekshirilgan. Varaxsha devorlariga loy suvokdan so'ng yelimli rang bilan suratlar solingan. Ularda podsho saroyi xayoti tasvirlangan. Shuningdek Varaxshadan ganchdan ishlangan haykallar ham topilgan.

Varaxsha devoriy suratlarida (VII-VIII asrlar) buxorxudodlarning hayot tarzi, ya'ni saroy hayoti, ibodat va ov manzarasi tasvirlangan. Saroyning sharqiy zali janubiy devorining o'ng tomonida qanotli tuya shaklida ishlangan taxtda podsho tasviri, devorning chap tomonida saroy ahlining altar qarshisidagi ziyorati, saroyning qizil zal devoriy suratlarida esa fil mingan ovchining yo'lbars bilan olishuv manzarasi tasvirlangan.

**Panjikent** harobasini tekshirish 1946 yildan buyon olib borilmokda. Tadqiqotlar natijasida V,VI,VII asrlarga oid bo'lgan turar joylar tekshirildi. Turar-joylar jumlasiga Divashtich saroyi, boy va oddiy shahar axolisi uylari kiradi. Boy xonadon uylari murakkab reja asosida qurilgan. Bu yerda ham ijtimoiy uylar va 2 ta ibodatxona ochib o'rganildi. Saroy va yirik binolarning devorlariga xayotiy va diniy mavzudagi rasmlar solingan. Samarkand, Varaxsha, Panjikent rasmlari ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyoda tasviriy san'at yuqori darajada bo'lganligini ko'rsatadi.

Ilk o'rta asrlarda saroylar haykaltaroshlik namunalari bilan ham bezatilgan. Quva ibodatxonasi Budda haykallari topilgan. Badisatvalar, farishta va jinlar birgalikda tasvirlangan bu Farg'ona haykaltaroshlik maktabining o'ziga xos

tomonlari mavjudligini aks ettiradi. Uning shaklanishida hind ikonografiyasi bilan mahalliy, ilohiy sanamlari o‘z aksini topgan.

**Quva** shahrining IX-X asrlarda eng rivojlangan davri bo‘lgan. Shaharni arxeologik jihatdan o‘rganishda B.A.Latinin, V.D.Jukov, A.N.Bernshtam, V.A.Bulatova, I.Ahrorov, Yu.A.Zadneprovskiy, B.X.Matboboevlarning xizmatlari katta. Shaharning eng quyi madaniy qatlami I-III asrlarga oid. Quvani muntazam ravishda o‘rganish 1956 yildan boshlangan. 1996-1999 yillarda O‘zRFA Arxeologiya instituti tomonidan tadqiqot ishlari olib borildi. Shaharning mil.avv. V-IV asrlarga oid topilmalar topilgan. Bular charxsiz qo‘lda yasalgan, osti qismi yumaloq idishlar va kulolchilik charxida ishlangan yupqa idishlar topilgan. Ularning sirtiga bo‘yoq bilan geometrik naqsh berilgan. Ark va shahriston V-VII asrlarda mudofaa devori bilan mustahkamlangan. Shaharning 3 qismi ham mudofaa devori bilan o‘ralgan. Uning maydoni 12 ga. bo‘lgan.

X asrdan boshlab Quva to‘g‘risida ko‘plab ma‘lumotlar uchraydi. Bu davrda Quva dahalarga bo‘lingan va har bir dahada markaziy maydon va diniy marosimlar uchun maxsus xonalar bo‘lgan. Quvada X-XI asrlarga oid zarbxona topilgan. Tangalarning bir tomoniga qur‘onu Karimdan oyat, ikkinchi tomoniga, Ahmad ibn Ali nomi tushirilgan. U Quvaning X asr o‘rtalardagi hokimi bo‘lgan.

XI asrda Janubiy Farg‘onada Marg‘ilon shahrining rivojlanishi Quva shahri rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Quvada hayot mo‘g‘ullar istilosi davrigacha davom etgan.

Quva Arki yodgorlikning shimoli – sharq tomonida joylashgan. U mil.avv. II-I asrlarda qurilgan. X asrgacha markaz faoliyatini bajargan. Undan keyin shahar markazi rabotga ko‘chgan. Shahar shahristoni 12 gektami egallagan. U kuchli mudofaa devori bilan o‘ralgan. Uning hozirda saqlanib qolgan qalinligi 12-15 metr, balandligi 6-8 metr, umumiy uzunligi 1330 metr bo‘lgan. Devorda burjlar bo‘lgan. Uning atrofi suv to‘ldirilgan handaklar bilan o‘ralgan. 1998 yilda olib borilgan tadqiqotlar jarayonida shahristonning yaxshi saqlangan darvozasi topilgan. Shahristondan hunarmandchilik sohalari asosida dahalarga bo‘lingan va aholi uylari zich qurilgan. Rabot 150-200 gektarni tashkil etgan. Bugungi kunda u saqlanib

qolmagan. Rabotda bozor, bog'lar, amirlar saroyi, qamoqxona, hunarmandlarning uylari bo'lgan. bo'lganligini yozma manbalarda yozib qoldirilgan.

Quva ustalari o'zlari ishlagan shishalari bilan mashhur bo'lgan. U yerda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida ko'plab shisha buyumlar topilgan. Ular nihoyatda yupqa ishlangan qadah, atir sepkich, mushk-anbar taratkich, qon bosimini tushurgich-alambika, grafin, atir –upa idishlari, tibbiyot kolbalaridir. Shishasoz ustalar qurilish oynalari ham ishlab chiqarganlar. Ular yasagan oynalar derazalar va tuynuklarga qo'yilgan bo'lib, qora ranglilari ham uchraydi.

Haykaltaroshlik san'atining izlari mil. IV—V asrlarga oid Toharistonning Kuyovqo'rg'on qal'adan topilgan. Kuyavqo'rg'on haykallari zeb-ziyatli bezaklarga boy yengil kiyimlardagi erkak va ayol tasvirlaridan iborat.

Ilk o'rta asrlar davri monumental me'morchiligida ganch naqshinkorligi keng qo'llanilgan. Unda antik davr an'analari umuman uchramaydi, balki o'z zamonasiga xos yangi uslubiy yo'nalishi shaklangan. Buni Afrosiyob, Varaxsha va Dumaloqtepa (Tohariston) qasr bezaklarida uchratish mumkin.

Monumental san'at bilan birgalikda ilk o'rta asrlarda amaliy san'atning barcha yo'nalishlari rivojlangan. Ular shaharlarning rivojlanishi va shahar hunarmandchiligining taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan edi. Oltin va kumushdan har xil idishlar yasash ko'lami kengayadi. Ayniqsa bu masalada Xorazm maktabi, Tohariston va So'g'd ustalari katta yutuqlarga erishadilar.

Arxeologik qazish materiallari va tasviriy san'at asarlari ilk o'rta asrlar davrida zargarlik va tosh o'ymakorlik san'ati yuksak darajada rivojlanganligini tasdiqlaydi. V-VI asrlarda oliy nasabli mulk egalari shaxsiy muhri sifatida qimmatbaho tosh—serdolikdan gemmalar yasash davom etgan.

Ilk o'rta asrlar madaniyatida **sanamlar yasash** va ularga oilaviy sig'inish keng tus olgan. Ular Baqtriyada, So'g'dda, Choch va Farg'onada mavjud bo'lgan. Arxeologiyada "koroplastika sanamlari" deb nom olgan badiiy san'atning markazi So'g'diyona bo'lgan. Koroplastika Samarqand, Rabinjon,



Talibarzu, Kofirqal'a, Buxoro, Poykent va Yerqo'rg'onda ko'plab uchraydi. Ular oilaviy kult obrazlari, qahramonlik epos va rivoyatlarining personajlari sifatida ilk o'rta asrlar madaniyatida keng o'rin olgan. **Koroplastika** bu haykalchalar bo'lib, ko'pincha sopolan ishlangan, uning mum, gips va boshqa materiallardan ishlangani ham topiladi. Koroplastikada ko'pincha ayol-ma'budalarniing xaykalchalari ishlangan. Lekin mil.avv.II asrdan erkak kishi va hayvonlarning koroplastikalari ham uchraydi. Sopol ko'za va tutatkich dastalarini har xil hayvonlar shaklida ishlay an'anaga aylandi.

Ilk o'rta asrlarda hunarmandchiligida ostodonlar tayyorlash keng rivojlandi. Chunki zardushtiylik dinida murdalarni bevosita yerga ko'mishni taqiqlagan va ularning tozalangan suyaklarini **ostodon** deb atalgan maxsus sopol yashiklarda ko'mishni taqozo etgan. Bu sopol yashiklarning qopqoqlari va devorlarining tashqi tomoni har xil bo'rtma naqshlar—ilohiy personajlar va me'moriy kolonnalar, daraxt va o'simlik barglari bilan bezatilgan. Ostodonlarning ishlanishi turli joylarda turlicha bo'lgan. Masalan: Xorazmda me'moriy va statuar ostodonlar, Chochda chizma naqshli yashiksimon ostodonlar, So'g'da esa otashparastlik ilohiyati e'tiqodi bilan bog'liq bo'lgan syujetli ostodonlar keng tarqalgan. Ostodonlar maxsus inshoot – **nauslarda** saqlangan.

VII asrning ikkinchi yarmi va VIII asrning boshlarida O'rta Osiyo hududlariga islom diniy mafkurasining kirib kelishi mahalliy madaniyat rivojlanishida to'sqinlikni keltirib chiqardi. Islom aqidashunosligi mahalliy muhitga majburan kiritildi, mahalliy an'anaviy badiiy madaniyat va san'at olami islomiylashdi.

## 2.Sibir va Oltoy hududidagi yodgorliklar.

Ilk o'rta asrlarda Rossiya hududida **slavyanlar** iste'qomat qilishgan. Ularning kelib chiqish tarixi haqida Gerodot asarida ba'zi bir ma'lumotlar saqlanib qolgan. Arxeologlar ularning turmush tarzini qabrlari asosida tiklaganlar. Arxeologik tadqiqotlar natijasida slavyanlar Sharqiy Yevropaning o'rmon hududlarida, Smolensk oblastida, Volga, Dnepr, Desna va Seym daryolarining yuqori oqimlarida yashaganliklari aniqlangan. U yerlardan topilgan qabrlardagi murdalar quydirilgan

va kuydirilmagan xolda bo'lgan. Yonlaridan turli buyumlar –sopol idishlar, Rim buyumlar, zeb–ziynatlar, tangalar topilgan. Bunday qabrlar topilgan hududlar “**qabriston dahasi**” deb nomlangan. Ularning xronologik doirasi mil avv.II asrdan boshlanib, ba'zi hududlarda mil. VIII asrgacha davom etgan. Ular lalmi dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi slavyan qabilalari bo'lgan. Vizantiya tarixchilari ularni sklavin va antlar tarzida tilga oladi.

Mil. III–Y asrlarga oid Volga bo'yida Bereznyaki shahari topilgan. Uning atrofi jarlik bilan o'ralib, yog'och devor bilan mutahkamlangan. Shahardagi barcha uylar yog'ochdan qurilgan. Shahar markazida eng katta jamoat binosi bo'lgan. Uylardan temir buyumlar sopol idishlar, urchuq, bigiz, tosh dazmollar topilgan. Shaxardan dahma topilgan. U yerda murdalar kuydirilgan. Yozma manbalarga qaraganda faqatgina slavyanlarda murdalar kuydirilgan. Mil. Y asrda Rim imperiyasi yemirilgach, slavyanlar Rim imperiyasi ta'sirida bo'lgan hududlarni egallab olganlar.

IX–XIII asrlarda Rossiya hududlarida ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilib, feodal tuzumi shakllana boshlagan. Lekin bu jarayon Rossiyaning slavyanlar yashab turgan hududning hamma joyida ham bir xil kechmagan. VII–IX asrlarda janubiy–g'arbiy hududda yashayotgan slavyan qabilalarida dehqonchilik madaniyati rivojlangan bo'lib, ular yerni plug bilan haydab dehqonchilik qilishsa, o'rmon hududlarida yashaydigan sharqiy slavyanlarda esa, **qirqma dehqonchilik** bilan shug'ullanib, ular yerni temir bolta, katta aspichoq va ketmoncha (motiga) bilan ishlov berganlar. Qirqma dehqonchilikda, dehqonlar dastlab daraxtlarni qirqib, quritib olgach, ularni kuydirganlar va ekin maydonlariga aylantirganlar. Ayni paytda Rossiyaning markaziy hududlarida VII–IX asrlarda rus shaharlari ham vujudga kela boshlagan. Bunga sabab hunarmandchilik va tovar ayirboshlashning rivojlanishi bo'lgan. Bu davrda hunarmandchilikning degrezlik, temirchilik, zargarlik, to'qimachilik, suyakkka ishlov berish, yog'ochsozlik kabi sohalari mavjud bo'lganligi arxeologik tadqiqotlar natijasida aniqlandi.

Rossiya hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida VII–VIII asrlarga oid Ladoga shahridan patriarxal jamoaga xos katta uy, Romna shahrida esa shu davrga oid loy devori bo'lgan yerto'la izlari topilgan. IX–X asrlarga kelib

axolining yashash tarzi o'zgargan, Ladoga axolisi omborxonasi, donxona va molxonasi bo'lgan alohida uylarda yashay boshlaganlar, katta shaharlar shakllana boshlagan. Jumladan Kiev, Smolensk, Chernigov, Novgorod kabi shaharlar vujudga kelib, o'sha davrlardagi ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot to'g'risida ma'lumotlar berdi. Lekin X asrdan boshlab Rus madaniyati to'g'risida ma'lumotni ko'proq yozma manbalardan olinadi.

Sharqiy Yevropaning janubiy dashtlarida mil. II asrdan **olonlar** iste'qomat qilganlar. Ularning ko'pchiligi ko'chmanchi chorvador qabilalar bo'lgan. Skif, sarmat va olonlar bir-biriga yaqin bo'lib, ilmiy adabiyotlarda ularni eroniy tilda so'zlashganlar deyiladi. Aslida ular turkiy tilning turli laxchalarida so'zlashganlar. Olonlardan bizgacha mozor qurg'onlar saqlanib qolgan. Lekin ularning mozor–qo'rg'onlarida jihozlar nisbatan kam, ba'zilarida esa, umuman uchramaydi. Lekin olonlarning qadimgi Pantikapeyning Kerch shahrida daxmalari topilgan. U yerdan shisha idishlar, didsiz, dag'al ishlangan qimmatbaho toshlar, zeb–ziynatlar va sarmat qurollari tipidagi qurollar topilgan. O'qlari uch parrakli qilib temirdan ishlangan. Bir tig'li to'g'ri shamshir bilan birga sarmatlarning shamshiri ham ishlatilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida ularning ijtimoiy –iqtisodiy hayoti to'g'risida ma'lumotlar kam to'plangan. Olonlar xalqlarning ommaviy ko'chish jarayonida ishtirok qilib, Galliya, Ispaniya va Afrikadan izlari topilgan. Olonlar I ming yillikning birinchi yarmida xazarlar ta'siriga tushib qoladi. VIII asrgacha bo'lgan Xarkov shahriga yaqin Saltov qabristoni olonlarning xazarlar davriga oid. Qabrlar sun'iy g'or ichida joylashgan. Murdalar yotqizilib ko'milgan. Bu yerdan jang boltalari, yakka tig'li shamshirlar, zeb–ziynat buyumlari va turli sopol buyumlar topilgan. Qabrlardan topilgan buyumlar olonlarda mulkiy tabaqalanish boshlanganligini ko'rsatadi. Shuningdek, bu yerdan topilgan buyumlar Shimoliy Osetiyadagi qabrlardan topilgan buyumlarga o'xshash bo'lganligi sababli, ularni olon qabilalariga tegishli ekanligi isbotlandi. **Xazarlarga** oid qabrlar Donda, Simlyansk qishlog'i yaqinida, Sarkelda olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlandi. **Sarkel shahri** IX asrda xazarlar tomonidan asos solingan. Qal'a devori va binolar pishiq g'ishtdan qurilgan. G'ishtlarda ustalarning tamg'alari bor. Ko'p uylar yog'ochdan

qurilib ustidan loy bilan suvalgan. Bu yerdan pulug tishi, don o'ralari, temirchilik va kulolchilik ustaxonalari topib o'rganilgan. Sopol idishlar kulolchilik chaxxida ishlangan. X asrda xazarlarni Svyatoslav yenggach, dashtda olonlar va xazarlar deyarli yo'q bo'lib ketadi. X asrdan dashtni **pecheneglar**, keyinchalik **turklar** va **kipchoqlar** egallaydi. Bu ko'chmanchi qabilalarning izlari bizga faqat, qurolli jangchilar ko'milgan mozor-qo'rg'onlardan ma'lum. Bu qo'rg'onlardan topilgan qilichlar – qayrilgan yakka tig'li bo'lgan. Ularning tig'i tashqariga, orqa tomoni ichkariga bukilgan. Yakka tig'li qilichni sidirib urganda qo'sh tig'li qilichga nisbatan chuqurroq botgan. Bu qilich ko'chmanchi chorvadorlar orasida IX asrdan paydo bo'lgan. Yaqin va O'rta Sharqda, Rossiyada XIY asrdan, G'arbiy Yevropada XVI asrdan keng tarqalgan. Qilichdan ko'proq yengil qurollangan suvoriylar foydalanishgan.

Baltika bo'yi hududlarida ilk o'rta asrlar tarixi ham qabrlar asosida o'rganilgan. Mil. II–Y asrlarda Latviyada mozor–qo'rg'onlarga ko'p odamlarni ko'mish odat bo'lgan. Shimoliy Latviya va Estoniyada esa, tosh terib ihota qilingan qabrlar rasm bo'lgan. Qabrlarning qaysi qabilaga mansubligini dafn uslubi va topilgan buyumlardan aniqlash mumkin. XIII asrdan Baltiqabo'yi axolisi nemislar ta'siriga tushib qoladi.

X asrdan Sharqiy Yevropaning turli viloyatlarida murdalari kuydirilgan mozor-qo'rg'onlar topilgan. Ularda mulkiy tabaqalanish yaqqol ko'rinib turibdi. Chokarlar (drujinnik) qabrlari alohida ajralib turgan. Ular axolining zodagon tabaqasidan bo'lib, qo'shinning asosini tashkil etishgan va majusiylar odati bo'yicha dafn qilingan. XI asrdan boshlab xristianlik dini qabul qilingach, majusiylar odati man qilinadi.

Smolensk yaqinidagi Gnezdovo qishlog'idan 3 mingga yaqin mozor-qo'rg'on topilgan. Undagi markaziy mozor-qo'rg'onning balanligi 10 metr, aylanasi 100 metr keladi. Mozor-qo'rg'onning tagida bir qancha murdalar kuydirilgan gulxanlar topilgan. Gulxanlardan ajoyib qurollar, zeb ziynatlar, O'rta Osiyo tangalari (dirham), dubulg'a, nayza, ko'sh tig'li shamshir, rus o'yma naqshi bilan bezatilgan temir plastinkalar va ko'milgan otlar topilgan. Bu mozor- qo'rg'onida knyaz dafn



etilgan. Bu katta mozordan tashqari yana 700 dan ortiq mozor-qo'rg'onlar ham tekshirildi. Lekin ko'p mozor-qo'rg'onlar bo'sh turibdi. Bular chetda xalok bo'lgan jangchilarning ramziy qabrlari bo'lishi mumkin.

Ozod xotin-qizlarning qabrlari alohida bo'lgan. Ular orasida ham mulkiy tengizlik izlarini kuzatish mumkin. Boy tabaqa vakillariga tegishli mozor-qo'rg'onlarga cho'rilari va qullari o'ldirib kuydirilib ko'milgan. Bu xaqda o'sha davr yozma manbalarida ham ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bu yerdagi mozor-qo'rg'onlarida mehnat qurollari deyarli uchramaydi. Harbiy qurollar bor. Shamshirlarning boshi dumaloq, gulbandi to'g'ri bo'lib, boshi va gulbandiga kumushdan naqsh berilgan. Uning yuzi enli bo'lib, uzunligi bir metrgacha bo'lgan. Gnyozdovadan topilgan o'qlar romb shaklida bo'lgan. Dubulg'alari kuloxsimon bo'lib, ularni shishak deb atashgan. Qalqonlari yog'ochdan yasalib, o'rtasiga temir qoplangan. Temir sovut parchalari topilgan. Sovutlar G'arbiy Yevropada antik davr oxirlarida yo'qolib ketgan, faqatgina XII asr boshlarida salb yurishlari boshlangandan keyin yana paydo bo'ladi. Yaqin va O'rta Sharqda, O'rta Osiyoda doimo jangda sovutda yurishgan.

Gnyozdovadan **slavyan yozuvi** namunasi topilgan. Shuningdek, oltindan ishlagan turli buyumlar va hozirgi zamon qaychisiga o'xshash qaychi ham topilgan.

Sharqiy Yevropadagi mozor-qo'rg'onlardan topilgan buyumlar, asosan tanga pullar axolining tashqi aloqalarini aniqlashga imkon berdi. Bu yerdan Vizantiya pullaridan ko'ra, Samarqand, Buxoro va Abbosiy halifaligining dirhamlari ko'p topilgan. Bu shaharlar X asrdayoq Rus bilan iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lganligini ko'rsatadi. Bu pullar ham asosan Rossiyaning Kiev, Smolensk va Novgorod shaharlarida ko'p to'plangan.

O'rta asrlarda Rusda temirchilik rivojlangan. Harbiy qurollar bilan birgalikda pichoqlar ham po'latdan ishlangan. Temir Rusda ruddadan olingan va ularning tarkibida nikel bo'lgan.

Zargarlikda XI asrdan murakkab usullarda naqsh berish takomillashgan. Zarxoshiya, qubba, quyma naqsh va qora kumushga(qora kumush –qalay, mis, kumush va jilosiz qoramtir oltingugurt qorishmasidan iborat bo'ladi. Unga dastlab

naqsh o'yilgan keyin ko'zalarga qorishma quyilgan.) naqshlari ishlangan. **Sir va xal berish** san'ati kashf etilgan. Kievda sirlash ustaxonasi topilgan. Unda sir eritadigan tigellar, har xil ko'ralar, eritilgan turli rangdagi sir massalari topilgan. Hoshiyali sir quyma sir(sirlash uchun metallning ustiga botirma chuqurchalar berilgan)ga nisbatan murakkab bo'lgan.

Turli ranglardagi shishalardan ishlagan bilakuzuklar topilgan. Oldinlari ularni Vizantiya yoki Suriyadan keltirilgan deb hisoblashardi. Lekin keyinchalik uning Kievda ustaxonasi topilgan. Unda shisha eritadigan gilvata tigellar, buzilgan bilakuzuk parchalari va buzilgan asboblari topilgan.

Rus shaharlarida IX asrlardan kulolchilik buyumlari charxda ishlana boshlagan. Kulolchilik buyumlarining shakli hamma yerda bir xil bo'lgan. Bu slavyanlar yashagan hududning madaniy birliginidan darak beradi.

**Kiev shahri** markazida knyaz qasri bo'lgan. Qasrning poydevori toshdan ishlangan. Devorlari yupqa g'ishtdan ishlanib, marmar bilan ishlov berilgan. Qal'a devori yog'ochdan ishlanib, loy bilan suvalgan. Burjlari toshdan ishlangan. XI asrda rus knyazlari o'zlarining tangalarini zarb qilishgan. Har bir knyazning o'z urug' tamg'asi bo'lgan. Knyaz o'ziga tegishli har bir narsaga o'z tamg'asini bosgan.

XII asrdan **Vladimir–Suzdal yerlari** siyosiy –iqtisodiy jihatdan yuksala boshlaydi. Hunarmandchilik bilan birga shahar me'morchiligida ham o'zgarishlar boshlanadi. Rus knyazi Andrey Bogolyubskiy cherkovlarini oq harsangdan qurdiradi. Darvozalari oralig'iga yog'ochdan ishlangan ko'tarmalar bo'lgan. U qurdirgan Bogolyubov shahri ham oq harsang toshdan ishlangan. Bugungi kunda uning minorasi saqlanib qolgan. Shahar ko'chalari ham oq harsang taxtalar yotqizilgan. Shuningdek bu davrdan cherkov devorlariga odamlar xayvonlar va o'simliklarning suratlari toshga o'yib ishlangan. Vladimir shahridagi Dmitriy va Yurev Polskdagi Georgiy ibodatxonalari afsonaviy rasmlar bilan bezalgan. Rus me'morchiligida kamda kam xollarda tosh ishlatilgan, asosan, yog'och va tuproqdan ishlangan.

Rus qishloqlari ham mo'zori–qo'rg'onlardan ma'lum. Ular daryo bo'ylarida uchraydi, yumaloq shaklda bo'lib, balandligi o'rtacha 2 metr bo'lgan. Murdalar uchun chuqur qazilmagan. Ular yer ustiga yotqizilgan. Qabrlarda jang va mehnat

qurollari kam uchraydi, odatda pichoqlar, kamar to'qalari va sopol idishlar bor. Ayollar qabrlarida o'ziga xos zeb–ziynatlar va temir o'roq uchraydi. Har bir qabila ayollarining o'ziga xos zeb–ziynat buyumlar dastasi bo'lgan. Qabilalar chegarasini aniqlashda ayollarning **chakka halqalari** muhim o'rin tutadi. Chakka xalqlarni ayollar sochlariga taqishgan. Teterevodagi drevlyanlarning chakka halqalari uzukka o'xshagan, severyanlarniki spiralsimon bo'lgan, dregovichlarniki mis marjon bo'lgan, radimichlarniki, yetti nurli shu'lasimon, vyatichlarniki yetti parrakli, slovenlarniki romb shaklida bo'lgan.

Rus qishloqlarining o'zlarida temirchilik va zargarlik ustaxonalari bo'lgan. Ular o'z qabiladoshlari uchun buyumlar yasab berishgan. Rus qishloqlarida o'liklarni mozor–qo'rg'onlarga ko'mish xiristianlik dini qabul qilgach ham davom etavergan, chunki ular o'zlarning maxalliy urf–odatlarini XIY asrlarda ham unitishmagan edi. Jumladan shu asrda vyatichlarning ko'plab mozor–qo'rg'onlari uchraydi.

XIII asrda mo'g'ullarning istilosi Rusni madaniy va iqtisodiy jihatdan tushkunlikka tushirib qo'yadi. Ilgarigi hunarmandchilik turlari yo'qolib ketadi.

Rossiya davlatining poytaxti **Moskva shahri** qadimgi yilnomalarda 1147 yildan boshlab tilga olinadi. U Suzdal knyazligini chegara hududidagi shaharcha bo'lgan. Bu yerda knyaz Yuriy Dolgorukiy 1156 yilda Kremlni dastlab yog'ochdan qurdiradi. Bu Kremlning izlari bizgacha saqlanib qolmagan. Mo'g'ullar bosqinidan keyin, XIY asr boshlariga kelib, Moskva yirik rus shahriga aylanadi. Shu davrda Ivan Kalita 1339 yilda Kremlni dubdan bino qildiradi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida qal'a devori aniqlandi. 1367 yilda Dmitriy Donskiy mo'g'ullarga qarshi qattiq turish uchun Kremlni birinchi marta oq toshdan qurdiradi. Uning maydoni hozirgi Kremlga deyarli teng bo'lgan. Uni "Oqtosh shahar (Belokamennaya)" deb atashgan. O'sha davrdan Kreml yonida qurilgan cherkov va Zvenigorod, Troitsa–Sergievo monastirlar saqlanib qolgan.

XIY–XY asrlarga oid ba'zi buyumlar hozirgi davrgacha yetib kelgan. Ulardan asosiysi **Monomax telpagidir**. U ulug' knyazlikning muhim belgisi hisoblangan. Ammo bu telpakning Monomaxga hech qanday aloqasi yo'q. Bu knyazning toj kiyishi to'g'risidagi afsona XYI asrlarda to'qilgan va "Tilla telpak" Moskva

knyazlarining vorislik xazinasiga kiritilgan. Telpak sakkiz qirrali, telpakni hosil qiladigan sakkizta oltin plastinka gul, yulduz va novdalar tasvir etilgan juda nozik oltin bilan qoplangan. Telpak chetiga qunduz tutilgan. Telpak naqshi arab guli deb ataladi. Shuningdek, telpakning yana bir nusxasi Oʻrta Osiyodan topilgan. Shu sabab uni Oʻrta Osiyoda ishlangan degan fikrlar bor.

Rusda **oʻt ochar quollar** XIY asrning ikkinchi yarmidan paydo boʻlgan. Vaholanki, miltiq XIII asrda islom mamlakatlarida ixtiro qilingan edi. Zambaraklar dastlab toblagan temir halqalardan yasalgan. XY asrdan boshlab esa, misdan ishlangan (ayrim mis halqalar quyilib keyin payvand qilingan) zambaraklar koʻp ishlatila boshlangan.

Rusda **qayrilgan qilichdan** XIY asrlardan boshlab foydalana boshlangan. XY asrda rus harbiylari tez yurishga yordam beradigan **changʻini** ixtiro qiladilar. U hozirgi zamon changʻisiga oʻxshab ketadi. Mazkur changʻilardan jangchilarning jangda qoʻllaganliklar yilnomalarda yozib qoldirilgan.

XIY–XY asrlar Rusda zarb qilingan asosiy pullar kumush **“denga”** boʻlgan. “Denga” soʻzi “tanga” soʻzining oʻzgargan shaklidir. U moʻgʻullar orqali Oʻrta Osiyodan kirgan. Bu davrda zarb qilingan tangalarning suratlari juda xilma xil boʻlib, uning bir tomoniga Oltin Oʻrda xoni nomi yozilgan. Bu oʻsha davrda Rusda mayda yarim mustaqil davlatlar mavjud boʻlganligidan dalolat beradi. Bunday mayda davlatlarning mavjud boʻlishi Rus davlati taraqqiyotining rivojiga katta toʻsiq boʻlgan edi. Rus davlatini birlashtirish ishini XY asrning oxirida Ivan III zamonida yakunlandi. U birlashgan davlatning poytaxti sifatida Moskvani tanladi va katta qurilish ishlarini boshlab yubordi. Kremning ilgari qiyofasi oʻzgardi. U gʻishtdan qurildi. Minoralari toʻrtburchak shaklda qilib ishlandi. Mudofaa devorlaridagi shinaklar qaldirgʻoch dumiga oʻxshatib ishlandi. Bu oʻqchilarning bekinib turishi uchun qulay edi. Kreml yonida Uspenskiy va Blagoveshchinskiy ibodatxonalari qurildi. Ular hozirgacha saqlanib qolgan. Bu Kremning hozirgi Kremldan farqi shundaki, ularning minoralarida mezonalari boʻlmagan. Bu **mezonalar** XYII asrda ishlangan.



Bu davrda cherkovlar, qasrlar, ibodatxonalar, shaxsiy uylar Moskvada ishlab chiqarilgan g'ishtlar bilan mustahkam qilib qurilgan. Ularning ba'zilari bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Ivan III yagona pul sistemasini joriy qiladi. Odatda tangalarga Moskva suvoriysining rasmi tushurilgan. Lekin gullar zarb qilingan tangalar ham keng tarqalgan. Uning bir tomonida boychechak, ikkinchi tomonida atirgul surati bo'lgan. Ularda xech qanaqa yozuv bo'lmagan. Boshqa tangalarda esa, tatarcha yozuvda Ivan III ning nomi yoki Moskva so'zi yozilgan.

Umuman, o'rta asrlar davrida yaratilgan madaniyat to bugungi kungacha o'zining mahobatini saqlab turibdi. Vaqt o'tishi bilan ular milliy qadriyatlarga aylanib, xalqimizning milliy iftixoriga aylangan. O'rta asrlarda ijtimoiy –iqtisodiy hayot na faqat madaniy, balki ilmiy jihatdan ham yuksaklarga ko'tarilgan. Ularni bilish, qadrlash va asrash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

### 3.O'rta asrlar me'morchiligidagi o'zgarishlar.

Rivojlangan o'rta asrlar davri O'zbekiston tarixida Somoniylar davlati tashkil topishidan boshlanib, to temuriylar davlati inqirozigacha (IX -XYI asr) davom qiladi. Bu davrni ijtimoiy va iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan ikkita taraqqiyot va bitta inqiroz bosqichiga bo'lish mumkin. **Birinchi taraqqiyot bosqichi** IX—XIII asr boshlarini o'z ichiga oladi. Bu davr madaniy hayoti islom mafkurasi asosida shakllanib, o'ziga xos madaniy rivojlanish kuzatiladi. Markazlashgan davlat tashkil qilinib, unda avval somoniylar (IX—X ), so'ng esa, uning hududlari uchta turkiy davlatlar- qoraxoniylar, g'aznaviylar va saljuqiylar o'rtasida (XI asrda) taqsimlanib, bu hududlarning katta qismida XII asr o'rtalarida buyuk xorazmshohlar davlati tashkil topadi.

XIII asr boshlarida mo'g'ullarning O'rta Osiyoga hujumi va bo'ysundirishi madaniy taraqqiyotga o'ta darajada salbiy ta'sir ko'rsatib, uning rivojlanishini bir necha yillarga to'xtatib qo'yadi. Bu jarayon to Amir Temurning hokimiyatni egallab, markazlashgan davlat tashkil qilgunicha davom etadi. Shu sabab XIII asr O'zbekiston tarixiga **inqiroz davri** bo'lib kirgan. Amir Temur va temuriylar davrida

madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayot jonlanadi, o'ziga xos madaniy taraqqiyot kuzatiladi va bu XIY–XY asrlardagi ikkinchi taraqqiyot bosqichi bo'lib, bu davrni tadqiqotchilar **uyg'onish davri** deb baholaydilar.

Rivojlangan o'rta asrning birinchi taraqqiyot bosqichida Somoniylar olib borgan markazlashtirish siyosati mamlakatning iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Shaharlar o'sdi va ularning iqtisodiy savdo aloqalari mustahkamlandi. Masalan, arab tarixchi va geograflarining ta'kidlashicha, birgina Choch va Iloqda 50 dan ortiq shaharlar bo'lgan. Shaharlarda hunarmandchilikning kulolchilik, shishasozlik, temirchilik, yog'och va terini ishlash hamda to'qimachilik sohalari rivojlangan.

X asr oxirlarida Movarounnahrda qoraxoniylar hukmronligi o'rnatildi. Qoraxoniylar somoniylarning mamlakatni boshqarish, pul zarb etish va boshqa an'analarini davom ettirganlar. Ammo, oltin dinor zarb qilmaganlar. Arab tarixchilari Yoqut va Ibn Xavkallarning yozishiga qaraganda, Buxoroda savdoda dirham ishlatilgan, dinor esa, tovar sifatida sotilgan. Bu davr madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Ilm-fan, din va tasavvuf, me'morchilik va san'at, musiqa san'ati rivojlandi. XI asrdan boshlab shaharlarning ijtimoiy – iqtisodiy qiyofasi o'zgargan. Shaharlar hunarmandchilik va savdo – sotiq markaziga aylandi. Ular hunarmandchilikning ma'lum bir tarmog'i bo'yicha ixtisoslashdi. Aholisining soni ham oshib borgan. Shaharlarning tuzilishida ham o'zgarishlar kuzatildi. Ularning maydoni kengaydi, ark avvalgidek, alohida istehkom ichida emas, balki shahar devori ichiga quriladigan bo'ldi. Shuningdek, rabotlarda ko'plab karvon saroylar, ulgurji, tashqi savdo bozorlari bo'lgan. Shaharlarning qurilish rejasi avvalgidek saqlanib qolgan, ya'ni shaharlar to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lib, shahar markazida kesishib o'tgan ikki ko'cha bo'lgan.

Rivojlangan o'rta asr shaharlarida yangi bino turlari vujudga kelgan. Jumladan, **masjidlar, minoralar, maqbara, karvon saroy, sardoba, xonaqoh** va boshqalar.

IX asr boshlarida binolarni qurishda xom g'isht va paxsa ishlatilgan. Keyinchalik ma'muriy va jamoa binolarini qurishda **pishiqlik g'isht**dan foydalanila

boshlangan. Turar joy binolarini qurish ishlarida esa, sinch va paxsa asosiy o'rinni egallangan. Pardoiz ishlarida esa, somonli loysuvoq, ganch, sirlanmagan koshin va sopol plitkalardan foydalanganlar. XII asrdan **sirlangan koshin va mayolika ishlatish usuli** kashf etilgan.

IX–X asrlarda xom g'isht va paxsadan bunyod qilingan imoratlar turli holatda saqlanib qolingan. Afrosiyobda Somoniylar qasrining bir qismi saqlangan. U nafis o'ymakorlik usulida bezatilgan. Termiz yaqinidagi Qirqqiz qal'asi xom g'isht va paxsadan qurilgan hashamatli bo'lib, uning asosiy devorlari bugungi kungacha saqlanib qolgan. Bunday hol nihoyatda kam uchraydi. Arxeologlar bu qalaning yaxshi saqlanishini loy qorish va uni ishlatish texnologiyasining mukammalligida deb bilishadi va bu uslub vaqt o'tishi bilan unitilib ketgan deb hisoblashadi. Qadimiy Xorazm hududidagi Qavat qala ham yaxshi saqlangan.

Bu davrda pishiq g'ishtdan dastlabki imoratlar bunyod qilina boshlangan. Bunga Buxorodagi **Ismoil Somoniy maqbarasini** misol keltirish mumkin. Bu inshoot Ismoil Somoniy davrida (873–907 yy.) qurilgan. Bu maqbara nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo me'morchiligi durdonasi hisoblanadi. Imorat kubsimon shaklda bo'lib, tashqi tomonlarining uzunligi 10 metrga yaqin, ichki tomoni 7,2x7,2 metr bo'lib, usti gumbaz tarzida yopilgan. Binoning qurilishida ishlatilgan asosiy g'ishtning razmeri 23x23x3 sm, kichkina g'ishtlar 12x12x3 sm, yirik g'ishtlarning o'lchami 60x63x6,5 sm bo'lgan. Maqbaraning qurilish uslubi ilk o'rta asrlardagi otashparastlar ibodatxonasining olovxonasiga o'xshaydi.

Samarqand viloyati Tim qishlog'idagi **Arab–ota maqbarasi** ham bu davrga oid diqqatga sazovor binolardan biridir. Bu maqbarada dastlabki **peshtoq** namunalari uchraydi. Maqbaraga kirish bir tomonlama, peshtoq orqali bo'lib, u butun sharqiy devorni egallagan. Peshtoqning ustki qismi ravoqlar bilan bezatilgan. Arab–ota maqbarasi P.Sh.Zoxidov fikricha, oldin somoniylar qasrining bir qismi bo'lgan keyinchalik maqbaraga aylantirilgan.

Umuman, XI–XII asrlarga oid maqbaralar O'rta Osiyo hududida ko'p saqlanib qolgan. Ularning qurilish uslublari bir–biriga yaqin. Maqbaralar orasida chodirsimon gumbaz bilan yopilganlari alohida ajralib turadi. Bu turdagi gumbazlar Pokiston,

Xindiston va boshqa mamlakatlarda “gumbazi turkistoni” deb nomlanadi. Gumbazi turkistoni bilan yopilgan maqbaralar turkumiga Qadimgi Toroz (hozirgi Jambul) yaqinidagi Bobaji Xotun, Koʻhna Urganchdagi Faxriddin Roziy va Sulton Tekesh maqbaralarini misol qilish mumkin.

IX–XII asrlarda masjidlar qurilishiga ham alohida eʼtibor berganlar, chunki u islom dinining asosiy gʻoyaviy markazi hisoblangan. Ular xuddi turar joylardek, hovli atrofini oʻrab olgan ayvon koʻrinishiga ega boʻlgan. Eʼtirof etishlaricha, Muhammad paygʻambar, dastlab ibodatgoh sifatida onasining uyidan foydalangan ekan. Masjidlarning bir tomonida mehrob boʻlib, ular ham alohida bezatilgan. Shuningdek, masjidlar yonida azon aytish uchun minoralar bunyod qilingan. Lekin ularning koʻpchilik qismi saqlanib qolmagan. Koʻhna Urganch, Termiz, Buxoro, Vobkent va Jarqoʻndagi minoralar bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Jarqoʻndagi minora Seraxlik usto Ali ibn Muhammad tomonidan qurilgan. Uning balandligi 21,6 m va ostki diametri 6,4 m ga teng. Devorlari yarim aylanasimon boʻrtmalar tarzida olinib, ularning yuqori qismida ravoqchalar bilan tutashtirilgan. Buxorodagi Minorai Kalon 1127 yili qaroxoniy Arslonxon buyutmasi asosida qurilgan. Uning balandligi 45,60 m boʻlib, 10 burchakli poydevor ustiga qurilgan, diametri 9 metrga yaqin. Uni usta meʼmor Baqo bunyod qilgan. Bu minora pishiq gʻishtdan bunyod qilingan boʻlib, uning ustki qismiga oʻyma naqsh bilan nihoyatda goʻzal, takrorlanmas bezaklar berilgan.

Vobkent minorasini Baqo ustoning shogirdi qurgan deb hisoblanadi. Uning balandligi 38,7m, 12 burchakli poydevor ustiga qurilgan, diametri 6,2 m. U ham pishiq gʻishtdan naqshinkor qilib bezatilgan.

Bu davrga oid madrasalar bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Faqat Shohi Zinda kompleksidagi Tamgʻach Bugʻraxon madrasasining qoldiqlari saqlanib qolgan. Tarixiy manbalarda uning 1066 yilda qurilganligi aytib oʻtilgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida uning tomonlari 44x55 m boʻlganligi aniqlangan. Kirish tomoni sharqqa qaratilgan boʻlib, uncha katta boʻlmagan peshtoq boʻlgan. Uning oʻng va chap tomonlarida 2ta gumbazli darsxona boʻlgan. Hovli atrofida 10 ga yaqin hujralar, masjid va yozgi darsxonasi boʻlgan.



Bu davrga oid karvon saroylarning ham ko'pchiligi yaxshi saqlanmagan. Lekin nomlari xalq orasida saqlanib qolgan. Jumladan, Toshrobot, Qo'shrobot, Oqrobot, Doya xotin va boshqalar. Odatda karvon saroylar rabotda joylashgan. Doya xotin va Raboti Malik kavon saroylarining ma'lum darajada saqlanib qolgan.

Ular orqali biz o'sha davrlarda karvon saroylar kanday tarzda bo'lganligi to'g'risida xulosa chiqara olamiz. Raboti Malik karon saroyi 1078–1079 yillarda Qoraxoniylar Shams ul–Mulk tomonidan qurilgan deb hisoblanadi. Bu bino xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, pishiq g'isht bilan pardozlangan. Devorlarining balandligi 12 m bo'lgan. Bugungi kunda uning peshtoqi saqlanib qolgan. Binoning old tomonining ikki burchagida minoralar bo'lgan. Minoralardan peshtoqqacha bo'lgan joylarda kungurador–yarim ustunlar joylashtirilgan. Uning usti ravoq toqlar bilan birlashtirilgan. Bino ikki qismdan iborat bo'lgan. Peshtoqdan ko'ngdalang joylashgan hovliga chiqilgan, uning to'rtala tomonida hovlilar bo'lgan. Hovlining to'rtida katta gumbazli saroy va xonalar bo'lgan. Bir paytlar Raboti Malik karvon saroyi katta kompleksdan iborat bo'lgan. Uning qarama –qarshi tomonida sardoba bo'lib, u ham hozirgi kungacha saqlanib turibdi.

**Sardobalar** bu davr uchun muhim me'moriy obidalardan biri bo'lgan. U shaharlar oralig'ida joylashgan karvon saroylar – rabotlar yaqinida qurilgan. Ko'pincha sardoba shu yerdagi yagona suv manbai bo'lgan. Bu inshootlar suv yig'gich bo'lib, unga qor, yomg'ir ba'zan quduq suvlari maxsus inshootlar orqali to'planib yo'lovchilar uchun uzoq muddatga saqlashga mo'ljallangan. Ular gumbazli aylanasimon hovuzlar tarzida qurilgan. U yerdan suv sizib ketmasligi uchun g'ishtlar maxsus qorishma – qir bilan terilgan va pardozlangan. **Qir** – ohaq, qamish kuli va qipig'idan tayyorlangan maxsus suv o'tkazmaydigan qorishma. Sardobalarning ko'pchilik qismi bizning davrimizgacha saqlanib qolgan.

#### **4. Amir Temur va Temuriylar davri me'morchiligi**

Movarounnahr shaharlari hayotidagi iqtisodiy va siyosiy tangliklar qoraxoniylar davlatida yuz bergan siyosiy tarqoqliklar bilan bog'liq bo'lgan. Mo'g'ullar istilosi Movarounnahr shaharlari hayotida yomon iz qoldirdi.

Ko'pchilik shaharlarning maydoni qishloqlar darajasiga tushib qoldi, ba'zilari mutlaqo xuvillab qoldi. Movarounnahr tarixida XIII asrning 20-yillaridan **inqiroz davri** boshlandi. XIV asrning 20-30 yillarida ham mo'g'ullar tomonidan amalga oshirilgan vayronagarchilik hali tugatilmagan, hunarmandchilik, dehqonchilik va savdo-sotiq o'zining XIII asr boshlaridagi darajasiga ko'tarila olmagandi. Faqat tarix sahnasiga Amir Temur ko'tarilgach, XIV asrning 70-yillaridan Movarounnahrning iqtisodiy va siyosiy, hamda madaniy hayotida jadal rivojlanish boshlandi. Temur istilolari bilan bog'liq holda Movarounnahr shahar hayotida, markazlashgan davlat sharoitida iqtisodiy xo'jalikning barcha tarmoqlarida, madaniy hayotning barcha jabhalarida gullash davri boshlandi. Yangidan-yangi shaharlar qad ko'tardi, ichki va tashqi savdo, bozor munosabatlari izga tushdi. Madaniy hayotda somoniylar, qoraxoniylar, va xorazmshohlar davridagidek buyuk o'zgarishlar yuz berdi. Natijada umum bashariyat sivilizatsiyasi yuksak cho'qqilarga ko'tarildi.

Rivojlangan o'rta asrning **ikkinchi taraqqiyot bosqichi** temuriylar davri bilan bog'liq. Amir Temur o'z davlatining poytaxti qilib **Samarqand** shahrini tanlagach, u yerda obodonlashtirish va qurilish ishlarini boshlab yubordi. 1371–1373 yillarda hozir ma'muriy binolar joylashgan tepalik (Tepa qo'rg'on)da o'z arkini qurdiradi. Temur davrida, ark –“**shahri darun**”, shaharning devor bilan o'ralgan qolgan qismi esa “**hisor**” deb ataldigan. Samarqand shahri mustahkam va baland mudofaa devori bilan o'rab olingan. Mirzo Boburning ma'lumotiga ko'ra, uning ustida otliq bemalol yura olgan. Mudofaa devorning tashqi aylana qismi keng bo'lib, chuqur handaq bilan mustahkamlangan.

Ark hududi 34 gadan ortiq bo'lgan. Ark devorining balandligi 8 metr, pastdan eni 3 metrdan ortiqroq qilib tiklangan. Shahar arkida 2 ta darvoza bo'lgan. Ark va undagi binolari pishiq g'isht va xom g'ishtdan qurilib, bezashda marmar tosh, ganch, yog'och hamda turli xil sirlangan koshinlardan keng foydalanilgan.

Arkda hukumat idoralari, masjid va madrasalar, shohona uy-joylar, 15 ming jildli noyob kitoblarni o'zida jamlagan ulkan kutubxona, Amir Temurning xazinasi, taxti, zarbxona, aslahasozlik ustaxonalari, hammom, hovuz, zindon va boshqa binolar

joylashgan. Shuningdek, unda madaniy-maishiy binolar, suv inshootlari, yashil zona, gulzorlar, hunarmandchilik ustaxonalari, do'konlar va savdo rastalari tartib bilan joylashtirilgan. Ark ichida davlatning asosiy qarorgohi bo'lgan Ko'ksaroy hamda Bo'stonsaroy joylashgan.

**Ko'ksaroy** tuzilishi jihatidan to'rt qavatli bo'lib, go'zal naqshlari betakror bo'lgan. Ushbu saroyning bezaklarida ko'k zangori rangdagi sirkor koshinlar ko'p ishlatilganligi sababli Ko'ksaroy deb ataganlar. Unda saltanatning muhim tadbirlari o'tkazilgan. Jumladan, xonni taxtga o'tqazish yoki uni taxtdan olish kabi marosimlar, elchilar, shahzodalarni, oliy maqomdagi mehmonlarni shu saroyda qabul qilganlar.

**Bo'stonsaroyda** asosan hukmdorlarning yaqin kishilari, vazirlar, ularning oila a'zolari yashaganlar. Shuningdek, bu yerda turli tadbirlar – bazm va to'y-tomoshalar, oliy martabali kishilarning tantanali uchrashuvlari o'tkazilgan. Elchi va mehmonlar shu yerda qabul qilingan.

Samarqand shahri darvozalari 6 ta bo'lgan. Ulardagi peshtoqlarning ikki tarafida mustahkam minoralar bo'lgan, devorlari esa turli ranglardagi naqshlar bilan bezatilgan.

Rabotda turli-tuman kasbdagi hunarmandlarning mahallalari bo'lgan. Shahar tashqarisida Temur Bog'i Naqshi Jahon (Cho'pon–Ota yonbag'irlarida), Bog'i Baland(hozir shu nomli mahalla o'rnida), Bog'i Shamol (hozir shu nomli daha o'rnida), Bog'i Behisht, Bog'i Nav (qal'a yonida), Bog'i Chinor, Bog'i Dilkusho, Bog'i Bo'ldu, Bog'i Zag'on, Bog'i amirzodai Shohruh, Bog'i Davlatobod, Bog'i Jahonnoma kabi bog' va charbog'larni bunyod qildirgan.

Shahar XVIII asrning 20 yillarida shahar inqirozga uchrab, uzoq vaqt bo'shab qoldi. Shahardagi me'moriy yodgorliklar, jumladan, darvozalar ham harobaga aylangan.

Samarqandni arxeologik jihatdan o'rganish ishlari XIX-asrning oxirlarida boshlangan. 1895 yilda sharqshunos olim V.V.Bartoldning tashabbusi bilan tuzilgan "Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi" a'zolari Samarqanddagi Afrosiyobni ko'p asrlar xazinasini deb qarab, unda keng ko'lamdagi arxeologik qazilma ishlarini olib bordilar. V.L.Vyatkin, N.I.Veselovskiyalar o'tkazgan arxeologik qazilmalar

natijasida turli holdagi qadimiy buyumlar topilib, muzeyga berildi. 1908 yilda V.L.Vyatkin Samarqand chekkasida joylashgan **Ulugʻbek rasadxonasining** oʻrnini aniqladi va qazish ishlarini oʻtkazdi. Natijada rasadxona harobasi hamda uning yer ostidagi butun qolgan qismi qazib ochildi.

Keyingi davrlarda ham Samarqand hududida arxeologik tadqiqot ishlari keng koʻlamda davom etdi. 2001 yilda YuNESKOning Finlyandiyada oʻtkazilgan 25-sessiyasida Jahon merosi roʻyxatiga kiritildi. Samarqandda 73 ta yirik tarixiy-meʼmoriy yodgorliklar mavjud boʻlib, bulardan: Registon ansambli, Shohi Zinda ansambli, Amir Temur maqbarasi, Ulugʻbek rasadxonasi, Bibixonim jome masjidi, Ruhobod maqbarasi, Abdidarun majmuasi, Hoja Ahror masjidi, Hazrati Xizr masjidi va boshqalar. Amir Temur davrida qurilgan bino va chorbogʻlarning koʻpgina qismi bizning davrimizgacha saqlanmagan. Saqlanib qolganlari ham oʻsha davr meʼmorchiligining yuksakligini koʻrsatib turibdi. Bular jumlasiga, Shohi Zinda yodgorligi, Bibi Xonim masjidi, maqbarasi va madrasa qoldiqlari, Ruhobod (Shayh Burxoniddin Sagʻorjiy maqbarasi), Goʻri Amir ansamblining asosiy qismi, Shahrisabzdagi Oqsaroy, Jahongir maqbarasi, Shamsiddin kulol maqbarasi, Turkistondagi Xoʻja Ahmad Yassaviy xonaqohlarini kiritish mumkin.

Temuriylar davri shaharsozligini oʻrganish shuni koʻrsatdiki, ular koʻp asrlik meʼmoriy anʼanalarni davom ettirganlar. Bu davrda ham shaharlar toʻrtburchak shaklda qurilgan boʻlib, mustahkam mudofaa devoriga, burj va darvozalarga ega boʻlgan. Har bir shaharda ark va hisor boʻlgan. Uning markaziy qismida, yaʼni koʻchalar kesishgan joyda yopiq savdo gumbazlari boʻlgan. Juma masjidlari shahar bozoriga yaqin joylashtirilgan.

Madrasalarning oldida ham keng maydon tashkil qilingan. Hunarmandlarning oʻz sohalari boʻyicha ixtisoslashi va aholining tabaqalarga boʻlinib yashashi shaharning daha va mahallalarga boʻlinishiga olib kelgan. Bosh koʻchalarda hunarmandchilik va savdo rastalari boʻlgan.

Aholining turar joylari ilk oʻrta asrlardagidan farqli ravishda hovlili, bolaxonali va darvozali qilib qurilgan. Qurilish materiali sifatida xom gʻisht va paxsa ishlatilgan. Pishiqlik gʻisht poydevorlariga va hovlining yuzasiga ishlatilgan. Bu davrlardagi turar



joylarning tuzulishi ko'pincha o'sha davrda yaratilgan mo'jaz tasviriy san'at asarlaridan olingan. Shuning uchun oddiy aholining turar joylari haqida ma'lumotlar yetarli emas.

Temur davrida bunyod etilgan qasrlardan Shahrisabzdagi **Oq saroy** bir muncha saqlanib qolingan. Bu qasr Shahrisabz arki hisoblanadi. Saroyning qurilishi 1380 yilda boshlanib, pardoiz ishlari 1404 bo'lgan. Uning ikkita tayanch qismi bugungi kungacha saqlanib turibdi. Shuning o'zi ham bu qurilgan imoratning salobatli bo'lganligidan darak yilgacha davom ettirilgan. Qasrga kirish qismida ulkan va bejirim peshtoq berib turibdi. Peshtoq ustunlari girih, islmiy va hattotlik naqshlari bezatilgan. O'ng ustunga Temurga bag'ishlangan tarixiy lavha oltin suvi bilan yozilgan.

Temuriylar davri shaharsozligida bozor va savdo inshootlari qurilishlariga ham katta e'tibor berilgan. Bular to'g'risida Ispaniya qiroli Karl IIIning Temur saroyidagi elchisi Rui Gonzales Klavixo asarida, "Boburnoma" kabi o'sha davr qo'lyozma asarlarida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Ularda ochiq bozorlar bilan bir qatorda rasta, chorsu, tim va boshqa usti yopiq savdo inshootlari to'g'risida yozib qoldirilgan.

Temuriylar davrida bunyod etilgan eng noyob inshootlardan biri Ulug'bek rasadxonasidir. U 1424 yilda Obi Rahmat arig'i yonida, osti tog' jinsli toshlardan iborat tepalik ustiga qurilgan. Rasadxona dumaloq shaklda bo'lib, diametri 48 metr bo'lgan. Abdurazzoq Samarqandiy uni yetti qavatli, Bobur esa, uch oshyonali deb yozadi. Arxeolog V.L.Vyatkin tomonidan rasadxonaning poydevori va asosiy asbobi—Faxriy **sektanti** joylashtirilgan chohi qazib o'rganilgan. Bu choh aylananing oltidan bir qismi yerga o'yib yasalgan. Uning ikki hoshiyasi marmar bilan pardozlanib gradus, minut,sekundlar tushirilgan. Bino pishiq g'ishtdan ishlangan.

Temur davrida bunyod etilgan madrasalarning ma'lum bir qismigana saqlanib qolgan, ular to'g'risida tadqiqotchilar o'rtasida turli xil fikrlar mavjud. Ulug'bek davrida bunyod etilgan madrasalar yaxshi saqlanib qolgan. Samarqandda 1417–1420 yillarda qurilgan madrasa boshqa madrasalardan qurilishi va bezalishi jihatdan alohida ajralib turadi. Bu madrasaning tomonlari 81x56 metrni tashkil etgan. To'rt

burchagida minora bo'lgan. Binoning old tomonida peshtoq qurilgan. Hovli atrofida 28 ta hujra ikki qavatli tarzda joylashgan va hujralarning har biri ikki bo'limli bo'lgan. Madrasa hovlisida 4ta ravoqli ayvon bor. Uning 3tasi yozgi darsxona vazifasini o'tagan. Bosh peshtoq tomonida joylashganlari esa, qishki darsxona vazifasini o'tagan. Hovli to'rida masjid joylashgan. Binoning tashqari qismi girih va hattotiy naqshlar bilan koshinlangan. Peshtoq 10 yulduzli girih, bosh ravoq cheti morpechdan iborat. Hovli ichidagi ayvonlar, hujra peshtoqlari girih, islamiy va hattotiy naqshlar bilan bezatilgan.

Ulug'bek tomonidan 1417 yilda Buxoroda qurilgan madrasaning kompozitsion yechimi birmuncha oddiyoqdır. Unda bir qishki va ikkita yozgi darsxona mavjud. Hujralar ikki qavat qilib qurilgan bo'lsa ham, bosh petoq tomonidagi hujralar ko'cha tomonga qaratilgan. Binoning to'rt burchagida minora emas, guldastalar o'rnatilgan. Shu madrasaning darvozasida **“Ilm olmoq har bir musulmon va muslimaning burchidir”** degan yozuv saqlanib qolgan. 1433 yilda Ulug'bek tomonidan G'ijduvonda bunyod etilgan madrasa bir qavatlidir. Uning hovlisi to'rida yozgi darsxona, o'ng tomonida masjid, chap tomonida maktab–darsxona joylashgan. Yozgi darsxonaning ikki yon tomonida esa, 8 ta hujra joylashgan. Madrasaning to'rtburchagi guldastalar bilan yakunlangan.

**Xonakohlar** asosan darveshlarning toat-ibodati uchun mo'ljallanib qurilgan. U gumbazli katta xonadon va uning atrofida turli ko'rinishda xona va xujralardan iborat bo'lgan.

O'rta asrlar me'morchiligida jom'e masjidlari qurilishiga alohida ahamiyat berilgan. Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent va boshqa shaharlarda ular o'ta pishiq va ulug'vor tarzda bunyod etilgan. Jumladan, **Bibixonim masjidi** o'zining salobatini bugungi kunda ham namoyon qilib turibdi.

Sharofiddin Ali Yazdiy ma'lumotiga ko'ra, Bibixonim masjidining qurilishida Hindistondan kelgan tosh tarashlar ishlagan. Tosh ustunlarni tashish uchun fillar ham olib keltirilganligini yozib qoldirgan. Shuningdek, 380 tosh ustuni yo'nilganligini va masjid asosiy binosining balandigi 90 gaz (1 gaz=60,8 smga teng) bo'lgan deb ko'rsatadi. Demak binoning balandligi 55 metrga teng.

Bibixonim masjidining tashqi tomonlardagi burchaklaridan hisoblaganda 130x99 m. Hovlisi esa, 78x64. Masjidning to'rt burchagida to'rtta minora o'rnatilgan. Hozirgi kunda bittasi saqlanib qolgan. Bosh peshtoq ancha oldinga chiqarilib, kichrayib boruvchi uchta toq tarzida ishlangan. Peshtoqning ikki tashqi chetida dumaloq minora burj shaklida ishlangan. Hovli to'rida **maqsuma** joylashgan bo'lib, uning ham peshtoqi mahobatli ishlangan. Masjidning xonaqoh va maqsuralari tomi ikki qavatli gumbaz qilib ishlangan. Gumbazning ichki tomoni lojuvard, tilla va boshqa ranglar bilan ishlangan islimiy naqshlar izlari saqlanib qolgan. Tashqi bezaklari ham girih, hattotiy va ozroq islimiy naqshlar bilan bezalgan.

1434–36 yillarda Shahrisabzda o'ziga xos me'moriy tarzda Ulug'bek tomonidan qurilgan Ko'k gumbaz juma masjidi ham diqqatga sazovordir. Uni Ulug'bek otasi – Shohruh Mirzo sharafiga qurdirgan.

Temuriylar **maqbaralar** qurilishiga alohida e'tibor berganlar. Ular marhumlarning ruhlari, agar ularga to'g'ri munosabat qilinsa, doimo sulolaga homiylik qilib, qo'llab quvvatlab turadi deb hisoblashgan. Amir Temur ham hokimiyatni qo'lga olgach, Kesh shahrini davlatning ikkinchi poytaxti sanab, u yerda oilaviy xilxona bunyod qildirgan. U "Dorus–saodat" deb nomlanib, qurilishi 20 yil davom etgan. Dorus–saodatda madrasa ham bunyod etilgan. Klavixoning yozib qoldirilishicha, XY asrning boshlarida, bu yerda Amir Temur maqbarasi ham qurilgan. Bugungi kunda majmuadan faqat Hazrati Imom maqbarasigina qolgan. Arxeologik qidiruvlar jarayonida oq marmardan ko'rkam sag'ana va tosh tobut topildi. Qazuvlar natijasida Hazrati Imom maqbarasiga simmetrik tarzda qurilgan ikkinchi inshoot bo'lganligi ham aniqlangan. Ushbu inshootlar hashamatli peshtoqning katta gulustuni ustiga qurilgan bo'lib, uning markaziy qismida sag'anali xon maqbarasi joylashgan. Lekin Amir Temurni uning nabirasi Halil Sulton bobosining qabriga xomiylik qilish unga vorislik uchun qo'shimcha asos bo'lib xizmat etadi deb hisoblab, Sohibqiron jasadini Keshga jo'natmasdan, Samarqandga dafn ettiradi.

Shohi Zinda qabristoniga 1372 yilda bevaqt vafot etgan Shodimulk xonim qo'yilgach, bu yer xonning e'tiborida bo'ladi. Keyinchalik bu yerga Qutlug' Turkon

ogʻo, Shirinbekalar dafn qilinib, maqbaralari bunyod qilinadi. Amir Temurning nabirasi, valiyaxdi deb eʼlon qilingan. Muhammad Sulton 1403 yilda toʻsatdan vafot etgach, buyuk saltanat ramzi sifatida Samarqandga dafn etishga qaror beradi. Sohibqiron nabirasi qabri ustiga yangi maqbara qurdiradi. Uning nomi bilan atalgan madrasa va xonakoh janubida marhum xonzoda uchun sagʻana barpo qilinadi.

Sohibqiron tirikligidayoq sagʻana ustiga mahobatli, toʻq niliy rangli qabirgʻa gumbazli maqbara barpo etilgan edi. Bugungi kunda u Goʻri Amir nomi bilan mashhur.

Amir Temur vafot etganda temuriylar uni Muhammad Sulton yoniga dafn etadilar. Bu bilan nabira va uning bobosining tengligi eʼtirof etildi, shuningdek bu ularga ehtiromi ramzi ham edi.

Temuriylar davrida qurilgan maqbaralar shakllanish kompozitsiyasi jihatdan ikkiga boʻlinadi: Bir xonali va koʻp xonali binolar. Bir xonali maqbalarning ikki turi boʻlib, ularning biri chortoq koʻrinishidagi bino boʻlib, ularning toʻrt tarafi ham bir xilda quriladi. (Ruxobod maqbarasi), ikkinchisi esa, gumbazli–peshtoqli binolar boʻlib, ularning kirish qismi mahobatli peshtoq quriladi (Sulton Saodat, Shamsiddin Kulol va bq.maqbaralar). Ularning goʻrxonalari koʻpincha yer ostida boʻladi. Koʻp xonali maqbaralar ham turli murakkab koʻrinishlarda boʻlib, ularda qozonxona, goʻrxona, masjid, kitobxona, quduqxona va turli xonalardan iborat boʻlgan (Shohi Zinda, Axmad Yassaviy va bq.maqbaralar).

### **Yodda tuting!**

- Ilk oʻrta asrlarda yerga egalik munosabatlari shakllangan.
- Yer egalari – dehqonlar koʻshklarda yashagan.
- VI asrda Mingoʻrik Toshkent poytaxti boʻlgan.
- Koroplastika sopoldan ishlangan haykalchalardir.
- Xorazmda meʼmoriy va statuar ostodonlar tarqalgan
- Chochda chizma naqshli yashiksimon ostodonlar tarqalgan
- Soʻgʻda otashparastlik eʼtiqodi bilan bogʻliq boʻlgan syujetli ostodonlar tarqalgan
- Rossiyaning qadimgi aholisi slavyanlar boʻlgan.



- Mil.IX asrgacha Rossiyada ibtidoiy jamoa tuzumi hukmron boʻlgan.
- Rossiya hududida shaharlar VII-IX asrlardan paydo boʻla boshlagan.
- Gnyozdovodan slavyan yozusi topilgan.
- Rus qabillarining chegaralari ayollarning chakka halqalari asosida aniqlangan.
- Moskva 1147 yilda dastlab tilga olingan.
- Kremlni dastlab Yuriy Dolgorukiy yogʻochdan qurdirgan.
- XV asr oxirlarida hozirgi Kreml bunyod etilgan.
- Monomax telpagi Oʻrta Osiyoda tikilgan.
- X asrdan pishiq gʻisht qurilishda ishlatila boshlangan.
- Pishiq gʻishtdan ishlangan dastlabki imorat Ismoil Somoniy maqbarasidir.
- XII asrdan sirlangan koshin va mayolika ishlatish usuli kashf etilgan.
- Arab ota maqbarasida ilk marta peshoq qurilgan.
- Sardobalar suv yigʻadigan inshootdir.

## Mavzuni mustahkamlovchi savollar

1. Bolaliktepa yodgorilidagi devoriy suratlarda nimalar tasvirlangan?
2. Monumetal tasviriy san'at deganda nimani tushunasiz?
3. Ilk o'rta asrlarda haykaltaroshlikning taraqqiy etishini misollar bilan tushuntiring?
4. Ko'shklar nima?
5. Ilk o'rta asrlarda Xorazmda shahar madaniyatining o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib bering?
6. Koroplatika nima?
7. Olonlar qaerlarda yashaganlar?
8. Kuydirilgan qabrlar kimlarga tegishli edi?
9. Kiev shahri qachon va qanday qurilgan?
10. Rus me'morchiligining o'ziga xos tomonlarini aniqlang?
11. Moskva shahridagi xozirgi Kreml qanday bunyod etilgan?
12. Rivojlangan o'rta asrlar qanday bosqichlarga bo'lingan?
13. Qanday yangi tur binolar vujudga kelgan?
14. Sardoba nima?
15. Temuriylar davri shaharsozligining o'ziga xos tomonlarini ko'rsating?

## Test savollari.

1. Kertma texnika uslubi qaysi davrda

ixtiro qilingan?

- A) Paleolit
- B) Mezolit
- C) Neolit
- D) Eneolit

2. Nukleus asosan qaysi toshdan

ishlangan?

- A) Chaqmoqtosh
- B) Qayroqtosh

C) Qizil yashma tosh

D) Ohaktosh

3. Qovunchi madaniyati aholisining sopol idishlari qaysi jihati bilan farq qilgan?

- A) Sopol idishlarning dastasi qo'y boshli qilib ishlangani bilan
- B) Sopol idishlarning naqshsiz ishlangani bilan

- C) Sopol idishlarning charxda nafis qilib ishlangani bilan
- D) Sopol idishlarning turi kamligi bilan
- 4.Sopollitepa madaniyati sopol idishlarining farqli tomonini aniqlang.
- A) naqshsiz ishlangani
- B) Murakkab geometrik naqsh berilgani
- C) Qizil rangli naqsh berilgani
- D) Charxsiz qo`lda ishlangani
- 5.Arxeologik topilmalarning absolyut yoshini aniqlashda qaysi fanlarning yutuqlaridan foydalaniladi?
- A) Tabiiy fanlar
- B) Ijtimoiy fanlar
- C) Iqtisodiy fanlar
- D) Siyosiy fanlar
- 6.Frenk Libbi topilmalarning yoshini aniqlashda qaysi metodni kashf qilgan?
- A) Radiouglerod
- B) Kaliy-argon
- C) Dendroxronologiya
- D) Aminakislod
- 7.S.P.Tolstov qaysi qal`ani “devorlari ichida odam yashaydigan qal`a” sifatida ta`riflagan?
- A) Ko`zaliqir
- B) Qal`aliqir

- C) Oybuyiqal`a
- D) Xumbuztepa
- 8.Qaysi yodgorlikdan xum sirtiga yozilgan eng qadimiy xorazm yozuvi topilgan?
- A) Oybuyiqal`a
- B) Ko`zaliqir
- C) Qal`aliqir
- D) Xumbuztepa
- 9.Qaysi olim qadimgi Xorazm yozuvini o`qigan?
- A) V.A.Livshich
- B) S.P.Tolstov
- C) B.A.Andrianov
- D) M.G.Vorob`eva
- 10.Oybuyiqal`adan topilgan yozuvda nima ifodalangan?
- A) Xum sig`imi
- B) Kulol ismi
- C) Ma`buda nomi
- D) Davlat nomi
- 11.Qadimgi Xorazmda Axamoniylar rezidentsiyasi sifatida qurilayotgan qal`a nomini toping?
- A) Qal`aliqir
- B) Oybuyiqal`a
- C) Ko`zaliqir
- D) Xumbuztepa

12. Odam yuzli kapitell qaysi

yodgorlikdan topilgan?

- A) Qal'aliqir
- B) Oybuyiqal'a
- C) Ko'zaliqir
- D) Xumbuztepa

13. Qadimgi Xorazmdagi qaysi qal'a

aylana shaklda qurilgan?

- A) Qo'yqirilganqal'a
- B) Oybuyiqal'a
- C) Ko'zaliqir
- D) Xumbuztepa

14. Qadimgi Xorazmdagi qaysi qal'a

rasadxona vazifasini bajargan?

- A) Qo'yqirilganqal'a
- B) Oybuyiqal'a
- C) Ko'zaliqir
- D) Xumbuztepa

15. Qadimgi Xorazmdagi qaysi

qal'adan teri va yogochga yozilgan 140

ta hujjatlar topilgan?

- A) Tuproqqal'a
- B) Qo'yqirilganqal'a
- C) Ko'zaliqir
- D) Xumbuztepa

16. O'rta asrda qaysi yodgorlik arab

yilmolarida "Fraganik" degan nom

bilan atalgan?

- A) Axsikent

B) Koson

C) Mingtepa

D) Yerqo'rg'on

17. "Amudaryo xazinasi" qadimda

qaysi shaharda joylashganligini

aniqlangan?

A) Taxti-Kuvad shahri

B) Taxti Sangin

C) Xo'jand shahri

D) Qanqa shahri

18. Qovunchi madaniyati

rivojlanishining markazi bolgan

hududni aniqlang?

A) Toshkent

B) Farg'ona

C) Namangan

D) Sirdaryo

19. Qovunchi madaniyati aholisidan

qanday yodgorliklar saqlanib qolgan?

A) Mozor-qo'rg'onlar

B) Yerto'lalar

C) Ustaxonalar

D) Qishloqlar

20. Qanqa yodgorligi Toshkent

viloyatining qaysi rayonida

joylashgan?

A) Oqqo'rg'on

B) Angren

C) Yangiyo'l



- D) Zangiota
21. Xitoy yozma manbalarida “Bityan” deb qaysi yodgorlikka nisbatan aytilganligi aniqlangan?
- A) Qanqa
  - B) Dalvarzintepa
  - C) Shoshtepa
  - D) Oqtepa
22. Buddizm diniga oid yodgorlikni toping?
- A) Fayoztepa
  - B) Qiziltepa
  - C) Balx
  - D) Talashkantepa
23. 115 ta oltin buyumlardan tashkil topgan xazina topilgan yodgorlik qaysi?
- A) Dalvarzintepa
  - B) Sopollitepa
  - C) Qiziltepa
  - D) Yerqo`rg`on
24. Budda diniga oid inshootni aniqlang.
- A) Stupa
  - B) Minora
  - C) Mudofaa devor
  - D) Ark
25. Surxondaryo viloyati Muzrabod tumanida joylashgan yodgorlikni aniqlang.
- A) Kampirtepa
  - B) Zartepa
  - C) Dalvarzintepa
  - D) Talashkantepa
26. Kampirtepa yodgorligida 1972 yildan beri tadqiqot olib borayotgan olimni aniqlang.
- A) E.V. Rtveladze
  - B) A.S. Sagdullaev
  - C) A. Asqarov
  - D) Sh. Pidaev
27. “Fruirion” nima?
- A) Mudofaa punkti
  - B) Shahar arki
  - C) Mudofaa devori
  - D) Hunarmandchilik markazi
28. Ilk o`rta asrlarda yirik yer egalari – dehqonlar qayerda isteqomat qilganlar?
- A) Ko`shkda
  - B) Shaharda
  - C) Qishloqda
  - D) Shahristonda
29. Zandanachi ipak mahsulotlarining namunalari qaysi yodgorlikda saqanib qolgan?
- A) Afrosiyob devoriy suratlarida

- B) Qabrlarda  
C) Qal'alarda  
D) Yozma manbada
30. Ilk o'rta asrlarda binolar asosan nima bilan bezatilgan?  
A) Devoriy suratlar bilan  
B) Halkaltaroshlik namunalari bilan  
C) Ustunlar bilan  
D) Girih naqshlar bilan
31. Bolaliktepa devoriy suratlarida nima tasvirlangan?  
A) Qora fonida bazm tasvirlangan  
B) Samarqand ixshidi  
Varxumanning taxtga kelish marosimi  
C) Qizil fonda bo'lib, ov marosimi  
D) Shohlarning portretlari
32. Afrosiyob devoriy suratlarida nima tasvirlangan?  
A) Samarqand ixshidi  
Varxumanning taxtga kelish marosimi  
B) Qora fonda bazm tasvirlangan  
C) Qizil fonda bo'lib, ov marosimi  
D) Shohlarning portretlari
33. Varaxsha devoriy suratlarida nima tasvirlangan?  
A) Qizil fonda bo'lib, ov marosimi  
B) Qora fonida bazm tasvirlangan  
C) Samarqand ixshidi  
Varxumanning taxtga kelish marosimi  
D) Shohlarning portretlari
34. Ko'k fon ostida qaysi yodgorlikning devoriy surati tasvirlangan?  
A) Afrosiyob  
B) Bolaliktepa  
C) Varaxsha  
D) Tuproqqal'a
35. Oliy nasabli mulk egalaringing shaxsiy muhri nomini toping  
A) Gemma  
B) Koroplastika  
C) Terrakota  
D) Serdolik
36. Sopoldan ishlangan zardushtiylik diniga oid ma'budalar haykalchasining nomini toping.  
A) Koroplastika  
B) Gemma  
C) Haykalcha  
D) Serdolik
37. Koroplastikada asosan kimlar tasvirlangan?  
A) Ayol ma'budalar  
B) Erkak ma'budalar  
C) Hayvonlar  
D) Turli o'yinchoqlar

38. Memoriy va statuar ostodonlar

qaerda ishlangan?

- A) Xorazmda
- B) Sug'dda
- C) Toshkentda
- D) Farg'onada

39. Chizma naqshli yashiksimon

ostodonlar qaerda ishlangan?

- A) Chochda
- B) Xorazmda
- C) Sug'dda
- D) Farg'onada

40. Otashparastlik ilohiyati etiqodi bilan

bog'liq bolgan syujetli ostodonlar

qayerda ishlangan?

- A) Sug'dda
- B) Chochda
- C) Xorazmda
- D) Farg'onada

41. "Naus" – bu ....

- A) Ostodonlar saqlanadigan maxsus inshoot
- B) Ibodatxona
- C) E'tiqod qilinadigan joy
- D) Xumdon

42. Uyg'onish davrining Ikkinchi

taraqqiyot bosqichi qaysi sulola

hkmronligi bilan bog'liq?

- A) Temuriylar

B) Shayboniylar

C) Somoniylar

D) Qoraxoniylar

43. IX–X asrlarda xom gisht va

paxsadan bunyod qilingan va bugungi

kungacha saqlanib qolgan qal'ani

aniqlang

- A) Qirqqiz
- B) Afrosiyob
- C) Eski Termiz
- D) Oyxonum

44. Yunon me'morchiligi uslubida

qurilgan qal'ani aniqlang?

- A) Oyxonum
- B) Qirqqiz
- C) Afrosiyob
- D) Eski Termiz

45. Ismoil Somoniy maqbarasi qaerda

joylashgan?

- A) Buxoroda
- B) Samarqandda
- C) Toshkentda
- D) Sirdaryoda

46. Arab–ota maqbarasi qaerda

joylashgan?

- A) Samarqandda
- B) Buxoroda
- C) Toshkentda
- D) Sirdaryoda

47. Peshtoq nima?

- A) Binoga kirish qismi
- B) Binoning yon tomoni
- C) Binoning ichki bezagi
- D) Binoning orqa tomoni

48. "Gumbazi Turkistoni" deb qanday binoga aytilgan?

- A) Chodirsimon gumbazli maqbara
- B) Peshtoqli madrasa
- C) Raroqlar bilan bezatilgan maqbara
- D) Uzun minoralar

49. Minorai Kalon qaerda bunyod etilgan?

- A) Buxoroda
- B) Samarqandda
- C) Toshkentda
- D) Surxondaryoda

50. Raboti Malik kavon saroyining qaysi qismi saqlanib qolgan?

- A) Peshtoq qismi
- B) Omboxonasi
- C) Devorlari
- D) Sardobasi

51. Sardoba qanday inshoot?

- A) Suv saqlanadigan inshoot
- B) Ozon aytish uchun qurilgan inshoot
- C) Talabalar o'qiydigan joy

D) Omborxonasi

52. Ohaq, qamish kuli va qipigidan tayyorlangan maxsus suv otkazmaydigan qorishma nomini toping?

- A) Qir
- B) Sement
- C) Koropastika
- D) Naus

53. "Shahri darun" shaharning qaysi qismi bo'lgan?

- A) Ark
- B) Shahriston
- C) Rabot
- D) Qishloq

54. Amir Temir davrida qurilgan saroy nomini toping.

- A) Koksaroy
- B) Oqsaroy
- C) Ko'shk
- D) Registon

55. Amir Temir davrida xonni taxtga otkazish marosimi qaysi saroyda o'tkazilgan?

- A) Koksaroy
- B) Oqsaroy
- C) Bo'stonsaroy
- D) Registon



56. Amir Temir davrida hukmdorlarning yaqin kishilari, vazirlar, ularning oila azolari aqaysi saroyda yashaganlar?

- A) Bo'stonsaroy
- B) Koksaroy
- C) Oqsaroy
- D) Registon

57. Ulugbek rasadxonasining qaysi qismi saqlanib qolgan?

- A) Sektanti
- B) Birinchi qavati
- C) Tom qismi
- D) Saqlanib qolmagan

58. Kramonyom odami yashagan davrga oid ma'lumotlarni ketma-ketlikda toping?

1. ilk diniy tassavurlar paydo bo'lgan.
  2. qoyatosh rasmlari ishlangan.
  3. juft oilalar vujudga kelgan
  4. haykaltaroshlik san'ati vujudga kelgan.
  5. mehnat qurollarini ishlashda retushlashdan foydalanilgan.
  6. pichoqlar paydo bo'lgan.
- A) 1,2,4,5,6.
  - B) 1,3,4,5

C) 2,4,3,6

D) 1,3,4,6.

59. Bronza davri hususiyatlarini aniqlang?

1. ilk mehnat taqsimoti sodir bo'ldi.
  2. patriarxad davri boshlandi.
  3. doimiy qishloqlar paydo bo'ldi.
  4. kulolchilik charxi ixtiro qilindi.
  5. bir xonali uylar qurildi
  6. gupchakli g'ildirak aravalar paydo bo'ldi.
  7. kulolchilik ixtiro qilindi
- A) 1,2,3,4,6
  - B) 1,2,4,5,6
  - C) 3,5,6,7
  - D) 1,3,4,5,7

60. Andronova madaniyatining bugungi kundagi 4 ta tarmog'ini ketma-ketlikda joylashtiring?

- 1) Sintashta-Petrovka-Arkaim
  - 2) Fyodorovo 3) Alakul 4) Beshkent
- A) 1,3,2,4
  - B) 3,1,2,4
  - C) 2,1,3,4
  - D) 1,2,3,4

## Qisqacha izohli lugʻat

**Angob**—sopol idish sirtiga oxra(rang) yordamida berilgan pardoz

**Antik**— lotin tilida “qadimgi ajoyibot” maʼnosini bildirib, tarixda qadimgi Gresiya madaniyati anʼanalari asosida rivojlangan davr nomi.

**“Arxeologiya”**- “arxayos”-qadimgi, “logos”-fan soʻzlaridan tarkib topgan boʻlib, qadimiyat haqidagi fandır. Arxeologiya tarixda kishilik jamiyatining uzoq oʻtmishi bilan bogʻliq moddiy madaniyat yodgorliklarini oʻrganuvchi fandır.

**Arxeologik yodgorliklar** - uzoq oʻtmishda odamlar faoliyatining xosilasi, ular ibtidoiy makonlar, qishloq va shahar harobalari, qoyatosh rasmlari, istehkomlar, ibodatxonalar, qadimgi sugʻorish inshootlaridan iborat.

**“Artefakt”**— odamlar tomonidan yaratilgan moddiy madaniyat obʼektlari, yaʼni turli mehnat, ov va jangovor qurollar, sopol buyumlar, turli hunarmandchilik va zargarlik buyumlari, tangalar, uy–joy qoldiqlari, qalʼa, qasr va qoʻrgʻonlarning harobalari, qadimiy dalalar, ariq va kanallarning izlari, mozor–qoʻrgʻonlar va boshqalar.

**Arxantropolar** - paleolit davrining urugʻ-jamoachilik bosqichiga qadar yashab oʻtgan odam ajdodlari, yaʼni ularning suyak qoldiqlari.

**Burj**—qalʼa devorlari tashqi burchaklariga ishlangan minorasimon qurilma.

**Gaz**— uzunlik oʻlchovi. Odatda uzatilgan qoʻl uzunligida barmoq uchlaridan to yelkagacha uzunlikda olingan.

**Girih**— arabcha “tugun” soʻzidan olingan. Geometrik shakllardan tuzilgan naqsh.

**Guldasta** – imorat burchaklarini bezash uchun ishlatiladigan minorachasimon qurilma.

**Yorma texnika usuli** – ilk paleolit davrida ixtiro qilingan tosh qurollarni ishlash uslubi. Bunda qurol yasaladigan chaqmoqtoshning bosh tomoni ustalik bilan urib tekis maydoncha hosil qilinadi. Shu maydoncha orqali toshning mayda paraqalari olinib qurolga shakl beriladi.

**Islimiy** – oʻsimliksimon naqsh.

**Kertma texnika** — chaqmoq tosh xom ashyosi parchasigatosh bolg'a (otboynik) yordamida har tomonlama ishlov berish, yengil zarba berish yordamida uchirish usuli.

**Madaniy qatlam** — insonlarning xo'jalik faoliyati izlari saqlanib qolgan tuproq qatlami. Madaniy qatlamlar ma'lum bir joyda odamlarning qancha vaqt yashaganligi bilan bog'liq xolda bitta yoki bir nechta va qalinligi ham bir necha santimetrdan 30—35 metrgacha bo'lishi mumkin.

**Manjaniq** – jangda foydalaniladigan maxsus tosh otadigan qurilma

**Mag'ok**– “yashirincha” degan ma'noni anglatadi, ya'ni binolarning yarmisining yer ostida qurilganligini anglatadi. Buxorodagi Mag'oki Attori va Mag'oki Ko'rpa binolari qisman yer ostida qurilgan.

**Morpech** – o'ralib chiqqan bo'rtma shakl

**Mayolika** –(ital. maiolica, ot Maiolica, Malorka ispan orolining nomidan kelib chiqqan), u keramikaning bir turi bo'lib, sirlangan, pishirilgan va naqshlar bilan bezalgan rangli sopoldir. Mayolika qadimgi sharq davlatlarida keng tarqalgan. U bilan ruslar 11 asrdan, Yevropada esa 14 asrdan tanish bo'lishgan.

**Morenalar** – muzlikning siljishi jarayonida vujudga kelgan muzlik yotqiziqlari bo'lib, uning tarkibi gil, qum qatlamlari, harsang tosh va shag'allar iborat bo'lgan.

**Nous**–zardushtiylik dinida ostodonlar saqlanadigan maxsus bino.

**Nukleus** – tosh o'zagi, u turli texnik usullar asosida tosh paraqalarning olinishi natijasida hosil bo'ladi.Ular disksimon, prizmatik, qalamsimon tuzilishda bo'lgan.

**Palaxmon** – jundan to'qilgan tosh otuvchi qurol.

**Piktografiya**–rasmi yozuv turi

**Petroglif** — urib-o'yib, chizish usuli bilan ishlagan qoya tosh rasmlari.

**Plyuvia davri** – lotincha so'zdan olingan bo'lib “plyuvia”–yomg'ir degan ma'noni beradi. Ashel davri oxirida tropik o'lkalarda boshlangan yomg'irlar davri

**Retush** – mayda tosh qurollarni ishchi qismini yasash uslubi.

**Riton** – diniy va dunyoviy marosimlarda qo'llaniladigan may qadahi

**Sardoba** – maxsus suv yigʻgich inshooti boʻlib, u gumbazli aylanasimon hovuzlar tarzida qurilgan. Oʻnga qor, yomgʻir baʼzan quduq suvlari maxsus inshootlar orqali toʻplanib yoʻlovchilar uchun uzoq muddatga saqlangan.

**Stupa**- sankrit soʻzidan olingan boʻlib, yer yoki tosh uyumi degan maʼnoni beradi. U buddizmning diniy inshooti boʻlib, unda muqaddas buyumlari va qabr toshi saqlangan. Mil. I asrdan uning yarim aylana shakldagilari keng tarqalgan.

**Terrakota** – ital. “terra cotta” soʻzidan olingan boʻlib, “kuydirilgan tuproq” degan maʼnoni beradi. Neolit davridan maʼlum boʻlib, u sirlanmagan sopol buyumlardir. Qizil va malla rangda boʻladi. Undan turli buyumlar plitkalar, meʼmorchilik detallari, vaza va haykallar yasashadi.

**Tigel** – metall eritiladigan maxsus sopol qozon.

**Tosh bolgʻalar** (otboyniklar) –ogʻirligi 0,5 kgdan kam boʻlmagan qayroqtoshdan yasalgan qurol.

**Xonaqo**- fors tilidan olingan boʻlib, “xane”-“uy”, “ga”-“oʻrin” degan maʼnolarni beradi. Xonako musulmon dunyosiga xos bino hisoblanadi. U machit, madrasalar yonida gumbazsimon tarzda qurilgan. Xonako tashqaridan kelgan mehmonlar yashashiga moʻljallagan. U yerda koʻpincha soʻfilar va darveshlar isteʼqomat qilishgan.

**Sharafa** – binoning devori, ustuni yuqori qismida, shiftiga ganchdan quyib yoki oʻyib ishlangan naqshlar

**Shurf** – nemischa soʻz boʻlib, oʻzbek tilida “qaziyman” degan maʼnoni bildiradi. Shurf solish deganda yodgorliklardagi dastlabki qazish ishlari tushunilib, madaniy qatlamni aniqlash va yodgorliklar haqida dastlabki maʼlumotlarni olishdir.

**Qir** – ohaq, qamish kuli va qipigʻidan tayyorlangan maxsus suv oʻtkazmaydigan qorishma.

**Qoʻl choʻqmori** – ilk paleolit davri mehnat quroli boʻlib, yassi tuxumsimon, bodamsimon, nayzasimon qilib qilib ishlanib, uchi uchli qarama—qarshi tomoni esa yoʻgʻonroq tuxumsimon boʻlgan.



**“Ekofakt”**— insonlarni qurshab turgan tabiiy muhit omillari hisoblanadi. Inson yashash uchun kurashib, tabiiy muhitga moslashadi va o‘z hayot tarzi uchun zarur narsalarni mavjud tabiatdan undiradi va o‘ziga xos madaniy izlarni qoldiradi.

**O‘roq randa** – chaqmoqtosh plastinkasidan yasalgan qurol, tig‘i keng yoysimon qilib ishlangan. Undan daraxt po‘stini shilish va randalash quroli sifatida foydalanishgan.

**Hisor** – shaharning devor bilan o‘ralgan qismi (arkdan tashqari) temuriylar davrida shu nom bilan atalgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abdullaev O'. I. O'rta Osiyoda qadimgi boshqaruv va ilk davlatchilik tarixshunosligi. – Toshkent: Akademiya, 2009.
2. Askarov A., Shirinov T. Rannaya gorodskaya kultura epoxi bronzy yuga Sredney Azii. – Samarkand: Inst. Arxeologii AN RUZ. 1993.
3. Asqarov A. Eng qadimgi shahar. – Tashkent: Ma'naviyat, 2001.
4. Asqarov A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2015.
5. Boqiev A., Shaydullaev A., Yo'ldosheva Z. Oks sivilizatsiyasi. –Tashkent: Yangi nashr, 2015.
6. Istoriya materialnoy kultury Uzbekistana. – Tashkent, 1996.
7. Buxarskiy oazis i yego sosedi v drevnosti i srednevekove. Trudy Gosudarstvennogo Ermitaja. T. LXXV. –SPb: Izd-vo Gos. Ermitaja, 2015.
8. Vaynberg B.I. Etnografiya Turana v drevnosti. VII vek do n.e. – VIII vek n.e. – Moskva: Vostochnaya literatura, 1999.
9. Gorodskaya sreda i kultura Baktrii – Toxaristana i Sogda IV v. do n.e. – VIII v. n.e. – Tashkent: Fan, 1986.
10. Dalvarzintepa shahristoni. (Qadimshunoslik tadqiqotlari yakunlari). 11.–Toshkent. 2001.
12. Drevneyshie gosudarstva Kavkaza i Sredney Azii. – Moskva: Nauka, 1985.
13. Kalaly – gyl – 2. Kultovoy sentr v Drevnem Xorezme IV – II veke do n.e. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2004.
14. K istoricheskoy topografii drevnego i srednevekovogo Samarkanda. – Tashkent: Fan, 1981.
15. Koshelenko G.A., Munchaev R.M., Gaipov V.A. Arxeologiya Afganistana v dni mira i dni voyn. – Moskva: Institut arxeologii RAN, 2014.
16. Koy – Kылган – kala – pamyatnik kultury drevnego Xorezma IV v. do n.e. – IV v. n.e. – Moskva: Nauka, 1967.
17. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. – Toshkent: Akademiya, 2008.

18. Markaziy Osiyoda tarixiy–madaniy viloyatlarning shakllanishi va etnik geografiyasi muammolari. – Toshkent: Universitet, 2020.
19. Masson V.M. Kulturagenez drevney Sentralnoy Azii. – SPb: SPbGU, 2006.
20. Obelchenko O.V. Kultura antichnogo Sogda po arxeologicheskim dannym VII v. do n.e. – VII v. n.e. – Moskva: GRIL, 1992.
21. Pidaev Sh.R. Qadimiy Termiz. – Toshkent: Fan, 2001.
22. Pichikyan I.R. Kultura Baktrii. (Axemenidskiy i ellinisticheskiy period.) – Moskva: Nauka, 1991.
23. Rtveladze E.V. Velikiy Shelkovyy put: ensiklopedicheskiy spravochnik. Drevnost i rannee srednevekovye. – Tashkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 1999.
24. Rtveladze E.V. Aleksandr Makedonskiy v Baktrii i Sogdiane. – Tashkent: Media land, 2002.
25. Rtveladze E.V. Камыртепа – Aleksandriya Oksianskaya: gorod – krepost na beregu Oksa v ellinisticheskoe i postellinisticheskoe vremya (kones IV v. do n.e. – I v. do n.e.) – Tashkent: Izd–vo jurnala “San’at”, 2017.
26. Sagdullaev A.S. O‘rta Osiyoning qadimgi tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004.
27. Sagdullaev A. S. Shaydullaev A. Sh. Mustakillik davrida Surxon voxasi bronza va ilk temir davri yodgorliklarini urganilishining ayrim jixatlari. – Tashkent: 2014.
28. Sverchkov L.M. Тохары. Drevnie indoevropeysy v Sentralnoy Azii. – Tashkent: SMI – ASIA, 2012.
29. Sobirov Q. Xorazmning qishloq va shaharlarining mudofaa inshootlari. – Toshkent: Fan, 2009.
30. Suleymanov R.X. Drevniy Naxshab. Problemy sivilizatsii Uzbekistana VII v. do n.e. – VIII v. n.e. – Tashkent: Fan, 2000.
31. Tolstov S.P. Po drevnyim deltam Oksa i Yaksarta. – Moskva: Nauka, 1962.
32. Toprak-Kala-Dvoves. TXAEE. XIV. – Moskva: Nauka, 1984.
33. Shirinov T.Sh., Isamiddinov M.X. Arxeologiya drevnego Samarkanda. – Tashkent. 2007.

34. Xodjaniyazov G'. Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2007.
35. Xolmatov N.U. Mezolit i neolit nijnego Zarafshana. – Tashkent. 2007.
36. Egamberdieva N. Arxeologiya. –Tashkent: Fan va texnologiya, 2011.
37. Egamberdieva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil.avv. VIII-mil. IV asrlar).– Toshkent. Innovatsiya-ziyo. 2020.
38. Kдымйазов M. – Sh., Yagodin V.N., Mambetullaev M.M., Sagdullaev A.S., Kдымйазов O. – Sh. Istoriya sivilizatsii Xorezma. – Nukus: Qaraqalpaqstan, 2017.



## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-mavzu. Arxeologiya faning maqsad va vazifalari.....	6
2-mavzu. Paleolit davri va uning yodgorliklari.....	15
3-mavzu. Mezolit davri va uning o'rganilishi.....	40
4-mavzu. Neolit davri va uning yodgorliklari.....	51
5-mavzu. Eneolit davri va uning yodgorliklari.....	65
6-mavzu. Bronza davri va uning o'rganilishi.....	70
7-mavzu. So'nggi bronza va ilk temir davri yodgorliklari .....	86
8-mavzu. Qadimgi davr xususiyatlari .....	106
9-mavzu. Qadimgi davr yodgorliklari.....	122
10-mavzu. O'rta asrlar davri madaniyati.....	141
Testlar.....	171
Qisqacha izohli lug'at.....	179
Adabiyotlar ro'yhati.....	183

